

O'TKIR TOLIPOV, DILNOZ RO'ZIYEVA

PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR
VA PEDAGOGIK
MAHORAT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

O'TKIR TOLIPOV, DILNOZ RO'ZIYEVA

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA
PEDAGOGIK MAHORAT**

*Oliy ta'lif muassasalarining barcha yo'nalishdagi magistratura
mutaxassisliklari uchun*

**TOSHKENT
"INNOVATSİYA-ZİYO"
2019**

UDK: 37 (077)

BBK: 74.00

T – 63

Tolipov, O`tkir.

Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O`quv qo`llanma)/ Dilnoz Ro`Ziyeva / – Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 276 b.

UDK: 37 (077)

BBK: 74.00

T – 63

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN

“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” (barcha magistratura mutaxassisliklari uchun) o`quv qo`llanmasida shu nomdagi fanning umumiy asoslari yoritilgan. Unda pedagogik jarayonni loyihalash, ta’lim hamda tarbiya texnologiyalarining mohiyati, o`ziga xos jihatlari, shaxsga yo`naltirilgan ta’lim turlari, interfaol metodlar va ularni ta’lim-tarbiya jarayonida qo`llash, ta’lim texnologiyalarining magistrlar o`quv faoliyatini faollashtirishdagi o`rn masalalarini xususida so`z yuritilgan. O`quv qo`llanmada pedagog faoliyatida pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy elementi bo`lgan pedagogik mahorat asoslarining yoritilishiga e’tibor qaratilgan.

Ushbu o`quv qo`llanmadan respublika oliv ta’lim muassasalarining barcha yo`nalishdagi magistratura, bakalavriat mutaxassisliklari bo`yicha tahsil olayotgan talabalar, uzuksiz ta’lim tizimi xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va umuman pedagogik texnologiya asoslari bilan qiziquvchi shaxslar foydalaniishlari mumkin.

Taqrizchiar:

N.A. Muslimov

B.X.Xodjayev

Pedagogika fanlari doktori, professor

Pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-14-560-3

Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”- 2019

SO'ZBOSHI

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rinn egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'sa-da, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Bu haqida to'xtalib o'tar ekan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarga e'tiborni qaratadi: "Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkab tomoni shundaki, bugungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan ko'p muammolarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda"¹. Bu esa jamiyatning intellektual, axloqiy, ruhiy jihatdan kuchli, malakali kadrlarga ega bo'lishini taqozo etadi. Binobarin, malakali, har jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda uzlusiz ta'lim tizimining boshqa bosqichlari qatorida oliy ta'lim muassasalarini ham alohida o'rinn tutadi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida turli ixtisosliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitishda ularni zamonaviy axborot-kommunikatsion hamda pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida "Axborot texnologiyalari" va "Pedagogik texnologiya" fanlarining o'qitilayotganligi bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy, so'nggi rusumdagি kommunikatsion texnologiyalarning texnik, pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi ko'nikma, malakalarining mustahkamlanishini ta'minlamoqda.

Ayni vaqtida "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" fani oliy o'quv yurtlarining magistratura bosqichida o'qitilayotgan bo'lib,

¹Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat" - 2008, 133-bet.

magistrler tomonidan o`zlashtirilayotgan kasbiy bilim, ko`nikma, malakalarni yanada rivojlantirish, pedagogika yo`nalishida ilmiytadqiqotlarni olib borish, shuningdek, ularning kuchli raqobat mavjud bo`lgan mehnat bozorida o`z o`rinlarini topa olishlariga yordam beradi.

Fan doirasida magistrler pedagogik texnologiya nazariyasining muhim asoslari bilan tanishadi, kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarini samarali, maqsadli qo'llashni o'rghanadi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, texnologiyalashtirish ko`nikma-malakalarini puxta o`zlashtiradi. Shuningdek, magistrler pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismlaridan bo`lgan pedagogik mahorat va teatr pedagogikasining muhim g'oyalari, ustuvor tamoyillari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ladiki, bu holat ularning kasbiy kamolotga erishishlari uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI

Reja:

1. "Pedagogik texnologiya" fanining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
2. "Pedagogik texnologiya"ning o'quv fani sifatida shakllanishi.
- 3."Pedagogik texnologiya" fanining qonuniyatları, asosiy kategoriyalari.
4. "Pedagogik texnologiya" fanining metodlari.
5. "Pedagogik texnologiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, fan, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob'ekti, fanning predmeti, fanning asosiy kategoriyalari, fanning muhim qonuniyatları, fanning metodlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

"Pedagogik texnologiya" (PT) fanining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti. Ilm-fan, ishlab chiqarish va texnikaning jadal rivojlanishi o'tgan asrning boshlarida jamiyat hayotining barcha sohalarida texnologiyalarning qo'llanilishiga zamin yaratdi. Bozor munosabatlari sharoitida esa nafaqat ishlab chiqarish, balki ijtimoiy sohalarni ham texnologiyalashtirilishi quyidagi to'xtamlarga kelish imkoniyatini yaratdi:

1)jamiyatda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi jarayonida iqtisodiyot va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalar tarmog'inining ulushi orttdi;

2)shaxsning texnologik ma'lumotga egaligi uning turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi kasbiy kompetentligi (bilimdonligi)ning ajralmas tavsifi bo'lib qolmoqda;

3)uzluksiz ta'lim "jamiyatning texnologiyalashuvi va ilmiy bilimlarning keng tarqalishi"ni ifodalovchi hodisa sifatida texnologiyalar ular qo'llanilayotgan sohalar taraqqiyotida yetakchi o'milga aylanib bormoqda.

Har qanday fan kishilik jamiyatni taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Zero, har bir fanning rivoji insoniyat tomonidan jamiyat va tabiat o'rtaсидаги aloqadorlik, shaxslararo munosabatlari, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar mohiyatini anglashga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi va uni qondirishga qaratilgan harakatlarga bog'liq.

"Pedagogik texnologiya" fani pedagogik turkum fanlari o'rtaсида nisbatan yangi fan sanaladi. Garchi "Pedagogik texnologiya" nazariyasi g'oyalarining asoslanganiga qariyb bir asr bo'lgan bo'lsa, o'quv fani sifatida

respublika oliy ta'lrim muassasalarida o'qitilayotganiga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. "Pedagogik texnologiya" fani amaliy-pedagogik fan sifatida o'tgan asrning 90-yillarida shakllandi. Ayni vaqtda esa ushbu "Pedagogik texnologiya" fan sifatida oliy o'quv yurtlarida pedagogik turkum fanlarning biri va "Pedagogika" fanining mantiqiy davomi tarzida o'qilib kelinmoqda. U amaliy-pedagogik fan sifatida to'la ravishda "Pedagogika" poydevoriga tayanadi va pedagogik metodologiyada o'z o'mini aniq belgilaydi². Bugungi kunda fan asoslari o'zida eng ilg'or pedagogik qarashlarning dinamik rivojini aks ettiradi.

O'tgan vaqt ichida ta'limgarayoniga texnologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari o'rganildi, ta'limgarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish natijalari tahlil qilinib, muayyan xulosalarga kelindi. Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasining uzlucksiz ta'limgarayoniga ham ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga e'tibor qaratilib, bu borada sezilarli yutuqlarga ham erishildi.

Pedagogika, xususiy fanlar metodikasi, ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini negizida va ilm-fan, texnika, texnologiyaning keskin rivojlanishi oqibatida shakllangan "Pedagogik texnologiya" fani asoslarini pedagogik, ijtimoiy, metodik qarashlar tashkil qiladi.

"Pedagogik texnologiya" fani "Pedagogik texnologiya" nazariyasining umumiy asoslari, ta'lim (tarbiya) texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'quv va tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, loyihalashtirish shartlari, pedagogik jarayonni yuksak mahorat bilan tashkil etish, boshqarish yo'llari, innovatsion yondashuvning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan pedagogik mahorat tamoyillarini o'rganadi.

Zamonaviy pedagogik turkum fanlarining asosiy maqsadi komil shaxsnı shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayoni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, magistrning mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat. "Pedagogik texnologiya" fanining maqsadini ham ana shu g'oyalarni asosida belgilash mumkin.

Fanning asosiy maqsadi magistrlarni pedagogik texnologiya nazariyasining umumiy mazmuni, ijtimoiy-ta'limiy ahamiyati, ta'lim va tarbiya jarayonining sifati, samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatiga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularning psixologik-pedagogik va metodik bilim, ko'nikma-malakalarni yaxlit, bir butun qilib birlashtirgan

² "Педагогика" / Учебник для ВУЗов. Под ред. ПИ Подкасистого. Москва: "Педагогическое общество России"- 2002. С. 18.

holda o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini texnologik loyihalashtirish, loyihani amalga oshirishda texnologik savodxonlik va pedagogik mahoratga ega bo'lislari uchun sharoit yaratishdan iborat. Pedagogik texnologiyalar asoslarini o'rganish orqali magistrlar kasbiy faoliyatni uyushtirish, ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etishda kam kuch va vaqt sarflagan holda yuqori natijalarga erishish yo'llaridan xabardor bo'ladi.

Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda "Pedagogik texnologiya" fanini ta'lif magistrlar tomonidan "Pedagogik texnologiya" nazariyasi asoslarini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishga yordam beradi. Shunga ko'ra "Pedagogik texnologiya" o'quv fani bir qancha vazifalarning hal etilishi uchun imkoniyat yaratadi va bo'lajak mutaxassis sifatida magistrlarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish vazifasini bajaradi:

- 1.Pedagogik jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish.
- 2.Pedagogik jarayonda hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash.
- 3.Pedagogik jarayon mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning mazmunini ishlab chiqish.
- 4.Pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, metod, usul hamda ta'lif vositalarini tanlash.
- 5.Ta'lif jarayonida magistrning erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma, malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'mini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash.
6. Magistrlar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish, baholashni tashkil etish.
- 7.Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini jamaoda sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish.
- 8.Magistrlarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish.
- 9.Magistrlarning pedagogik hamkorlikni qaror toptirish texnologiyasiga oid bilimlarni egallashlarini ta'minlash.
- 10.Ularda pedagogik odob va madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni shakllantirish.
- 11.Magistrlar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt), texnika va pedagogik ta'sir ko'rsatish ko'nikma, malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash.
- 12.Pedagogik madaniyatni shakllantirish.

Bu vazifalarni hal etish quyidagi shartlarga amal qilinishga bog'liq:

1.Mavjud shart- sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish.

2.Magistr-talabalarning yosh, fiziologik, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

3.Ta'lim (tarbiya) jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish.

4.Magistr-talabalar faoliyatini izchil nazorat qilish va ob'ektiv baholash.

5.Xususiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim vositalari, mimika, pantomimikalardan maqsadga muvofiq, samarali foydalanish.

6.Pedagogik jarayonda pedagog va magistr o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish.

Har qanday ilmiy hamda o'quv fanlari kabi "Pedagogik texnologiya" ham pedagogik turkum fanlarning biri sifatida o'zining tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega.

"**Pedagogik texnologiya**" fanining ob'ektini "**Pedagogik texnologiya**" nazariyasining shakllanish tarixi, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga bo'lgan texnologik yondashish ehtiyoji, uni qondirishning muhim shartlari, ta'lim hamda tarbiya texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, loyiha asosida kafolatlangan ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishish yo'llari bilan tanishtirish asosida magistrlarda kasbiy faoliyatni texnologik yondashuv va yuksak pedagogik mahorat asosida tashkil etish ko'nikma-malakalarni shakllantirish jarayoni tashkil qiladi.

"**Pedagogik texnologiya**" fanining predmeti jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishi bilan bog'liq holda bosqichma-bosqich rivojlanib borgan "**Pedagogik texnologiya**" nazariyasining metodologik asoslari, ustuvor tamoyillari, asosiy qonuniyatlar, muhim kategoriyalari, tarkibiy qismlari, o'ziga xos belgilari, samarali shakllari, metodlari, vositalari, ta'lim (tarbiya) jarayonini texnologik yondashuv va pedagogik mahorat asosida tashkil etish mexanizmlari sanaladi.

Oliy o'quv yurtlarida "**Pedagogik texnologiya**"ning o'quv fani sifatida o'qitilishi magistrlar tomonidan muhim nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirilishi uchun zarur bo'lgan sharoitni hosil qiladi. Magistrlar yaratiladigan zarur sharoitdan unumli, samarali foydalangan holda:

- pedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'mi va rolining to'g'ri baholanishiga erishadi;

- kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiya nazariyasining asoslari va tashkiliy elementlaridan bevosita foydalansh imkoniga ega bo'ladi;

-ta'lim (tarbiya) texnologiyalarining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini anglaydi;

-pedagogik jarayonni tashkil etishga texnologik yondashuv mazmunidan yetarlicha xabardor bo'ladi;

-pedagogik texnologiyaning pedagog kasbiy mahoratini oshirishdagi o'mi va ahamiyatini tushunadi;

-o'zida pedagogik texnologiyaning ustuvor tamoyillari yordamida o'quv-tarbiya jarayonini yuksak mahorat bilan tashkil etish orqali yuqori sifat va samaradorlikka erishish ko'nikma-malakalarini hosil qiladi.

O'quv fani asoslari bilan tanishish asosida magistrlar "pedagogik texnologiya", "texnologik yondashuv", "ta'lim texnologiyasi", "tarbiya texnologiyasi", "ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish", "tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish", "ta'lim jarayonini loyihalash", "tarbiya jarayonini loyihalash", "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "texnologik pasport", "texnologik xarita" kabi o'nlab tushunchalarning mazmunidan xabardor bo'lislari zarur. Ta'lim jarayonida magistrlar tomonidan asosiy pedagogik texnologiyalarning tavsifi, pedagogik jarayonni loyihalash asoslari, umumiy va maxsus belgilari, ustuvor tamoyillari va pedagogik texnologiyalar samaradorligini belgilovchi mezonlarga oid nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirish talab qilinadi.

Magistrlar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini o'zlashtirishga ham jiddiy e'tibor qaratishlari kerak. Ularning kasbiy tayyorgarlik va o'zlashtirish darajalarini baholashda quyidagi holatlar ham inobatga olinadi:

- ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda maqbul (mos) pedagogik texnologiyani tanlay olish uchun pedagogik tizimning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilish;

- pedagogik jarayonni tashxislash, loyihalash va rejalashtirishni amalga oshirish;

- pedagogik jarayonning maqsadli, mazmunli, metod va jarayonli modelini yaratish;

- magistrlarni aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va b. jihatdan rivojlantiruvchi pedagogik faoliyatni tashkil qilish;

- zaruriy texnologik va axborot xaritalarni tuzish.

"Pedagogik texnologiya"ning o'quv fani sifatida shakllanishi. Har bir nazariya o'zining metodologik asoslariiga ega bo'ladi. Pedagogik texnologiya nazariyasining ilk g'oyalari ilgari surilgan davrlardayoq ushbu nazariyaning asoslari ham yaratila boshlangan. Nazariyaning umumiy asoslarini uning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tamoyillari, ob'ektiv

(tashqi) va sub'ektiv (ichki) omillari, ob'ekti, asosiy tushunchalari, mezonlari va b. tashkil etadi.

Texnologiya (yun. “techne” – mahorat, san’at; “logos” – tushuncha, ta’limot) – ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o’zgartirishda qo’llaniladigan usullar (metodlar) majmui.

Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo’lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyatga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o’quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi³. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani “fan va amaliyot oralig’ida muayyan tamoyillarni olg’a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo’llash kabi masalalarni hal etishga yo’naltirilgan mustaqil fan”⁴ bo’lishi lozimligini qayd etadi va h.k.

So’nggi o’n yilliklar davomida nutqimizda “pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “o’qitish texnologiyasi” kabi tushunchalar keng qo’llanilmoqda. Aksariyat pedagoglar “ta’lim texnologiyasi” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari mazmunan bir ma’noni anglatishini aytadi. Bunday yondashuv u qadar to’g’ri emas. Zero, yuqorida qayd etib o’tilganidek, ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish g’oyasi dastlab G’arbiy Yevropa va AQSHda shakllangan. Ularda “Pedagogika” fani mavjud emas, shu bois “pedagogik faoliyat”, “pedagogik texnologiya” tushunchasi ham iste’molda yo’q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni “ta’lim jarayoni” sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma’lumotini oshirish, ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui “Metodika” deb yuritiladi. Metodika fanlarini o’qitishda asosiy e’tibor ta’lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta’minlashga qaratiladi.

O’zbekiston Respublikasi ta’lim amaliyotida o’qitilib kelinayotgan “Pedagogika” fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta’minlashga yo’naltirilgan ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iborat. Ya’ni, shaxs kamoloti ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining natijasi sifatida namoyon bo’ladi.

³ Беспалько В.П “Слагаемые педагогической технологии” Москва: “Педагогика”-1989 – С. 6

⁴ Тальзина Н.Ф “Управление процессом усвоения знаний” Москва: “Изд-во МГУ” 1984 – С. 13

Xo'sh, "metod", "ta'lim metodikasi", "pedagogik texnologiya" tushunchalari bir xil ma'noni anglatadimi? Quyida ana shu xususida so'z yuritiladi.

Metod pedagog va magistrlarning hamkorligida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish usuli sanaladi. Biroq, ushbu tushuncha tadqiqotchilar tomonidan turlicha sharhanadi. Jumladan:

- pedagog va o'quvchilarning o'zaro bog'langan va ta'lim maqsadini hal etishga yo'naltirilgan faoliyatini tartibga soluvchi usul (Yu.K.Babanskiy);

- o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usuli (T.A.Ilina);

- didaktik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning faoliyat birligi borasidagi umumiyy nazariy qarash (P.I.Pidkasistiy);

- o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, shuningdek, ta'lim darajasini oshirishga yo'naltirilgan usul (S.K.Islamgulova);

- ta'lim vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan hamda pedagog va o'quvchilarning birqalikdagi faoliyati usuli (N.V.Savin);

- pedagog va o'quvchilarning kasbiy o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan kasbiy harakat usuli (V.A.Slastyonin);

"Ta'lim metodikasi" tushunchasi ham turlicha ta'riflanadi. Masalan:

- muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi (M.Uzmanboyeva);

- o'qitish jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishning yaxlit tizimi, qo'llash samaradorligi pedagogning mahorati va ijodkorligi darajasiga bog'liq bo'lgan metodik ko'rsatmalar yig'indisi (V.A.Slastyonin);

- biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi ("O'zbek tilining izohli lug'ati");

- o'qitish usullari haqidagi ta'limot ("O'zbek tilining izohli lug'ati");

- biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi (O.Hasanboyeva);

- qandaydir ishni maqsadga muvofiq amalga oshirish usullarining yig'indisi (Методика обучения // <http://ru.wikipedia.org/wiki>).

Mualliflarning "pedagogik texnologiya" tushunchasini yoritishga yondashuvlari ham turlicha. Masalan:

"Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyati:

- ta'lim jarayoniga topshiriqli yondashuv (T.N.Ballo);

- bosqichli o'qitish (L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov);

* Исламгулова С.К. "Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт" – Алматы: "Творческая педагогика" – 2003 – С. 23

- mazmunli umumlashma (G.K.Selevko);
 - barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos, samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda ta'lif tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog'i (P.Mitchel);
 - texnologik loyihaga asoslangan ta'lif jarayonini tashkil etish usuli (S.K.Islamgulova);
 - ta'lif shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va b.ni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO);
 - pedagogik maqsadlarga erishish yo'lida foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisi va ularning amal qilish tartibi (M.V.Klarin);
 - ta'lif jarayoniga nisbatan o'ziga xos yondashuv;
 - ijtimoiy-muhandislik tafakkurining pedagogik ifodasi, texnokratik ongning pedagogikaga ko'chirilgan tasviri, ta'lif jarayonining muayyan standarti (B.L.Farberman);
 - didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish, ta'lif jarayonini avvaldan loyihalashtirish (U.N.Nishonaliyev);
 - pedagogning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta'sir ko'rsatishi va mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov);
 - muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli (A.Kushnir);
 - kutilayotgan natijaga erishish jarayonining tavsifi (I.P.Volkov).
- Rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lif jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsnинг shakllanishida ta'lif hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi, axloqli insongina ta'lif (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalardan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda "pedagogik texnologiya" tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek asosiy e'tiborni faqat ta'lif jarayonini samarali tashkil

etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ta'lim metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir.

Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli.

Ta'lim metodikasi – muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiylar mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Lug'aviy jihatdan "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi (ing. "An educational technology") – ta'lim jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etishga doir ma'lumotlar beruvchi fan, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Shuni aytib o'tish joizki, ayni vaqtida ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona to'xtamga kelinmagan.

Ta'lim texnologiyasi magistrler faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarining shaxsiy va pedagog bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.


Pedagogik texnologiyaning asosiy muammosi – talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlash.

XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergen inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy), amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Xizmat ko'rsatish sohalarining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim

jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'lqaonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobjiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir (1-rasm):



1-rasm. Ijtimoiy taraqqiyot va uzluksiz ta'lim mazmuni

Bugungi kunda respublika ijtimoiy hayotiga ham tezkor axborot oqimi bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishslash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda magistriga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobjiy hal etishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSHda ta'lim tizimini isloq qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsnинг ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta ga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Bu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik texnika" (yoki "ta'lim texnikasi") tushunchasi "o'quv

mashg' ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko' maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o' quv jarayoniga o' quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'limga samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asning 50-yillarida ta'limga jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'limga texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor magistrler auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'limga olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rghanishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limga dasturlash asosida ta'limga jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini oshib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'limga magistrlarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi (1-jadval).

1-jadval

"Ta'limga texnologiyasi" nazariyasining shakllanish bosqichi

Bosqichlar	Yillar	Ta'limga texnologiyasi – TT
I bosqich	XX asr 30-yillar	O'quv jarayonini aniq, samarali tashkil etilishini ta'minlovchi usul va vositalar yig'indisi (pedagogik texnika – Ptex) $TT = Ptex$
II bosqich	XX asr 50-yillar	Ta'limga jarayonida texnik vositalarni (TV) qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talaba faoliyatini individuallashtirish $TT = Ptex + TV$
III bosqich	XX asr 60-yillar	Ta'limga maqsadlarini aniqlash, ta'limga jarayonini oyihalash, talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirishi ehtimolini oldindan tashxislash, ta'limga jarayoni samaradorligini aniqlash, ta'limga maqsadining natijalanganligini o'rghanish, faoliyat natijalarini tahlil etish $TT = Ptex + TV + DT$ (Dasturiy ta'limga)

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasining shakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig'ida kechdi. Qator mamlakatlar – AQSH, Angliya, Yaponiya, Italiyada ta'lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar (m: Ta'lim kommunikatsiyasi assotsiatsiyasi – 1971-yil, Pedagogik ta'lim Milliy kengashi – 1967-yil) tuzildi, maxsus журнallar (“Ta'lim texnologiyasi” (“Educational Technology”) – 1961-yil, AQSH; 1970-yil, Angliya; 1965-yil, Yaponiya; 1971-yil, Italiya; “Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim” – 1964-yil, Angliya; “Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqtolar” – 1965-yil, Yaponiya) nashr etildi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarini faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakatlar bir qator yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borildi. M: AXELS, IREX, JICA, KOICA kabi tashkilotlarning bu boradagi faoliyati o'zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Sonniga besh yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarning ko'magida respublikaning bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlari qoshida Innovatsion markazlar (Pedagogik texnologiya markazlari) tashkil etildi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash muayyan afzalliklarga ega. Ya'ni texnologik yondashuv orqali ta'limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarni ochishda quyidagi imkoniyatlardan yaratiladi:

- pedagogik jarayonni samarali boshqarish;
- mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo'llash;
- ta'limiy va ijtimoiy-tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal etish;
- shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitni ta'minlash;
- shaxsga nisbatan bo'ladijan salbiy ta'sirlarni kamaytirish;
- resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;
- kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq samarador texnologiyalarni yaratish;
- ijtimoiy-pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish;
- natijalarni yuqori aniqlikda qayd etish.

“Pedagogik texnologiya” fanining qonuniyatları va asosiy kategoriyalari. Fanning umumiyligi asoslarining negizi bo'lgan qonuniyatlardan xabardor bo'lish uchun “qonuniyat” tushunchasining mohiyatini yetarli darajada anglab olish talab qilinadi. Lug'aviy nuqtai nazardan “qonuniyat” tushunchasi “ob'ektiv hodisalar o'rtaсидаги

bog'lanishlar va ularning qonunlari”⁶ ma'nosini anglatadi. Shunga ko'ra pedagogikada har qanday fanning qonuniyatlarini yoritishda tizimli-tarkibiy yondashuv uning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, tizimli-tarkibiy yondashuv pedagogik-tehnologik tizimda kechadigan ketma-ket doimiy takrorlanib turuvchi, muhim, zarur, barqaror aloqalarini yoritish imkonini beradi⁷. “Pedagogik texnologiya” fani tomonidan o'rganiladigan yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatlarining namoyon bo'lishi uchun quyidagi omillar o'rtaсидаги aloqalarni tahlil qilish zarur:

- 1) pedagogik jarayon bilan keng ko'lamli ijtimoiy jarayonlar va shart-sharoitlar o'rtaсидаги;
- 2) pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari o'rtaсидаги (ichki aloqadorlik);
- 3) o'qitish, ta'lim, tarbiya va shaxs rivoji o'rtaсидаги;
- 4) tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari o'rtaсидаги;
- 5) pedagogik rahbarlik va ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati o'rtaсидаги;
- 6) barcha tarbiya sub'ektlariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayoni o'rtaсидаги;
- 7) pedagogik topshiriq, ta'lim (tarbiya) mazmuni, metodlari, vositalari va pedagogik jarayonning tashkiliy shakllari o'rtaсидаги.

Yuqorida ko'rsatilgan omillar o'rtaсидаги aloqalarni tahlil qilish natijasida pedagogik texnologiya asoslарини o'qitishning qonuniyatları aniqlanadi. Ular quyidagilardir:

Birinchi qonuniyat. Texnologik maznunga ega pedagogik jarayon yaxlit holda jamiyat hayotining ijtimoiy, qtisodiy va madaniy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan bevosita ishlay oladiganmutaxassisni tayyorlash borasidagi ehtiyoji bilan shartlanadi.

Ikkinchi qonuniyat. Pedagogik-tehnologik jarayon samaradorligi bevosita moddiy, ruhiy, ijtimoiy-axloqiy, gigienik va estetik shart-sharoitlarga, shuningdek, magistrning ta'limiy imkoniyatlariga bevosita bog'liq.

Uchinchi qonuniyat. Pedagogik jarayonda ta'lim, tarbiya va shaxs rivoji, shuningdek, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, pedagogik rahbarlik va

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati". Shukrona – II / 5-jildli Beshinchchi jild Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" – 2008, 332-bet

⁷ Закономерности педагогического процесса // <http://ru.fpptraining.wikia.com/wiki>

tarbiyalanuvchilarning mustaqilligi bir-biri bilan aloqador va o'zaro bog'liq bo'ladi.

To'rtinchi qonuniyat. Amaliy jihatdan pedagogik jarayon samaradorligini uning ishtirokchilari tomonidan ta'lim va tarbiya sohasida tashkil qilinadigan faoliyatlar birligi hal qiladi.

Beshinchi qonuniyat. Pedagogik texnologiya vazifalarining ijobiy yechimi magistrlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, jamoaning rivoji darajasi bilan belgilanadi.

Oltinchi qonuniyat. Ta'lim (tarbiya) jarayonining mazmuni vazifalarni aniq belgilash asosida shakllantiriladi.

Yettinchi qonuniyat. Ta'lim (tarbiya) metod va vositalari ta'limiy (tarbiyaviy) topshiriqlar va mavjud vaziyatlar mazmunidan kelib chiqib tanlanadi.

Sakkizinchi qonuniyat. Pedagogik jarayonni tashkil qilish shakllari pedagogik faoliyat vazifalari, mazmuni, tanlangan metod va vositalari asosida belgilanadi.

To'qqizinchi qonuniyat. Ma'lum sharoitda ajratilgan vaqt bo'yicha pedagogik jarayonga doir barcha ichki va tashqi o'zaro aloqadorliklarning bir butun, yaxlit holda inobatga olinishi eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

O'ninchchi qonuniyat. Ta'lim jarayonida pedagog va magistr, tarbiya jarayonida esa tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi o'rtaida ob'ektiv qonunlarga asoslangan qaytar aloqa mavjud bo'ladi.

O'n birinchi qonuniyat. Pedagogik jarayonda kutilgan natijaga o'zaro aloqadorlik asosida belgilangan vazifalar, ta'lim (tarbiya) mazmuni, shakli, metod va vositalarining maqsadga to'la mos kelgandagina erishiladi.

Boshqa pedagogik turkum fanlar kabi "Pedagogik texnologiya" o'quv fani ham o'zining asosiy kategoriyalariiga ega. "Pedagogik texnologiya" nazariyasining umumiylashtirilgan asoslariga tayangan holda o'quv fani sifatida "Pedagogik texnologiya"ning ham asosiy kategoriyalarini belgilash mumkin. Ular quyidagilardir:

Texnologik yondashuv – faoliyat (shu jumladan, pedagogik faoliyat)ni tashkil etishga texnologik (ijtimoiy-muhandislik, loyihamda yaratish) nuqtai nazardan yondashish.

Texnologik madaniyat – shaxsnинг zamонавиј шароитда мавjud texnologiyalar (jumladan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va ijtimoiy sohalarda qo'llanilayotgan texnologiyalar)dan imkon qadar xabardor bo'lishi, ularning ishlash tamoyillarini puxta o'zlashtirishi

va zarur vaziyatlarda ularni samarali qo'llay olish asosida atrof-muhitga mas'uliyatli yondashish darajasi.

Pedagogik jarayon – ajdodlarning jamiyatda hayot kechirish va mehnat qilishi uchun zarur bo'ladigan ijtimoiy tajribalarini avlodlarga yetkazib berish maqsadida pedagog va magistr o'rtaida tashkil etiladigan o'zaro harakat (Педагогический процесс // <http://ru.wikipedia.org/wiki>)

Pedagogik jarayonni loyihalash – aniq reja, asosiy va xususiy maqsadlar, samarali shakl, metod va vositalarni tanlash asosida magistrlar tomonidan o'zlashtiriladigan zaruriy bilim, ko'nikma-malakalar, maqsadning natijalanishini nazarda tutgan holda muayyan faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat.

Modul – ma'lum pedagogik texnologiya asosini tashkil etuvchi va mantiqan tugallangan tarkibiy bo'lak, qism.

Ta'lim maqsadi – muayyan o'quv materiali bo'yicha pedagog tomonidan magistrga bilimlarni uzatish, ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya, muddao.

Texnologik pasport (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

Loyihalash – aniq reja, asosiy va xususiy maqsadlar, ular asosida shaxs tomonidan o'zlashtiriladigan zaruriy bilim, ko'nikma-malakalar, maqsadning natijalanishini nazarda tutgan holda muayyan faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat.

Loyiha – aniq reja, maqsad, uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik (ta'limiy yoki tarbiyaviy) faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Tarbiya maqsadi – muayyan pedagog tomonidan magistrga hayotiy tajribani uzatish, unda ma'lum ijtimoiy-axloqiy, jismoniy, estetik va b. sifatlarni hosil qilish yo'lida belgilangan yetakchi g'oya, muddao.

Texnologik tizim – pedagogik jarayonning loyiha, sxema ko'rinishidagi tarkibiy qismlari majmui, yig'indisi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – magistrning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, pedagog va talaba o'rtaсидаги о'заро муносабат hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanadi va magistrning qadriyatli yo'nalishlari inobatga olinadi (Личностно-ориентированное обучение// [19](http://pedsovet.org/component?option.com_mttree/task.viewlink/link_id,4744/Itemid,118/</u>).</p></div><div data-bbox=)

Texnologik xarita (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.

Mahorat – muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik ijod – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati.

Pedagogik tashxis – o'quv jarayonini optimallashtirish masalasini hal qilish, magistrlarni tabaqalashtirish, shuningdek, ta'lim dasturlari va pedagogik ta'sir metodlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan nazorat va baholash usullarining mohiyati (Педагогическая диагностика // http://pedagogical_dictionary.academic.ru/2379/).

"Pedagogik texnologiya" fanining metodlari. Har qanday fan tomonidan amalga oshirilishi zarur deb belgilangan vazifalarning yechimini topishda ta'lim (yoki tarbiya) jarayonida qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyatga ega. Zero. oqilona tanlangan metod va vositalar ta'lim (tarbiya) maqsadining samarali natijalanishini ham ta'minlaydi Shu sababli har bir fan, shu jumladan, o'quv fani doirasida faol qo'llaniladigan metodlar aniq belgilab olinadi. Ayni o'rinda pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda qo'llaniladigan ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda ham umumiyligi ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari⁸ faol qo'llaniladi (2-rasm).

Quyida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarining mohiyati ochib beriladi.

I.Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog'ida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlarining imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga xizmat qiladi.

⁸ "Pedagogika 1000 ta savolga 1000 ta javob". Met. qo'll. U.I.Inovatov, N.A.Muslimov, M.Uzmanboyeva, D.Inog'omova. Toshkent: "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti" - 2012, 64-68-bellar

Quyidagi shartlarga amal qilish suhbat metodining samaradorligini ta'minlaydi:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash, savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan munosabatning samimiyligini bo'lishiga erishish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.



2-rasm. Pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda qo'llaniladigan ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlar

II.Anketa metodi (fr. "tekshirish") – tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.

Quyidagi shartlarga amal qilish anketa metodidan samarali foydalanish imkonini beradi:

- 1) savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) savollar yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) savollar talabalarning dunyoqarashi, yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) savollarga to'la javob qaytarilishi uchun yetarli vaqt ajratilishi lozim;
- 5)anketa magistr-talabalarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;
- 6) javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

III. Intervyu metodi – respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish orqали uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o'r ganilishini ta'minlovchi metod sanaladi.

Mazkur metodni ilmiy-pedagogik faoliyatda samarali qo'llash uchun bir qator shartlarga amal qilish talab etiladi. Ular quyidagilardir:

1. Intervyu uyushtirish uchun o'r ganiladigan mavzu, ob'ektini aniq tanlash.
2. Intervyu uchun mavzu yuzasidan savollarni oldindan puxta tayyorlash.
3. Savollarning qisqa, aniq, lo'nda va tushunarli bo'lishini ta'minlash.
4. Zarur o'rnlarda mavzu, ob'ekt mohiyatining to'liq yoritilishiga erishish uchun qo'shimcha savollardan foydalanish chorasi ko'rish.
5. Javoblarning aynan savollar yuzasidan bo'lishiga erishish.
6. Intervyuning bevosita aniq belgilangan mavzu asosida bo'lishiga erishish.
7. Intervyu jarayonida vaqtdan unumli foydalanish.

IV. Pedagogik tahlil metodini qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik, pedagogik yo'naliishlarda o'r ganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

V. Pedagogik kuzatish metodi – ta lim muassasalarining o'qu tarbiya ishlari jarayonini o'r ganish asosida tadqiq etilayotgan muammoning mavjud holatini aniqlash maqsadida tashkil etiladi. Kuzatish natijalariga ko'ra tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinadi.

Pedagogik kuzatishning samarasи quyidagi shartlarga bog'liq:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

VI. Modellashtirish metodi (fr. "modele" < "modulus" – o'lchov, me'yor) – muayyan ob'ekt, hodisa, jarayon, tizimning xuddi o'zidek yoki kichraytirib yoki kattalashtirib olingen va ma'lum soha uchun andoza bo'ladigan modeli (nusxasi)ni yaratish usuli. Ta'lim jarayonida modellashtirish metodidan foydalanish natijasi muayyan pedagogik jarayon yoki sub'ekt (pedagog, magistr) faoliyatining umunniy mazmunini yorituvchi modelni yaratishdan iborat bo'ladi. Model sifatida o'ziga xos matn, jadval, formula, sxema, loyiha, tasviriy ifoda va b. namoyon bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etishda modellashtirish metodining qo'llanilishi dars loyihasini yaratish tarzida aks etadi. Modelning mohiyati shartli belgilari, ifodaviy tasvirlar, ma'lum so'z yoki iboralarning o'ziga xos qisqarmasi va sh.k.lar yordamida ochib beriladi.

I.Rasulov⁹ning ko'rsatishicha, modellar qo'llanilishi, tuzilishi va mohiyatiga ko'ra bir necha guruhga ajratiladi. Ular:

1. O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, turli trenajyorlar, ta'limiyl dasturlar).

2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

3. Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi: qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).

4. O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi: kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va b.).

5. Imitatsion modellar (real vogelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar).

Modellar, shuningdek, qanday maqsadga xizmat qilishiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Ular:

⁹ Rasulov I. "Ta'lim oluvchilarda loyihalash madaniyatiga oid nazariy tushunchalarini shakllantirish" // "Uzlucksiz ta'lim" j. Toshkent 2014. № 3 24-26-bettar

I. Moddiy ko'rishga ega modellar (m: globus, maneken, mulyaj va sh.k.).

II. Axborot uzatuvchi modellar; ular ham o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi. Ya'ni:

1. Grafik (obrazli) modellar (rasm, sxema, plakat, fotosurat va b.).

2. Belgili modellar (matnlar, jadvallar, formula, dastur va h.k.).

VII.Bola (talaba)lar ijodini o'rganish metodi – magistrlarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi: uni qo'llashda magistrlarning ijodiy ishlari – kundalik, insho, yozma ish, referat va hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganishda fan olimpiadalari, tanlovlari, maktab ko'rgazmalar, festivallar, musobaqalar va b.ning natijalarini tahlil qilish, samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratilib, shaxsnинг muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlar, amaliy faoliyat ko'nikma, malakalariga egaliklari baholanadi.

VIII.Test metodi (ing. "test" – sinash, tekshirish, o'rganish) – o'rganilayotgan shaxs (respondent)ning aqliy rivojlanish darajasi, qibiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko'nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlarini aniqlash va baholashda qo'llaniladigan qisqa standart tekshirish bo'lib, uning ahamiyati respondentning muayyan soha bo'yicha nazariy bilimlarini, qibiliyati, psixofiziologik, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanganligi, ma'lum faoliyatni tashkil etishga doir ko'nikma, malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qilishida ko'zga tashlanadi.

IX.Ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish metodi – pedagogik hodisa va dalillarni har tomonlama tekshirish, ta'lim muassasasi tomonidan me'yoriy talablarning bajarilishi holatini o'rganish, erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or ilmiy-pedagogik, shuningdek, ta'lim muassasasi to'plangan amaliy-pedagogik tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladi.

O'quv mashg'ulotlarining jadvali; o'quv dasturi; guruh журнallari; magistrlarning shaxsiy varaqalari; buyruqlar; Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va qarorlari; ta'lim muassasasi smetasi va pasporti; tarbiyaviy ishlar rejasi; o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishga oid hisobotlar; ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar va sh.k.) qayd etilgan daftар kabilar ta'lim muassasasi faoliyatini yorituvchi hujjatlar sanaladi.

X.Pedagogik tajriba metodi (lot. “experimentum” – sinov, sinash, tajriba)ning ilmiy-amaliy ahamiyati muammo yechimini topish imkoniyatlarini o’rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyatda o’z in’ikosiga ega bo’la olishi va ularning samaradorligini aniqlash uchun keng imkoniyatlarni yaratishda aks etadi.

Pedagogik tajribaning tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi kabi turlari mavjud.

Pedagogik tajribaning samaradorligi quyidagi shartlarga rioxiga etish asosida ta’milanadi:

- tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- tadqiqot ob’ektlari va usullarining to’g’ri tanlanishi;
- tajriba o’tkazilish vaqt, davomiyligining aniqlanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, natijalarini qayta ishlashning to’g’ri amalga oshirilishi.

XI.Ekspert baholash metodi (lot. “expertus” – tajribali) asosida malakali mutaxassislar tomonidan o’rtacha arifmetik qiymatni topish yo’li bilan shaxs faoliyati, ma’lum jarayon, tizimning sifat ko’rsatkichlarini baholashga xizmat qiladi. Metodning mohiyati muammo yuzasidan ekspert tahlilini sifat va miqdor jihatdan baholashni muhokama qilish yoki individual fikr natijalarini rasman qayta ishlashda namoyon bo’ladi. Ekspert baholash yordamida asosan sifat belgilarini tavsiflovchi murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar tahlil qilinadi, sohani rivojlantirish bashoratlanadi, ta’lim va tarbiya jarayoniga eng ko’p ta’sir ko’rsatadigan omillar aniqlanadi. Mazkur metodni amalda qo’llashning asosiy bosqichlari quyidagilar sanaladi: ekspertizani tashkil qilish; muammo hamda tajriba maqsadini aniqlashtirish, ishchi guruhning majburiyati va huquqlarini belgilash, ekspertizani amalga oshirish uchun ekspertlarni tanlash, ekspertlar o’rtasida so’rov o’tkazish, olingan natijalarini tahlil qilish va saralash. Ekspertlar o’rtasidagi so’rov individual yoki guruhli, bevosita yoki bilvosita, og’zaki yoki yozma shakllarda o’tkaziladi. Shuningdek, ekspert baholashni qo’llashda ekspertlar jamoa bo’lib ham ishchlari mumkin. Bunda ular yig’ilish, babs-munozara va b. metodlardan foydalanadi. Individual ekspert baholash anketa, erkin suhbat, intervyyu tashkil etishga asoslanadi. Metodni qo’llash jarayonida ekspertiza guruhiga jaib qilingan mutaxassislar o’z sohalarining bilimdonlari, keng

dunyoqarash, ijodiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Ular o'rganilayotgan muammo yuzasidan qarorlar qabul qilishda murosali bo'lish bilan birga o'z fikrlariga tayana olishi kerak. Ekspert baholash metodini qo'llashda ekspertlar fikrlarining bir xil bo'lishiga erishishida ekspertlarning pedagogik konsiliumi (kengashi) muhim ahamiyat kasb etadi.

XII.Matematik-statistik tahlil – pedagogik tadqiqot, tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalarini ma'lum bir maqsad asosida tizimli o'rganish, umumlashtirish va amaliy natijalarning haqqoniyligini baholash maqsadida olib boriladigan tahlil bo'lib, uning yordamida tajribadan avval va tajribadan keyin qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash asosida mayjud holat baholanadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda matematik-statistik metodning qo'llanilishidan ko'zlangan maqsad tajriba-sinov ishlari, shuningdek, tadqiqot ishining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat. Unga ko'rta tajriba va nazorat guruhlarida tajriba avvali hamda yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi, yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda Kivirlyag, Styudent-Fisher, Rokich, V.Bespalko va V.Grechixin metodlari kabi matematik-statistik metodlar qo'llanilib kelinmoqda.

"Pedagogik texnologiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Barcha o'quv fanlari singari "Pedagogik texnologiya" fani ham boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda o'rganiladi. Pedagogik fanlar turkumiga kiruvchi barcha o'quv fanlari "Pedagogik texnologiya" fani asoslarining magistrlar tomonidan puxta o'zlashtirilishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, ayrim ijtimoiy fanlar ham magistr-talabalarni "Pedagogik texnologiya" fani asoslaridan yetarli darajada xabardor qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mazkur mualohazalarga tayangan holda va pedagogik amaliyotni kuzatish, tahlil qilish orqali quyidagi fanlar "Pedagogik texnologiya" fanini o'qitish samaradorligini oshiradi, magistr-talabalarning kasbiy bilimlarini boyitib, ularda amaliy ko'nikma, malakalarni hosil qiladi degan xulosaga kelindi:

1.Pedagogika nazariysi. Har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish, unda dunyoqarash, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, shuningdek, ijtimoiy zaruriyat tufayli shaxsning texnologik madaniyatga ega bo'lishiga erishish borasidagi ehtiyoj masalalarini o'rganadi.

2.Pedagogika tarixi. Pedagogik fikrlar hamda “Pedagogik texnologiya” nazariyasining paydo bo’lish, rivojlanish tarixi, muhim bosqichlari, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonida kam kuch, vaqt sarflagan holda ko’proq samaradorlikka erishishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiladi.

3.Xususiy metodika (xususiy fanlarni o’qitish). Turli o’quv fanlari (m: fizika, matematika, biologiya, kimyo, tarix, huquq, jismoniy tarbiya va h.o.)ni o’qitish jarayoniga pedagogik texnologiya tamoyillarini izchil tatbiq etish, o’quv mashg’ulotlarining texnologik yondashuv asosida tashkil qilish masalalarini o’rganadi.

4.Ta’lim menejmenti. Ta’lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish jarayonida zamonaviy, ilg’or texnologiyalardan maqsadli foydalanish masalalarini tadqiq etadi.

5.Qiyosiy pedagogika. Ta’limning jahon, mintaqqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendensiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini o’zaro solishtirish, qiyoslash asosida o’rganish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobjiy va salbiy jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlash muammolarini o’rganadi.

6.Kreativ pedagogika (ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor). Shaxs (magistr)da o qish, ta’lim olishga nisbatan ijodiy, texnologik yondashish, o’z kelajagining yaratuvchisi bo’lishga doir bilim, ko’nikma, malakalar bilan qurollantiradi.

7. Hamkorlik pedagogikasi. Turli fanlar yoki mutaxassislik asoslарини pedagog va magistrлар о’rtasida o’zaro samimiy, bir-birini hurmat qilishga asoslangan munosabatni qaror toptirish asosida samarali o’rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va, vositalarini tadqiq qiladi.

8.Pedagogik innovatika (ing. “innovation” – kiritilgan yangilik, ixtiro). Ta’lim sub’ektlari nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo’lish, rivojlanish qonuniyatlarini, pedagogik an’analari bilan kelajak ta’limining loyihalashtirilishi o’rtasidagi aloqalarni o’rganadi.

9.Falsafa. Shaxs tarbiyasi, uning zamonaviy texnika, texnologiya va axborot muhitidagi o’rni borasidagi falsafiy qarashlarni tadqiq qiladi.

10.Etika (Axloqshunoslik). Globallashuv sharoitida magistr shaxsiga yuksak ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida munosabatda bo’lish, ijobjiy mazmunga ega tarbiyaviy ta’sir choralarini belgilash masalalarini o’rganadi.

11.Sotsiologiya. Muayyan pedagogik, psixologik va texnologik munosabatlarning jamiyat, shaxs hayotiga ta'siri muammolarni tadqiq qiladi.

12.Psixologiya. Globallashuv sharoitida murakkab texnologik jarayonlarning shaxs rivojiga salbiy ta'sirining oldini olish, pedagogik munosabatlarni oqilona, salbiy nizolarsiz yo'lga qo'yishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi.

Shunday qilib, zamonaviy taraqqiyot o'tgan asrning boshlarida jamiyat hayotining barcha sohalarida texnologiyalarning qo'llanilishiga zamin yaratdi. Mazkur holat bilan bog'liq ravishda ta'lim muassasalari, aniqrog'i, oliv o'quv yurtlarida "Pedagogik texnologiya" o'quv fanini o'qitishga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Ta'lim texnologiyasi magistrlar faoliyatini samarali, muvaffaqiyatlari tashkil etishga, ularning pedagog bilan o'zaro hamkorlikda o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. "Pedagogik texnologiya" o'quv fani ham o'zining texnologik yondashuv, texnologik madaniyat, pedagogik jarayon, loyihalash, loyiha, pedagogik jarayonni loyihalash, modul, ta'lim maqsadi, tarbiya maqsadi, texnologik tizim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik tashxis, interfaol metod, texnologik pasport, texnologik xarita hamda pedagogik mahorat elementlari kabi asosiy kategoriyaliga ega. Suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tahlil, pedagogik kuzatish, modellashtirish, bolalar ijodini o'rganish, test (predmetli va psixologik testlar), ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik tahlil kabi ilmiy-pedagogik metodlar pedagogik texnologiya masalalarini o'rganishga yordam beradi. Barcha o'quv fanlari singari "Pedagogik texnologiya" fani ham Pedagogika nazariyasi, Pedagogika tarixi, Xususiy metodika (xususiy fanlarni o'qitish), Ta'lim menejmenti, Kreativ pedagogika, Hamkorlik pedagogikasi, Pedagogik innovatika, Falsafa, Etika (Axloqshunoslik), Sotsiologiya hamda Psixologiya fanlari kabi o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda o'rganiladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1.Беспалько В.П. "Слагаемые педагогической технологии".
Москва:"Педагогика"- 1989.

2.Закономерности педагогического процесса //
<http://ru.fpptraining.wikia.com/wiki>.

3.Исламгулова С.К. "Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт". Алматы:"Говорческая педагогика"- 2003.

4.“Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob”. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. Toshkent:”TDPU”-2012.

5.Педагогика / Учеб для ВУЗов. Под ред. П.И.Подкасистого. Москва:”Педагогическое общество России”- 2002.

6. Талызина Н.Ф. “Управление процессом усвоения знаний”. Москва: “МГУ”- 1984.

7.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylarasi”. Toshkent: “Fan”- 2006.

8.Tolipov O‘., Usmonboyeva M.” Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. Toshkent: “Fan”- 2005.

Nazorat uchun savollar:

1. “Pedagogik texnologiya” fani nimani o’rganadi?
2. “Pedagogik texnologiya” fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
3. “Pedagogik texnologiya” fani magistrlarda qanday bilim, ko’nikma va malakalarini hosil qiladi?
4. “Pedagogik texnologiya” fanining ob’ektini nima tashkil qiladi?
5. “Pedagogik texnologiya” fanining predmeti nimadan iborat?
6. “Texnologiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
7. “Pedagogik texnologiya”, “metodika” va “metod” tushunchalari bir xil ma’noga egami?
8. “Ta’lim texnologiyasi” deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik texnologiya nazariyasining rivojlanishida qanday muhim bosqichlar ko’zga tashlanadi?
10. Pedagogik texnologiya qonuniyatları to’g’risida nimalarni bilasiz?
11. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriylari qaysilar?
12. Pedagogik texnologiya masalalarini hal qilishda qanday ilmiy-pedagogik metodlar qo’llaniladi?
13. “Pedagogik texnologiya” fanini o’rganishda modellashtirish metodi nima maqsadda qo’llaniladi?
14. Ekspert baholash metodining mohiyati nimadan iborat?
15. “Pedagogik texnologiya” fani qanday fanlar bilan o’zarо aloqadorlikda rivojlanadi?

Test topshiriqlari:

- 1.Ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati,

xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar) majmui. Ushbu ta'rif asosida mohiyati ifodalangan tushuncha qaysi?

- a) metodika;
- b) metod;
- c) nazariya;
- d) texnologiya.

2.“Pedagogik texnologiya – amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi”. Mazkur ta'rifning muallifi kim?

- a) M.V.Klarin;
- b) V.P.Bespalko;
- c) B.L.Farberman;
- d) U.Nishonaliyev.

3.O'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan pedagog va magistrlarning birgalikdagi faoliyati usuli. Mazkur ta'rifni ifodalovchi tushuncha qaysi?

- a) ta'lim metodikasi;
- b) ta'lim texnologiyasi;
- c) ta'lim metodi;
- d) ta'lim nazariyasi

4.Ta'lim metodikasi nima?

a) ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar) majmui;

b) muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi;

c) o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan pedagog va magistrlarning birgalikdagi faoliyati usuli;

d) magistrlarning bilish faoliyatini tashkil etish usuli.

5.Pedagogik texnologiyaning asosiy muammosi nimadan iborat?

a) talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlash;

b) kam kuch va vaqt sarflab maqsadga, yuqori natijalarga erishish;

c) pedagog va magistrlar o'rtasida o'zar hamkorlikni qaror toptirish;

d) ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish.

6.“Pedagogik texnologiya” nazariyasi necha bosqichda rivojlandi?

- a) to’rt bosqich;
- b) ikki bosqich;
- c) uch bosqich;
- d) besh bosqich.

7.“Pedagogik texnologiya” nazariyasining birinchi bosqichi uchun qanday xususiyat xarakterli?

- a) ta’lim jarayonida interfaol metodlarning qo’llanilishi;
- b) ta’lim jarayonida magistrler bilish faoliyatini reyting tizimi bo'yicha baholanishi;
- c) ta’lim jarayoniga test sinovlarining tatbiq etilishi;
- d) ta’lim jarayonida “pedagogik texnika” tushunchasining qo’llanilishi.

8.Ta’lim jarayonida texnik vositalarning samarali qo’llanilishini “Pedagogik texnologiya” nazariyasi rivojining qaysi bosqichi ifodalaydi?

- a) to’rt bosqichi;
- b) ikki bosqichi;
- c) uch bosqichi;
- d) besh bosqichi.

9.“Pedagogik texnologiya” nazariyasi rivojining uchinchi bosqichi uchun xarakterli bo’lgan hodisa nima?

- a) ta’lim jarayonini rejalshtirish;
- b) ta’limni dasturlash;
- c) ta’lim mazmunini asoslash;
- d) ta’lim maqsadi va vazifalarini aniqlash.

10.“Ta’lim texnologiyasi” nomli maxsus jurnal qaerda va nechachi yildan chop etila boshlandi?

- a) Italiya, 1971-yil;
- b) Angliya, 1970-yil;
- c) AQSH, 196- yil;
- d) Yaponiya, 1965-yil.

11.Pedagogik texnologiya asoslarini o’qitishning nechta qonuniyati mavjud?

- a) 5ta;

- b) 7ta;
- c) 9ta;
- d) 11ta.

12.Faoliyat (shu jumladan, pedagogik faoliyat)ni tashkil etishga texnologik (ijtimoiy-muhandislik loyihalarini yaratish) nuqtai nazardan yondashish – bu ...

- a) ijodiy yondashuv;
- b) innovtasjon yondashuv;
- c) texnologik yondashuv;
- d) tizimli yondashuv.

13.Texnologik tizim nima?

- a)pedagogik jarayonning loyiha sxema ko'rinishidagi tarkibiy qismlari majmui, yig'indisi;
- b)ma'lum faoliyat (ishlab chiqarish, moddiy va ma'naviy malisulotlarni yaratish) jarayonining barcha tarkibiy qismlari yig'indisi;
- c)murakkab, yuqori texnologik qurilmalar, mexanizmlar, moslamalar majmui;
- d) to'g'ri javob yo'q.

14.Quyidagi ilmiy-pedagogik metodlarning qaysi guruhi pedagogik texnologiya masalalarini o'rganishga yordam beradi?

- a) suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tahlil,
- b) pedagogik kuzatish, modellashtirish, bolalar ijodini o'rganish, test (predmetli va psixologik testlar),
- c) ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik statistik tahlil.
- d) barcha javoblar to'g'ri.

15.Muayyan ob'ekt, hodisa, jarayon, tizimning xuddi o'zidek yoki kichraytirib yoki kattalashtirib olingan va ma'lum soha uchun andoza bo'ladigan modeli (nusxasi)ni yaratish usuli. Ushbu ta'tif mohiyatini ifodalaydigan metod qaysi?

- a) ekspert baholash metodi;
- b) pedagogik tahlil metodi;
- c) pedagogik tajriba metodi;
- d) modellashtirish metodi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA NAZARIYASINING MOHIYATI VA USTUVOR TAMOYILLARI

Reja:

- 1.Pedagogik texnologiyaning nazariy g'oyalari.**
- 2.Pedagogik texnologiya nazariyasining ustuvor tamoyillari.**
- 3.Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lif va tarbiya texnologiyalarining tarkibiy tuzilmasi.**
- 4.Pedagogik texnologiya turlari.**

Tayanch tushunchalar: texnologiya, pedagogik texnologiya, nazariya, pedagogik texnologiya nazariyasi, tepedagogik texnologiya tamoyillari, ta'lif metodikasi, ta'lif texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyaning nazariy g'oyalari. Ta'lifning globallashuvi sharoitida ta'lif sohasi bilan jamiyatning rivojlanib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlari o'tasida nomutanosiblikning yuzaga kelganligi kuzatilmogda. Ta'lif tizimi oldiga barkamol shaxsni shakllantirish, ta'lif sohasi bilan mehnat bozori o'tasidagi nomutanosiblikni qisqartirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi yangi, dolzarb vazifalar qo'yilmoqda. Mazkur vazifalar pedagogik texnologiya nazariyasini yaratish va ta'lif jarayonini puxta loyihalashga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi. Qayd etilganidek, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari iishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, ta'lif texnologiyalarini yaratish muammolari bo'yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo'l bergen holda ushbu nazariya mohiyatini to'laqonli ochib beruvchi terminalogiyani shakllantirishni taqozo etadi. Bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan umumiy ishlanmalarining mavjud bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, umumiy nazariy asosga ega bo'lmasdan ayrim muammolarni hal etish mumkin emas.

Pedagogik texnologiya nazariyasi, uni ta'lif-tarbiya jarayonida qo'llash muammolariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta'lif rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini chuqur anglab yetish, imkoniyatlarini aniqlash va keng ko'lamli axborot maydonini egallahsga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta'lif jarayonini rivojlantirish va

boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir.

Har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko'rinishidagi o'zaro jamoaviy ta'sir yotadi. Texnologiya mehnat jarayonining o'ziga singdiriladi. Texnologiyaning shaklidan qat'i nazar asosiy natija umumiy jarayonning tavsifi, predmeti, vositalari va yakuniy ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

Shaxs ongi jamoaviy o'zaro ta'sir in'ikosining ideal shakli va dialektik qarama-qarshiligidini ifoda etadi. Shu sababli ongni qayta shakllantirish qonuniyatlarini ijtimoiy texnologiya va pedagogik amaliyotdan izlash taqozo etiladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy texnologiyadan ajralib chiqqan. Shunga ko'ra u o'z taraqqiyotida jamoaviy mashqlantiruvchi refleks bosqichini bosib o'tgan bo'lib, texnologik o'zaro ta'sirlarni maqsadga muvofiq takrorlovchi harakat va operatsiyalar kabi tizimga ajratadiki, bu holat magistrning ijtimoiy ongni o'stirish va insoniyat tomonidan to'plangan ilmiy-amaliy tajribalarni unga yetkazib berish maqsadini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Texnologiyaning umumfalsafiy konsepsiysi doirasida pedagogik texnologiya mohiyatining umumiy jihatlari, shakli, mazmuni, qarama-qarshiliklar tizimi, miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi, qurilishi, amal qilishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini muvaffaqiyatlari ravishda ko'rib chiqilishi mumkin. Konsepsiya mantiqan ishlab chiqarish, ma'naviyat va ta'lim qonuniyatlarini mohiyatini aks ettirishdan iborat.

Hamma texnologiya o'zining mustahkam ilmiy-nazariy poydevoriga asoslangani kabi pedagogik texnologiya ham o'zining nazariy asosiga ega. "Pedagogik texnologiya" nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi umumiy qonuniyatlarga asoslanadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi umumiy texnologik nazariyaning shakllanishini aks ettiruvchi holat sifatida namoyon bo'iadi. U deduktiv yondashuv hosilasi sifatida pedagogik jarayonda yuz beradigan texnologik o'zgarishlar, qo'llaniladigan texnologik vosita, shuningdek, texnologik-pedagogik o'zaro ta'sir natijasiga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ilmiy nuqtai nazardan boshlang'ich shart-sharoitlar (zarur shart-sharoitlar, dastlabki elementlar, boshlang'ich shakllar), asosiy bosqichlar va an'analar pedagogik texnologiya genezisi sanaladi.

Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiya nazariyasining shakllanish va rivojlanish jarayoni quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1.Pedagogik texnologiya shaxsning tabiatga bo`lgan ta'sirini jamoaviy, maqsadga muvofiq, texnologik o`zaro ta'sir sifatida namoyon bo`lishini ifodalaydi.

2.Nazariya g`oyalalariga ko`ra har qanday mehnat o`zaro uzviy bog`langan fiziologik, ishlab chiqarish va mohiyatan texnologik sanaluvchi elementlar majmuasini ifoda etadi.

3.Moddiy ishlab chiqarish jarayonida mehnatning texnologik elementini ajratish eng oddiy sanoat rivojlanishi nihoyasiga etgan bosqichda amalga oshiriladi va ishlab chiqarish jarayonining ayrim elementlar operatsiyalari yakuniga yetgach namoyon bo`ladi.

4.Texnologik inqilob mohiyati texnologik vazifaning inson zimmasidan soqit etib, texnologik vosita zimmasiga o'tishi bilan asoslanadi.

5.Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasi pedagogik texnologiyaning paydo bo`lishi va rivojlanishining boshlang'ich shart-sharoitlari sifatida namoyon bo`ladi.

6.Pedagogik texnologiya ontologik, ijtimoiy-iqtisodiy, yaratish, amalga oshirish va rivojlantirishga asoslanuvchi ilmiy-nazariy qonuniyatlar, ijtimoiy qonun va mustaqil mavjud bo`lgan sharoitlar tarzida aks etadi.

Texnologik-pedagogik vosita bilan bog`lanib, muayyan texnologik maqsadga bo`ysundirilgan va ma'lum texnologik vazifani hal qilishga yo`naltirilgan faoliyat pedagogik o`zaro ta'sir ko`rinishi sanaladi. O`zaro ta'sir zarur harakat yoki muayyan boshlang'ich holatda belgilangan (bashoratlangan) natijaga ko`ra o`z-o`zidan yuzaga keladigan harakat asosida namoyon bo`ladi.

Pedagogik texnologiya nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi (tuzilishi) ko`rib chiqilayotgan muammolar doirasida markaziy o'rinni egallaydi.

Zamonaviy ta'llim-tarbiya tizimida pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatining mohiyati 2-rasmida yoritilgan.

Har qanday voqeа, hodisa va jarayon kabi pedagogik texnologiyalar ham muayyan belgilarni o`zida namoyon qiladi. Pedagogik texnologiyalarga xos muhim belgililar quydagilar sanaladi:

1.Predmetlilik (pedagogik texnologiya nazariyasiga oid barcha atama, tushuncha, kategoriya va ta'kidlar bir predmetli yoki muayyan sohaga taalluqli bo`lishi kerak).

2.Bir-biriga moslik yoki to`liqlik (pedagogik texnologiya nazariyasining tili, uning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari.

modellari va h.k.).

3. Aniqlik (ob'ekt mohiyatini emperik va semantik jihatdan ochib beradi).


4.Tekshirish imkoniyatiga egalik (nazariyaning real ob'ektga moslik darajasini tekshiradi).

5.Haqqoniylik (pedagogik texnologiya nazariyasining asosiy ta'kidlari ishonchli bo'lishi zarur).

6.Tizimlilik (texnologik-pedagogik qonunlarni tabaqalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi aloqalari yordamida yagona tizimga birlashtirish).

Yuqorida qayd etilgan jihatlarga tayangan holda pedagogik texnologiya nazariyasi mohiyatini ochib berish mumkin. Shu o'rinda, eng avvalo, "nazariya" tushunchasining ma'nosini anglab olish muhim.

Manbalarda mazkur tushuncha quyidagicha sharhlanadi: **nazariya** (yun. "theoreo" – qarab chiqaman, tadqiq etaman, a. ta'limot, qoidalar majmui, umumlashma fikr) – ma'lum voqeа, hodisa, qarash yoki jarayon mohiyatini yoritish, tushuntirishning umumiyl tamoyillari, qonuniyatlar, ichki aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslab beradigan fikr, g'oya va tasavvurlar majmui. Ushbu ta'rifga asoslanib, "Pedagogik texnologiya" nazariyasining mohiyatini quyidagicha sharhlash mumkin:




**3-rasm. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida
pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyatining mohiyati**

"Pedagogik texnologiya" nazariyasi – texnologik (ishlab chiqarish muhandisligi, texnologik loyihani yaratish) yondashuv asosida avvaldan

oqilona rejalahshtirilgan, loyihalangan ta'lif va tarbiya jarayoni samarali tashkil etishga yo' naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlari, tamoyillari, shartlari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini asoslovchi g'oya, qarash va tasavvurlar majmui.

Pedagogik texnologiya mohiyatini anglab olish uning tarkibiy tuzilmasi, vazifasi, nazariy tuzilmasini ko'rib chiqish, asosiy tayanch tushuncha va kategoriyalarning mazmunini tushunishga imkon beradi.

Pedagogik texnologiya nazariyasining tarkibiy tuzilmasida quyidagi unsurlar ajratib ko'rsatiladi va tahlil etiladi:



4-rasm. Pedagogik texnologiya nazariyasining tarkibiy tuzilmasi


Tarkibiy tuzilma tahlili pedagogik texnologiya funksiyasiga aniqlik kiritish, uning konseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslashga imkon beradi. Konseptual va mantiqiy til asosi, ilmiy texnologik-pedagogik bilimlarning hajmini belgilashda deduktiv, pedagogik texnologiya nazariyasining konseptual asosiga aniqlik kiritish uchun esa induktiv yondashuvdan foydalananadi. Pedagogik texnologiya nazariyasini asoslashda uning konseptual asosini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur asos **pedagogik texnologiya matritsasi** deb ataladi.

Pedagogik texnologiya matritsasi (texnologik-pedagogik matritsa) – minimal darajada zarur belgi (nazariy asos)larga tayanuvchi rang-barang, sifatlari pedagogik texnologiyalar modeli.

Pedagogik texnologiya matritsasining elementlari 5-rasmda aks ettirilgan.

Demak, “Pedagogik texnologiya” nazariyası deduktiv-xulosaviy tavsifga ega va uning mohiyati ishonarli, aniq ifoda etuvchi ilmiy nazariya sifatida namoyon bo’ladi.

“Pedagogik texnologiya” nazariyasining ustuvor tamoyillari. Har qanday pedagogik texnologiya ta’limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo’lib, talaba shaxsini tarbiyalashga yo’naltirilmog’i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta’lim jarayonining rabbari, ayni vaqtida, ushbu jarayonning ham sub’ekti, ham ob’ekti bo’lgan pedagog va magistrlar turadi.




5-rasm. Pedagogik texnologiya matritsasining elementlari

Shunday ekan, ushbu sub’ektlar o’rtasidagi o’zaro hamkorlik, o’zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko’rsatadigan aks ta’sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun pedagog, eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo’yiluvchi talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo’llari, magistrni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o’qish va o’rganishga yo’naltirish, magistr shaxsi faoliyatini to’g’ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy,

ishchanlik muhitini hosil qilish, magistr faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon borasida aniq tasavvurga ega bo'lishimizga imkon yaratadi. Shu bois quyida pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyati xususida so'z yuritiladi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga aynan o'ziga qo'shilishiga xos bo'lган tamoyillarga ham egadir(6-rasm).



6-rasm. Pedagogik texnologiyaning ustuvor tamoyillari

Quyida ushbu tamoyillarning mohiyati yoritiladi.

1.Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili. Ushbu tamoyil ikki jihatni o'zida aks ettiradi: ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2.Asoslilik (fundamentlik) tamoyili. Mazkur tamoyil fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlari ko'ra turli yonalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu ma'lumot (axborot)lar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday mohiyatlari yondashuv ma'lum yonalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan

foydalishim imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda umumlashtirilishi shaxs xotirasi zo'riqishini kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelshini ta'minlaydi.

3.Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili. Mazkur tamoyil olmon pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qtomagan. Madaniyatni anglash tamoyili magistrlarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lif berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lif samaradorligini ta'ninlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda pedagogning bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamona viy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimedya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

4.Ta'lif mazmunini insonparvarlashtirish va insoniyashtirish tamoyili. Tilga olingen har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunoncha "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Ta'lif muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya, b.)ning kiritilishini "insonparvarlashtirish", shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobjiy yondashuv esa "insoniyashtirish" tushunchalari asosida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniyashtirish "barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun" g'oyasi asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lif jarayonini loyihalashtirishda har bir pedagog ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog magistrlar faoliyatini avtoritar (yakkahokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'lifiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lif jarayonini insoniyashtiradi, boshqacha aytilsa, ta'lifni insoniyashtirish tamoyiliga amal qilinadi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5.O`qitib tadqiq etish, tadqiq etib o`qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir pedagogi o`z fani sohasiga magistrlarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) pedagog ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyatda sinab ko`radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya`ni u ta'lim jarayonini tadqiq etadi. O`qitish jarayonining mazkur ikki jihatni muhim ahamiyatga ega bo`lib, u pedagogning kasbiy, pedagogik mahoratini oshirib borishga va magistrlarni bo`lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6.Ta'limning uzlucksizligi tamoyili. Mazkur tamoyil magistrlarning kasbiy sifatlarga ega bo`lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo`lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o`n yil mobaynida o`zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil pedagogning o`z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan magistrlarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7.Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) magistrlar o`zlashtirishi lozim bo`lgan bilimlar; b) ular tomonidan o`zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Pedagogik texnologiyaning o`ziga xos xususiyatlari, ta'lim va tarbiya texnologiyalarining tarkibiy tuzilmasi. Pedagogik texnologiya o`zida quyidagi o`ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo`lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

2.Pedagogik texnologiya didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratlari tarzda tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo`ladi.

3.Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.


4.Pedagogik texnologiya yo`naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya`ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5.Pedagogik texnologiya – shaxsiylik xususiyatiga ega bo`lib, muayyan texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat`iy, me'yoriy (standart) talablar qo`yilmaydi.

6. Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni analga oshirish imkoniyatiga ega.


7. Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) birligini ifoda etadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiya quyidagi umumiy xususiyatlarga ham ega:



7-rasm. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari


V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda, uni quyidagi elementlardan iboratdir deya e'tirof etadi:



8-rasm. Pedagogik tizimning tarkibiy elementlari


Xalq xo'jaligining moddiy ishlab chiqarishga asoslangan sohalarida qo'llanilayotgan texnologiyalar mohiyatini o'rGANISH hamda muammo doirasida nashr etilgan risolalar mazmuni bilan tanishish "pedagogik texnologiya" ta'lif-tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to'g'risidagi fan ekanligini e'tirof etish imkonini berdi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra esa pedagogik texnologiyaning tarkibiy elementlari quyidagilardir:




9-rasm. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy elementlari

Pedagogik texnologiya turlari. Pedagogik jarayonning umumiy mohiyati pedagogik texnologiyalarni ajratishga imkon beradi (10-rasm).




10-rasm. Pedagogik texnologiya turlari

G.K.Selevkoning fikricha, pedagogik faoliyatni qamrab olish sohasiga muvofiq pedagogik texnologiya to'rt guruh (vertikal struktura)ga ajratiladi (11-rasm).




11-rasm. Pedagogik texnologiya turlari (vertikal tuzilma)

Ta'lim jarayonining didaktik mohiyati pedagogik texnologiyaning quyidagi turlarini ajratishga imkon beradi (12-rasm):



12-rasm. Ta'limning didaktik mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya

Pedagogik texnologiyaning yotiqligi (gorizontal) tuzilmasi uch asosiy nuqtai nazarni ifodalaydi (13 -rasm).



13-rasm. Pedagogik texnologiya turlari (yotiqligini tuzilma)

Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonini yangi zamonaviy texnika va axborot texnologiyalari bilan jihozlash, pedagog va magistrlar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, pedagogik faoliyatni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Kam jismoniy kuch va vaqt sarflash asosida o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini yarata

olishi sababli ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llashga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb vazifa sanaladi. Tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi magistr shaxsining hurmat qilinishi, uning yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy sifatlarining inobatga olinishini ta'minlaydi. Shu bois, bugungi kunda ulardan pedagogik amaliyatda foydalanishga nisbatan katta ehtiyoj mavjud. Bu ehtiyojning qondirilishi pedagog, ota-onalar va homiylardan tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". Toshkent: "Nizomiy nomidagi TDPU"- 2006.
2. S.A.Madiyarova va b. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". Toshkent: "Iqtisod-moliya"- 2009.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent: "Pedagog"- 2004.
4. Sayidahmedov N., Ochilov A. "Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi". Toshkent: "RTM"- 1999.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik amaliyatda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari". Toshkent:"RTM"- 2000.
6. Tolipova J. "Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili". Toshkent: "Yunisef RTM, XTV"- 2005.
7. Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylar asoslari". Toshkent:"Fan"- 2006.
8. Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". Toshkent: "Fan"- 2005.
9. Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent:"Fan"- 2000.

Nazorat uchun savollar:

1. "Texnologiya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz?
3. "Pedagogik texnika" negizida qanday amaliy harakatlar tashkil etilgan?
4. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasi qanday bosqichlarda shakllanadi?
5. Pedagogik texnologiyaning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Ta'lim texnologiyalaridan birini tanlashda nima nazarda tutilishi zarur?
7. Pedagogik texnologiyalar qanday turlarga bo`linadi?
8. Pedagog va magistr o'rtaсидаги муроқитнинг қандай методлари мавжуд?

9. Pedagog faoliyatining mazmunini yorituvchi omillar qaysilar?

Test topshiriqlari:

1.Ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko`zlagan o`qitish va o`zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va aniqlashning izchil metodi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining mohiyatini ifodalovchi mazkur ta’rif muallifi kim?

- a) T.N.Ballo, b) V.P.Bespalko; c) YUNESKO, d) U Nishonaliyev.

2.Ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lif jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lif jarayonini yuqori darajada boshqarish nima deb yuritiladi?

3. Pedagogik texnologivaning asosiv muhammosi nima?

- a) magistrni har tomonlama tarbiyalash asosida vatanparvar shaxsn tarbiyalash:

b) magistrda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash orqali uning yetuk shaxs bo'lib yetishishiga erishish;

c) magistriga bilim berish asosida uning malakali mutaxassis bo'lib yetishini ta'minlash;

d) magistr shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlash

4.Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi qachon va qayerda shakllangan?

- a) XX asrning o'ralarida Yaponiya va G'arbiy Yevropada;
 - b) XX asrning so'ngida Buyuk Britaniya va Yaponiyada;
 - c) XX asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSHda;
 - d) XX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osivo va Yevropada.

5.XX asming 50-yillarida ta'lim tizimida qanday o'zgarish sodir bo'ldi?

- a) tizimda pedagogik texnologiyalar qo'llanila boshlandi;
b) tizimga texnik vositalar ioriv etildi;

- c) tizimda “pedagogik texnika” nazariyasi asoslandi;
- d) tizimda ta’limni dasturlash g’oyasi asoslandi.

6. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasi nechta bosqichda shakllandi?

- a) to’t bosqichda;
- b) ikki bosqichda;
- c) besh bosqichda;
- d) uch bosqichda.

7. Pedagogik texnologiya tamoyillari qaysi javobda ko’rsatilgan?

- a) ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniyashtirish; o’qitib tadqiq etish, tadqiq etib o’qitish; ta’limning uzluksizligi; faoliyatli yondashuv;
- b) bir butunlik, yaxlitlik; asoslilik (fundamentlik); madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik);
- c) a va b javoblar;
- d) to’g’ri javob yo’q.

8. O’quv materiallarini o’zlashtirishning qanday darajalari mavjud?

- a) boshlang’ich, algoritmik, evristik, ijodiy;
- b) boshlang’ich, umumiy, ijodiy, oliv;
- c) algortmik, evristik, tadqiqotchilik, ixtirochilik;
- d) juda yuqori, yuqori, o’rta, quyi.

9. Pedagog va magistr o’rtasidagi muloqotning qanday metodlari mavjud?

- a) ijobjiy, salbiy, barqaror;
- b) sust-ijobjiy, barqaror-ijobjiy, beqaror;
- c) sust-ijobjiy, salbiy, liberal;
- d) to’g’ri javob yo’q.

10. Pedagogik tizimning asosiy elementlari (V.P.Bespalko yondashuviga ko’ra) qaysilar?

- a) magistr; pedagog, ta’lim-tarbiya mazmuni;
- b) ta’lim-tarbiyaning maqsadi, o’quv jarayoni;
- c) pedagog yoki texnik vositalar, ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari;
- d) magistr, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, ta’lim-tarbiya mazmuni, o’quv jarayoni, pedagog yoki texnik vositalar, ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari.

11. Aniq maqsadga va ijtimoiy g’oyaga asoslangan va magistrlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uvushtirilishi qanday faoliyat mazmunini ifodalaydi?

- a) ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish;
- b) tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish;
- c) ta'lim jarayonini loyihalashtirish;
- d) tarbiya jarayonini loyihalashtirish.

12. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos muhim xususiyatlari qaysilar?

- a) ilmiylik, amaliylik, tavsifiylik; c) ilmiylik, tizimlilik, izchillik;
- b) amaliylik, jarayonli, tizimlilik; d) tavsifiylik, uzviylik, ketma-ketlik.

PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASH TEKNOLOGIYASI

Reja:

- 1. Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining umumiy mohiyati.**
- 2. Texnologik pasport va texnologik xarita.**
- 3. O'quv (tarbiya) maqsadlarini belgilash.**

Tayanch tushunchalar: jarayon, pedagogik jarayon, loyihalash, loyihalash texnologiyasi, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasi, ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatları, ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari.

Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining umumiy mohiyati. Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatlari kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biri sanaladi. Pedagogik jarayonni loyihalash: **loyiha → mazmun → faoliyat uchligi** asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashsga xizmat qiluvchi loyihami yaratishdir.

Pedagogik jarayonni loyihalashda quyidagi vazifalarni bajariladi:


- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;**
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;**
- 3) rejalshtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.**

Pedagog tomonidan pedagogik jarayonni loyihalashda uning mustaqil yoki magistrlar bilan hamkorlikda ta'lim jarayonining mazmuni, vositalarini belgilashga qaratilgan faoliyati yetakchi o'rinn tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'naliishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlanadigan tahliliy, oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo'ladi. Tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning uch muhim omili hisoblanadi. Loyihaning maqsadi avval qog'ozda taqvime-reja, qisqacha yozma bayon (annotatsiya) ko'rinishida aks ettiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarni samarali hal etish loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq. Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida magistr va magistrlar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur.

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiyasi hisoblanib, unda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar, o'quv va metodik qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash, vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Shu sababli pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingen bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatl) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq



14-rasm. Pedagogik jarayonni loyihalashda vazifalarning belgilanishi

Agar pedagogik vaziyat yetarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda pedagogik vazifalarning hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigina kasbiy faoliyatni boshlagan pedagog tajribasizligidan pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi.

Biroq, ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qaraydi. Natijada pedagogik faoliyatda nomutanosibligi vujudga keladi: pedagog o'z faoliyatining pedagogik maqsadlarni hal etilishini ta'minlay olish-olmasligini o'ylab o'tirmay magistrlarni faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi. Pedagogik faoliyatning yana bir nomutanosiblik tomoni


shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni ikkinchi darajali, funksional, o'tkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar (darsni tashkil etish, tadbirlar o'tkazish va sh.k. – N.V.Kuzmina).

Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlarning tahlili vaziyat o'mini aniqlashdan tashqari butun pedagogik jarayonda tarbiyachi, tarbiyalanuvchi va ular o'rtaсидagi munosabat hamda ta'lim mazmuni, samarali vosita va pedagogik shart-sharoitlar kabi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ma'lumotlarning tahlili pedagogik jarayon mohiyati, jamaoa va alohida magistrlar harakatlari holatini aniq vaziyatlarda rejali o'rganish kabi ilmiy dalillarga ega bo'lishga yordam beradi. Ushbu dalillar amaliy faoliyat asosini tashkil etadi. Mavjud dalillar pedagog faoliyat jarayonining kechishi va kutilgan natijaning kafolatlanishini tashxislashga imkon beradi. Bu o'rinda "tashxis" tushunchasining mohiyatini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir:

"Tashxis" (yun. "diagnostikos" – tez anglab olish) tushunchasi dastlab tibbiyotda qo'llanilgan tushuncha bo'lib, kasallik mohiyati va bemon holati, uni har tomonlarma izchil o'rganilishini anglatuvchi vrach xulosasi deya e'tirof etilgan. Hozirda "tashxis" tushunchasi pedagogikada ham keng qo'llanilmoqda va u "pedagogik-psixologik tashxis" (PPT) deb yuritilmoqda. PPT pedagogik jarayonni uning umumiyligi holati, tarkibiy qismlarini har tomonlama, yaxlit tekshirish orqali baholashdir.

PPT odatda pedagogik jarayonning psixologik, sub'ektiv xususiyatlarini inobatga olish asosida qo'yiladi. PPT tekshiruvi magistr shaxsi, uning faoliyatini yaxlit yoki ma'lum jihatlarini qamrab olishga asoslanadi. PPT tekshiruvi o'zining davomiyligiga ko'ra ikki turda bo'ladi:



15-rasm. Pedagogik-psixologik tashxisning asosiy turlari

Malakali PPTning zaruriyati pedagogdan magistr shaxsini o'rganish metodlari va maxsus metodikalarini, jamoa, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayon xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Tashxis qo'yish ta'lif (yoki tarbiya) maqsad va vazifalarini hal etishning umumiy talabi hisoblanadi. U maqsadlarning aniqligi, bir xilligi, ularni bajarish usullari, o'lchash va baho berish bilan chambarchas bog'liq.

PPT asosini magistr shaxsini har tomonlama bilish, jamoa sifatida sinfning xususiyatlarini o'rganish, aniq pedagogik vaziyatlarda ma'lumotlarni tahlil etish kabi holatlar tashkil etadiki, ular ta'lif jarayonini loyihalashning keyingi muhim bosqichiga o'tish, ya'ni, pedagogik jarayonni oldindan ko'ra bilish imkonini yaratadi. Bu holat pedagogik maqsadning shakllanishiga olib keladi va maqsad asosida puxta o'ylangan pedagogik vazifalarni belgilash imkonini beradi. Shaxsning rivojlanish darajasi ta'lif maqsadlari bilan uyg'un bo'lgandagina pedagogik maqsadga erishmaslikning oldini olishga erishiladi. Ya'ni, pedagogik maqsad pedagogik tizimning muhim omili sifatida muammolarni muqarrar hal etadi.

Pedagogik oldindan ko'ra bilish ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni oldindan o'rganish jarayoni sanaladi. Bunda ob'ekt sifatida sinf, magistr, bilim, munosabat va h.k. tanlanadi. Oldindan ko'ra bilish metodlari turli-tuman bo'lib, pedagog ularni mukammal o'zlashtira olishi kerak. Oldindan ko'ra bilish metodlari sirasiga modellashtirish, faraz qilish, sintezlash, dalillash, fikriy tajriba va b. kiradi.

Ushbu metodlar bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Oldindan ko'ra bilish qobiliyati pedagogga xos bo'lgan muhim kasbiy fazilat hisoblanib, u pedagog tomonidan pedagogik vazifalarni fikran bajarishda qo'llaniladigan samarali usullarini faraz qilishida namoyon bo'ladi. Garchi erishish yo'llari murakkab bo'sada, pedagogik faoliyat maqsadi hali amalga oshmag'an faoliyatning modellashtirilgan natijasi va pedagogik jarayon miqdor va sifat o'zgarishlarining loyihasi sifatida aks etadi. Pedagogik oldindan ko'ra bilish maqsadga intiluvchanlik bilan bog'liq holda pedagogik vazifalarni aniqlashtirishning va ularni pedagogik vazifalar tizimiga yo'naltirishning so'nggi natijasi hisoblanadi. Bunda pedagogik tashxisda ifoda etiluvchi ma'lumotlar, ya'ni, shaxs va jamoaning qo'shimcha imkoniyatlari va tayyorgarligi hisobga olinishi kerak. Ilmiy jihatdan asoslangan oldindan ko'ra bilish natija sifatida pedagogik vazifani, pedagog va magistr faoliyatining mazmunini, motivatsiya va qisqa muddatda hal etilishi zarur bo'lgan jihatlarni sintez

qiladi. Pedagogik vazifa pedagog tomonidan, avvalo, o'zi uchun shakllantiriladi, so'ngra e'tibor magistrlarning imkoniyatlariga tayanib, pedagogik vazifaning hal etilishiga qaratiladi.



16-rasm. Oldindan ko'ra bilish metodining asosiv turlari

Malakali pedagogning vaziyatni oldindan ko'ra bilishi va maqsadga intilishi ta'lrim jarayonini pedagogik loyihalashning asosim tashkil etadi. Pedagogik loyihalashda vazifaning yaxlit holda mazmunan, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, ijtimoiy-psixologik (kommunikativ, hissiy va h.o.) jihatdan hal etilishini ta'minlash talab etiladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagog duch keladigan eng muhim muammo – pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi.

O'quv dasturi yoki magistr shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda pedagog pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda magistrlarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- 1) magistrlar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;

2) magistrlarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) pedagogning shaxsiy, ta'lif muassasasining moddiy-texnik bazasi.

Pedagogik faoliyatda o'quv ma'lumotlarini loyihalash ham muhim o'rinni tutadi. Unda:

1) magistrlarga taqdim etiladigan materiallar;

2) magistrlarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar;

3) magistrlar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot (bilim) turlari
(N.V.Kuzmina) o'z aksini topadi.

Texnologik munosabatda o'quv materiali va uning tuzilishi muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etishda "didaktik material" va "o'quv materiali" tushunchalari mohiyatini farqlay olish zarur. G.A.Ball nuqtai nazariga ko'ra, didaktik material shunday ob'ektlar tizimidan iboratki, ularning har biri ijtimoiy bilim va tajribadan kelib chiqqan holda moddiy yoki moddiylashgan model tarzida qo'llaniladi.

O'quv materiali materiallar tizimidan iborat bo'lib, u didaktik materialning moddiy yoxud moddiylashgan modellarida aks etadi va o'quv faoliyatida ishlatish uchun mo'ljallanadi. Modomiki, o'quv faoliyati o'quv vazifalarini hal etish jarayoni sifatida qaralar ekan, tabiiyki, o'quv vazifasi o'quv materialining ma'lum qismlariga muvofiq tuzib chiqiladi. Shu bilan birga o'quv materialini pedagogik jihatdan maqsadga erishishga yo'naltirilgan tizim sifatida e'tirof etish mumkin. Dernak, pedagog faoliyatida o'quv vazifalari tizimi o'quv materialini loyihalash va didaktik materialni shakllantirish sifatida aks etadi.

Tajribalar tahlilining ko'rsatishicha, pedagogik jarayonni loyihalash murakkab jarayondir. Murakkablik pedagogik jarayonni loyihalashda asosan ikki omil: cheklov va ko'rsatmalarni hisobga olish lozimligida ko'rindi. Ta'lif mazmuni ilmiylik va amaliy ahamiyat talablarini to'ldirishi, o'quv jarayoniga ajratilgan vaqtga muvofiq tashkil etilishi, shuningdek, ta'lif mazmuni va uning magistrlar tomonidan qabul qilinish darajasining o'zaro mosligi inobatga olinadi. Shu bois, vaziyatning murakkabligi, o'quv fani asoslarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari avvaldan aniqlab olinishi shart.

Odatda ijobjiy yakuniy natijalarga erishishga intilgan pedagog o'quv dasturida belgilangan mazmunn bo'yicha ish ko'radi. Shu asosida o'zining shaxsiy faoliyat dasturini yaratadi.

Pedagogning shaxsiy faoliyat dasturida talabalar tomonidan chuqr o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar, o'quv kursining asosiy

tayanch tushunchalari, o'quv axborotlarni o'zlashtirish psixologiyasi hisobga olinishi lozim. Demak, pedagog loyihalash texnologiyasini qo'llashda magistrlarning ehtiyojlari, ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida darsga tayyorlash imkoniyati, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'stirishni asosiy masalalar sifatida tan olsagina muvaffaqiyat qozonadi.

Texnologik pasport va texnologik xarita. Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini samarali loyihalashtirish, tashkil etishda o'quv mashg'uloti yoki muayyan mavzudagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasportini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Texnologik pasport (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjatdir. Pedagog o'quv mashg'uloti yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasportini ishlab chiqishda barcha elementlarni inobatga ola bilishi zarur. Zero, texnologik pasport bir qarashdayoq o'quv mashg'uloti (dars) yoki tarbiyaviy tadbirning umumiyligi holati, yaxlit tuzilmasi to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishga xizmat qiladi. Texnologik pasportni ishlab chiqishda o'quv mashg'uloti (dars) yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini yorituvchi barcha elementlar bevosita tanlangan (yoki o'rganilishi rejalashtirilgan) mavzudan kelib chiqqan holda belgilanadi. Binobarin, dars yoki tarbiyaviy tadbir mavzusi pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli, samarali tashkil etishga yordam beradigan shakl, metod va vositalarni tanlash imkonini yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotining texnologik pasportida quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi:

- 1) mashg'ulot mavzusi;
- 2) ma'ruzaga ajratilgan vaqt;
- 3) magistrlar soni;
- 4) o'quv mashg'ulotining shakli va turi;
- 5) o'quv mashg'ulotining tuzilishi;
- 6) o'quv mashg'ulotning maqsadi;
- 7) pedagogik vazifalar;
- 8) o'quv faoliyati natijalari;
- 9) ta'lim metodlari;
- 10) didaktik vositalar;
- 11) ta'limni tashkil etish sharoiti;
- 12) nazorat shakli (2-jadval).

Oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

Ma'ruza mavzusi	
Ma'ruzaga ajratilgan vaqt	Magistrilar soni
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	
O'quv mashg'ulotning maqsadi	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
Ta'lif metodlari	
Ta'lifni tashkil etish shakli	
Didaktik vositalar	
Ta'lifni tashkil etish sharoiti	
Nazorat	

Umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida tashkil etiladigan darslarning texnologik pasporti esa oliy ta'lif muassasalarida qo'llaniladigan texnologik pasportdan qisman farqlanadi:

- 1) dars (mashg'ulot) uchun ajratilgan vaqt;
- 2) darsning turi;
- 3) darsning tuzilishi;
- 4) darsning maqsadi: a) ta'limi; b) tarbiyaviy; v) rivojlantiruvchi;
- 5) didaktik va tarbiyaviy vazifalar;
- 6) dars samarasi (natijasi);
- 7) darsda qo'llaniladigan ta'lif metodlari;
- 8) didaktik vositalar;
- 9) darsni tashkil etish sharoiti (3-jadval).

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

Dars mavzusi	
Dars (mashg'ulot) uchun ajratilgan vaqt	
Darsning turi	
Darsning tuzilishi	
Darsning maqsadi: ta'limi; tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar	
Didaktik va tarbiyaviy vazifalar	Dars samarasi
Darsda qo'llaniladigan ta'lif metodlari	
Darsning tashkiliy shakli	
Didaktik vositalar	
Darsni tashkil etish sharoiti	
O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash shakli	

Zamonaviy sharoitda pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda o'quv mashg'uloti yoki muayyan mavzudagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik xaritasini tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega.

Texnologik xarita (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjatdir.

Muayyan vaqtida bajariladigan ta'limiy yoki tarbiyaviy jarayonda bajariladigan faoliyat uchun mo'ljallangan texnologik xarita quyidagi savollarga javob bera olishi lozim:

- 1.Belgilangan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyat qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
- 2.Har bir bosqichda aniq qanday vazifalarni bajarish zarur?
- 3.Har bir bosqich vazifalarini bajarishda pedagog va magistrning faoliyat mazmuni nimadan iborat bo'ladi?
- 4.Vazifalar qanday izchillikda bajarilishi kerak?
- 5.Muayyan vazifa aynan qaysi vaqtida bajarilishi zarur?
- 6.Har bir vazifani bajarish uchun qancha vaqt talab etiladi?
- 7.Har bir bajarilgan vazifaning aniq natijasi qanday?
- 8.Vazifalarni bajarish uchun zarur qanday asbob-uskunalar, materiallarr yoki vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq?

Odatda texnologik xarita ta'lim muassasasida tashkil etiladigan har bir o'quv mashg'uloti yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi va u ko'p hollarda jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi. "Pedagogik faoliyat mohiyatini yorituvchi texnologik xaritalar ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatning texnik andozasi bo'lib, mas'ul rahbar shaxslar tomonidan ma'qullanishi zarur"¹⁰.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lini muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat uchun 4-jadvalda ko'rsatilgan texnologik xarita¹¹ni namuna sifatida taqdim etish mumkin.

Bugungi kunda respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda 5-jadvalda ko'rsatilgan texnologik xaritadan keng foydalanilmoqda.

¹⁰ Технологическая карта // <http://wiki.pippkro.ru/index.php>.

¹¹ Технологическая карта http://www.e-osnova.ru/PDF/osnova_14_7_656.pdf

**Umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan
o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi (namuna)**

Fan nomi:

Sinf (guruh):

Dars №

Sana

Mavzu

Maqsad

ta'limiy

tarbiy aviy

rivojlantiruvchi

Darsning chorak (yoki semestr) dagi o'mi:

Dars turi:

Tayanch tushunchalar:

Fanlararo aloqadorlik:

Ta'lim vositalari (ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari):

Pedagogik faoliyat shakli:

Dars uchun belgilangan shiori:

Darsning borishi

Dars bosqichlari	Metod va usullar	Faoliyat mazmuni
I. Tashkiliy bosqich		
II. O'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasini har tomonlarma tekshirish		
III. O'quv materialini faol o'zlashtirishga tayyorlash		
IV. Bilishga doir vazifalarni qo'yish		
V. Yangi bilim, harakat usullarini o'zlashtirish		
VI. Yangi materialning tushunilishini dastlabki tekshirish		
VII. O'zlashtirilgan bilim va harakat usullarini mustahkamlash, o'z bilimini mustaqil tekshirish		
VIII. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish		
IX. Refleksiya (xatti-harakatlari mohiyatini anglash)		
X. Uy vazifalarini berish		
XI. Darsni yakunlash		

Oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqt	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich. Boshlang'ich qism – o'quv mashg'ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)		
2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)		
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)		

Pedagogik maqsadlarni belgilash. Ta'lif tizimida pedagogik faoliyatini texnologik yondashuv asosida tashkil etishda muhim mezon uning aniq, puxta o`ylangan maqsadga yo'naltirilganligi sanaladi.

Pedagogning ta'lif jarayoniga texnologik yondashuvi ikki xil ko'rinishda aks etadi. Ya'ni:

1.Ta'lif jarayonini tashkil etish va boshqarish to'la-to'kis o'rgatuvchi mashinalar tomonidan amalga oshirilib, asosiy sub'ekt bo'lgan pedagogni bu vazifadan ozod qilish.

2.Pedagogning zimmasidagi vazifalarni chegaralash (natijada ularning asosiy vazifalari ta'lif oluvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etish va maslahat berishdangina iborat bo'ladi).

Pedagogni "ideal EHM" bilan "butunlay almashtirish" g'oyasini ta'lif xodimlari tomonidan turlicha qabul qilindi va ko'p hollarda inkor etildi. Ikkinchisi g'oya, ya'ni pedagog zimmasidagi vazifalarni cheklash taklifi esa ko'pchilik tomonidan ma'qullanadi va ayni vaqtida ta'lif amaliyotida ushbu g'oya asosida ish yuritilmoqda. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish lozimki, pedagog zimmasidagi vazifalarning cheklanishi u qadar yuqori kasbiy mahoratga ega bo'limgan pedagoglarning ham yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlaydi. Zero, u tayyor didaktik loyihami amalga oshiruvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi. Natijada uning shaxsi va malakasi muhim ahamiyat kasb etmaydi.

An'anaviy didaktikada bir guruh tadqiqotchilar (Yu.K.Babanskiy, V.S.Bezrukova, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, M.I.Maxmutov va b.) tomonidan o'quv maqsadlarini belgilash usullarini aniqlashga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda bu borada ma'lum tajribalar to'plangan. Jumladan, magistr shaxsini kamol toptirish maqsadlarini aniqlash, ularga erishish yo'llarini belgilashga doir nazariy va amaliy fikrlar mavjud.

Biroq, pedagogik texnologiya tarafдорлари ан'анавиј та'lim мақсадларининг о'та ноаниқ belgilanishini va ularga erishganlik darajasini baholab bo'lmasligini keskin tanqid qiladilar.

An'анавиј та'limга ко'ра pedagog muayyan fan yoki uning bo'limlarini o'qitishda ilmiy ma'lumotlarni magistrлarga yetkazish, ularni tushuntirish asosida magistrлar tomonidan o'quv materiali mazmunini o'zlashtirishini ta'minlash, shuningdek, ularda mavjud bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ammo, "tushunish", "o'zlashtirish", "anglash", "qo'llash" tushunchalari mohiyatida aynan qanday natija ko'zda tutilganligi mavhumligicha qoladi. Zero, qo'yilgan maqsadga erishish yo'llari va usullari bayon etilmaydi.

Ta'lim maqsadlarining belgilanishi, aniqlanishida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy talabning aniq ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. Jamiyat ta'lim tizimi oldiga aniq talabni qo'ymas ekan, ta'lim muassasalarining faoliyati, vazifalari hamda o'quv dasturlarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini aniq ifodalash mumkin emas.

Pedagogik jarayonda asosiy (umumiy) va juz'iy maqsadlarni amalgamoshirish uchun muayyan qonuniyat, jarayon, tizim, unga mos amallar majmui mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Pedagogik texnologiyaning vositaviy yo'naltirilganligi uning keng imkoniyatlarini ochib beradi. Bu o'rinda ta'limning tashkiliy jihatlari, avvaldan, go'yoki tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalgamoshirilishi talab etiladigan jarayonlar mohiyatini tahlil etish, ularni saralash o'quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda yo'lga qo'yiladi.

Pedagogik texnologiya doirasida aniqlab olinadigan maqsadlarning nazariy tahliligina beriladi. Ta'lim hamda tarbiya maqsadlari borasida olib borilgan tahlil nazariy tavsifda "texnologik ishlamalar" ning didaktik jihatdan to'laqonligi bo'lmasligini ko'rsatadi. Umumiy didaktik maqsadlarning "texnik deduksiysi" (texnik nuqtai nazardan umumiy holatdan juz'iy xulosa chiqarish) pedagogik texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi muhim jihat hisoblanadi.

Ta'lim yoki tarbiya maqsadlarining tahliliy bayonidan tashqari muayyan o'quv, tarbiya jarayoni uchun ta'lim uslublarini tanlashning muhim sharti sifatida magistrлarning bilim darajalarini oldindan tashxislash, ularning ko'nikma va malakalarini mavjud me'yoriy talablar bilan taqqoslash e'tirof etiladi.

Pedagogik jarayonning borishi magistrлarning belgilangan maqsad yo'lida harakat qilishlarini uzluksiz nazorat qilishni ko'zda tutadi. Mazkur

jarayon texnologik nuqtai nazardan ta'lim (tarbiya) tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) maqsadiga tashkiliy-uslubiy vositalar yordamida erishish mumkinligini ifodalaydi. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor bilimlarni uzatish va magistrler tomonidan o'z-lashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida nazoratni yo'lga qo'yish borasidagi harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan nazarii asosda amalga oshiriladi.

Har qanday pedagogik texnologiya amalga oshirilayotgan jarayonni tartibli, izchiil, samarali kechishini ta'minlaydi. Pedagogik jarayonda kutilgan natijalarga erishishda maqsad (o'quv maqsadi yoki tarbiyaviy maqsad) ning aniq qo'yilishi va to'la amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli pedagog o'z faoliyatini tashkil etishda maqsadlar aniqligiga erisha bilishi zarur. Har bir qo'yiladigan o'quv yoki tarbiyaviy maqsad o'z mohiyatiga ko'ra maqsadga erishilganlikni aniqlash imkonini bera olishi lozim. O'quv hamda tarbiyaviy maqsadlarni aniq qo'yishda ma'lum omillar inobatga olinadi. Bu o'rinda M.V.Klarin quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi:

- o'quv materialining mazmuni;
- pedagogik faoliyat rejasи;
- magistrning rivojlanish darajasi;
- magistrler faoliyati.

M.V.Klarin bu o'rinda yuqorida qayd etilgan omillarga tayangan holda an'anaviy yondashuv asosida o'quv maqsadini belgilashning oqibatlari to'g'risida so'z yuritadi:

1.O'quv materialining mazmunidan kelib chiqib, maqsadni belgilash. Bunda asosiy o'rinni o'quv materiali va uning mazmuni egalaydi. M: "Pedagogik texnologiya" fani bo'yicha "Tarbiya texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotda o'quv maqsadi "tarbiya texnologiyalarini o'rganish" yoki "tarbiya texnologiyalarini o'rganish" shaklida ifodalanadi. Biroq, bu o'rinda o'quv maqsadining qanday yakunlanishi to'g'risida xulosa chiqarish qiyin. Zero, keltirilgan misoldan anglanadiki, pedagog tomonidan o'quv maqsadiga erishilganlikni ifodalovchi mezon ko'rsatilmagan.

2.Tarbiyaviy yoki o'quv maqsadini pedagog faoliyati orqali belgilash. M: "Pedagogik texnologiya" fani bo'yicha "Ta'lim texnologiyasining mohiyati va o'ziga xos jihatlari" mavzusini o'rganishda o'quv maqsadini "Ta'lim texnologiyasining mohiyatini ochib berish", "Ta'lim

texnologiyasi bilan tanishtirish”, “Ta’lim texnologiyalari va ularning mohiyatidan xabardor qilish” tarzida ifodalash mumkin. Bu o’rinda o’quv maqsadini qo’yish pedagog faoliyatni nuqtai nazaridan belgilangan. Afsuski, bu o’rinda ham o’quv maqsadiga erishilganlikni aniqlash imkonini asoslanmagan.

3.O’quv va tarbiyaviy maqsadni magistrning intellektual, hissiy, shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi ichki jarayon va qonuniyatlar asosida tarbiyaviy hamda o’quv maqsadini belgilash. M: “Pedagogik texnologiya” fani bo’yicha “Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlari” mavzusini o’rganishda “Magistrlarda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanish malakasini rivojlantirish”, “Kasbiy faoliyatda shaxsga yo naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanishga ijodiy yondashish ko’nikmalarini mustahkamlash” tarzda o’quv maqsadini ifodalash mumkin. Bu holatda ham o’quv maqsadining predmet doirasida ifodalanganligi ayon bo’ladi, biroq u yordamida ham o’quv maqsadiga erishilganlikni aniqlab bo’lmaydi.

4.O’quv maqsadini magistrlar faoliyatidan kelib chiqqan holda qo’yish. M “Pedagogik texnologiya” fani bo’yicha “Interfaol metodlar va ularni ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llash” mavzusi yuzasidan “Ta’lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlarni qo’llashga doir topshiriqlarni bajarish” tarzida ifodalanishi o’quv maqsadining magistrlar faoliyatidan kelib chiqqan holda qo’yilishini bildiradi. Shaklan ushbu o’quv maqsadi ham pedagogik jarayonni to’g’ri rejalashtirish va oqilona tashkil etilishiga xizmat qiladigandek taassurot uyg’otadi. Biroq, bu o’rinda ham ta’lim jarayonini tashkil etishdan kutiladigan natija noaniqligicha qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari tomonidan taklif etlayotgan ta’lim maqsadlarini aniqlash usullari amaliyotda samarali qo’llaniluvchanligi bilan ajralib turadi. Ta’lim maqsadlari magistrning o’lchash hamda tashqaridan ham anglash mumkin bo’lgan xatti-harakatlari negizida ifodalanadi, shuningdek, ta’lim natijalarini asosida shakllantiriladi. Pedagog yoki ekspert magistrlarning xatti-harakatlarini kuzatish va ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo’ladi. Biroq, ta’lim natijasini magistrning xatti-harakatlari negizida ifodalash ham qiyin kechadi. Zero, bunda ta’lim natijalarini magistrning xatti-harakatlari yordamida ifodalashda samarali bo’lgan usul-larni topish zarur.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari tomonidan bu o’rinda quyidagi ikki usul taklif etiladi:

1.Toifa va darajalarining ketma-ketligi aniq belgilangan ta’lim maqsadlarining puxta tizimini yaratish.

2.O'quv maqsadlarini ifodalovchi aniq va tushunarli til (tushunchalar)ni topish. Unga ko'ra pedagog bu til (tushunchalar) yordamida ta'lif maqsadlarini aniq ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

Ta'lif jarayonida o'quv maqsadlarini belgilashning eng to'g'ri yo'li o'qitish natijalarini aniqlashtirishdir. O'qitish natijasi qanchalik aniq ifodalansa, o'quv maqsadi shunchalik to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. "Pedagogik texnologiyada nazarda tutiladigan maqsadlarni qo'yish uslubi o'zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o'qitish maqsadlari magistrler harakatida ifodalanadigan va aniq ko'rindigan, o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi"¹².

Ko'plab rivojlangan xoriiy mamlakatlarda o'quv maqsadlari ikki xil nuqtai nazar asosida, ya'ni:

- 1) pedagog faoliyati;
- 2) magistr faoliyatidan kelib chiqib qo'yiladi.

Bu holat mantiqan to'g'ri, zero, o'qitish jarayoni ham pedagog, ham magistr faoliyati birligi asosida tashkil qilinadi.

Pedagog faoliyati nuqtai nazaridan kelib chiqib o'quv maqsadlarini qo'yishda maqsad: ma'lumot berish; tushuntirish; ko'rsatish; namoyish qilish; o'rgatish; izohlash; ta'riflash va h.k. fe'llar yordamida ifodalansa, magistr faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilash esa bilib olish, tushunish, anglash, xabardor bo'lish, ma'lumotga ega bo'lish, o'rganish, ta'rifni bilib olish va b. shaklida yoritiladi.

O'quv maqsadlari shunday qo'yilishi kerakki, u orqali o'qitish jarayonining yakunlanganligi, maqsadga erishganlik haqida ilk qadamdayoq tasavvur hosil bo'lsin. Aksariyat holatlarda magistr tomonidan ta'lif jarayonida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar o'qitish natijasini yoritishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lif, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil qilishda magistrlerning zimmasiga yuklatiladigan vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular o'qitish (tarbiyalash) natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

B.Farberman¹³ bu o'rinda quyidagicha yo'l tutish to'g'ri ekanligini aytadi:

- har bir vazifalar guruhini "Dars yakunida magistrler quyidagi larni bajara olishi lozim: ..." deb boshlash;
- har bir vazifani alohida-alohida belgilash, ya'ni raqamlash;

¹² Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent: "Fan"-2000, 36-bet

¹³ O'sha manba 37-bet

- har bir vazifani quyidagi fe'llar yordamida ifodalash: sanab o'tish, eslash, so'zlab berish, ko'rsatib berish, tanlash, hisoblash va h.k.;

- har bir vazifani magistrning so'zi bilan ifodalash, aslo, pedagogning so'zi bilan emas;

- har bir vazifa aniq bitta natijani ifodalanin, aslo, ikki-uchta vazifani emas;


- har bir vazifani shunday qo'yish kerakki, u pedagog tomonidan tashkil etiladigan dars bosqichlariga emas, dars jarayonida magistrning o'zini keyinchalik qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin;

- o'quv vazifalari shunday qo'yilishi kerakki, u yordamida magistr faoliyatini mezonlash va natijaga erishganlikni aniqlash mumkin bo'lsin;

- vazifalarni qo'yishda "magistrlar buni bajara oladilarmi?" degan savolga javob topishning imkonini bo'lsin.

Shuni yodda tutish zarurki, o'quv yoki tarbiyaviy maqsadlar pedagogga o'r ganilayotgan mavzu, bo'lim, fan bo'yicha magistrlarda qanday bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash, baholash kerakligidan ogoh etadi. Shunga ko'ra nazorat ishlarning og'zaki, yozma yoki test shaklida bo'lishi zarurligini anglatadi.

Ta'limga (o'quv) maqsadlarini shakllantirishda quyidagi andozaga tayanib ish ko'rish mumkin:



17-rasm. O'quv maqsadlarini shakllantirish andozasi

O'quv maqsadlarini shakllantirishda ta'limga jarayonidagi o'zarobog'liq ob'ektlarni inobatga olish, ularni tasniflash va tartibga solish ham muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng ko'lamba rivojlanib, ayni vaqtida ta'limga amaliyotida ham o'zining alohida o'miga ega fanlardan biri "Taksonomiya" sanaladi. "Taksonomiya" (yun. "taxis" – tartib bilan joylashtirish + "nomos" – qonun) tushunchasi dastlab biologiyada qo'llanilgan.

Manbalardan birida mazkur tushuncha quyidagicha ta'riflanadi: 1) butun borliqning murakkab, odatda, ierarxik tuzilmalgi sohalari (jonli tabiat, Yerning tuzilishi, geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va b.ga

taalluqli ob'ektlar)ni tasniflash va tartibga solish nazariyasi¹⁴; 2) butun borliqning murakkab, odatda, ierarxik tuzilmali sohalari (jonli tabiat, Yerning tuzilishi, geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va b.ga taalluqli ob'ektlar)ni tasniflash va tartibga solish to'g'risidagi fan.

Demak, mazmuniga ko'ra ob'ektlarni ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslangan holda murakkablashib boradigan toifalarni ketma-ketligida (ya'ni ierarxik tarzda) joylashtirilgan holda turkumlashtirish, tizimlashtirish "taksonomiya" deb ataladi. Bugungi kunda o'qtish amaliyotida toifa va darajalarning ketma-ketligi aniq belgilangan hamda ta'limga maqsadlarining puxta tizimi yaratilgan bo'lib, u "pedagogik taksonomiya" deb yuritiladi.

Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va xossasiga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishga ega ob'ektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasidir. Pedagogik maqsadlar birinchi marta AQSHlik olimlar tomonidan bunday sxema bo'yicha tuzilgan. Ikkinci Jahon urushidan so'ng bir guruh pedagog va psixologlar mashhur psixolog B.B. Blum rahbarligida pedagogik maqsadlarni qat'iy ifodalash va tartiblashtirish bo'yicha izlanishlar olib bordilar.

1956-yilda "Taksonomiya"ning dastlabki g'oyalari e'lon qilindi. Unda ta'limga maqsadlari bilish ehtiyojlarini rivojlantirish tarzida ifodalangan bo'lib, tizim xalqaro miqyosda keng ommalashdi. Bugungi kunga qadar ham bu tizimdan ta'limga jarayonini rejalashtirish va natijasini baholashda foydalanib kelinmoqda. O'tgan asrning 60-yillarida D.Kratvol va b. tomonidan pedagogik maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning navbatdagagi g'oyalari shakllantirildi.

Ta'limga maqsadlarining aniq, tartibli va ierarxik turkumini yaratishda quyidagi jihatlar inobatga olindi:

1.O'quv jarayonida asosiy e'tiborni ta'limga maqsadini aniqlashga qaratish. Pedagog taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat ta'limga maqsadlarini, balki pedagogik faoliyatining tartibini ham belgilashi mumkin.

2.Pedagog va magistrlarning o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatlarining aniq va oshkorligiga erishish. Ta'limga maqsadlarining aniqligi magistrlarga ularning umumiyligi faoliyatlaridagi asosiy yo'nalishlarni tushuntirish, ularni muhokama qilishga imkoniyat yaratibgina qolmay, shu bilan birga ta'limga jarayonining borishi va

¹⁴ O'zbek tilming izohli lug'ati. N – Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliev tah ostida Tahir hay'ati: E.Begmatov va b – Toshkent "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-2007, 646-bel.

natijalari bilan qiziquvchi shaxs (ota-on, tekshiruvchi)lar tomonidan ularni qiziqtirgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

3.Ta'lim natijalarini baholash andozasi (etaloni)ni yaratish. Faoliyat natijalari asosida aniq ifodalangan ta'lim maqsadlari, ularni ishonchli va xolisona baholash imkoniyatini yaratadi.

So`nggi yillar davomida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini yanada takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borildi va bir necha variantlar yaratildi. Amerikalik nazariyotchi B.Blum pedagogik taksonomiyaning asosiy kategoriyalarini asoslashga uringan. Olim tomonidan asoslangan 6 ta kate-goriya o'z mohiyatiga ko'ra pedagog va magistrning ta'limiy faoliyati mazmunini yoritishga xizmat qiladi (6-jadval).

6-jadval

B.Blini taksonomiyasi kategoriya (mezon)lari

No	Kategoriylar	Mazmuni
1.	Bilish	Bilim (axborot, ma'lumot, tushuncha, ta'rif, dalil, nazariya, tamoyil, qoida va b.)dan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi
2.	Tushunish	Bilim (axborot, ma'lumot, tushuncha, ta'rif, dalil, nazariya, tamoyil, qoida va b.) yuzasidan mushohada yuritish, fikrlash, nazariy holatdan amaliyotga ko'chirish mantig'ini o'zlashtirish
3.	Foydalinish	Bilim (axborot, ma'lumot, tushuncha, ta'rif, dalil, nazariya, tamoyil, qoida va b.)ni amaliyot (amaliy harakatlari)da qo'llash
4.	Tahsil qilish	Mayjud bilimga tayangan holda yaxlit, bir butun ob'ekt, hodisa, voqelik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish
5.	Sintezlash	Mayjud bilim (axborot, ma'lumot, tushuncha, ta'rif, dalil, nazariya, tamoyil, qoida va b.)ga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun ob'ekt, hodisa, voqelik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish
6.	Baholash	Magistrning nazariy bilim (axborot, ma'lumot, tushuncha, ta'rif, dalil, nazariya, tamoyil, qoida va b.) hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash

Pedagogik taksonomiyada pedagog va magistrning o'quv mashg'uloti yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida tashkil etiladigan xatti-harakatlari inobatga olimadi. Chunki amaliy harakatlari asosidagina o'quv yoki tarbiyaviy maqsad mohiyatini anglab yetish mumkin. Uzoq yillar davomida pedagogik taksonomiyada o'quv mashg'uloti (tarbiya)

jarayonida pedagog va magistr tomonidan tashkil etiladigan va maqsadning natijalanishi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan holat (fe'l)larni aniqlashga e'tibor qaratib kelindi. Amerikalik olim B.Blum tomonidan belgilangan fe'llar bu boradagi eng samarali tizim sifatida e'tirof etildi. B.Blum yuqorida qayd etilgan 6 ta kategoriya (mezon) asosida pedagog, magistr faoliyatidan kelib chiqqan holda o'quv maqsadlarini ifodalash uchun qulay bo'lgan fe'llar ro'yxatini ishlab chiqadi (7-jadval).

7-jadval

B.Blum taksonomiyasi kategoriyalarini ifodalovchi fe'llar

Nº	Kategoriya (mezon)lar	Kategoriya (mezon)larga mos fe'llar ro'yxati
1	Bilish	Aytish Yozish Yodga olish Yodda tutish Axborot berish
2	Tushuntirish	Tushuntirish Dalillash Almashtirish Belgilash Ko'chirish
3	Foydalanish	Tatbiq qilish Hisoblash chiqish Namoyish etish Foydalanish O'qitish
4	Tahlil qilish	Faraz qilish Oldindan ko'rish Keltirib chiqarish Ajratish Turlash
5	Sintezlash	Rejalashtirish Ishlab chiqish Tuzish Loyihalash Umumlashtirish
6	Baholash	Tashxislash Nazorat qilish Tekshirish O'Ichash Taqqoslash

B.Blum taksonomiysi yordamida pedagog nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq holda qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga erishiladi. Shuningdek, pedagog magistrlarga ularning bilish faoliyati mazmunini tushuntirish, yakuniy natijani belgilash va magistrlar faoliyatini natija sari yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, magistrlarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish monitoringi shakllantiriladi.

Pedagogik taksonomiya test topshiriqlarini tuzishda ham muayyan qulayliklarni yaratadi. Unga ko'ra ta'lim maqsadlari dastlab taksonomiya toifalari bo'yicha umumiylar tarzda aniqlanadi. So'ngra mos keluvchi va yakuniy natijani yaqqol ifodalovchi fe'l so'z turkumiga oid so'z tanlanib test topshiriqlari tuziladi.

Quyida B.Blum taksonomiysi asosida pedagog va magistr faoliyati toifalarini ifodalovchi fe'llarning qisqachi ro'yxati namuna sifatida keltiriladi:

1. Bilish:

- dalillarni bilish, atamalarni bilish;
- dalillarni tanlash usulini bilish;
- belgilarni bilish;
- rivojlanish an'anasi bilish;
- turkumlashni bilish;
- baholash mezonlarini bilish;
- muayyan bir yoki bir necha muammoni hal qilishda qo'llaniladigan uslublarni bilish;
- umumiylar tushunchalar hamda nazariyalarni bilish;
- hodisalarini tushuntirish va ularni oldindan ko'ra olish tamoyillarini bilish.

2. Tushunish:

- mazmunini bir til (tizim)dan boshqasiga aylantirish;
 - izohlash;
 - olingan natijalarini ominalashtirish yoki amaliyotga tatbiq etish.
3. Qo'llash (uslub, qoida, nazariya, ta'rif va umumiylar tushunchalarini vaziyyadan kelib chiqib, topshiriqlarni hal qilishda qo'llash).

4. Tahlil qilish:

- bir butun narsa (hodisa)ni qismlarga ajratish, ular o'rtaсидаги bog'lanishni tuzish;
- qismlarni tahlil qilish;
- yaxlitlikni hosil qilish.

5. Sintezlash, ya’ni yangi tarkib hosil qilish maqsadida mavjud tarkibiy qismlarni umumlashtirish:

- asar yozish;
- ish faoliyati rejasini tuzish;
- berilganlarga asoslanib yaxlit yaratish;
- insho yozish.

6. Baholash, ya’ni maqsadga muvofiq holda qo’llanilgan material yoki uslublarni baholash (munosabat bildirish):

- ichki mezonlar asosida baholash;
- tashqi mezonlar asosida baholash;

Ta’lim maqsadlarini taksonomiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ya’ni:

- 1) o’quv fanini o’qitilishining umumiyyatini maqsadi aniqlanadi;
- 2) kundalik va joriy o’quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi.

Qismlarga ajratib aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo’limlari, qatorda esa magistrning bu bo’limlarni o’zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari joylashtiriladi.

O’tgan asrning 50-60-yillarda o’quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakat mohiyatiga ko’ra yaxlit ifodalash texnologiyasi – bixevoirizm g’oyasi shakllandi.

Bixevoirizm (ing. “behaviour” – xulq, xatti-harakat) – inson ruhiyatini faqatgina u tomonidan bevosita ifodalangan va kuzatish imkoniyati bo’lgan xatti-harakat, nutq asosida tahlil qilinishi, o’rganilishini yoqlovchi ta’limotdir.

Amerika psixologiyasining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lgan bixevoirizm o’ta amaliy xarakterga ega. Ta’lim maqsadlarini bixevoiristik usulda alohida qismlarga ajratish ularni tashqaridan kuzatiladigan xatti-harakatlarga aylantirish, ya’ni qat’iy nazorat qilish mumkin bo’lgan harakatlar bilan ifodalash sanaladi. Masalan, “tanimtirish”, “qaytarish”, “yozib olish” so’zları, “bilish”, va “tushunish” ifodalariga nisbatan aniqliqdır. Shuning uchun ham, o’quv maqsadlarini aniqlashga oid metodik ko’rsatmalarda pedagoglarga “bilib olish”, “o’z uchun kashf etish”, “idrok qilish”, “seza olish”, “tushunish” kabi umumiyyat ma’no beruvchi so’zlar o’rniga “tanlash”, “nomini aytish”, “sanab berish”, “yozma ifodalash”, “ta’riflash”, “ko’rsatish” kabi ifodalarning qo’llanilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri sanaladi. Pedagogik jarayonni loyihalash muvaffaqiyati pedagog tomonidan

pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish; natijalarni oldindin ko'ra bilish; rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalarning samarali hal qilinishi bilan belgilanadi. Tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning uch muhim omilidir. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik vazifalarning bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Shunga ko'ra pedagogik vazifalarni belgilab olish nihoyatda muhim. Ayrim holatlarda tajribali pedagoglarning ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qarashlari tufayli pedagogik faoliyatda nomutanosibligi vujudga keladi. Pedagogik vazifani anglash mayjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika amaliyotida pedagogik-psixologik tashxisdan samarali foydalanilmoqda. U pedagogik faoliyatda o'quv ma'lumotlarini loyihalash, kutilgan natijalarga erishish uchun maqsad (o'quv maqsadi yoki tarbiyaviy maqsad)ning aniq qo'yilishi va to'la amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik maqsadlarning nihoyatda aniq belgilanishi kutilgan natijaga erishganlikni to'g'ri baholashga yordam beradi. Natijada magistr shaxsining rivojlanish darajasini, shuningdek, pedagog faoliyatida ko'zga tashlanuvchi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf qilish imkoniyati yuzaga kela-di. Shu sababli ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning ta'lim maqsadlarini aniqlash va kutilayotgan natijani avvaldan bashorat-lash imkoniyatiga ega bo'lishlari zamonaviy ta'limni samarali tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik maqsadlar o'zida o'qitish jarayonining yakunlanganligi, maqsadga erishganlik haqida ilk qadamdayoq tasavvurni hosil qilishi lozim. Ularni shakllantirishda ta'lim jarayonidagi o'zaro bog'liq ob'ektlarni inobatga olish, ularni tasniflash va tartibga solish imkoniyatini yaratuvchi pedagogik taksonomiya alohida o'rinn tutadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish" Toshkent: "Fan va texnologiya" - 2008.
- 2.Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi: "Nasaf"- 2000.
- 3.Qosimov A.X., Holikova F.A. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar". Ma'ruzalar matni. Toshkent: "TATU"- 2004.
- 4.Madiyarova S.A. va b. ."Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". Toshkent: "Iqtisod-moliya"-2009.

5.Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". Toshkent: "Oliy pedagogika instituti"- 2003.

6.Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Toshkent: "Moliya"- 2003.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik jarayonni loyihalash nima?
2. Pedagogik jarayonni loyihalashda qanday vazifalar bajariladi?
3. Tashxis nima?
4. Pedagogik-psixologik tashxis asosini nimalar tashkil etadi?
5. Qanday metodlar oldindan ko'ra bilish metodlari hisoblanadi?
6. Texnologik pasport nima?
7. Oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotining texnologik pasportida qanday ma'lumotlar yoritiladi?
8. Umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida tashkil etiladigan darslarning texnologik pasportidan qanday ma'lumotlar o'rinn oladi?
9. Pedagogik maqsad nima?
- 10.B.Farberman ta'lif va tarbiya maqsadlarini belgilash yuzasidan qanday tavsiyalarni beradi?
- 11.Pedagogik taksonomiya nima?
- 12.B.Blum taksonomiyasi o'zida nimani ifodalaydi?
- 13.Ta'lif maqsadlarini taksonomiya asosida aniqlashtirish necha bosqichda amalga oshiriladi?
- 14.Bixevoirizm qanday ta'lifot?

Test topshirqlari:

1. Pedagogik jarayonni loyihalash qanday uchlik asosida amalga oshiriladi?

- a) pedagog – magistr – magistrlar jamoasi;
- b) loyiha – mazmun – faoliyat;
- c) ta'lif shakli – ta'lif metodlari – ta'lif vositalari;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

2.Texnologik yondashuvga ko'ra pedagogik vazifani hal qilishda qanday omillarga tayaniladi?

a) maqsadni aniq belgilash, vazifalarni aniqlash, ta'lif metodlarini tanlash;

b) pedagog faoliyatini belgilash, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, magistrlar faoliyatini nazorat qilish;

- c) tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash;
- d) barcha javoblar noto g'ri.

3. Loyihaning maqsadi qog'ozda qanday ko'rinishda aks ettiriladi?

- a) taqvim-reja, qisqacha yozma bayon (annotatsiya) ko'rinishida;
- b) ish rejasi, jadval ko'rinishida;
- c) o'quv dasturi, texnologik pasport ko'rinishida;
- d) barcha javoblar noto g'ri.

4. Loyihalashda nimalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi?

- a) o'quv predmeti, o quv dasturi, ilg'or ish tajribalari;
- b) o'quv dasturi, o'quv rejasi va davlat ta'lim standartlari;
- c) o'quv rejasi, o'quv dasturi, darslik, metodik tavsiya, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

5. Pedagogik jarayonni loyihalashtirishda vazifalar qanday tartibda belgilanadi?

- a) umumiy, bosqichli va vaziyatli pedagogik vazifalar;
- b) asosiy, ikkinchi darajali va umumiy vazifalar;
- c) boshlang'ich, asosiy va yakuniy vazifalar;
- d) to'g'ri javob yo'q

6. Pedagogik-psixologik tashxis – bu:

- a) magistrler faoliyati samaradorligini baholash;
- b) pedagogik jarayonni uning umumiy holati, tarkibiy qismlarini har tomonlama, yaxlit tekshirish orqali baholash;
- c) magistrlarning yosh, psixologik xususiyatlarini o'r ganish asosida uning shaxsini baholash;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Pedagogik-psixologik tashxis necha turga bo'linadi?

- a) qisqa va uzoq muddatli tekshiruvga asoslanuvchi tashxis;
- b) tezkor va davomli tashxis;
- c) jamoani va alohida magistr shaxsini o'r ganuvchi tashxis;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

8. Pedagogik bashoratlash metodlari qaysilar?

- a) suhbat, intervyu, test, nazariy tahlil, maktab hujjatlarini o'r ganish;

- b) nazariy-kontent, qiyoslash, pedagogik tajriba, ma'lumotlarni umumlashtirish, matematik-statistika;
- c) modellashtirish, faraz qilish, sintezlash, dalillash, fikriy tajriba va b.;
- d) to'g'ri javob yo'q.

9. Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagog duch keladigan muammo nima?

- a) pedagogik maqsadni belgilash;
- b) pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash;
- c) pedagogik vositalarni tanlash;
- d) pedagogik faoliyatni to'g'ri rejulashtirish.

10. Ta'lif yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirming asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat – bu ...

- a) texnologik pasport;
- b) texnologik loyiha;
- c) texnologik xarita;
- d) texnologik ishlanma.

11. Oliy o'quv yurtlarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotining texnologik pasportida qanday ma'lumotlar o'z aksini topadi?

- a) mashg'ulot mavzusi; ma'ruzaga ajratilgan vaqt; magistrler soni; o'quv mashg'ulotining shakli va turi; o'quv mashg'ulotining tuzilishi;
- b) o'quv mashg'ulotning maqsadi; pedagogik vazifalar; o'quv faoliyati natijalari; ta'lif metodlari;
- c) ta'lifni tashkil etish shakli; didaktik vositalar; ta'lifni tashkil etish sharoiti; nazorat shakli;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

12. Umumiy ta'lif, o'rta maxsus ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan darsning texnologik pasportida qanday ma'lumotlar yoritiladi?

- a) dars (mashg'ulot) uchun ajratilgan vaqt; magistrler soni; darsning turi;
- b) darsning tuzilishi;
- c) darsning maqsadi; didaktik va tarbiyaviy vazifalar; dars samarasi (natijasi); darsda qo'llaniladigan ta'lif metodlari;
- d) darsning tashkiliy shakli; didaktik vositalar; darsni tashkil etish sharoiti; magistrler faoliyatini nazorat qilish va baholash shakli
- d) barcha javoblar to'g'ri.

13.Pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hujjat qanday ataladi?

- a) texnologik ko'rsatma;
- b) texnologik loyiha;
- c) texnologik pasport;
- d) texnologik xarita.

14.Umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasida qanday ma'lumotlar o'z ifodasin topadi?

- a) fan, sinf, dars, sana, mavzu, maqsadlar (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar);
- b) darsning chorakdagi o'rni, dars turi, tayanch tushunchalar, fanlararo aloqadorlik;
- c) ta'lim vositalari, pedagogik faoliyat shakli, dars uchun belgilangan shior, darsning borishi (dars bosqichlari, metod va usullar, faoliyat mazmuni);
- d) barcha javoblar to'g'ri.

15.Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasida qanday ma'lumotlar yoritiladi?

- a) ish bosqichlari va vaqt;
- b) pedagog hamda magistrning faoliyati mazmuni;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

16.Muayyan o'quv yoki tarbiyaviy tadbir materiali bo'yicha pedagog tomonidan magistriga bilim, ma'lumotlarni uzatish, ta'lim, tarbiyaning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi, ularda muayyan sifatlarni hosil qiluvchi yetakchi g'oya, muddao – bu ...

- a) pedagogik maqsad;
- b) pedagogik nazariya;
- c) pedagogik qarash;
- d) pedagogik yondashuv.

17.M.V.Klarinning fikriga ko'ra o'quv va tarbiyaviy maqsadlarni belgilashda qanday omillar inobatga olinishi lozim?

- a) o'quv materialining mazmuni; pedagogik faoliyat rejasи;
- b) magistrning rivojlanish darajasi; magistrlar faoliyati;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

18.Ta'lrim (o'quv) maqsadlarini shakllantirishda qanday andozaga tayanib ish ko'rish lozim?

- a) o'quv mashg'ulotining umumiyl maqsadi → o'quv mashg'ulotining xususiy maqsadi;
- b) o'quv mashg'ulotining umumiyl maqsadi → o'quv mashg'ulotining xususiy maqsadi → taqqoslanadigan o'quv maqsadi;
- c) o'quv mashg'ulotining umumiyl maqsadi → taqqoslanadigan o'quv maqsadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

19.Pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va xossasiga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishga ega ob'ektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi qanday nomlanadi?

- a) pedagogik ta'lilot;
- b) pedagogik innovatsiya;
- c) pedagogik texnologiya;
- d) pedagogik taksonomiya.

20.Amerikalik nazariyotchi B.Blum tomonidan asoslangan pedagogik taksonomiya nechta kategoriyadan iborat?

- a) 2 ta;
- b) 4 ta;
- c) 6 ta;
- d) to'g'ri javob yo'q.

21.Pedagogik taksonomiyaning amerikalik olim B.Blum tomonidan asoslangan kategoriyalari qaysilar?

- a) yodga olish; izohlash; hikoya qilish; sintezlash; sinovdan o'tkazish; baholash;
- b) bilish; ta'riflash; turkumlashtirish; umumlashtirish; foydalanish; xulosalash;
- c) bilish; tushunish; foydalanish; tahlil qilish; sintezlash; baholash;

d) aniqlash; izohlash; tatbiq etish; qayta tiklash; tahlil qilish; o'rghanish.

22.Ta'lim maqsadlarini taksonomiya asosida aniqlashtirish necha bosqichda amalga oshiriladi?

- a) bir bosqichda;
- b) ikki bosqichda;
- c) uch bosqichda;
- d) to'rt bosqichda.

23.Inson ruhiyatini faqatgina u tomondan bevosita ifodalangan va kuzatish imkoniyati bo'lgan xatti-harakat. nutq asosida tahlil qilinishi, o'rqnalishini yoqlovchi ta'lilot qanday nomlanadi?

- a) pedagogik texnologiya;
- b) pedagogik taksonomiya;
- c) pedagogik innovatika;
- d) bixevorizm.

24.Bixevorizm ta'lomi qachon asoslangan?

- a) XX asrning 20-30-yillarida;
- b) XX asrning 30-40-yillarida;
- c) XX asrning 40-50-yillarida;
- d) XX asrning 50-60-yillarida.

TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Reja:

- 1.Ta'lism texnologiyalarining umumiy mohiyati.**
- 2.Ta'lism jarayonini loyihalash bosqichlari.**
- 3.Ta'lism jarayonini loyihalash qonuniyatları va tamoyillari.**
- 4.Ta'lism texnologiyasi pedagogik tizimi elementlari.**
- 5.Ta'lism jarayonini tashkil etish shartlari va ta'lism texnologiyasining funksional tuzilmasi.**

Tayanch tushunchalar: ta'lism, ta'lism texnologiyalari, ta'lism jarayonini loyihalashtirish, ta'lism jarayonini loyihalashga texnologik yondashuv, ta'lism jarayonini loyihalashga texnologik yondashuv bosqichlari, ta'lism texnologiyasining pedagogik tizimi, ta'lism texnologiyasining pedagogik tizimi elementlari, ta'lism texnologiyasining funksional tuzilmasi.

Ta'lism texnologiyalarining umumiy mohiyati. Ta'lism jarayonini "texnologik" tashkil etishning umumiy mezoni sifatida uning aniq va puxta o'ylangan maqsadga yo'naltirilganligi qabul qilingan. Bunda asosiy (umumiy) va juz'iy maqsadlarni amalga oshirish uchun muayyan qonuniyat, jarayon, tizim hamda unga mos amallar majmui taqozo etiladi. Pedagogik texnologiyaning vositaviy yo'naltirilganligi uning keng imkoniyatlarga egaligini belgilab beradi. Bu o'rinda ta'lismning tashkiliy jihatlari avvaldan go'yo tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalga oshirilishi talab etiladigan jarayonlarni tahlil etish, ularni saralash o'quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda yo'lga qo'yiladi.

O'quv mashg'uloti uchun ta'lism metodlarini tanlashning muhim sharti —magistrlarning bilim darajalarini oldindan tashxislash, ularning ko'nikma va malakalarini mavjud me'yoriy talablar bilan taqqoslash hisoblanadi.

Ta'lism jarayoni magistrlarning belgilangan maqsad asosida harakat qilishlarini uzlusiz nazorat qilishni nazarda tutadi. Pedagogik texnologiya ta'lism maqsadiga tashkiliy-uslubiy vositalar yordamida erishish mumkinligini ifodalaydi. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor bilimlarni uzatish va magistrlar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni darajasini aniqlash maqsadida nazoratni yo'lga qo'yish borasidagi

harakatlar tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lsa, metodlar majmuasini tanlash asosan amaliy (yoki tajriba) asosda amalga oshiriladi.

Texnologik yondashuv ta'lif samaradorligiga erishish, ta'lif jarayonining mazmunini, magistriga ilmiy bilimlarni turli vositalar yordamida yetkazib berishni nazarda tutadi. Ta'lif natijasi samarali o'zlashtirilgan bilim, pedagog va magistrlarning birgalikdagi tadqiqotchilik faoliyati, bu borada orttirilgan tajriba hamda magistrlarda axloqiy-hissiy sifatlarning shakklanganligi bilan belgilanadi.

Ta'lif maqsadlarini, baholash mezonlarini, ta'limiy sharoitlarni takroriy hosil qilish asosida tarbiyaviy faoliyat jarayoniga ham pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish mumkin. Shu tarzda pedagogik texnologiyaning asl mohiyati namoyon bo'ladi, shuningdek, o'quv va tarbiyaviy faoliyat o'rtaсидagi tafovut barhain topadi. Ta'lif texnologiyasi ta'lif maqsadlarini aniqlashtirish, yaxlit jarayonni qismrlarga ajratish, ta'lif natijalarini standartlashtirish, ta'lif jarayonidagi samarali teskari aloqa, avtomatlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish kabi muhim ta'lifiy muammolarni ijobiy hal qilish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etishda mavjud pedagogik tajribani inobatga olish, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lif jarayoniga nisbatan samarali yondashuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni, ma'lum vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Ta'lif jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Chunonchi, didaktik maqsadlar ro'yxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lif jarayonini loyihalash, ta'lif jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtaсидagi muvofiqlikni ta'minlash, magistrlar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha magistrlar bilim, ko'nikma, malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va h.k.

O'quv qo'llanmasining avvalgi o'rinalarida ayтиб o'tilganidek, "ta'lif texnologiyasi" tushunchasini sharhlashda yagona to'xtamga kelinmagan. Avval ko'rsatib o'tilganidek, quyidagi ta'rif "ta'lif texnologiyasi" tushunchasi mohiyatini yetarli darajada yoritadi:

Ta'lif texnologiyasi – ta'lif maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lif jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq

maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish asosida ta'lim jarayonini samarali boshqarishdir.


Ta'lim jarayoni butun mashg'ulot davomida magistr faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda uyg'otib borishni nazarda tutadi. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya magistrlarni tezkorlik bilan o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'limgan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi. Bunday holatlar ko'pincha pedagogning magistriga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga olib keladi. Natija magistrda ortiqcha hissiyotlarga berilish, o'quv faoliyatiga undovchi rag'batining pasayishi, o'qishdan bezishi, o'quv predmeti va pedagogga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga sabab bo'ladi. Pedagog va magistr orasidagi munosabat insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etilib, noxush hissiyotlarni bartaraf etishga yo'naltirilishi lozim. Pedagogik munosabatda erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o'quv faoliyatiga chanqoqlik bilan intilish birgalikdagi ijodiy muloqotga chorlashi kerak. Ta'lim jarayonida magistr shaxsiga nisbatan hurmatsizlik bilan yondoshilganda ko'zda tutilgan talabchanlikka, ayniqsa, ongli intizomni o'rnatishga erishish mumkin emas.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzlusizligini ta'minlashga erishish masalalari yetuk mutasakkirlar, ilg'or pedagoglarning diqqat-e'tiborlarini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasini tashkil etishning bu jihatlari o'z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ya.A.Komenskiy, D.K.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy va b. tomonidan o'r ganilgan.

Axborotlar almashinuvining globallashuvi, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o'sib borishi o'z-o'zidan magistrlarga ular borasida tezkor sur'atda va bat afsil ma'lumotlar berishni kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy, amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay, maqbul shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o'quv manbalari (o'quv dasturi, rejasi, darslik, qo'llanmalar) saviyasi, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Pedagogning ta'lif jarayonini loyihalashga qaratilgan harakati texnologik yondashuv mohiyatini ifodalaydi. Ta'lif jarayonini loyihalashga nisbatan texnologik yondashuv muayyan xususiyatlarga ega. Davriy ketma-ketlik texnologik yondashuvning muhim xususiyati sanaladi. U pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi va rejalashtirilgan standart natijalarga erishish imkonini beradi. Ta'limning to'liq standartlashtirilishi texnologik yondashuvga xos bo'lib, u pedagog hamda magistr o'tasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Pedagogning ta'lif jarayonini loyihalashga qaratilgan faoliyati quyidagi asosiy bosqichlardan iborat (17-rasm):



17-rasm. O'quv jarayonini loyihalash bosqichlari

Bosqichlar ketma-ketligining mohiyati pedagog harakatlarining davriy, takrorlanuvchanligini ifodalaydi. Bosqichlarning bir-biriga muvofiq ravishda ketma-ket kelishi pedagog harakatining muayyan maqsad, aniq nazorat usullari hamda ta'lif shakli asosida bir necha marotaba takrorlanib borishi hisobiga nihoyasiga yetkazilishini anglatadi.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lif jarayoniga nisbatan samarali yondashuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni, ma'lum vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni" ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Ta'lif jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobjiy hal etishni taqozo qiladi. Chunonchi, didaktik maqsadlar ro'yxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lif

jarayonini loyihalash, ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, magistrlar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha magistrlar bilim, ko'nikma va malakalarini darajalarining tenglashuviga erishish va h.k.

Pedagog faoliyatida kelajakka mo'ljallangan va tezkor loyihalash turli darslarda turlicha moslashtiriladi. Pedagog loyihalashga kirishda xoh u dars, xoh u tarbiyaviy tadbir bo'lsin, har bir pedagogik vazifaning yaxlit pedagogik jarayon tizimidagi o'rmini bilishi lozim. Malakali, tizimli modellashtirish layoqatiga ega pedagoglar davomli texnologiyalarni yarata oladilar. Ular muayyan sharoitga mos (lokal) modellashtirishni amalgaloshira olish layoqatiga ega pedagolgardan keskin farqlanadilar. Binobarin, ikkinchi guruh pedagoglari faoliyatida yaxlit fan (yoki pedagogik jarayon) emas, balki dars (yoki tarbiyaviy tadbir) texnologiyasi yetakchi o'rinni tutadi. Agar pedagog faoliyati magistrlarning talablarini qondirish, ya'ni, yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda pedagog yaxlit pedagogik jarayonni yoki alohida dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda ham qiyinchilikka duch kelmaydi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili – muayyan, yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, magistrlar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash, ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iborat. Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish qiyadagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish va yaxlitlashdan iborat. O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish pedagog uchun magistrlar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu (faoliyat mazmuni) xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiylarini tasavvur etish imkonini beradi.

2-bosqich. Ikkinci bosqich o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiylarini maqsadni aniq belgilash, umumiylarini maqsad doirasida kichik bo'lim (band)lar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi pedagog, shuningdek, magistrlar faoliyatini muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtidan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart-sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi o'quv predmeti (faoliyat mazmuni)ning mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, vazifalarni qayd etish bilan taysisflanadi.

3-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifalariga tayanilgan holda, o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, magistrler tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi magistrler tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi magistrler tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarining ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi sanalgan, to'rtinchı bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlardan amalga oshiriladi. Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulot shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar magistrlarga uzatiladi va ular tomonidan bu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyib 90 % lik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaliviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. Magistrlarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turki beradi. Mana shu holatdagina magistrler tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, pedagogning zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish,

murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko`rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.


5-bosqich. Magistrlar tomonidan bilim, ko`nikma va malakalarning o`zlashtirilishi uchun yetarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya`ni, muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko`nikma va malakalarning qancha vaqt oralig'ida o`zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6-bosqich. Oltinchi bosqichda mashq (topshiriq)lar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan mashq (topshiriq)lar tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi. Bu bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: a) mashg'ulot vaqtida magistrlar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan mashqlar; b) darsdan tashqarida bajarilishi ko`zda tutilgan mashqlar (uy vazifalar). Magistrlar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir-birini to`ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyusion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7-bosqich. Ta'lif jarayonini loyihalashtirishning yettinchi bosqichida magistrlarning umumiyligi faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini yaratish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi magistrlarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan muayyan tushunchalarni o`zlashtirish, shuningdek, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-biri bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.


8-bosqich. Ta'lif jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ni ta'lif jarayoniga tadbiq etish, ta'lif jarayonining yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan nihoyananadi. Bu bosqichda ta'lif jarayonining umumiyligi ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi (18-rasm).

Demak, har bir bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o`rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lif jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ta'lif jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyat (o`quv jarayoni)ning muvaffaqiyatini ta'minlashga olib keladi.



18-rasm. O'quv jarayonini loyihalash bosqichlari

Yuqoridagi fikrlarga muvofiq ta'lim texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namoyon bo'ladi (19-rasm):



19-rasm. Ta'lim texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatları va tamoyillari. Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning asosiy yo nalishlaridan biri – o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishdan iboratdir. Jarayon samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarga amal

qilish muhim ahamiyatga ega: 1) pedagoglar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi; 2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lifi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish – o'quv jarayonining ta'lim maqsadi (yoki maqsadlari)ga erishishni kafolatlovchi usul va vositalar bilan ta'minlanganligi bo'lib, u yaxlit jarayonda har bir elementni bosqichma-bosqich yorituvchi pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Loyihalashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqishdir.

Ta'limning to'laligicha standartlashtirishga yo'naltirilganligi texnologik yondashuvga xos bo'lib, u didaktikada ta'limning asosiy jihatlaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi va keyingi yillarda butun jahon pedagogikasining tadqiqot ob'ektiga aylangan pedagog hamda magistr o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyihami yaratish (1);
- magistrlar faoliyatini tashxislash (2);
- pedagogik jarayonni tashkil etish (3),
- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash (4);
- magistrlar faoliyatini nazorat qilish (5)ni o'z ichiga oladi (20-rasm).


Pedagogik vazifaning hal etilishiga pedagog va magistr faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasiga muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. Pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash – pedagog kasbiy faoliyatining muayyan ko'rinishi bo'lib, pedagogning ta'lim jarayonining texnologik tuzilma, natijasini ta'minlovchi metod, vositalar yig'indisi bilan tavsiflanadi. Ta'lim jarayonini loyihalash mahsuli o'quv loyihasi sanaladi.



20-rasm. Ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari

Ta'lif jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi elementlardan iborat (21-rasm):



21-rasm. Ta'lif jarayoniga texnologik yondashuv elementlari

Ko'rsatilgan tarkibiy qismlarning dastlabki to'rttasi pedagog faoliyati va uning boshqaruvini, beshinchisi esa bevosita pedagog va maktab ma'muriyati boshqaruvini ifodalaydi.

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lif jarayonini loyihalashni bir necha qonuniyatlar ajratildi, chunonchi:

- 1) ta'lif jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada naqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlandi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariiga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq).

Ta'lim jarayonini loyihalash doirasida magistrlar faoliyatini nazorat qilish muhim o'rinni tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham pedagogdan alohida malakali yondashuvni talab etadi.

Nazorat jarayonini loyihalash – pedagog tomonidan magistrlar faoliyatini izchil kuzatish, zaruriyat bo'lganda to'g'rilash, ularning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida sinovlarni tashkil etish imkonini beruvchi metod va vositalar yig'indisini hosil qilishdir.

Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirishda ma'lum shartlar inobatga olinishi zarur. Chunonchi:

- ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi;
- talabalar faoliyati tavsifining ta'lim natijalariga bog'liqligi;
- magistrlarning yosh, individual xususiyatlari bilan o'zaro muvofiq kelishi;

-ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilishi va h.k.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonini loyihalashda muayyan tamoyillariga tayaniladi. Ayni o'rinda, dastlab, "tamoyil" tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur.

Tamoyil (lot. "principium" – boshlang'ich, asos) – muayyan nazariya, fan, dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy tuzilma va h.k.ning asosiy boshlang'ich holati. Bu tushuncha, shuningdek, ma'lum faoliyatning yetakchi g'oyalari, asosiy qoidalari sifatida ham keng qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda tamoyillar asosiy yondashuv, faoliyat tuzilmalarini aniqlovchi me'yor va muvofiqlashtiruvchi talablar vazifasini bajaradi. Loyihalash tamoyillari nafaqat me'yoriy, balki tavsify vazifani ham bajarib, faoliyat mohiyatini ochib beruvchi umumlashma talablar sifatida tavsiflanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqlar ham modellashtiriladi.

Tizimlilik tizimlashtiriluvchi elementlarni ajratish, ular o'rtasidagi aloqlarni ifodalash orqali jarayonni yaxlit tarzda loyihalashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatları loyihalash

tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari quyidagilardir (22-rasm):



22-rasm. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda magistrler faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va magistr faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini magistrlarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiyligi maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiyligi o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir element (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur. Magistrlar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, magistrning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni magistrlar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (pedagog faoliyati)ni asoslash.

2. Refleksivlik tamoyili sub'ektning o'ziga shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi

hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida pedagogga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, magistrlarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to`ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlarini, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzlusiz tuzatib, to`ldirib borishni talab etadi.

3.Natijaviylik tamoyili – pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o`zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o`quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4.Ko`p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ekтив omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga pedagog va magistrlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o`quv muassasasining o`quv-moddiy bazasi, pedagoglarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, magistrlarning o`quv imkoniyatlari, sinfnинг intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda pedagog ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

5.Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Yoshlar oliv o`quv yurti ostonasiga qadam qo`yanidan boshlab uning faoliyat ko`lami (o`z-o`ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko`nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo`lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo`lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va b. faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni magistrlar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta`minlanishi zarur.

Ayni vaqtda umumiyligi ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlargacha muvofiq psixolog va sotsioglarning ishtiroklari (PPT xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

6.Ta'limda tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, magistrlarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi

bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, magistrler tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. Pedagog faoliyatini tashkil etishda e'tibor birinchi navbatda faoliyat usullari va jarayonlarining o'zaro muvofiq bo'lishiga qaratiladi. Bu holat me'yoriy talab sifatida qabul qilinadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim magistriga o'quv materialining mazmunini, vazifa (topshiriq)larni, faoliyat usullari va uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati magistrni qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni magistriga taklif etish maqsadga muvofiq.

Pedagogning vazifalaridan biri o'quv maqsadiga muvofiq talabaning ichki intilishi, rag'batisi (motivi)ni rivojlantirishdir.

Loyihalashda magistrni o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Texnologik jarayonni boshqarishda pedagogning faoliyati texnologik operatsiyalar tarzida tashkil etiladi.

Texnologik operatsiya – o'quv faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, magistr faoliyati va o'quv materiali mazmunining o'zaro birligi sifatida o'quvchini ta'limning muayyan bosqichidan keyingi bosqich, yuqoriqoq darajaga o'tishini ta'minlaydi.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan barcha vositalar o'zaro bog'liq moddiy (darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali, namoyishli vositalar, laboratoriya jihozlari va h.k.) va ma'naviy (teskari aloqa, pedagog yoki magistr namunasi, xatti-harakatlari, nutqi va b.) kabi guruhlarga ajratiladi.

Ta'lim vaqtida pedagog loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatlari, ya'ni, kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o'z-o'zini anglashi va h.k. namoyon bo'ladi. O'qitish jarayonini loyihalashda pedagog loyihami va bajaruvchi sifatida loyihami amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi.

7.Axborot ta'minotini loyihalash tamoyili ta'lim jarayoni loyihasida axborot ta'minoti shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda e'tibor axborot manbalari bo'lgan darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, yordamchi adabiyotlar, lug'atlar, xrestomatiyalar, atlaslar va h.k.ni yaratishga qaratiladi.

Davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturlari ham axborot ta'minotini tashkil etuvchi eng muhim vositalardir.

8.Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni ta'minlashni anglatadi. Ta'lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy loyihalash ta'lim menedjerining vazifasidir. Barcha ta'lim muassasalari faoliyatini loyihalashda ta'lim jarayoni ishtirokchilari, jamiyat hamda davlat (ijtimoiy buyurtma)ning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni to'ldirishi zarur.

Ta'lim texnologiyasining pedagogik tizimi elementlari. Pedagog olim V.P.Bespalko¹⁵ ta'lim texnologiyasining asosi bo'lgan pedagogik tizimning quyidagi elementlardan tashkil topganligini ko'rsatib o'tadi:

1)o'quvchi (*talaba*); 2)ta'lim maqsadi; 3)ta'lim mazmuni; 4)o'quv jarayoni; 5)o'qituvchi (*pedagog*) yoki texnik vositalar; 6)ta'limning tashkiliy shakllari.

Pedagogik jarayonning mohiyati pedagog va magistrning birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog magistriga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mazmuni esa pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi. U pedagog axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, hurmatni izhor qilish, talabchanlikni yoqlash kabi ko'rinishlarda tashkil etiladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- 1) ta'limiy maqsadlarning belgilanishi (kimga va nima uchun?);
- 2) mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?);
- 3) ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?);
- 4) ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?);
- 5) pedagoglarning malaka darajasi (kimning?);
- 6) erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?).


Ushbu mezonlarni majmuaviy tarzda qo'llash o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi. Ta'lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur (23-rasm).

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

-ta'lim maqsadlarini tahlil etish asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;

¹⁵ Беспалько В.П. "Слагаемые педагогической технологии" Москва "Педагогика"- 1989. - С. 6-7

- o'quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalash;
- magistrlarning o'quv elementlarini o'zlashtirilish darajalarini avvaldan belgilash;
- talabalarning dastlabki bilim darajasini aniqlash (bu ko'rsatkich o'quv predmetining mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi);
- moddiy baza va ta'larning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.



23-rasm. Ta'lif texnologiyasini loyihalashtirish

Pedagogik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyasini loyihalash pedagog faoliyatining mazmuni metod, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi.

Ta'lifiy faoliyat mazmunini belgilovchi asosiy omillar:

1) boshqarish turi; 2) axborot almashish jarayonining turi; 3) axborotni uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.


O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin: dastlab o'quv materiali mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, mos ravishda ta'lif metodlari va magistrlar bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqilib, ta'lif vositalarining ro'yxati tuziladi. Hosil qilingan ta'lif metodlari va vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi.

Amaliy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilib, metodik jihatdan aniq natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat jarayonini loyihalash muammosini hal etadi. Ta'lif texnologiyalarning amaliy asosini shaxsiy-faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va magistrlar jamoasida hamkorlikni qaror toptirish ehtiyoji tashkil etadi. Ayni vaqtda ta'lif

muassasalari amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda:

- 1) hamkorlik texnologiyalari;
- 2) didaktik o'yin texnologiyalari;
- 3) muammoli ta'lim texnologiyalari;
- 4) innovatsion ta'lim texnologiyalari;
- 5) interfaol ta'lim texnologiyalari;
- 6) rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- 7) masofviy ta'lim texnologiyalari;
- 8) kompyuter ta'limi texnologiyalari;
- 9) xususiy (o'quv fanlari) texnologiyalari;
- 10) muqobil ta'lim texnologiyalari;
- 11) mualliflik ta'lim texnologiyalari.

Ta'lim texnologiyalaridan birini tanlash darsda qay darajadagi bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liq. Yangi o'quv materialini o'zlashtirishda quyidagi darajalar inobatga olinadi (24-rasm):



24-rasm. Yangi o'quv materialini o'zlashtirish darajalari

Boshlang'ich va algoritmik xarakterdagи darajalar samarali bilim va ko'nikmalarni aniqlash uchun mezon vazifasini o'taydi. O'zlashtirishning ushbu darajalarini aniqlashga yordam beruvchi texnologik jarayonni ijrochi texnologiya deb atash mumkin. O'quv materialini esda saqlab qolish, ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyat darajasi magistrarning mahsuldor va natijaviy faoliyatlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Mazkur holat o'quv faoliyatini tashkil etishga muammoli rivojlantiruvchi texnologiyani tadbiq etilishi bilan amalga oshadi. Unga ko'ra ta'lim jarayonini tashkil etish magistrlarni o'quv materialini referatlashtirish, ularning mashg'ulotlarda o'z ma'ruzalarini bilan qatnashish, munozara, ishchanlik o'yinlarida faol ishtirot etishga o'rgatishi lozim. O'quv faoliyati izlanuvchan, evristik xarakter kasb etganda, yuqori darajadagi muammoli, muammoli-rivojlantiruvchi ta'lim,

vaziyatlarni tahlil qiluvchi topshiriqlar, mustaqil ishlar, muammoli topshiriqlar, ishchan o'yinlar kabi shakllardan foydalanish zarur.


O'zlashtirishning bu darajasini ifoda etuvchi texnologik jarayon evristik texnologiya deb ataladi.

Ta'lism jarayonini tashkil etish shartlari va ta'lism texnologiyasining funksional tuzilmasi. O'qitish jarayoni ta'lism texnologiyasining asosini, yadrosini tashkil etadi va u ta'lism maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari, magistr hamda pedagog kabi elementlardan iborat tizim sifatida namoyon bo'лади. Tarkibiy elementlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lism jarayonining umumiyligi mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Ta'lism jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil etiladi. Ya ni:

- 1) ta'lism olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ijtimoiy (yoki shaxsiv) ehtiyojlarning yuzaga kelishi (TE);
- 2) ta'lism olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan rag'batning uyg'onishi (TR);
- 3) magistrning o'quv-bilish faoliyatini mazmuni ($O'F$)ni belgilash;
- 4) magistrning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish ($O'FB$)ni yo'lga qo'yish.

Muayyan shartlarga muvofiq tashkil etiladigan ta'lism jarayonining umumiyligi mohiyatini tasvirda quyidagicha yoritish mumkin (25-rasm):




25-rasm. Ta'lism jarayonini tashkil etish shartlari

Ta'lism texnologiyasining funksional tuzilmasi bevosita ta'lism jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiladi. Ya ni, ushbu tuzilma o'zida ta'lism jarayonining umumiyligi ko'rinishi (taskiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini ifoda etadi. Ta'lism texnologiyasining funksional tuzilmasini tasvir orqali quyidagicha aks ettirish mumkin (26-rasm).

Bozor munosabatlariiga asoslangan rivojlanish qonuniyatlaridan biri – ijtimoiy raqobatning paydo bo'lishi sanaladi. Ijtimoiy raqobat mavjud

bo`lganda mo`tadil faoliyat yurtish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to`qnashuvida “omon” qolish, yuqori mavqega ega bo`lish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois fuqarolarda ta`lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o`zlashtirishga nisbatan ongi yondashuv hissi qaror topadi. Bu esa ularda ta`lim olishga bo`lgan rag`batni hosil qiladi. Bugungi kunda ta`lim olish, kasb-hunar yoki mutaxassislik ma`lumotlarini egallash, bu borada ma`lum ko`nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta`lim olishga bo`lgan rag`bat va uning mazmuni ta`lim jarayoni muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo`ladi.



26-rasm. Ta`lim texnologiyasining funksional tuzilmasi

Ta`lim olishga bo`lgan rag`bat magistr-pedagog ishtirokidagi o`quv bilish faoliyati asosining shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega. Yaqin o`tmishda magistrning ta`lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o`zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalarini namoyish etuvchi sub`ekt sifatidagi roli bilan kifoyalangan edi. Endilikda ta`lim texnologiyasi talablariga ko`ra magistr ta`lim jarayonining yetakchi sub`ekti, asosiy ijrochisiga aylanadi. Unga ko`ra

magistr pedagog tomonidan uzatilayotgan bilimlarni qabul qilmaydi. Balki pedagogning yo'llanmasi, ko'rsatmasiga ko'ra tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, pedagogning nazorati ostida amaliy ko'nikma-malakalarini hosil qiladi. Mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida magistr o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalashi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlariga ega bo'lishi talab qilinadi. Davr talabi magistrni ta'lrim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtiropchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

Magistrning ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- magistrda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj (rag'bat)ni qaror toptirish;
- bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni hosil qilish;
- magistrda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- magistrlarning faolligini ta'minlash;
- magistrlarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish, umumlashtirish asosida o'z amaliy faoliyatiga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish, baholash sifatlarini shakllantirish.

O'quv jarayonining maqsadi tashxisli ravishda aniq va ravshan belgilanmog'i lozim. Ta'lim maqsadining bunday belgilanishi ma'lum va amal qilingan vaqtida didaktik jarayonni tashkil qilish va amlga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, pedagogik jarayonni loyihalash pedagogik faoliyatni texnologik yondashuv asosida tashkil etishning muhim sharti sanaladi. Zero, loyihada aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagog faoliyatining barcha jihatlari, jarayon mohiyatini ifodalovchi barcha elementlar o'z aksini topadi. Keng qamrovli, yaxlit jarayonning kichik modeli, qisqacha bayoni sanaluvchi loyihani ishlab chiqish pedagogdan alohida mahorat, tajriba, pedagogik, psixologik va texnologik bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Pedagogik jarayonni loyihalashda vazifalarni belgilab olish muhimdir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1.Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish". Toshkent: "Fan va texnologiya" - 2008.

2.Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi: "Nasaf"-2000.

3.Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". Toshkent: "Oliy pedagogika instituti"- 2003.

4.Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Toshkent: "Moliya"- 2003.

5.Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". Toshkent: "Fan"-2006.

6.Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". Toshkent:"Fan"- 2005.

7.Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent:"Fan"-2000.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quv mashg'uloti uchun ta'lif metodlarini tanlashning muhim sharti nimadan iborat?

2. Ta'lif natijasi nima bilan belgilanadi?

3. Ta'lif texnologiyasi qanday muhim ta'limiy muammolarn hal qilishga yordam beradi?

4. Ta'lif texnologiyasi nima?

5. Pedagogning ta'lif jarayonini loyihalashga qaratilgan faoliyati qanday asosiy bosqichlardan iborat?

6. O'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

7. Ta'lif texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?

8. Ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish nima?

9. Ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish qanday bosqichlarda amalgalashadi?

10. Ta'lif jarayonini loyihalash nima?

11. Ta'lif jarayonini loyihalash qonuniyatlarini ko'rsating!

12. Ta'lif jarayoniga texnologik yondashuv elementlari nimalardan iborat?

13. Nazorat jarayonini loyihalash nima?

14. Tamoyil nima?

15. Ta'lif jarayonini loyihalash tamoyillari nimalardan iborat?

16. Texnologik operatsiya nima?

17. Ta'lifi texnologiyasi pedagogik tizimining elementlari qaysilar?

18. Hozirda ta'lifi muassasalarida qanday pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda?

19. Yangi o'quv materialini o'zlashtirishning qanday darajalari mavjud?

20. Ta'lif jarayoni qanday shartlarga muvofiq tashkil etiladi?

21. Ta'lif texnologiyasining funksional tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?

Test topshiriqlari:

1.Ta'lif texnologiyasi qanday ta'limi y muammolarni hal qilishga yordam beradi?

a) ta'lif maqsadlarini aniqlashtirish, yaxlit jarayonni qismlarga ajratish;

b) ta'lif natijalarini standartlashtirish, ta'lif jarayonida samarali teskari aloqaga erishish, avtomatlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish;

c) a va b javoblar to'g'ri;

d) to'g'ri javob yo'q

2.Ta'lif maqsadiga erishish jarayonining umumiylar mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lif jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish asosida ta'lif jarayonini samarali boshqarish – bu ...

a) ta'lif nazariyasi;

b) ta'lif loyihasi;

c) ta'lif dasturi;

d) ta'lif texnologiyasi.

3.Pedagogning ta'lif jarayonini loyihalashga qaratilgan faoliyati necha bosqichda tashkil etiladi?

a) bir bosqichda;

b) ikki bosqichda;

c) uch bosqichda;

d) to'rt bosqichda.

4.O'quv jarayonining loyihasini ishlab chiqish necha bosqichda amalga oshiriladi?

a) 8 bosqichda;

b) 6 bosqichda;

c) 4 bosqichda;

d) 2 bosqichda.

5.O'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish va yaxlitlash kabi harakatlar o'quv jarayonini loyihalashning qaysi bosqichida tashkil etiladi?

- a) birinchi bosqichida;
- b) uchinchi bosqichida;
- c) beshinchi bosqichida;
- d) yettinchi bosqichida.

6.O'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqish vazifasi loyiha-lashning qaysi bosqichida hal qilinadi?

- a) birinchi bosqichida;
- b) uchinchi bosqichida;
- c) beshinchi bosqichida;
- d) yettinchi bosqichida.

7.Mashq (topshiriqlar tizimini ishlab chiqish ta'limgarayonini loyihalashning qaysi bosqichida hal qilinadi?

- a) ikkinchi bosqichida;
- b) to'rtinchi bosqichida;
- c) oltinchi bosqichida;
- d) sakkizinchi bosqichida.

8.Ta'limgarayonini loyihalashning sakkizinchi bosqichida qanday vazifa hal qilinadi?

- a) yaratilgan loyiha (andoza)ni ta'limgarayoniga tadbiq etish, ta'limgarayonining yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish;
- b) mashq (topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- c) magistrarning umumiyligi faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini yaratish;
- d) o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqish.

9.Ta'limgarayotiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?

- a) ijtimoiy ehtiyoj; ta'limgarayotiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?
- b) ta'limgarayotiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?
- c) ta'limgarayotiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?
- d) barcha javoblar to'g'ri.

10.O'quv jarayonining ta'lif maqsadi (yoki maqsadlari)ga erishishni kafolatlovchi usul va vositalar bilan ta'minlanganligi nima deb yuritiladi?

- a) ta'lif jarayonini loyihalashtirish;
- b) ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish;
- c) ta'lif jarayonini rejalashtirish;
- d) ta'lif jarayonini tashkillashtirish;

11.Ta'lif jarayonini loyihalash nima?

- a) ta'lif jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasini ishlab chiqish;
- b) ta'lif jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda ta'lif mazmunini ishlab chiqish;
- c) ta'lif jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda o'quv mashg'ulotining shakl, metod va vositalarini tanlash;
- d) to'g'ri javob yo'q.

12.Ta'lif jarayonini loyihalash qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

- a) loyihani yaratish; magistrlar faoliyatini tashxislash; pedagogik jarayonni tashkil etish;
- b) pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash; magistrlar faoliyatini nazorat qilish;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

13.Loyihalash mahsuli nima?

- a) o'quv rejasi;
- b) o'quv ssenariysi;
- c) o'quv loyihasi;
- d) o'quv dasturi.

14. Ta'lif jarayoniga texnologik yondashuv qanday elementlardan tarkib topadi?

- a) texnologik jarayon; texnologik jarayonni boshqarish; texnologik jarayonni tashkil etish vositalari;
- b) axborot ta'minoti; texnologik ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

15.Ta'lif jarayonini loyihalashning qonuniyatlari nechta?

- a) bitta;
- b) ikkita;
- c) uchta;
- d) to'rtta.

16.Pedagog tomonidan magistrlar faoliyatini izchil kuzatish, zaruriyat bo`lganda to`g`rilash, ularning bilim, ko`nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida sinovlarni tashkil etish imkonini beruvchi metod va vositalar yig`indisini hosil qilish nima ifodalaydi?

- a) ta'lif jarayonini loyihalashni;
- b) ta'lif jarayonini texnologiyalashtirishni;
- c) pedagog faoliyatini rejalashtirishni;
- d) nazorat jarayonini loyihalashni.

17.Muayyan nazariya, fan, dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy tuzilma va h.k.ning asosiy boshlang`ich holati – bu

- a) tamoyil;
- b) nazariya;
- c) paradigma;
- d) asos.

18.Ta'lif jarayonini loyihalash tamoyillari qaysilar?

- a) markazlashtirish tamoyili; refleksivlik tamoyili; natijaviylik tamoyili;
- b) ko`p omillilik tamoyili; magistr shaxsini ta'lif jarayoniga moslashtirish tamoyili; ta'lilda tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili;
- c) axborot ta'minotini loyihalash tamoyili; ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotni loyihalash tamoyili;
- d) barcha javoblar to`g`ri.

19.Sub`ektning o`ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o`zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o`rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflovchi tamoyil qanday nomalanadi?

- a) ko`p omillilik tamoyili;
- b) axborot ta'minotini loyihalash tamoyili;
- c) refleksivlik tamoyili;
- d) markazlashtirish tamoyili.

20. Magistr faoliyati va o'quv materiali mazmunining o'zaro birligi sifatida magistrni ta'limning muayyan bosqichidan keyingi bosqich, yuqoriq darajaga o'tishini ta'minlovchi omil qanday nomalandi?

- a) texnologik pasport;
- b) texnologik xarita;
- c) texnologik tizim;
- d) texnologik operatsiya.

21. V.P. Bespalkoning fikriga ko'ra ta'lim texnologiyasi pedagogik tizimining qanday elementlardan tarkib topadi?

- a) magistr; ta'lim maqsadi;
- b) ta'lim mazmuni; o'quv jarayoni;
- c) pedagog yoki texnik vositalar; ta'limning tashkiliy shakllari
- d) barcha javoblar to'g'ri.

22. Hozirda ta'lim muassasalarida qanday pedagogik texnologiyalardan qo'llanilmoqda?

- a) hamkorlik texnologiyalari; didaktik o'yin texnologiyalari; muammoli ta'lim texnologiyalari; innovatsion ta'lim texnologiyalari;
- b) interfaol ta'lim texnologiyalari; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari; masofviy ta'lim texnologiyalari; kompyuter ta'limi texnologiyalari;
- c) xususiy (o'quv fanlari) texnologiyalari; muqobil ta'lim texnologiyalari; mualliflik ta'lim texnologiyalari;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

23. Yangi o'quv materialini o'zlashtirishning darajalarini belgilang.

- a) boshlang'ich; algoritnik;
- b) evristik; ijodiy;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

24. Ta'lim texnologiyasining funksional tuzilmasi o'zida nimani ifodalaydi?

- a) ta'lim mazmunini;
- b) ta'lim jarayonining umumiy ko'rinishi (tashkiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini;
- c) ta'limning tarkibiy elementlarini;
- d) ta'lim vositalarini.

SHAXSGA YO`NALTIRILGAN TA'LIM TURLARI

Reja:

1. Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim texnologiyasining mohiyati.
2. Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim texnologiyasining algoritmi.
3. Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim turlari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim texnologiyasi, shaxsga yo`naltirilgan ta'lim texnologiyasi, shaxsga yo`naltirilgan ta'lim texnologiyasi turlari, muammoli ta'lim; modul ta'limi; dasturiy ta'lim; rivojlantiruvchi ta'lim; o`yin texnologiyalari; interfaol ta'lim; hamkorlik ta'limi; tabaqalashtirilgan ta'lim; individual ta'lim; masofaviy ta'lim; mustaqil ta'lim; innovatsion ta'lim.

Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim texnologiyasining mohiyati. Ta'limni modernizasiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko`nikma, malakalarni shakllanitirish bilangina hal bo`lib qolmaydi. Magistr shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni samarali o`zlashtirishiga shaxsga yo`naltirilgan ta'lim asosida erishiladi. Zero, shaxsga yo`naltirilgan ta'lim magistrning ichki imkoniyatlari, qobiliyatini to`la-to`kis ro`yobga chiqarilishini ta'minlaydi.

Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim – o`quvchi (*talaba*)ning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o`ziga xos xususiyatlari, qibiliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta'lim. U pedagog va o`quvchi (*talaba*) o`rtasidagi o`zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, o`quvchi (*talaba*)ni qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi (http://pedsovet.org/component/option.commtree/task_viewlink&link_id=4744&Itemid=118)

Unga ko`ra magistr ta'lim tizimiga moslashtirilmaydi. Aksincha, ta'lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlari (mustaqillik, erkinlikka intilish, shaxsiy fikrlarning mutloq o`ziga xos tizimiga ega bo`lishi, o`z-o`zini anglash ehtiyojining mavjudligi va b.)ni hisobga olgan holda, magistrning o`ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim yordamida magistr o`z-o`zini rivojlantiradi, shaxsiy sifat va qobiliyatlarini erkin namoyon etadi. Zero, har bir magistr o`ziga, faqat o`zigagina xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatlarini faollashtirish va namoyish etishga intiladi.

Ta'limda magistr shaxsiga faoliyatli yondashuv pedagogik tizim konsepsiyasini tashkil etadi. Ushbu yondashuv sub`ekt shaxsining

erkinlikka intilishi, o'z-o'zini rivojlantirishi, mustaqil o'qishi, o'zligini namoyon etishi, o'z-o'zini faollashtirishi kabi xususiyatlarga egaligini anglatadi, u tomonidan o'quv jarayoni va uning tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, metod, shakl, usul va vositalar magistr uchun bevosita ahamiyatga ega bo'lib, shaxsiy tajribasining mahsuli sifatida amaliyatga tatbiq etiladi. Ta'lim-tarbiya yordamida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi uning shaxsiy faoliyati natijasidagina amalga oshadi.

Agar magistr o'quv faoliyatining mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, pedagog qo'yan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etiladigan barcha hatti-harakatlar majburiyat, ta'ziq ostida amalga oshadi, bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim ularni amaliyatga tadbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Zero, bilim darslik mazmunidan ba'zi ilmiy ma'lumotlarni shunchaki ko'r-ko'rona yodlab olish bo'lmay, balki magistrning shaxsiy, sub'ektiv tajribasiga asoslangan ma'lumotlar sanaladi.

Inson ongi hamisha sub'ektiv mohiyatga egadir. Magistr muayyan bilimlarga nisbatan befarq bo'lmay, bilimlar uning uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lsagina puxta o'zlashtiriladi. Pedagog bunga magistrda o'quv predmetiga nisbatan qadriyatli, ijobjiy sub'ektiv munosabatni tarkib toptirish natijasida erishadi.

Magistr ruhiy xususiyatlarini o'rganish o'zlashtirilayotgan bilimlarni uning uchun qiziqarli, kerakli bo'lishini, aks holda ular shubhasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual jihatlarga ega bo'ladi. Teskari jarayonda individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtirilib, o'quv jarayonini noan'anaviy shakl (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik)da tashkil qilinishini talab etadi.

Faoliyat shaxs rivojlanishining asosiy substansiyasi hisoblanadi. Shaxs faoliyati uning ichki hissiyotlari bilan bog'liq, shu sababli u motiv, hissiyot va shaxsiy fikr vositasida namoyon bo'ladi.

Pedagog darsda magistrlar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalaniib shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada magistr uchun dastlab neytral bo'lgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etsin.

Pedagog tomonidan avval o'quv materialining mazmuni ijodiy qayta ishlaniib, uni qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan jihatlarini belgilashi lozim.

Bir qarashda zerikarli tuyulgan matematik yoki geografik ma'lumotlar agar magistr shaxsiga bevosita taalluqli bo'lib, uning hayotiy va shaxsiy tajribalariga muvofiq kelsa u holda ahamiyatli xususiyat kasb etadi. Bunda o'quv vaziyatlari shaxs uchun ahamiyatli vaziyatga, o'quv axborotlari magistr uchun muhim hodisaga aylanadi. Magistr o'zini ushbu hodisaning ijodkori deb hisoblay boshlaydi.

Xususan matematik topshiriqlar magistr yashayotgan xo'jalikda qo'llanilayotgan rentabellik, ishlab chiqarish mehnati, foyda, kredit kabi zarur hayotiy tushunchalarga asoslanib shakllantirilgan bo'lsa, magistr ularni o'zi uchun ahamiyatli bilimlar sifatida qabul qiladi. Magistr pedagog bilan hamkorlikda topshiriqni yechish yo'llarini izlaydi, natijada sof matematik o'quv maqsadlariga erisha boradi. O'quv faoliyatini tabiiy tashkil etilishi tufayli magistr foiz, proporsiya, tenglashtirish asosida topshiriqlarni yechish ko'nikmalarini egallaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari magistr bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog'liq. Bu usullar muammoli-izlanish; tadqiqot; dialogik munosabat metodlari (dialog, evristik suhbat, munozara, guruhli ish turlari va b.)dan iborat

O'quv mashg'ulotlarining turlari xilma-xildir. Alovida e'tibor dialogik munosabat va tadqiqot-izlanish metodlariga qaratiladi, ko'rgazmalitasviriy va reproduktiv metodlar ham rad etilmaydi. Noan'anaviy darslar (o'yin-dars, teatrlashtirilgan dars) bilan tadqiqot, izlanish mashg'ulotlari, seminarlar kabilar ham tashkil etiladi.

Bunday mashg'ulotlarning mazmuni va mavzusi bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiysi, tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'quv faoliyatiga rag'bat uyg'otish, uni bilim egallahsha yo'naltirilsa, ular ta'limning shakl va usullari, shaxs bilimi, tajribasi va hissiyotlarining asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot-izlanuvchanlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar texnologiyasida markaziy o'rinni shaxsiy vaziyat egallaydi, u magistrni imkon qadar ko'proq topshiriqlarni bajarishga jalb etib, individual yoki jamoa bo'lib topshiriqlarning javoblarini topishga undaydi.

Bunday mashg'ulotlarning asosiy jihatlaridan biri magistrni topshiriq sifatida qo'yilgan muammolarga uning o'zi javob topishini ta'minlashdir.

Magistrning javoblari pedagog yoki o'rtoqlarining javoblariga mutlaqo o'xshamasada, biroq, magistrning o'z javobidan qoniqish hosil qilib, muammo yechimini shaxsan o'zi topa olgandan g'ururlana olishi muhim.

An'anaviy ta'lif mohiyatiga ko'ra pedagog tomonidan berilgan topshiriq va savollar magistrni o'zi uchun esa mutlaqo notanish tarzda fikrlashga majbur qiladi. Aksincha, pedagog magistrlarning ko'z o'ngida topshiriqni shakllantirsa, bu holda ularni topqirlilikka asoslangan qiziqarli dalillar vositasida yechimni topishga undaydi. Bunday mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodlar pedagogning talabalar bilan hamkorlik munosabatlariiga, magistrlarning o'z bilimlarini o'zlarini mustaqil rivojlantirishlari, axborot va ilmiy ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lishlari, plyuralizm va o'zgalar fikriga hurmat bilan yondashish kabilarga asoslanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyasining algoritmi. Ushbu texnologiyaning asosiy jihatni ma'lumotlarni yetkazish va o'zlashtirishgina bo'lmay, balki magistrlarda mashg'ulot jarayonida tadqiqot olib borish, ijodiy, izlanuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyasi quyidagi algoritmlarga bo'y sunadi:

1. **Rag'batlantiruvchi asos** shaxsga yo'naltirilgan muammoli vaziyatni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Bunday vaziyatni yaratishda pedagogning individual ijodkorligi katta rol o'ynaydi. Rasm, xotira yoki muayyan bir so'z asosida shakllantirilgan, magistrni jalb etadigan, kutilmagan, o'ta sirli va albatta, shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulotlar: tajriba ishlari, fotosuratlar, kartinalar namoyishi kabilar bunga misol bo'la oladi.

2. **Monokonstruksiya** topshiriq asosida individual ishslash (m: matn, tovush, model, bo'yoq, she'r, loyiha, rasm kabilar) orqali muammoni ko'rish, gipoteza yaratish, yechimni (muayyan yo'l hamda hal etish usulini mustaqil tanlay olish, xato qilish huquqiga egalik kabilar) topishdan iborat.

3. **Sotsiokonstruksiya** kichik guruhlarda ishslash uchun shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Unga ko'ra jamoa negizida alohida juftlik kichik guruhlari bilan almashinadi (talabalarning o'zlarini ixtiyoriy ravishda juftlikka birlashadi, pedagogning istagiga ko'ra yoki stixiyali tarzda guruh tarkibida ishlaydi). Bunda pedagog magistrlarga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olishi ham muhimdir. M: ekstro-introvertlik, tafakkur yuritish tiplari, liderlik sifatlari va h.k.).

4. **Ijtimoiylashuv.** Mustaqil ta'lif olish jarayonida magistrning bevosita ijtimoiylashishi ham yuzaga keladi, bu holat o'z navbatida guruhnini ijodiy izlanishga ilhomlantiradi. U faol hamkorlikda faoliyat

yuritish, shuningdek, individuallikni namoyon etish uchun qulay muhitni vujudga keltiradi.

5. Ma'lumotlarni bilishga intilish aynan magistrlar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'limgan sharoitda yuzaga keladi. Magistrda darslik, lug'at, ma'lumotnomalar bilan ishlash ehtiyoji tug'iladi. Ulardan mustaqil foydalanish, tinimsiz fikrlash va izlanishga bo'lgan rag'batning uyg'onishi kuzatiladi. An'anaviy ta'limga ko'ra ko'p hollarda magistrning o'zi bilimlarni xohlab emas, balki majburan o'rganadi. Ijodiy izlanish, hamkorlikda ishlash, fikr almashish kabilalar magistrda bilimlarni o'z xohishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zlashtirishga imkon beradi.

6. Refleksiya – magistrning shaxsiy hayotiy yondashuvi, kechinmalari va tafakkurida kechayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishi, o'zining tafakkur qobiliyati, erishayotgan yutuqlari, mag'lubiyatlarining sabablarini bilishga intilishidir. Magistr ular to'g'risida muayyan xulosalarga ega bo'lsa, ularni tan olsa, pedagog magistrning fikri asosida faoliyat yuritish va yangi bilimlarga yo'llashning keyingi bosqichlarini to'g'ri belgilaydi.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganlik texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko'ra farq qiladi: mashg'ulotning asosiy maqsadi – tafakkur jarayonini tashkil etish bo'lib, bilim ko'nikma, malakalar magistr faoliyatining mahsuli sifatida vujudga keladi. Tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatidan yuqori turib, u shaxsnинг o'z-o'zini rivojlantirish unsuri tarzida namoyon bo'ladi, ijodiy izlanishning natijasi kabi mazkur jarayonning o'zi ham o'ta muhim bo'lib, aynan u pedagog va magistrning ijodkorlik quvonchiga, yangilik olishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. Pedagog faoliyat algoritmini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ijodiy tafakkur jarayonini, amaliy, shaxsiy fikrlashni, olamni inson tomonidan har tomonlama, qoniqarli idrok etilishini ta'minlaydi. Magistrning sub'ektivligi amalga oshadi: bilish usulini mustaqil belgilash, muammo yechimini topishda o'z dunyoqarashi, tafakkur tarzidan kelib chiqish, xato qilish huquqiga egalik ta'minlanadi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy qoidasi: "o'zing bilgancha bajar, o'z layoqating, qiziqishlarining va shaxsiy tajribangga asoslan, o'z xatoingni o'zing tuzat!" kabi ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi.

An'anaviy ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar esa aksincha "xuddi men kabi yoki mendan yaxshiroq bajar!" qoidasiga muvofiq tashkillashtirilar edi. Muammoli va shaxsiy vaziyatlar, istisnosiz tahlil hamda qarshiliklarni yengishga asoslanganligi tufayli magistrning


imkonyatlarini namoyon qiladi, u nimalarnidir bilgani holda bilimlari to'liq emasligi, o'z shaxsiy tajribasiga asoslanishi lozimligini angaydi. Mustaqil fikrni bildirish ehtiyojini, ta'limga nisbatan rag'batni his qiladi. Pedagog va magistr o'rtasida shunchaki an'anaviy o'zaro aloqadorlik emas, balki hamkorlik munosabati o'matiladi. Pedagog magistrlar bilan birga biliш faoliyatida ishtirok etadi, topshiriqlarni bajaradi. Odатдаги, ko'nikib qolingga тушунтирishлар о'rnini o'zaro hamkorlik egallaydi. Zarur ma'lumotlarni pedagog oz-ozdan berib boradi. Bunda magistrlarning mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat qoldirishga e'tibor qilinadi. Ijodiy izlanuvchanlik faoliyati kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Izlanish natijalari guruh magistrlarning barchasiga ma'lum qilinadi, barcha yangi bilimlarni egallashi uchun sharoit yaratiladi. Jamoada har shaxsning o'z o'mi borligini anglash, tengdoshlarining o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish tuyg'ulari shakllanadi. An'anaviy ta'limda tashqaridan kuzatilgan shaxsiy faoliyatni quyi darajada baholash hodisasi ro'y bermaydi, shu bois ijobji g'oyalarga tayangan holda ishlash muhitini qaror topadi. Bu esa magistrda ta'lim olishga rag'bat uyg'otibgina qolmay, unda bilim olish, bu yo'lda tiniinsiz izlanish, mehnat qilish zarurligini anglash layoqatini shakllantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini qo'llashga qadar va undan keyin magistrlarning kasbiy faoliyat mohiyati, o'z o'milarini anglashga oid tasavvurlari o'rganilgan vaqtida ularning quyidagi tasavvurlarga egaliklari aniqlandi: nazorat darajasi, anglangan nazorat, kasbiy faoliytkni erishilgan yutuqlarning omili sifatida qabul qilish, o'z-o'ziga ishonch, tushuntirish uslubi, ta'lim olish usullari va b.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari. Zamonaviy sharoitda ta'limning shaxs imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, uning qiziqish va ehtiyojlarini oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatiga ko'ra o'qitish jarayonining asosiy ob'ekti magistr bo'lib, uning shaxsi, qadr-qimmatini yuqori o'ringa qo'yadigan, asosiy e'tiborni uning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi sifatida ham e'tirof etiladi.

Ayni vaqtida jahon ta'limi tajribasiga asoslangan holda ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining quyidagi turlaridan keng foydalanish imkoniyati yuzaga kelgan (27-rasm).

Quyida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari va mohiyati qisqacha ochib beriladi.



27-rasm. SHaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarining asosiy turlari

1. Muammoli ta'lim zamonaviy ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg'or pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Muammoli ta'lim – mazmuniga ko'ra magistrni ilmiy bilimlarni o'zlashtirishning ob'ektiv ziddiyatlari, muammolarini hal qilishga faol jalb etish, hamkorlikka chorlashga xizmat qiluvchi ta'lim.

Ta'lim amaliyotida undan foydalanish ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Muammoli o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo'llaniladi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni hal qilishda bahs-munozaralardan foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, kichik guruhlarda ishslash samarali kechadi.

Muammoli ta'limda “fikrlash asosida o'qitish, bilimlarni ijodiy o'zlashtirish” shioriga amal qilinadi.

Evristik ta'lim muammoli ta'limning muqobili sifatida e'tirof etiladi¹⁶.

Muammoli ta'lim real ijodiy jarayonni modellashtirish hisobiga muammoli vaziyatni yaratish, muammoni hal qilish yo'llarini izlashni boshqarishga xizmat qiluvchi o'qitish metod va vositalari tizimini o'z ichiga oladi. Unga ko'ra yangi bilimlarni egallash pedagog yordami bilan

¹⁶ Проблемное обучение // <http://ru.wikipedia.org/wiki>

magistrlar tomonidan mustaqil kashfiyotlarni yaratishdek taassurot uyg'otadi. Buning uchun quyidagi ikki omil mavjud bo'lishi zarur:

1. Muayyan o'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha bilish ehtiyojining yuzaga kelishi.

2. Ma'lum vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan umumlashgan yangi bilimlarni egallash.

Muammoli ta'limning quyidagi uch turi farqlanadi (28-rasm):



28-rasm. Muammoli ta'limning asosiy turlari

Bu turdagи ta'limda muammoli vaziyatlarni modellashtirish uchun eng maqbul material fan va texnika tarixiga oid ma'lumotlar hisoblanadi¹⁷.

2. Modul ta'limi. Zamonaviy ta'lim amaliyotida modul ta'limidan ham samarali foydalanilmoqda. Modul ta'limi – o'quv materiali (axboroti)ni blok-modul asosida taqdim etishga asoslanuvchi ta'lim sanaladi.

Mazkur ta'limning mohiyati ta'lim mazmunining mustaqil tashkiliy-metodik bloklar – modullardan tarkib topishi bilan tavsiflanadi. Modullarning tarkibiy tuzilmasi va hajmi didaktik maqsad, ta'lim oluvchilarnig ixtisosligi, tabaqasi, magistrning o'quv kursini individual o'zlashtirishga bo'lgan xohishidan kelib chiqib belgilanadi. Modullar majburiy va ixtiyorli bo'lishi mumkin.

Mazkur ta'limning muhim elementi sifatida bilimlarni baholashning reyting tizimi ko'zga tashlanadi. Modul ta'limdan magistrlarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni ma'lum o'quv materiallari bilan ta'minlash, ularning ta'limiy faoliyati yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalilanadi. Uni qo'llashda beriladigan yaxlit o'quv materiali blok, modul (alohida ajratilgan qism)larda 1-blok, 2-blok va h.k. tarzida taqdim etiladi. Modul ta'limi asosida masofaviy ta'linni ham yo'lga

¹⁷ Проблемное обучение // http://psihotesti.ru/gloss/tag/problemnoe_obuchenie

qo'yish mumkin. Bunda magistrlar alohida chop etilgan yoki kompyuter varianti ko'rinishidagi bloklardan iborat materiallar bilan ta'minlanadi. Taqdim etilgan materiallar magistrlar tomonidan to'la o'rganilgandan so'ng ularga nazariy bilimlarga egalikni mustaqil baholash va mavjud bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi psixologik yoki psixologik topshiriqlar beriladi.

3. Dasturiy ta'lism. Bu turdag'i ta'lism magistrlarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelayotgan muammolar, magistrlarning bilim, dunyoqarash hamda o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Binobarin, dasturiy ta'lism imkon qadar magistrlarning imkoniyatlari, ehtiyoj va qiziqishlariga tayangan holda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi.

Dasturiy ta'lism – magistrlarning ehtiyoj, qiziqish, imkoniyat, bilimlarni o'zlashtirish va yosh darajalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha tashkil etiladigan ta'lism.

Bu turdag'i ta'lismning asosiy vazifasi – magistrlarda barqaror bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan dasturlarni ishlab chiqishdan iborat. Dasturiy ta'lism g'oyasi dastlab amerikalik olim B.F.Skinner tomonidan 1954-yilda ilgari surilgan. B.F.Skinner tomonidan ishlab chiqilgan ta'lism dasturlari jahonning juda ko'plab mamlakatlarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda samarali qo'llanilgan. Yaqin xorij mamlakatlari, jumladan, Rossiyada dasturiy ta'lism rivojiga N.F.Talizina, P.Ya.Galperin, L.N.Landa va b. munosib hissa qo'shgan. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, dasturiy ta'lismning ilk asosi qadimgi davrlardayoq amaliyotda qo'llanilgan. Xususan, Suqrot va Platon tomonidan tashkil etilgan mashg'ulotlarda dasturiy ta'lism g'oyalaridan foydalanilgan. Shuningdek, I.F.Gerbert va J.Dyui asarlarida ham dasturiy ta'lism tamoyillari yoritilgan.

Dasturiy ta'lism o'zida quyidagi muhim belgilari¹⁸ni aks ettiradi:

- o'quv materialining mazmuni avvaldan ishlangan sxemaga joylashtiriladi;

- ta'lism maqsadi aniq shakllantiriladi va magistrlarning maqsadga erishganlik darajasini o'lchashga imkon beruvchi didaktik vositalar oqilona aniqlanadi;

- o'quv materiali mazmunan nisbatan katta bo'lmagan qismlarga ajratiladi va ular nazorat savollari, mashqlar yoki magistrlarning keyingi o'quv harakatlarini belgilovchi ko'rsatmalar bilan yakunlanadi;

¹⁸ Программированное обучение // <http://txtb.ru/88/37.html>

- magistrler berilgan savollarga javob qaytarishlari yoki ularga taqdim etilgan mashq yoki amaliy harakatlarni bajarishlari lozim;

- magistrler tezda (tezkor qayta aloqa asosida) o'zlarini tomonidan berilgan javoblarning qaydarajada to'g'riligidan xabardor qilinishlari kerak;

- magistrler uchun qulay sur'atda o'quv ishlari tashkil etilishi lozim;

- o'quv materiali doimiy ravishda ko'p bosqichli tajribalarni tashkil etish, natijalarni tahlil qilish asosida izchil takomillashtirib borilishi zarur.

Dasturiy ta'limganing asosi bo'lgan ta'lim dasturi qat'iy ravishda quyidagi elementlardan tarkib topadi (29-rasm):



29-rasm. Muammoli ta'limganing asosiy elementlari

Uzluksiz ta'lim jarayonida dasturiy ta'limgani qo'llashda pedagoglar tomonidan mualliflik dasturlarining ishlab chiqilishi ahamiyatlidir. Zero, mualliflik dasturlari o'quv mashg'ulotlarining rang-barang bo'lishini ta'minlash bilan birga mavjud imkoniyatlarni to'la inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

4. Rivojlantiruvchi ta'lim. Amaliyotda ushbu ta'lim magistrning ichki imkoniyatlarni oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim – o'z-o'zini rivojlantirish maqsadida faoliyatli yondashuv hainda talabalarning ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirish, ularni estetik, axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiladigan ta'lmdir.

Mazkur ta'lim asoslari D.B.Elkonin va V.V.Davidov tomonidan asoslangan bo'lib, u ta'lim jarayoniga fikrlashning yuqori shaklini olib kirishga asoslanadi. Pedagogik amaliyotda odatda rivojlantiruvchi ta'limganing muhim shakli – trening qo'llaniladi. Turli mazmun, yo'nalishdagi treninglar magistrlarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, amaliyotda samarali qo'llash ko'nikma, malakalarini shakllantirish, ularning imkoniyatlarni to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida rivojlantiruvchi ta'limni qo'llashda taqdimotlardan ham samarali foydalananish tajribasi to'plandi. Metod ta'lim oluvchilarda o'quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy

yondashish, o`z ustida ishlash, mustaqil ta`lim olish ko`nikmalarini ham rivojlantiradi.

5. O`yin texnologiyalari. Zamonaviy sharoitda ta`lim amaliyotida o`yin texnologiyalari (o`yin ta`limi)dan ham samarali foydalaniilmoxda.

O`yin texnologiyalari (o`yin ta`limi) – ijtimoiy tajribalarni o`zlashtirishning barcha ko`rinishlari: bilim, ko`nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo`naltirilgan shartli o`quv vaziyatlarini ifodalovchi ta`lim.

Bu kabi texnologiyalar ikki guruhga ajratiladi: 1) rolli o`yinlar; 2) ishbilarmonlik o`yinlar.

O`yin texnologiyalari magistrlarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirot etish uchun dastlabki ko`nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta`lim jarayoni ishtirokchilari (m: magistrlar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta`lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish magistrlarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

O`quv mashg'ulotlaridan o`yinlar va o`yinli vaziyatlarni qo'llash quyidagi asosiy yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- didaktik maqsad magistrlar oldiga o`yinli topshiriq shaklida qo'yiladi;

- o`quv faoliyati o`yin qoidalariga bo`ysundiriladi;

- didaktik o`quv materialdan o`yin vositasi sifatida foydalaniлади;

- o`quv faoliyatida didaktik vazifani o`yin vazifasiga

aylanuvchi musobaqa elementi qo'llaniladi;


- muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o`yin natijasi sanaladi.

O`quv jarayonida o`yin texnologiyalarining o`rni, roli, shuningdek, o`yin elementlari hamda ta`limning o`zaro uyg'unligi ko`p jihatdan pedagog tomonidan pedagogik o`yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o`yinlar o`zida turli belgilar¹⁹ni namoyon qiladi (30-rasm).

6. Interfaol ta`lim. Zamonaviy sharoitda interfaol ta`lim tobora ommalashmoqda. **Interfaol ta`lim** (lot. “internus” – ichki, o`zaro) – magistrlarning bilim, ko`nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni

¹⁹ Игровые технологии // <http://www.vashpsixolog.ru/lectures-on-the-psychology/168-metodicheskaya-rabota/1465.html>

o'zlashtirish yo'lida bиргаликда, o'заро hamkorlikka tayanuvchi harakatni tashkil etishlarini ifodalovchi ta'lmdir.



30-rasm. Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari

Ta'limumning mazkur turida uning asosiy ishtirokchilari – pedagog, magistr hamda magistrlar guruhi o'rtasidagi pedagogik munosabatlarni o'заро hamkorlik, qizg'in bahs-munozara, o'заро fikr almashish asosida tashkil etish orqali ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlar yechimlarini bиргаликда izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'заро yaqinlikni yuzaga keltirish, "pedagog – magistr – magistrlar guruhi" o'заро bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari, qo'llab-quvvatlashlari, samimiyy munosabatda bo'lislari, ruhiy birlikka erishishlari ta'minlanadi. Interfaol ta'lum muvaffaqiyatini ta'minlashning asosiy shartlari quyidagilar sanaladi:

1. Ijobiy o'заро bog'liqlik.
2. Bevosita o'заро ta'sir.
3. Individual javobgarlik.
4. Birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
5. Ish natijasini baholash
7. Hamkorlik ta'lumi.

Ushbu ta'lum magistrlarning ta'lum jarayonida kichik guruhlarga birlashgan holda bilimlarni egallash, o'zlarida ko'nikma, malakalarni hosil qilish, individual qobiliyat, shaxsiy sisfatlarini rivojlantirish, bir-birlarini tushunish, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilish, faoliyat bosqichlari va ularda erishilgan natijalarni tahlil qilishda bиргаликда, hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlarini ifodalaydi. Hamkorlik ta'lumi o'zida ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

7.Hamkorlik ta'limi – magistrlarning muayyan vazifalarni bajarish, muammolar, o'quv topshiriqlarini hal qilish, qandaydir mahsulot yaratish maqsadida kichik guruhlarga birikkan holda pedagogik jarayonga bo'lgan ilg'or yondashuvlarini ifodalovchi ta'limdi.

Hamkorlik ta'limi (kichik guruhlarda ta'lim olish) pedagogika amaliyotida ko'pdan buyon qo'llaniladi. U ta'limga nisbatan pragmatik (insonga foyda keltiruvchi amaliy harakatlar) yondashuv tarafdori bo'lgan J.Dyui ta'limoti, u tomonidan asoslangan loyihalash metodining muhim elementi hisoblanadi. Mazkur ta'lim turi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arbiy Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiya kabi ko'plab mamlakatlarda keng ommalashgan. Hamkorlik ta'limi ta'limoti negizida uch guruh (Jon Hopkins universiteti – R.Slatin; Minne-sota universiteti – Rojer Jonson va Devid Jonson; Kaliforniya universiteti – J.Aronson)dan iborat amerikalik olimlar tomonidan batafsil asoslangan g'oyalar yotadi²⁰.

Buyuk Britaniyada hamkorlik ta'limi g'oyalarining yoyilishida XX asruning 60-yillarida umumiy ta'lim maktabi, Gold Smit kolleji va London universitetining bir guruh pedagoglari tomonidan asoslangan texnologiya o'ziga xos o'rinn tutadi. O'tgan asrning 80-yillarida mazkur texnologiya jahonning ko'plab boshqa mamlakatlari pedagoglarini ham qiziqtirib qo'ydi. Natijada turli bosqichda faoliyat olib boradigan ta'lim muassasalarida ushbu texnologiya samarali qo'llanila boshlandi²¹.

Hamkorlik ta'limi muayyan belgilarga ega. Ular:

- jamoa bilan hamkorlikda ta'lim olish;
- o'zaro bir-birini baholash;
- kichik guruhlarga birlashgan holda ta'lim olish.

Kichik guruhlarda ta'lim olish an'anaviy ta'limdan muayyan belgililar²²ga ko'ra farqlanadi. Jumladan:

- magistrning hamkorlik ta'limini tashkil etishdagi ishtiroki;
- magistrni ijtimoiylashtirish;
- magistrlarning o'zaro muloqoti;
- refleksiya;
- o'z-o'zini rivojlantirish uchun o'zaro ta'sir ko'rsatish.

Hamkorlik ta'limining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

²⁰ Обучение в сотрудничестве. Что это такое? // http://www.gmcit.murmansk.ru/text/information_science/workshop/seminars/training_personality/training_cooperation.htm

²¹ Обучение в сотрудничестве // <http://info.mgu-sh.ru/data/resources/collaborative-learning/book/int3.htm>.

²² Обучение в сотрудничестве // <http://wiki.pskovedu.ru/index.php>.

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limi hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- magistrlarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'limi jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi.

8. Tabaqalashtirilgan ta'lim. Mazkur ta'lim (r. "differentsirovannoe obuchenie", ing. "an differentia educational"; "differentia" – bir butunni qism, shakl, darajalarga bo'lish, ajratish + "educational" – ta'lim) magistrlarni muayyan mezonlar (yosh, bilim darajasi, dunyoqarashi, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, qiziqish va ehtiyojlari)ga muvofiq ma'lum guruh, tabaqaga ajratishni nazarda tutadi. Uzluksiz ta'lim tizimida ushbu ta'limdan foydalanish magistrlarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha, biroq. DTS va o'quv dasturi talablaridan kam bo'Imagan hajmdagi materiallarni berishga asoslanadi. Shunga ko'ra²³:

Tabaqalashtirilgan ta'lim pedagogning o'quv jarayoni uchun qandaydir ahamiyatli umumiy sifatlarni inobatga olgan holda magistrlar guruhi bilan ishlashini ta'minlovchi ta'lim va u magistrlarning turli guruhlari uchun maxsus o'quv jarayonining tashkil etilishini ta'minlovchi umumiylididaktik tizimning bir qismidir (G.K.Selevko).

Mashhur psixolog L.S.Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish hududi" nazariyasi tabaqalashtirilgan ta'lim g'oyalari, tamoyillariga asoslanadi.

Tabaqalashtirilgan ta'limning maqsadi – o'quv jarayonini shaxsning individual xususiyatlari, ya'ni uning ichki imkoniyatlari va qibiliyatlarini inobatga olish asosida tashkil etishdan iborat. Bu turdag'i ta'limni tashkil etishda magistrning individualligini ko'ra olish, saqlash, unga o'z kuchini sinab ko'rishga imkon berish, uni yuqori darajada rivojlantirishdan iborat pedagogik vazifa hal qilinadi.

Ta'lim muassasalarining amaliyotida magistrlarni tabaqalashtirilgan guruhlarga biriktirish masalalari Pedagogik (yoki Ilmiy) kengash, O'quv metodik birlashmalarning yig'ilishlarida o'rganilib chiqiladi.

9. Individual ta'lim. Bugungi kunda individual ta'lim keng ommalashmoqda.

²³ Дифференцированное обучение // <http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/> obshche pedagogicheskie-tehnologii/osnovnye-ponyatiya-tehnologii

Individual ta'lim – pedagogning alohida magistriga o`zaro hamkorlik asosida ta'sir ko'rsatishi, uning ta'lim vositalari (darsliklar, kompyuter va b.)lar bilan ishlashiga erishish asosida bilim, ko'nikma, malakalarning o`zlashtirishini ta'minlovchi ta'limdir.

1919-yilda AQShning Dalton shahrida pedagog Y.Parkxarst o`quv dars tizimini har bir magistr bilan alohida-alohida shug'ullanishga imkon yaratadigan tizim bilan almashtirishga urinadi. Magistrlar o`zlarining o`quv materialini o`zlashtirish sur'atiga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim dasturi bo'yicha ish ko'rish imkoniyatini qo`lga kiritdi. Unga ko'ra magistrlar kunning birinchi yarmida o`zlariga berilgan metodik ko'rsatma asosida mustaqil ravishda, ammo hech bir dars jadvalisiz bilimlarni o`zlashtirdi. Kunning ikkinchi yarmida esa qiziqishlariga ko'ra kichik guruuh tarkibida ishlash imkoniyatini ega bo'ldi. Mazkur tajriba pedagogika tarixida "Dalton reja" nomini oldi. "Dalton-reja" sobiq Ittifoqda "loyihalash metodi" nomi bilan mashhur bo'ldi va XX asrning 20-yillarda ko`plab ta'lim muassasalarida faol qo'llanildi²⁴.

Loyihalash metodi – o`quv jarayonini individuallashtirish, o`z faoliyatini rejalashtirish, tashkillashtirish va nazorat qilishda magistr tomonidan mustaqillikni namoyon qilinishiga imkon beruvchi majmuaviy ta'lim metodidir.

Mazkur ta'lim o`z mohiyatiga ko'ra shaxs tomonidan uning uchun qulay bo`lgan vaqt, makon va muddatda ma'lum dastur asosida bilim olinishini ifodalaydi. Bozor munosabatlari sharoitida har bir mutaxassis kuchli raqobatga bardoshli bo`la olishi zarur. Bu esa tabiiy ravishda mutaxassislardan o`z ustida ishlash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Xuddi mana shu sababga ko'ra uzlusiz ta'limning muayyan bosqichlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunarga yo'naltirilgan ta'lim muassasalari, oliv o`quv yurtlari, qolaversa, kasbiy faoliyatni olib borish davrida individual ravishda ilmiy bilimlarni o`zlashtirish, mavjud bilimlarni mustahkamlash va boyitish, kasbiy faoliyatga tayyorlanishga yo'naltirishni taqozo etmoqda. Individual ta'lim vaqtui iqtisod qilish, ortiqcha kuch va mablag' sarflanmaslik, maqbul dastur, vaqt va makonni tanlash imkoniyatini yaratadi. Bu turdag'i ta'limning tobora keng ommalashib borayotgan shakli –repetitorlik ta'limi bo'lib, u asosida ta'lim olishda ma'lum qulayliklarga ega bo'lish mumkin. Bunda eng muhim,

²⁴ Индивидуальное обучение // <http://www.libsid.ru/individualnoe-obuchenie-i-organizatsiya-dosuga-detey/individualnoe-obuchenie/technologiya-individualizatsii-obuchenija>

pedagog butun e'tiborini yakka shaxsga qaratadi, uning ichki imkoniyati, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv materiallarini tanlaydi.

Individual ta'limning afzalligi magistr tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarning qay darajada o'zlashtirilayotganligi asosida kuchaytirilgan tartibda o'qitishni tashkillashtirish, yutuqlarini boyitish, kamchiliklarini bartaraf etish choralarini tezkor belgilash imkoniyati mavjudligida ko'rindi.

Ta'lim muassasalarida individual ta'limni tashkil etish asosida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

- magistrning individualligini saqlab qolish va yanada rivojlantirish;
- har bir magistrning o'zlashtirmovchiliginu bartaraf etish orqali uning o'quv dasturlarini bajarish vositalaridan foydalanishiga ko'maklashish;
- har bir magistrning "yaqin rivojlanish hududi"ga tayangan holda unda umumiyo ko'nikma, malakalarni shakllantirish;
- o'quv motivatsiyasini yaxshilash va bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish;
- magistrda shaxsiy sifatlar: mustaqillik, mehnatsevarlik, ijodkorlik va b.ni shakllantirish.

Individual ta'lim o'zida quyidagi jihatlarni namoyon qiladi:

- individuallashtirish ta'lim jarayonining strategiyasi;
- individuallashtirish shaxsda individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;
- barcha o'quv fanlarida individual ta'limning qo'llash muhim pedagogik masalalardan biri;
- individual ishning o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalashtirish davr talabi;
- har bir magistrni individual sur'at, uslub asosida o'qitishga erishish zamonaviy ta'limning yutug'i;
- magistr shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish individual ta'limning muhim sharti sanaladi.

Mazkur ta'limning o'ziga xos jihatlari har bir magistr uchun uning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv materialining individual modelini taqdim qilinishi; magistr bilan muloqotda pedagogik ta'sirni uning individual rivojlantirishga yo'naltirilishi; ta'lim jarayonida magistrning individual xususiyatlarining inobatga olinishi; nafaqat barcha magistrlarning, balki har bir magistrni alohida rivojlanishi uchun xizmat qiladigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi kabilarda ko'zga tashlanadi.

10. Masofaviy ta’lim. Ushbu turdag'i ta’lim “pedagog va magistr o’rtasidagi to’g’ridan-to’g’ri, shaxsiy aloqasiz “masofadan o’qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o’qitish jarayonining o’ziga xos yangi shakli”²⁵.

Masofaviy ta’lim – o’quv jarayoniga taalluqli elementlar (ta’lim maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalari)ni o’ziga xos tarzda namoyon qilish, Internet-texnologiyasi va b. vositalarni maxsus ravishda amaliyatga tatbiq etish asosida pedagog va magistr o’rtasida muayyan masofada amalga oshirilib, ularning bir-birlariga o’zaro ta’sir ko’rsatishiga asoslanuvchi ta’limdir.

Shaxsga yo’naltilrilgan ta’limning o’ziga xos turlaridan biri bo’lgan masofaviy ta’lim o’quv jarayonini ilg’or axborot texnologiyalari, multimedya tizimi yordamida tashkil etilishini ta’minlaydi. Zamonaviy sharoitda masofaviy ta’lim quyidagi muhim elementlar²⁶ni qo’llashga asoslanadi:

- axborotlarni uzatish muhiti (aloqa bo’limi, televidenie, radio, axborot-kommunikatsion texnologiyalar);
- axborotlarni almashishning texnik muhitiga bog’liq ravishda qo’llaniladigan metodlar.

Tarixiy ma'lumotlar holda masofaviy ta’limning ilk asoslari XVIII asrda Yevropada yaratilganligidan guvohlik beradi. Xuddi shu davrda Yevropada aloqa (pochta) xizmati doimiy, izchil va qulay holda yo’lga qo’yildi. Natijada “muxbirlik ta’limi” deb nom olgan o’qitish shakli yuzaga keldi. Unga muvofiq talaba malakali pedagoglar bilan yozishmalar olib borib, aloqa xizmati orqali tegishli o’quv materialiga ega bo’lardi. O’quv materiali talaba tomonidan o’rganilib bo’lingach, o’zi istiqomat qiladigan manzilda ishonchli shaxsga imtihon topshirardi yoki aloqa xizmati orqali sinov topshiriqlarini ilmiy ish shaklida o’z rahbariga yuborardi. Bunday usul Rossiya XIX asrning oxirlarida paydo bo’lgan. Ming afsuski O’zbekiston sharoitida mazkur usul asosida ta’lim olinganligi to’g’risidagi ishonchli ma'lumotlar mavjud emas.

So’nggi yillarda ta’lim oluvchilar bilan axborot-kommunikativ texnologiyalar vositasida interfaol o’zaro ta’sirni yuzaga keltirish tobora dolzarblik kasb etmoqda. 2003-yilda ADL tashabbuskor guruhi Internet texnologiyasini qo’llash orqali masofaviy interfaol ta’lim (SCORM)ning

²⁵ “Pedagogika fanidan izohli lug’at” / Tuzuvchilar J Hasanboev va b. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” – 2009, 263-264-betlar.

²⁶ Дистанционное обучение // <http://ru.wikipedia.org/wik>

ilmiy-amaliy asoslari, standartlarini ishlab chiqishga kirishi. Masofaviy interfaol ta'lim (SCORM)ning ilmiy-amaliy asoslari, standartlarini ishlab chiqish bu turdag'i ta'limning xuddi o'quv dasturlari asosida tashkil etiladigan o'qitish jarayoni kabi ahamiyat kasb etishini ta'minladi. Ayni vaqtida respublika ta'lim tizimida ham jahon, ham o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan masofaviy ta'lim dasturlari faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa, uzlusiz ta'lim tizimining oliv va oliv ta'limdan keyingi bosqichlarda masofaviy ta'limni qo'llashda muayyan tajribalar to'plandi.

Masofaviy ta'lim quyidagi imkoniyatlar²⁷ga ega:

- ta'lim olish va bilimlarni o'zlashtirishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;
- pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga aniq yo'nalish beradi;
- metodologik, nazariy va uslubiy bilimlarni egallash uchun imkoniyat yaratadi;
- bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi;
- turli axborotlarni izlash va o'zlashtirish orqali ta'lim olish imkoniyatini yaratadi;
- ta'limni tashkil etish uchun sarflanadigan xarajatni kamaytiradi (binolarning ijara olinishi, pedagog va magistrarning ta'lim olish joyiga borishlari talab qilinmaydi);
- o'quv jarayoni ko'p sonli ta'lim oluvchilar ishtirokida tashkil qilinadi;
- ta'lim sifati zamonaviy vositalar, katta hajmdagi elektron kutubxona hisobiga oshiriladi;
- yagona ta'lim muhiti (ayniqsa, hamkorlik ta'limi)ning tashkil etilishiga erishiladi.

11. Mustaqil ta'lim. Mazkur ta'lim "olangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rGANISH maqsadida"²⁸ tashkil etiladi.

Mustaqil ta'lim – magistrarning pedagog rahbarligida erkin ta'lim olish asosida o'zida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga bo'lgan harakatini ta'minlovchi ta'limdir.

²⁷ "Pedagogika fanidan izohli lug'at"/ Tuzuvchilar: J Hasanboev va b. – Toshkent "Fan va texnologiyalar" – 2009, 262-bet. Дистанционное обучение // http://www.mocobrazovanie.ru/distantsionnoe_obuchenie.html

²⁸ "Pedagogika fanidan izohli lug'at"/ Tuzuvchilar: J Hasanboev va b. – Toshkent "Fan va texnologiyalar" – 2009, 263-bet

Ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish magistrni pedagogning talablariga mos ravishda yuzaga keluvchi ruhiy bosimdan xalos qiladi. Unda ta'lim jarayoniga nisbatan boshqacha munosabat yuzaga keladi: motivatsiya, o'z-o'zini baholash darajasi ortadi; xato qilishga bo'lgan qo'rquv barham topadi. Mustaqil ta'lim yordamida magistrlar zamonaviy ta'lim vositalari yordamida mustaqil ravishda mavjud bilimlarini boyitish, mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lib, erkin holda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Magistr o'zi mustaqil ravishda qanday shaklda va ta'limning qanday vositalari (kompyuter texnologiyasi, planshet, Internet, nashr ishlari va b.) yordamida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishni hal qiladi. O'z oldiga qo'yan maqsadlarga erishish to'g'risida o'zi qaror qabul qiladi, vaqtini erkin taqsimlaydi, ma'lum bosqichda o'zi yoki tengdoshlari bilan hamkorlikda bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish masalasini hal qiladi.

Mustaqil ta'limning quyidagi uch modeli²⁹ farqlanadi:

- individual model (uning markaziga shaxsiy ehtiyojga ko'ra bilim oluvchi magistr qo'yiladi);
- Internet aloqasi modeli (unga ko'ra ta'lim Internet orqali tegishli soha mutaxassislar bilan magistr o'rtasida amalga oshiriladi);
- guruhli model (unga muvofiq ta'lim talabalar guruhi yoki muayyan maqsad asosida birlashgan guruh a'zolari tomonidan muayyan mavzularni o'zaro muhokama etish va qarorlar qabul qilish asosida tashkil etiladi);
- loyihalash modeli (u bir necha magistr faoliyatini yakuniy maqsadga yo'naltirishni birinchio'ringa qo'yishga asoslanadi).

Ushbu ta'limning afzalligi magistrlar bilimlarni o'zлari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtida o'zlashtira oladi. Bugungi kunda mustaqil ta'lim olish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Magistr mavjud nashr ishlari (o'quv, ilmiy, ilmiy-omrnabop va ommabop asarlar), Internet hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan materiallar yordamida o'z bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Biroq, mustaqil ta'limning tashkil etilishi uchun ham muayyan darajada nazorat zarur. Zero, yosh xususiyatlarga ko'ra imkoniyatlari turlicha bo'lgan magistrlar tizimlashtirilmagan, asoslanmagan ma'lumotlarni ham qabul qilishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababli ta'lim muassasalarida pedagoglar talabalarni mustaqil ta'lim olishga rag'batlantirishda ularga metodik yordam ham ko'rsatishlari, to'g'ri yo'nalish bera olishlari kerak.

²⁹ Автономное обучение // http://sfedu.ru/kaf/deutschland/page01/page01_7.htm

Shaxsga yo`naltirilgan ta'limning bu turiga ko`ra pedagogning vazifasi o`zgaradi. Endilikda u ta'lim jarayonida rahbar, nazorat qiluvchi shaxs sifatida emas, balki maslahatchi, yordamchi va hamkor sifatida namoyon bo`lib, magistrni qo'llab-quvvatlab turadi. Maslahatchi sifatida esa pedagog mustaqil ta'limni tashkil etish vaqtida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- talabani ruhiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- talabani texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash (uning ehtiyojlarini o'rganish, ta'limni rejalashtirish, tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish);
- mustaqil o'zlashtirish uchun taqdim etilgan materiallar bilan ishslashda magistriga metodik yordam ko`rsatish.

Mustaqil ta'lim samaradorligi ko`p jihatdan o`quv materiali, metodik qo'llanma va ko`rsatmalarining sifati, pedagogning magistrni to`g'ri yo`naltira olishi, talabaning ta'limga mas'uliyatli yondashuvi, pedagog va magistr o`rtasidagi qaytar aloqa, magistr faoliyatini nazorat qilishning to`g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

12. Innovatsion ta'lim. Ushbu turdagagi ta'lim magistrda yangi g`oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o`zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg`or g`oya, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifat va malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Innovatsion ta'lim (ing. "innovation" – yangilik kiritish, yaratish) – ta'limi maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari. shuningdek, pedagogning kasbiy faoliyatiga ilm, fan, texnika va texnologiya sohalarida ro`y berayotgan yangiliklarni izchil tatbiq etish yoki ilg`or mualliflik g`oyalarini ilgari surish asosida o qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlovchi ta'lim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri sifatida e'tirof etiluvchi "innovatsion ta'lim" asoslari dastlab 1979-yilda Rim klubida "Ta'lim olishning chegarasi yo`q" ("Net predelov obucheniyu") mavzusida o'qilgan ma'ruzada tilga olingan va mustaqil tushuncha sifatida ilk bor asoslangan. Mazkur ta'lim ijtimoiy muhit, madaniyat, shuningdek, ta'lim sohalarida ro`y berayotgan innovatsion o`zgarishlarni rag`batlanтирish, shaxs hayoti va jamiatning innovatsion davrida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilishni tezlashtirish imkoniyatini yaratadi³⁰.

Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish joizki. ta'lim tizimida qo'llanilayotgan har bir yangilik innovatsiya sanalavermaydi. Shunga

³⁰ Инновационное обучение // http://msk.treko.ru/show_dict_1234

ko`ra ta'lim jarayonida qo`llanilayotgan yangiliklarning “innovatsiya” deb baholanishi uchun muayyan mezonlar aniqlab olinishi zarur. Bu o`rinda I.P.Podlasiy³¹ “innovatsiya” sifatida pedagogik tizimda qo`llanilayotgan har qanday yangilik quyidagi mezonlarga javob bera olishi lozim, deb hisoblaydi:

- pedagogik tizimning tamomila o`zgartirilishi;
- o`quv jarayoni tuzilmasining tubdan o`zgartirilishi;
- pedagogik nazariya mazmunining keskin o`zgartirilishi;
- pedagog faoliyatining tubdan o`zgartirilishi;
- talaba faoliyatining mazmunan yoki tarkibiy jihatdan yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o`zgartirishi yoki takomillashtirishi;
- ta'lim mazmunining tubdan yangilanishi;
- ta'lim shakl, metod va vositalarining o`zgartirilishi yoki takomillashtirilishi;
- pedagogik boshqaruvning yuksak samaradorlikni ta'minlaydigan darajada yashshilanishi;
- ta'lim maqsadi va natijasining sifat, samaradorlik jihatdan o`zgartirilishi.

Zamonaviy ta'lim turi sifatida “innovation ta'lim”ni baholashda “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalarini bir-biridan farqlay olish lozim. Agarda ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida yaratilgan yangiliklar bilan: 1) yaxlit tizimning ayrim elementi o`zgartirilib, boyitilsa, bu holat “novatsiya”; 2) yaxlit tizimning o`zi tubdan o`zgartirilib, boyitilsa yoki tizimning keskin rivojlanishi ta'minlansa, mazkur hodisa “innovatsiya” deya e'tirof etiladi³².

Pedagogning innovatsion ta'limni tashkil etishga qaratilgan faoliyati “innovatsion faoliyat” deb yuritiladi. V.Slastyonin³³ning fikriga ko`ra innovatsion faoliyat muayyan tarkibiy elementlardan tarkib topadi(31-rasm).

Uzlusiz ta'lim tizimida innotvasion ta'limdan foydalanish magistrlarda ular tomonidan bilim, ko`nikma, malakalar o`zlashtirayotgan sohalarda yangiliklar yaratish, ilg`or g`oyalarni asoslash, amaliyotga samarali tatbiq etishga tayyorlaydi. Kelgusida kasbiy faoliyatni tashkil


³¹ Подласый И.П. “Педагогика” / В 2-х томах. – М.: Владос, 2004 – С. 191.

³²Jumaniyozova M.T. “Malaka oshinsh jarayonida pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari” (tarix fanı pedagogları misolida): Ped.fanl.nomz. diss. – Toshkent 2007 18-bet

³³ Сластенин В.А. Подымова Л.С. “Педагогика – инновационная деятельность” Москва: “Магистр” 1997. – С. 97

etishda innovatsion ta'lif tamoyillaridan samarali foydalanish uchun bo'lajak mutaxassis sifatida magistrlar quyidagi ko'nikma, malakalarni samarali o'zlashtira olishlari zarur:

- faoliyatga ijodiy yondashish malakalarini egallashga intilish;
- pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan samarali foydalana olish ko'nikmalarini egallash;
- mualliflik dasturi, nazariyasi va konsepsiyalarini asoslash qobiliyatini o'zlashtirish;
- tajriba-sinov ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, ilmiy-metodik xulosaga kelish qobiliyatini rivojlantirish;
- tashabbuskor, ijodkor pedagoglarning ish tajribalarini o'rghanish, kasbiy faoliyatda ularning ilg'or g'oyalarini qo'llash;
- jahon va respublika miqyosida faoliyat olib borayotgan novator (yangilik yaratuvchi) pedagoglar bilan hamkorlik o'mnatiш;
- pedagogik muhitda hamkasblarning o'zaro fikr almashishlari va bir-birlariga metodik yordam ko'rsatishlarini ta'minlash;
- ta'lif jarayonida yuzaga keladigan nizolarning oldini olish va bartaraf etish;
- ta'lifiy yangiliklardan izchil xabardor bo'lib borish, ularni mahalliy sharoitga moslagan holda amaliyotda qo'llash.



31-rasm. Innovatsion faoliyatning tarkibiy elementlari

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif o'quv jarayonida har bir magistrning qiziqishi, bilish qobiliyatini to'la namoyon qila olishiga imkoniyat yaratadi. Muammoli ta'lif, modul ta'lifi, dasturiy ta'lif, rivojlantiruvchi ta'lif, o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lif, hamkorlik ta'lifi, tabaqalashtirilgan ta'lif, individual ta'lif, masofaviy ta'lif, mustaqil ta'lif hamda innovatsion ta'lif kabi texnologiyalar magistrni shaxs sifatida rivojlantirish, har tomonlarma kamolga yetkazishga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari rag'batlantiruvchi asos, monokonstruksiya, sotsiokonstruksiya, ijtimoiylashuv, ma'lumotlarni bilishga intilish, refleksiya kabi algoritmlarga ega bo'lib, ular magistrda

ta'limga olishga bo'lgan rag'batni yuzaga keltiradi, o'quv topshiriqlarini mustaqil yoki kichik guruhlarda bajarish imkoniyatini yaratadi, ijtimoiy jarayonlarga tayyorlanishi, shaxs sifatida o'z-o'zini anglashiga yordam beradi, axborot asrida zarur, kerakli, foydali, amaliy qiymatga ega ma'lumotlarni samarali o'zlashtirishi uchun zarur sharoitni yaratadi. Zamonaliv ta'limga turlarining mohiyatiga ko'ra magistr o'qitish jarayonining asosiy ob'ektiga aylanadi. Natijada uni aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik jihatdan kamol toptirishda katta yutuqlarga erishiladi.

Foydalananish uchun adabiyotlar:

- 1.Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish". Toshkent: "Fan va texnologiya" - 2008.
- 2.Ochilov M. "Yangi pedtexnologiyalar". Qarshi: "Nasaf"- 2000.
- 3.Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". Toshkent: "Oliy pedagogika instituti"- 2003.
- 4.Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Toshkent: "Moliya"- 2003.
- 5.Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari". Toshkent: "Fan"-2006.
- 6.Tolipov O', Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". Toshkent:"Fan"- 2005.
- 7.Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent:"Fan"- 2000.

Nazorat uchun savollar:

1. "Shaxsga yo'naltirilgan ta'limg" deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limg texnologiyasi qanday algoritmrlarga ega?
3. Refleksiya nima?
4. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limgning qanday turlari mayjud?
5. Muammoli ta'limg nima?
6. Muammoli ta'limgning qanday turlari farqlanadi?
7. Modul ta'limi nima?
8. "Dasturiy ta'limg" deganda nima tushuniladi?
9. Dasturiy ta'limg qanday muhim belgilarga ega?
10. Ta'limg dasturi qanday elementlardan tarkib topadi?
11. Rivojlantiruvchi ta'limgning mohiyati nimadan iborat?
12. O yin texnologiyalari nima?

13. Pedagogik o'yinlar o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi?
14. Interfaol ta'lif nima?
15. "Hamkorlik ta'limi" deganda nimani tushunasiz?
16. Tabaqalashtirilgan ta'lim mohiyati nimadan iborat?
17. Individual ta'lim nima?
18. Individual ta'limning "Dalton-reja" deb nomlanishining sababi?
19. "Masofaviy ta'lim" nima va u qanday imkoniyatlarga ega?
20. Mustaqil ta'limning afzalligi nimada?

Test topshiriqlari:

1. Magistrning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim qanday nomlanadi?
 - a) tabaqalashtirilgan ta'lim;
 - b) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
 - c) an'anaviy ta'lim;
 - d) to'g'ri javob yo'q.
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari qanday algoritmlarga ega?
 - a) rag'batlantiruvchi asos, monokonstruksiya,
 - b) sotsiokonstruksiya, ijtimoiylashuv,
 - c) malumotlarni bilishga intilish, refleksiya;
 - d) barcha javoblar to'g'ri.
3. Magistrning shaxsiy hayotiy yondashuvi, kechinmalari va tafakkurida kechayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishi, o'zining tafakkur qibiliyati, erishayotgan yutuqlari, mag'lubiyatlarining sabablarini bilishga intilishi qanday nomlandi?
 - a) rag'batlantiruvchi asos;
 - b) monokonstruksiya;
 - c) sotsiokonstruksiya;
 - d) refleksiya.
4. Rag'batlantiruvchi asos nimaga xizmat qiladi?
 - a) kichik guruhlarda ishlash uchun sharoit yaratishga;
 - b) shaxsga yo'naltirilgan muammoli vaziyatni yuzaga keltirishga;
 - c) topshiriq asosida individual ishlash orqali muammoni ko'rish, gipoteza yaratish, yechimni topishga;
 - d) to'g'ri javob yo'q

5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining qanday turlari mavjud?
- a) muammoli, modul, dasturiy, rivojlantiruvchi ta'lim;
 - b) o'yin texnologiyalari, interfaol, hamkorlik, tabaqlashtirilgan ta'lim;
 - c) individual, masofaviy, mustaqil; innovatsion ta'lim;
 - d) barcha javoblar to'g'ri.
6. Qanday ta'lim magistrlarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi?
- a) muammoli ta'lim;
 - b) interfaol ta'lim;
 - c) modul ta'limi;
 - d) rivojlantiruvchi ta'lim.
7. Muammoli ta'limning qanday turlari mavjud?
- a) muammoli bayon; hamkorlikda o'qitish;
 - b) hamkorlikda o'qitish; ijodiy ta'lim;
 - c) muammoli bayon; hamkorlikda o'qitish; ijodiy ta'lim;
 - d) to'g'ri javob yo'q.
8. Yaxlit o'quv materialini blok, modul (alohida ajratilgan qism)larda 1-blok, 2-blok va h.k. tarzida taqdim etish ta'limning qanday turi asosida amalga oshiriladi?
- a) modul ta'limi;
 - b) muammoli ta'lim;
 - c) rivojlantiruvchi ta'lim;
 - d) dasturiy ta'lim.
9. Modul ta'limi nimaga asoslanadi?
- a) o'quv materiali, axborotini blok-modul asosida taqdim etishga;
 - b) ta'lim oluvchiga yangi bilimlarni berishga;
 - c) o'qitish jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llashga;
 - d) magistr bilish faoliyatini xolis baholashga.
10. Magistrlarning ehtiyoj, qiziqish, imkoniyat, bilimlarni o'zlashtirish hamda yosh darajalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim qanday nomalanadi?
- a) modul ta'limi;

- b) dasturiy ta'lim;
- c) rivojlantiruvchi ta'lim;
- d) innovatsion ta'lim.

11. Dasturiy ta'lim g'oyasi qachon va kim tomonidan asoslangan?

- a) 1919-yilda Y.Parkxarst tomonidan;
- b) 1920-yilda B.Blum tomonidan;
- c) 1954-yilda B.F.Skinner tomonidan;
- d) 1995-yilda I.P.Podlsiy tomonidan.

12. Dasturiy ta'limning asosi bo'lgan ta'lim dasturi qanday elementlardan tarkib topadi?

- a) mazmunli o'quv materiali; magistrning o'quv materialini o'zlashtirishga doir harakati rejasи;
- b) mazmunli o'quv materiali; magistrning o'quv materialini o'zlashtirishga doir harakati rejasи; magistrning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilish shakllari;
- c) to'g'ri javob yo'q;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

13. O'z-o'zini rivojlantirish maqsadida faoliyatli yondashuv hamda magistrlarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish, ularni estetik, axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiladigan ta'lim – bu ...

- a) muammoli ta'lim;
- b) rivojlantiruvchi ta'lim;
- c) o'zin texnologiyalari;
- d) individual ta'lim.

14. Rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari kimlar tomonidan asoslangan?

- a) I.P.Podlsiy va V.Slastyonin tomonidan;
- b) N.Sayidahmedov va A.Abduqodirov tomonidan;
- c) B.F.Skinner va B.Blum tomonidan;
- d) D.B.Elkonin va V.V.Davidov tomonidan.

15. Ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka, hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi ta'lim qanday nomlanadi?

- a) o`yin texnologiyalari (o`yin ta'limi);
 - b) shaxsga yo`naltiruvchi ta'lim;
 - c) innovatsion ta'lim;
 - d) an'anaviy ta'lim.
16. Pedagogik o`yinlar o`zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi?
- a) magistrning xohishiga ko`ra tanlangan erkin rivojlantiruvchi faoliyat ekanligi; ushbu faoliyatning ijodiy, avvaldan tayyorlanmagan, juda faol xarakteri;
 - b) faoliyatning hissiy ko`tarinkiligi, raqobatga asoslanishi; bilvosita va bevosita qoidalarning mavjudligi;
 - c) a va b javoblar to`g`ri;
 - d) to`g`ri javob yo`q.
17. Magistrlarning bilim, ko`nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o`zlashtirish yo`lida birgalikda, o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim – bu ...
- a) innovatsion ta'lim;
 - b) rivojlantiruvchi ta'lim;
 - c) interfaol ta'lim;
 - d) mustaqil ta'lim.
18. Magistrlarning muayyan vazifalarni bajarish, muammolar, o`quv topshiriqlarini hal qilish, qandaydir mahsulot yaratish maqsadida kichik guruhlarga birikkan holda pedagogik jarayonga bo`lgan ilg`or yondashuvni ifodalovchi ta'lim qanday nomalanadi?
- a) hamkorlik ta'limi;
 - b) rivojlantiruvchi ta'lim;
 - c) interfaol ta'lim;
 - d) mustaqil ta'lim.
19. Hamkorlik ta'limi qanday belgilarga ega?
- a) jamoa bilan hamkorlikda ta'lim olish; o`zaro bir-birini baholash;
 - b) o`zaro bir-birini baholash; kichik guruhlarga birlashgan holda ta'lim olish;
 - c) jamoa bilan hamkorlikda ta'lim olish; o`zaro bir-birini baholash; kichik guruhlarga birlashgan holda ta'lim olish;
 - d) to`g`ri javob yo`q

20. Tabaqalashtirilgan ta'lim nimani nazarda tutadi?
- a) magistrlarning jamoa bo'lib, ijodiy mahsulot yaratishlari uchun zarur sharoitni yaratishni;
 - b) magistrlarning bilim darajalarini tashxislash asosida ularga maxsus o'quv dasturlarini taqdim etishni;
 - c) magistrlarni kichik guruhlarga birlashtirgan holda o'quv topshiriqlarini bajarishga jalg etishni;
 - d) magistrlarni muayyan mezonlar (yosh, bilim darajasi, dunyoqarashi, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, qiziqish va ehtiyojlari)ga muvofiq ma'lum guruhi, tabaqaga ajratishni.
21. Ta'lim muassasalarida magistrlarni tabaqalashtirilgan guruhlarga biriktirish masalalari qanday organlar tomonidan ko'rib chiqiladi?
- a) Pedagogik kengash (Ilmiy kengash);
 - b) o'quv-metodik birlashma;
 - c) Pedagogik kengash (Ilmiy kengash), o'quv-metodik birlashma;
 - d) Homiylik kengashi.
22. Pedagogining alohida magistr o'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishi, alohida magistrning ta'lim vositalari (darsliklar, kompyuter va b.)lar bilan ishslash asosida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishini ta'minlovchi ta'lim qanday nomlanadi?
- a) hamkorlik ta'limi;
 - b) individual ta'lim;
 - c) interfaol ta'lim;
 - d) mustaqil ta'lim.
23. Individual ta'lim g'oyalari qachon va kim tomonidan asoslangan?
- a) 1919-yilda Y.Parkxarst tomonidan;
 - b) 1920-yilda B.Blum tomonidan;
 - c) 1954-yilda B.F.Skinner tomonidan;
 - d) 1995-yilda I.P.Podlasiy tomonidan.
24. O'quv jarayoniga taaalluqli elementlar (ta'lim maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalari)ni o'ziga xos tarzda namoyon qilish, Internet-tehnologiyasi va b. vositalarni maxsus ravishda amaliyotga tatbiq etish asosida pedagog va magistr o'rtasida muayyan masofada amalga oshirilib, ularning bir-birlariga o'zaro ta'sir ko'rsatishiga asoslanuvchi ta'lim qanday nomlanadi?

- a) hamkorlik ta'limi;
b) masofaviy ta'lim;
c) interfaol ta'lim;
d) mustaqil ta'lim.
25. Masofaviy ta'limning muhim elementlari nimalardan iborat?
a) axborot ta'minoti; axborot bilan ishlovchi sub'ektlar; operatorlar;
b) axborotlarni uzatish muhiti (aloqa bo'limi, televideonie, radio, axborot-kommunikatsion texnologiyalar); axborotlarni almashishning texnik muhitiga bog'liq ravishda qo'llaniladigan metodlar;
c) to'g'ri javrb yo'q;
d) a va b javoblar to'g'ri.
26. Masofaviy ta'limning ilk asosi qanday nomlanadi?
a) aloqa xizmati ta'limi;
b) muxbirlik ta'limi;
c) aloqa xizmatchisi vositasida amalga oshiriladigan ta'lim;
d) ommaviy ta'lim.
27. Mustaqil ta'lim nima?
a) magistrlarning maxsus o'quv dasturlari asosida o'zida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga bo'lgan harakatini ta'minlovchi ta'limi;
b) magistrlarning maxsus tashkil etilgan muhitda bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi ta'lim;
c) magistrlarning pedagog rahbarligida erkin o'qish asosida o'zida bilim, ko'nikma, malakalami shakllantirishga bo'lgan harakatini ta'minlovchi ta'lim;
d) to'g'ri javob yo'q
28. Mustaqil ta'limning qanday modellari farqlanadi?
a) individual model; internet aloqasi modeli; guruhli model;
b) individual model; guruhli model; ommaviy model;
c) maxsus model; maxsus bo'lgan model;
d) to'g'ri javob yo'q.
29. Mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagog kim sifatida namoyon bo'ladi?
a) maslahatchi, yordamchi, hamkor;

- b) rahbar, nazoratchi, ekspert;
c) tashkilotchi, loyihachi, nazoratchi;
d) barcha javoblar to'g'ri.
30. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari, shuningdek. Pedagogning kasbiy faoliyatiga ilm, fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y berayotgan yangiliklarni izchil tatbiq etish yoki ilg'or mualliflik g'oyalarini ilgari surish asosida o qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlovchi ta'lim qanday nomlanadi?
- a) innovatsion ta'limi;
 - b) masofaviy ta'lim;
 - c) interfaol ta'lim;
 - d) mustaqil ta'lim.
31. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?
- a) 1919-yilda Berlinda;
 - b) 1979-yilda Rimda;
 - c) 1920-yilda Vashingtonda;
 - d) 1995-yilda Moskvada.
32. V.Slasteninning fikriga ko'ra innovatsion faoliyat qanday tarkibiy elementlardan tarkib topadi?
- a) innovatsion yondashuv; ijodiy faollik;
 - b) yangicha fikrlash; muomala madaniyati;
 - c) yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik;
 - d) barcha javoblar to'g'ri.

TARBIYA TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Tarbiya texnologiyalarining mohiyati.
2. Tarbiya texnologiyalarining muhim belgilari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya texnologiyalarining darajalari va tarkibiy elementlari.
4. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.
5. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti va texnologik xaritasi.

Tayanch tushunchalar: tarbiya texnologiyasi, tarbiyaviy vaziyat, tarbiya texnologiyalarining turkumlari, tarbiya texnologiyalarining muhim belgilari, tarbiya texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, tarbiya texnologiyalarining darajalari, tarbiya texnologiyalarining tarkibiy elementlari, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini loyihalash, tarbiya jarayonini loyihalash bosqichlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti, ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik xaritasi.

Tarbiya texnologiyalarining mohiyati. Tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzlusiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'llim texnologiyasi magistrning ta'llimi jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo`lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'llim texnologiyasidan farq qiladi. Dastlab "tarbiya texnologiyasi"³⁴ tushunchasining mohiyatini anglab olish lozim.

Tarbiya texnologiyasi – 1) tizimli va izchil amaliyotda yuzaga chiqadigan, oldindan loyihalashtirilgan tarbiya jarayoni;

2) tarbiyaviy faoliyatni mahorat darajasiga ko'tarishga yordam beruvchi ilmiy jihatdan ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan metod, usullar, ish tartibi tizimi.

Texnologik yondashuv ixtiyoriy bosqichlarda tuzatish imkonini beruvchi, doimiy qaytar aloqaga ega tarbiya jarayonining turli vaziyatlarga tez moslashtiriladigan va izchil anglab olinadigan tarkibiy tuzilmasining

³⁴ Технология воспитания // http://kpip.kbsu.ru/pd/did_les_6.html.


ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyat jarayoniga tarbiya texnologiyasini bosqichma-bosqich tafbiq etishi barcha magistrlar uchun o'zlarida ijobjiy sifatlarni hosil qilish, rivojlantirish borasidagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritilishiga yordam beradi.

Tizim sifatida tarbiya texnologiyasi ko'zda tutilgan natija va sifatni kafolatlaydi. Yosh avlodni voyaga yetkazish, unda ijobjiy sifatlarni hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini yorituvchi tarbiya texnologiyasi o'zida loyiha ko'rinishida aks etuvchi taxminiy g'oya (faraz)ni ifodalaydi. Tarbiya texnologiyasi bosqichma-bosqich, qadam-baqadam tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilmasini to'liq yoritishga xizmat qiladi. Har bir bosqich ma'lum tarbiyaviy vaziyatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik faoliyatning qaysi bosqichda tashkil etilayoganligiga ko'ra tarbiyaviy vaziyatlarni quyidagicha ajratish mumkin:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Amaliy bosqich.
3. Nazorat bosqichi.
4. Yakuniy bosqich.

Zamonaviy sharoitda ta'limda bo'lgani kabi tarbiya sohasida ham texnologiyalarni turkumlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirda xorijiy mamlakatlarning yutuqlari, mahalliy tajribalarga tayangan holda tarbiya texnologiyalarini quyidagicha turlarga ajratish taklifi aytilmoqda (32-rasm):



32-rasm. Tarbiya texnologiyalarining asosiy turlari

Hozirda eng ommalashgan tarbiya texnologiyalari quyidagilar sanaladi:

- “Muvaffaqiyat holati”(N.E.Shurkova g’oyasi);
- xayrixohlik kayfiyatini yoyish;
- faoliyat oldidan bo’ladigan qo’rquvni yengish;
- maxfiy yordam;
- faoliyat rag’bat (motiv)larini kuchaytirish;
- pedagogik ishontirish;
- pedagogik baholash.

Tarbiya texnologiyalarining muhim belgilari va o’ziga xos xususiyatlari. Ta’lim texnologiyasi kabi tarbiya texnologiyasi ham o’zida ma’lum belgilarni namoyon qiladi. Ular quyidagilardir:

1. Tarbiyaviy maqsadning qo’yilishi.
2. Pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.
3. Pedagogning yuqori darajadagi mahorati, faolligi, ijodkorligi va tashabbuskorligi.
4. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini oldindan baholash.
5. Qaytar aloqa.
6. Xolis nazorat.
7. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati.
8. Natijaga ko’ra vaziyatni qayta baholash.
9. Yanada samarali metod, usul va vositalarni qo’llash chora-tadbirlarini belgilash.
10. Tarbiyaviy texnologiya xarakterinmg tarbiyalanuvchilar shaxsiga munosabatga bog’liqligi.

Tarbiya texnologiyasini ishlab chiqishda tarbiyaviy tadbirlarning texnologik algoritmi muhim ahamiyatga ega. Texnologik algoritmlar o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) tarbiyaviy tadbir maqsadini aniqlashtirish;
- 2) tarbiyaviy tadbir mazmunini asoslash;
- 3) tarbiyaviy tadbirni tashkillashtirish;
- 4) tarbiyaviy tadbirni o’tkazish;
- 5) tarbiyaviy tadbir natijalarini tahlil qilish.

Tarbiya texnologiyasiga muvofiq tadbir natijalarini tahlil qilishda pedagogik faoliyat quyidagi shakllar³⁵da aks etadi:

1. Monitoring (tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etilishini kuzatish, natijalarni baholash va istiqbolni bashoratlash);
2. Korreksiya (tarbiyaviy tadbirlarda qo’llanilgan uslub va usullarning samaradorligini tahlil qilish asosida kamchiliklarini qisman yoki to’liq tuzatish);

³⁵ Технология воспитания // <http://cito-web.yspu.org/link/l/metod/met40/node/12.html>

3. Refleksiya (pedagog tomonidan tarbiyalanuvchi xatti-harakatlari, dunyoqarashi, qadriyatları, qiziqishlari, fikrlashlari, idroki, qarorlar qabul qilishi, hissiy ta'sirlanishi, ularni rag'batlanadiruvchi omillar mohiyatini anglab yetish asosida tarbiyaviy tadbirlarni yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlarini belgilash).

Tarbiyaviy jarayonda pedagogning avtoritar boshqaruvi faoliyat muvaffaqiyatsizligiga olib kelsa, demokratik boshqaruv yutuqlar kafolati hisoblanadi.

Tarbiya texnologiyalarining darajalari va tarkibiy elementlari. Tarbiya texnologiyalarini yaratish ta'lim texnologiyalarini asoslashga nisbatan murakkabdir. Murakkablik tarbiyaning quyidagi xususiyatlari³⁶dan kelib chiqadi:

1. Keng ma'noda tarbiya muayyan aniq vaziyatda bir xil ma'no kasb etmaydi.

2. Tarbiya yaxlit xarakter kasb etadi, bu bois uni tarkibiy qismlargacha ajratish qiyin, shunday ekan, tarbiyachining xatti-harakatlarini ifodalovchi qandaydir qoidalarini yaratish oson emas.

3. Tarbiyalanuvchi shaxs bir vaqtning o'zida – ham pedagogning ta'siri uchun ob'ekt, ham turli pedagogik faoliyat uchun sub'ekt sanaladi.

4. Tarbiya ko'p omilli jarayon bo'lib, ko`pgina, shu jumladan, tabiiy omillarni tuzatish imkoniyati yo'q.

5. Tarbiyaning uch muhim tarkibiy elementi (tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, jarayon)dan ikkitasi sub'ektlar bo'lib, ularning xatti-harakatlarini oldindan to`g'ri aytish mumkin emas, zero, "tarbiya qarshiligi" mavjud.

6. Tarbiya hayot bilan uzviy bog'langan: tarbiya sub'ektining mantig'i va egallagan o'rni shaxsiy va pedagogik pozisiyadan qat'iy nazar bir-biriga zid bo'lishi mumkin; bu qarama-qarshiliklar tarbiya maqsadini tushunish yoki maishiy turmush tarzidan yoxud ilmiy nuqtai nazardan ro'y berishi mumkin.

7. Juda ko'pchilik pedagoglar ega bo'lgan tarbiya konsepsiysi, unga bog'liq holda har bir shaxsga nisbatan yondashuvda turli metodlardan foydalanish o'rtaida ayrim farqlar mavjud.

8. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ko'p holatlarda quyidagi mavhum tushunchalar bilan bog'lanadi: "munosabat", "ma'naviyat", "mehr-muhabbat", "o'z-o'zini faollashtirish" va b.


³⁶ Технология воспитания // http://www.pedlib.ru/Books/4/0160/4_0160-351.shtml

9. Tarbiya nazariyasi va metodikasi aslo hissiy xarakter kasb etmasligi yoki tarbiya muvaffaqiyatini aniqlaydigan omil – pedagogning eng muhim sifati – bolalarga muhabbatsiz bo`lishi mumkin emas.

Tarbiya texnologiyasini o`zlashtirishda pedagog kasbiy faoliyatda muayyan pozisiyaga olib boruvchi bir qator zaruriy harakatlarni tashkil eta olishi lozim. Ular:

1. Tarbiyaning asosiy g`oyasiga nisbatan munosabatini aniqlashtirish.
2. O`zi uchun tarbiya mohiyati va tushunchalarni lo`nda ifodalay olish.
3. Tarbiyaning maqsadi va strategik vazifalarini aniq belgilab olish.
4. Taktik topshiriqlarni tanlash va rejalashtirishda aniqlikka erishish.
5. Faoliyatda qo`llaniladigan metod, usul va tarbiyaviy vositalarni samarali tanlay olish.
6. Tarbiya mazmunini g`oyaviy, mazmun nuqtai nazaridan to`g`ri, aniq ifodalash.
7. Tarbiyaning tashkiliy shakllari tizimini tanlash.
8. Tarbiyalanuvchilar bilan tashkil etiladigan munosabat. muloqot uchun uslub va tovush ohangini tanlash.
9. Bolalarni seva olish, uning qadr-qimmatini yerga urmaslik, erkalatmaslik, har bir narsada me`yorga amal qilish lozimligi to`g`risidagi pedagogik aksiomalarga nisbatan shaxsiy munosabatni aniqlashtirib olish.

G.K.Selevko³⁷ o`z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning uch darajasini ko`rsatib o`tgan, bizning fikrimizcha, ushbu darajalarni tarbiya texnologiyalariga nisbatan ham qo`llash mumkin (33-rasm).



33-rasm. Tarbiya texnologiyalarining muhim darajalari


Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatları, o`ziga xos jihatlariga oid nazariy, amaliy g`oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) tarbiya jarayonining umumiyligi;
- 2) tarbiyani tashkil etishga bo`lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag`bat),
- 3) tarbiya maqsadi;

- 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) pedagog (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) magistr (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasi (natija).

Ushbu fikrlar asosida tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namoyon bo'ladi (34-rasm).

- 1) tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- 2) tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
- 3) tarbiya maqsadi;
- 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) pedagog (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) magistr (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasi (natija).



34-rasm. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish. Avval ayтиб о'тсанидек, "pedagogik texnologiya" tushunchasi esa о'з мohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihatи, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Biroq, so'nggi besh yil mobaynida ilg'or pedagogik texnologiyalar, pedagogik faoliyatni uyushtirish jarayonida ulardan foydalanish mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barchasida ta'lim jarayonining texnologiyalashtirish muammosi uchun asosiy ob'ekt tarzida qabul qilinganligini ko'rsatadi. Holbuki, barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligi nazarda tutilsa, tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvni qaror toptirish, texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligi yaqqol ayon bo'ladi:

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan va o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi.

Ta'lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, magistr va pedagog o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar bu jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy, mas'uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi.

Umumiy ta'lim muassasalari amaliyotidan ma'luniki, uzoq vaqt davomida pedagoglarning ko'pchiligi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan "tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga majburman" qabilida yondashib kelgan. Ular tarbiyaviy tadbirni o'zlarini rahbarlik qilayotgan sinf magistrlarini avvaldan tayyorlangan ssenariyni yod olish va unga qat'iy amal qilishga majburlash, "maktab ma'muriyati va jamoasi oldida izza bo'lib qolishga yo'l qo'ymaslik" tamoyiliga muvofiq uyuştirib kelgan. Endilikda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga nisbatan bunday yondashuvdan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan magistrlar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi. Bu esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

- 1) magistrlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;
- 2) magistrlarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;
- 3) magistrlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida "soxta obro" ortirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

O'quv muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarga asoslanadi:

- 1) tarbiyaviy tadbir mavzusi va g'oyasini magistrlar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning hohish-istiklariga ko'ra belgilash;
- 2) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqishda magistrlarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

3) tarbiyaviy tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki magistrlarning layoqat, qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish;

4) tarbiyaviy tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida pedagogning roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, magistrlarga yo'l-yo'r iq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish, zarur o'rnlarda maslahat berish sifatida aks ettirish;

5) tarbiyaviy tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh magistrlarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish.

Muhokama jarayonida pedagog tomonidan turli tanbehlarning berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning magistrlarning o'zлari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda uni loyihalashtirish, asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

Tarbiya jarayonini loyihalash bosqichlari:

1)tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish;

2)tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;

3)tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;

4)tarbiyaviy tadbir shakli, metod, vositalarini tanlash;

5)tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;

6)tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;

7)talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash;

8)loyihani amaliy faoliyatda qo'llash;

9)tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni;

10) tarbiyaviy tadbirning o'tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakunni xulosa chiqarish

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati magistrlar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

1) magistrlarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi;

2) magistrlarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;

3) tarbiyaviy tadbir g'oyasining magistrlar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish va shu asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ularning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlab qolmay, balki magistrlarda ularning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishi uchun qulay sharoitni hosil qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti va texnologik xaritasi. Ta'lim yoki tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvning muhim shartlaridan biri jarayonni loyihalash sanaladi. Ta'lim yoki tarbiya jarayonini loyihalashga qaratilgan pedagogik faoliyat mahsuli (yoki mahsuloti) loyiha sanaladi. Muayyan mavzudagi dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning loyihasi asosan texnologik pasport va texnologik xarita asosida yoritiladi. Qo'llanmaning avvalgi o'rinnlarida ta'lim jarayoni loyihasining texnologik pasporti va texnologik xaritasi haqida so'z yuritilgan edi. Ayni o'rinda esa ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti va texnologik xaritasi to'g'risida so'z yuritiladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning texnologik pasportlarini yaratish bu borada yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlaydi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning texnologik pasportlari ham muayyan mavzularda tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning texnologik tavsifi, umumiy mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotni yoritishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy tadbirning texnologik pasportida quyidagi ma'lumot (element)larning yoritilishi jarayonning umumiy mohiyatini yoritishga yordam beradi:

- 1) **tadbir mavzusi;**
- 2) **tadbirning o'tkazilish sanasi;**
- 3) **tadbirni o'tkazish uchun belgilangan mas'ul shaxs;**
- 4) **tadbir ishtirokchilarining yosh ko'rsatkichlari;**
- 5) **tadbir ishtirokchilarining taxminiy soni;**
- 6) **tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad;**
- 7) **tadbirning o'tkazilish bosqichlari;**
- 8) **tadbir jarayonida hal etiladigan vazifalar;**
- 9) **tadbirning tarkibiy tuzilishi (rejasи);**
- 10) **tadbirda qo'llaniladigan tarbiya metodlari;**

- 11) tarbiyaviy vositalar;**
- 12) tadbirning tashkil etish sharoiti;**
- 13) tadbir natijasi;**
- 14) tadbir jarayonida ishtirokchilar faolligining tahlili.**

Ushbu ma'lumot (element)lar ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasportida quyidagicha namoyon bo'ladi (8-jadval):

8-jadval

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti

Tadbir mavzusi	
Tadbirning o'tkazilish sanasi:	Magistrler soni:
Tadbirning turi:	Tadbir o'tkazilishiga mas'ul shaxs:
Tadbir jarayoniga qamrab olinadigan ishtirokchilarning yosh ko'rsatkichlari:	Tadbir ishtirokchilarning taxminiy soni:
Tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad:	Tadbirning o'tkazilish bosqichlari:
Tadbir jarayonida hal etiladigan vazifalar:	Tadbirning tashkiliy shakli:
Tadbirning tarkibiy tuzilishi (rejasি)	
Tadbirda qo'llaniladigan tarbiya metodlari:	Tarbiyaviy vositalar:
Tadbirning tashkil etish sharoiti:	Tadbir natijasi:
Tadbir jarayonida ishtirokchilar faolligining tahlili	

Shunday qilib, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzlusiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Texnologik yondashuv tarbiya jarayonining turli vaziyatlarga tezkorlik bilan moslashtirilib, izchil anglab olinadigan tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Tizim sifatida tarbiya texnologiyasi o'zida loyiha ko'rinishida aks etuvchi taxminiy g'oya (faraz)ni ifodalab, ko'zda tutilgan natija va sifatni kafolatlaydi. Hozirda eng ominalashgan tarbiya texnologiyalari "Muvaffaqiyat holati" (N.E.Shurkova g'oyasi); xayrixohlik kayfiyatini yoyish; faoliyat oldidan bo'ladijan qo'rquvni yengish; maxfiy yordam; faoliyat rag'bat (motiv)larini kuchaytirish; pedagogik ishontirish; pedagogik baholash kabilar sanaladi. Tarbiya texnologiyasi ham o'zida ma'lum belgilarni namoyon qiladi. Tarbiya texnologiyalarini yaratish ta'lim texnologiyalarini asoslashga nisbatan murakkab bo'lib, murakkablik tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;

tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat); tarbiya maqsadi; tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar); pedagog (tarbiyachi) faoliyat; magistr (tarbiyalanuvchi) faoliyat; tarbiya samarasi (natija) tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvni qaror toptirish, texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri. Ta'lif jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, magistr va pedagog o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar bu jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy, mas'uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda uni loyihalashtirish, asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish". Toshkent: "Fan va texnologiya" - 2008.
2. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi: "Nasaf" - 2000.
3. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". Toshkent: "Oliy pedagogika instituti"- 2003.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". Toshkent:"Fan"- 2006.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya texnologiyasi nima?
2. Tizim sifatida tarbiya texnologiyasi nimani kafolatlaydi?
3. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda tarbiyaviy vaziyatlar qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Tarbiya texnologiyalarining qanday turlari mavjud?
5. Hozirda eng ommalashgan tarbiya texnologiyalari qaysilar sanaladi?
6. Ta'lif texnologiyasi o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi?
7. Tarbiyaviy tadbirlarning texnologik algoritmi nimalardan iborat?
8. Tarbiya texnologiyasiga ko'ra tadbir natijalarini tahlil qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Tarbiya texnologiyalarining qanday darajalari mavjud?
10. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
11. Tarbiya jarayonini loyihalash qanday bosqichlarda kechadi?

Test topshiriqlari:

1. Tarbiya texnologiyasi nima?

a) tizimli va izchil amaliyatga yuzaga chiqadigan, oldindan loyihalashtirilgan tarbiya jarayoni;

b) tarbiyaviy faoliyatni mahorat darajasiga ko'tarishga yordam beruvchi ilmiy jihatdan ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan metod, usullar, ish tartibi tizimi;

c) a va b javoblar to'g'ri;

d) to'g'ri javob yo'q.

2 Tizim sifatida tarbiya texnologiyasi nimani kafolatlaydi?

a) muvaffaqiyatni;

b) ko'zda tutilgan natija va sifatni,

c) maqsadga erishishni;

d) amaliy foydani.

3 Pedagogik faoliyatning qaysi bosqichda tashkil etilishiga ko'ra tarbiyaviy vaziyatlar qanday guruhlarga ajratiladi?

a) tayyorgarlik bosqichi; amaliy bosqich;

b) nazorat bosqichi; yakuniy bosqich;

c) a va b javoblar to'g'ri;

d) to'g'ri javob yo'q.

4 Tarbiya texnologiyasi qanday jihatlariga ko'ra turlarga ajaratiladi?

a) falsafiy asosiga ko'ra;

b) ilmiy konsepsiyaga ko'ra;

c) ob'ekt turlariga ko'ra;

d) barcha javoblar to'g'ri.

5. Bugungi kunda eng ommalashgan tarbiya texnologiyalari qaysilar?

a) "Muvaffaqiyat holati"(N.E.Shurkova g'oyasi); xayrixohlik kayfiyatini yoyish;

b) faoliyat oldidan bo'ladigan qo'rquvni yengish; maxfiy yordam;

c) faoliyat rag'bat (motiv)larini kuchaytirish; pedagogik ishontirish; pedagogik baholash;

d) barcha javoblar to'g'ri.

6 Tarbiya texnologiyasi o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi?

- a) tarbiyaviy maqsadning qo'yilishi; pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; pedagogning yuqori darajadagi mahorati;
- b) faolligi, ijodkorligi va tashabbuskorligi; shaxsnинг tarbiyalanganlik darajasini oldindan baholash; qaytar aloqa; xolis nazorat;
- c) pedagog va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati; natijaga ko'ra vaziyatni qayta baholash; yanada sanaralni metod, usul va vositalarni q'llash chora-tadbirlarini belgilash; tarbiyaviy texnologiya xarakterining tarbiyalanuvchilar shaxsiga munosabatga bog'liligi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Tarbiyaviy tadbirdarning texnologik algoritmi nimalardan iborat?

- a) tarbiyaviy tadbir maqsadini aniqlashtirish; tarbiyaviy tadbir mazmunini asoslash;
- b) tarbiyaviy tadbirni tashkillashtirish; tarbiyaviy tadbirni o'tkazish;
- c) tarbiyaviy tadbir natijalarini tahlil qilish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

8. Tarbiya texnologiyasiga muvofiq tadbir natijalarini tahlil qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qanday shakllarda tashkil etiladi?

- a) monitoring; matematik tahlil;
- b) korreksiya; qiyosiy tahlil;
- c) refleksiya; kontent-tahlil;
- d) monitoring; korreksiya; refleksiya.

9. G.K.Selevko pedagogik texnologiyalarni nechta darajaga ajratadi?

- a) bitta;
- b) ikkita;
- c) uchta;
- d) to'rtta.

10. G.K.Selevko tomonidan qayd etilgan uch darajali pedagogik texnologiyalar qaysilar?

- a) umumiy pedagogik texnologiyalar; xususiy metodik texnologiyalar; modul texnologiyalar (pedagogik jarayonning alohida qismlari);
- b) ta'lim texnologiyalari; tarbiya texnologiyalari; pedagogik faoliyat texnologiyalari;
- c) mualliflik texnologiyalari; innovatsion texnologiyalar; ijtimoiy loyihibar;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

11.Tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari qaysilar?

- a) tarbiya jarayonining umumiyligi; tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat); tarbiya maqsadi;
- b) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar); pedagog (tarbiyachi) faoliyati;
- c) magistr (tarbiyalanuvchi) faoliyati; tarbiya samarasi (natija);
- d) barcha javoblar to'g'ri.

12.Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi qanday elementlardan tarkib topadi?

- a) ijtimoiy ehtiyoj; tarbiya maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni;
- b) tarbiya shakli; tarbiya metodi; tarbiya usuli; tarbiya vositasi;
- c) tarbiyalanuvchi; tarbiyachi; natija (tarbiya natijasi);
- d) barcha javoblar to'g'ri.

13.Aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan va magistrlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyuştirilishi nimani anglatadi?

- a) tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishni;
- b) tarbiya jarayonini rejalashtirishni;
- c) tarbiya jarayonini loyihalashtirishni;
- d) tarbiya jarayonini tashkil etishni.

14.Tarbiya jarayonini loyihalash qanday bosqichlarda kechadi?

a) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish; tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash; tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;

b) tarbiyaviy tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash; tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o'tkazish vaqtini belgilash; tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;

c) magistrlar faoliyatini nazorat qilish, ularning faoliydarajalarini norasiniy baholash; loyihami amaliy faoliyatda qo'llash; tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni; tarbiyaviy tadbirning o'tkazilish holatini muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish;

- d) barcha javoblar to'g'ri.

15. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirning texnologik pasporti qanday ma'lumotlarni yoritadi?

- a) tadbir mavzusi tadbirning o'tkazilish sanasi; magistrlar soni: darsning turi; tadbirni o'tkazish uchun belgilangan mas'ul shaxs; tadbir ishtirokchilarining yosh ko'rsatkichlari; tadbir ishtirokchilarining taxminiy soni;
- b) tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad; tadbirning o'tkazilish bosqichlari; tadbir jarayonida hal etiladigan vazifalar; tadbirning tashkiliy shakli; tadbirning tarkibiy tuzilishi (rejasi);
- c) tadbirda qo'llaniladigan tarbiya metodlari; tarbiyaviy vositalar; tadbirning tashkil etish sharoiti; tadbir natijasi; tadbir jarayonida ishtirokchilar faolligining tahlili;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

INTERFAOL METODLAR VA ULARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA QO'LLASH

Reja:

- 1. Interfaol ta'limgning asosiy tamoyil, shakl va omillari.**
- 2. Interfaol metodlar va ularning mohiyati.**
- 3. Interfaol metodlardan namunalar.**

Tayanch tushunchalar: interfaol ta'limg, interfaol ta'limg tamoyillari, interfaol ta'limg shakkllari, interfaol ta'limg omillari, interfaol ta'limgning muhim belgilari, interfaollik, interfaol ta'limg, interfaol metodlar, interfaol metodlarning turlari.

Interfaol ta'limgning asosiy tamoyil, shakl va omillari. Zamonaviy sharoitda interfaol ta'limg tobora ommalashmoqda. O'quv qo'llanmasida berilgan "Shaxsga yo'naltirilgan ta'limg turlari" mavzusi doirasida interfaol ta'limg mohiyati xususida to'xtalib o'tilgan. Biroq, interfaol metodlar, ularning mazmuni, g'oyasi, turlari, amaliy qiymati, didaktik ahamiyatini yetarli darajada tushunish uchun "interfaol ta'limg" mazmunini yodga solish maqsadga muvofiqligi sababli ayni o'rinda shu haqida so'z yuritiladi.

Interfaol ta'limg (lot. "internus" – ichki, o'zaro) – o'quvchi (magistr)larning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limg

Interfaol metodlarning mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Lug'aviy jihatdan "**interfaol**" (ing. "interact"; r. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi

Interfaollik – ta'limg jarayoni ishtiroychilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, ta'limg jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga nisbatan bunday yondashishish to'g'ri emas. Zero, ta'limg amaliyotida interfaol metodlarni qo'llash muayyan shartlarga muvofiq analoga oshiriladi.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagog (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlarni qo'llashning muayyan shartlarini asoslash ularning didaktik qiymatini oshiradi. Ta'limni tashkil etishda interfaol yondashuvni qaror toptirish (interfaol ta'limni tashkil etish) uchun pedagoglar quyidagi shartlarga rioya eta olishi zarur:


- ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha magistrlarning to'la qamrab olinishi;
- magistrlarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish;
- magistrlar sonining ko'p bo'lmasligi (25-30 nafar magistr bilan kichik guruhlarda ishlash samarali);
- o'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi);
- topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;
- magistrlarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhdha faol va nofaol magistrlarning teng miqdorda bo'lishi).

Interfaol ta'lim muayyan belgilarni o'zida namoyon qiladi. Mazkur ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir (35-rasm).


Izoh: Refleksiya (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilihning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, histuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash)³⁸.

Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlashda bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin (36-rasm).

³⁸ "Pedagogik mahorat sxema va rasmlarda" * Met. qo'll N.Erkaboyeva, M.Uzmanboyeva, M.Irgashova, N.Xo'janazarova Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012, 14-bet




35-rasm. Interfaol ta'limgning asosiy belgilari




36-rasm. Interfaol ta'limg samaradorligini ta'minlovchi omillar

Asosiy omillar sirasiga quyidagilar kiradi (37-rasm):




37-rasm. Interfaol ta'limgarayonini ta'minlovchi asosiy omillar

Interfaol ta'limgarayonini ta'minlovchi ikkilamchi omillarga ham bog'liq (38-rasm):



38-rasm. Interfaol ta'limgarayonini ta'minlovchi ikkilamchi omillar

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum (39-rasm):



39-rasm. Interfaol ta'lim shakllari

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi (40-rasm):




40-rasm. An'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai pedagogning tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida magistrlarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish pedagoggagina xos bo'lib, magistrlar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi pedagogni tinglash, zarur o'rnlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida

javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Bu tur ta'limgagi bir tomonlamlilik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "etkazib beruvchi" rolida endi pedagog emas, balki magistr namoyon bo'ladi. Magistr, asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, pedagog esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rnlarda savollar bilan murojaat qiladi. Magistrlar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda magistr yoki pedagog tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi magistrlar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'r ganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakkarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqe'a, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqe'a, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarni namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol ta'limga esa shaxslar o'rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi (41-rasm):



41-rasm. Interfaol ta'limgagi suhbat ishtirokchilari

Interfaol o'qitish "ta'lif jarayonining asosiy ishtirokchilari – pedagog, magistr va magistrlar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda magistrlarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "pedagog – magistr – magistrlar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiyl munosabatda bo'lislari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflenadi"³⁹.

Interfaol ta'lif jarayonida magistrlar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishslash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhim fikrlarni saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqalish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Pedagog ta'lif jarayonida interfaol ta'lif yordamida magistrlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqta nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqalish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali pedagog magistrlarning aniq ta'limiyl maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Interfaol ta'lifni tashkil etish orqali quyidagi yutuqlarga erishiladi:

- magistrlarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;

³⁹ "Pedagogika 1000 ta savolga 1000 ta javob". Met' eo il UU Inoyatov, N A Muslimov, M Usmonboyeva, D Inog'omova. Toshkent Nizomiy nomidagi Toshken davlat pedagogika universiteti – 2012. 122-bej

- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir magistrning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- magistrlarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- magistrlarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr va munosabatni uyg'otadi;
- magistrlarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarни shakllantiradi;
- magistrlarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar va ularning mohiyati. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar⁴⁰ tashkil etadi.

Interfaol metodlar – ta'lim jarayonida talabalar hamda pedagog o'rtaida hamkorlikni qaror toptirish, faoliytni osbirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Manbalarni o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asming 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlarni tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin.

XX asrning 70-80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Ye.N.Illina va b. tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'llarini topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularni samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan.

"Interfaol metodlar tavsifida magistrlarning birligida, o'zaro hamkorlikda yuqori darajada ta'lim olishlarini ta'minlashga yo'naltirilganlik, ular o'rtaida hissiy, ruhiy va axloqiy birlikni qaror toptirish g'oyalari yetakchi o'rinn tutadi"⁴¹.

⁴⁰ "Pedagogika 1000 ta savolga 1000 ta javob" Met. qo'lli. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usimonbaeva, D.Inog'omova Toshkent "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti"- 2012 140-141-betlar.

⁴¹ Преимущества интерактивных методов в обучении иностранным языкам // <http://www.scienceforum.ru/2013/218/5678>

Shu sababli uzlusiz ta'limning barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagog va kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglar interfaol metodlar, ularning mohiyati, amaliy qiymati, pedagog va magistr uchun ahamiyatidan xabardor bo'lishlari, ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlari kerak. Binobarin, interfaol metodlarni qo'llash ko'nikma, malakalariga ega bo'lish o'quv mashg'ulotlarining noan'anaviy shaklda, ijodkorlik, tashabbuskorlik, munozaraga boy, ko'tarinki kayfiyatda tashkil etilishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar mohiyatiga ko'ra suhbatning "magistr – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi magistrlar tomonidan mustaqil yoki pedagog rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, lug'aviy jihatdan ham interfaol metodlar birgalikda, o'zaro hamkorlik asosida ta'lim olish, mashg'ulotlarning suhbat, dialog asosiga qurilishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, faol metodlardan farqli ravishda interfaol metodlar magistrlarning nafaqat pedagog bilan, balki o'zaro bir-birlari bilan ham hamkor bo'lish, qo'llab-quvvatlash asosida o'quv materiallarini o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi.

Interfaol metodlar hech qachon ma'ruzali mashg'ulotlarning o'rmini bosa olmaydi, biroq, ma'ruza materialining magistrlar tomonidan samarali, muvaffaqiyatli, puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi, ularda mustaqil fikr, munosabat, xulq-atvor ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi. Bu turdag'i metodlar, eng avvalo, magistrlarni o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish yoki ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi:

- didaktik (magistrning ongi, dunyoqarashini kengaytirish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish vaqtida ular tomonidan ma'lum ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishiga erishish, umumiylididaktik ko'nikmalarni rivojlantirish, egallangan ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo'llashga odatlantirish);

- tarbiyaviy (magistrlarda mustaqillikni, irodani tarbiyalash, muayyan dunyoqarashga egalikni anglatuvchi hayotiy pozitsiya ko'nikmalarni shakllantirish, hamkorlik, jamoaviylik, muloqotga kirishuvchanlik kabi sifatlarni tarbiyalash);

- rivojlantiruvchi (magistrlarda o'quv-bilish motivatsiyasi, diqqat, xotira, nutq, tasavvur, fikrlash va ijodiy qobiliyat,

- tafakkur, empatiya, refleksiya malakalarini rivojlantirish);

- ijtimoiylashuv (magistrlarda ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ular tomonidan o'z-o'zini ruhiy, hissiy, irodaviy va axloqiy boshqarish, muloqot madaniyatini o'zlashtirishga erishish) quyidagi xususiyatga ega bo'ladi:

- magistrlarda fanga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi;
- magistrlar tomonidan o'quv materialini puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi;
- magistrlarda intellektual mustaqillikni rivojlantiradi;
- magistrlarni ja'noa (komanda)da ishlash, boshqalarning fikrlarini tinglashga o'rgatadi;
- magistrlarda boshqalar tomonidan bildirilgan shaxsiy fikri, uning shaxsiga hurmat ko'rsatish ko'nikmasini shakllantiradi;
- magistrlar o'tasida o'zar o'sha qaror toptiradi;
- magistrlarda shaxsiy fikr, munosabat, kasbiy va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Qanday shaklda bo'lidan qat'iy nazar interfaol metod o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- dialogli muloqot;
- qaytar aloqaning mavjudligi;
- tafakkur faolligi;
- hissiy ko'tarinkilik;
- refleksiya;
- ta'limning yuqori samaradorligi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:


- individual shaklda;
- guruhli shaklda;
- juftlik shaklda;
- jamoa bilan ishlash shaklida.

Zamonaviy pedagogika interfaol metodlarga boy bo'lib, ular orasida quyidagi eng muhim⁴²larini ajratib ko'rsatish mumkin:


- kichik guruhlarda ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- didaktik o'yinlar (rolli o'yin, imitatsiya va ishbilarmonlik o'yinlari);

⁴² Гревцова И В Применение интерактивных методов обучения в образовательном процессе ВУЗа/http://lfastu.ucoz.ru/publ/innovacionnye_podkhody_i_tekhnologii/primenenie_innovacionnykh_metodov_obuchenija_dlya_realizatsii_kompetentnogo_podkhoda/primenenie_interaktivnykh_metodov_obuchenija_v_obrazovatelnom_processe_vuzu/29-1-0-284

- ijtimoiy resurslar (mutaxassis, ekskursovod va b.)ning imkoniyatlardan foydalanish;
 - ijtimoiy loyihamalar; - interfaol ma’ruzalar;
 - ko’rsatmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishlash, “Magistr pedagog roliida”, “Har kim har kimni o’qita oladi”, “Mozaika”, muammoli savollar va Suqrot dialogidan foydalanish;
 - murakkab va bahsli savol hamda muammolarni muhokama qilish (“Muayyan o’rinni egalla!”), loyihalash texnikalari, “Karusel”, “Yakkalik – juftlik – barcha”, “O’rinni almashtir!”, “Televizor tok-shou uslubidagi bahs”, debat, simpozium, davra stoli va b.);
 - muammoni yechish, muayyan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (“Qarorlar shajarası”, “Aqliy hujum”, “Breynstorm”, “Kazuslarni tahlil qilish”, “Kelishuvlar va mediatsiya”, “Pog’onalalar va varraklar” va sh.k);
- Mantiqiy nuqtai nazardan interfaol metodlar ta’lim jarayoni ishtiroychilar – pedagog. magistr, magistrler guruhi va b. ijtimoiy sub’ektlar o’tasidagi muloqot, suhbat (dialog), o’zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning tashkil etilishini ifodalaydi.
- Interfaol metodlardan namunalar.** Ayni o’rinda interfaol metodlardan namunalar keltirilib, ularning mohiyati, qo’llanish shartlari va didaktik imkoniyatlari ochib beriladi.
- “Ajurli arra” strategiyasi.** “Ajurli arra” (fr. “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o’tgan, ikki tomoni ochiq) strategiyasi yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu metod qo’llanilganda magistrler tayyor matnlar bilan ishlaydi. Strategiyani qo’llash 42-rasmda ko’rsatilgan taxlidta amalga oshiriladi.
- Strategiyani qo’llashda magistrlerning mavzuni puxta o’zlashtirganliklari, o’zlarini ega bo’lgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo’lishlari muhim sanaladi.
- “Ajurli arra” strategiyasining texnologik modeli 43-rasmda ko’rsatilgan.
- “Akvarium” strategiyasi.** Ta’lim jarayonida ushbu texnologiyani qo’llashdan maqsad magistrni ma’lum muammoni bo’yicha fikrlash. o’z fikrim bayon etish, muammoni sherik (suhbatdosh) bilan birligida muhokama qilishga o’rgatishdan iborat.



42-rasm. "Ajurli arra" strategiyasini qo'llash bosqichlari



43-rasm. "Ajurli arra" strategiyasining texnologik modeli

Strategiyani qo'llash quyidagi shartlarga asoslanadi (44-rasm):

O'quv xonasida stullardan iborat ikkita doira tashkil etiladi.
1-doirada stullar tashqariga, 2-doirada esa
ichkariga qarab joylashtiriladi

Magistrlar ikki guruhga bo'linib, 1-guruh stullar tashqariga qaratib qo'yilgan
doiradan. 2-guruh esa stullar ichkariga qaratib qo'yilgan doiradan joy oladi

1-guruh (tashqi doira)dagilar "Tahlilchilar", 2-guruh
(ichki stullar)dagilar "Kuzatuvchilar" rolini bajarishadi

44-rasm. "Akvarium" strategiyasini qo'llash shartlari

Ta'lif jarayonida strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha (45-rasm):

Tashqi doiradagi magistrlarga muhokama qilish uchun savol beriladi

Magistrlar o'ylab olganlaridan so'ng savolni chap tomonida
o'turgan shergi bilan 1-2 daqiqa muhokama qiladi

Pedagogning ishorasi bilan "Tahlilchilar" (tashqi doiradagilar) bir
o'rinn chapga surilib, o'sha savolni yangi shergi bilan muhokama qilishadi

"Tahlilchilar" o'rinn almashtirishda 1-sheriklariga yaqinlashgunlaricha yoki
yangi shenklar bo'lgunga qadar savolni muhokama qilishni davom ettiradi


45-rasm. "Akvarium" strategiyasini qo'llash tartibi

Izoh: "Tahlilchilar"ning asosiy vazifasi savol yuzasidan muhokamani
tashkil etish, "Kuzatuvchilar"ning asosiy vazifasi esa 1-guruh
(“Tahlilchilar”) faoliyatini kuzatib baholashdan iborat.

“AJIL” (“Amaliy jamoaviy ijodiy loyihib”) strategiyasi.
Texnologiya magistrlarda ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish,
jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish,
jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani
hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi.


Mazkur texnologiyani o'quv jarayonida "Jamoaviy ijodiy ishni tashkil
etish" mavzusidagi suhbat yoki "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman"

nomli blis-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Strategiyani qo'llashda 46-rasmagi shartlarga asosan ish ko'rildi



46-rasm. "AJIL" strategiyasini qo'llash shartlari


Shundan so'ng magistrlar kichik guruhlarda ishlaydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (47-rasm):



47-rasm. "AJIL" strategiyasini qo'llash bosqichlari

“Asalari galasi” strategiyasi. “Asalari galasi” strategiyasi o’rganilayotgan mavzu bo’yicha tanlangan muammoning auditoriyada jamoaviy tarzda yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Strategiyani qo’llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo’lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma’lum qilinadi. Mashg’ulot yakunida masalaning eng maqbul yechimi tanlab olinadi.

Mashg’ulotda strategiyani qo’llash tartibi quyidagicha (48-rasm):




48-rasm. “Asalari galasi” strategiyasini qo’llash tartibi

“Baliq skeleti” grafik organayzeri (GO). GO magistrlarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo’llashda magistrlar mantiqiy fikrlash, mavzuga oid muhim tushuncha, ma’lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish ko’nikmasini o’zlashtiradi. Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) pedagog magistrlarni GO ni qo’llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) magistrlar kichik guruhlarga biriktiriladi;

- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

Magistrlar topshiriqni quyidagi sxema asosida bajaradi (49-rasm):



49-rasm. "Baliq skeleti" grafik organayzerining modeli

"Aqliy hujum" strategiyasi. Strategiya magistrlarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydaalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Strategiyani qo'llashda quyidagi shartlar inobatga olinadi (50-rasm):

Magistrlarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash,
ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish

Har bir magistr tomonidan
bildirilayotgan fikr
rag'batlantirilib
boriladi, bildirilgan fikrlar
orasidan
eng maqbولي tanlab olinadi;
fikrlarning rag'batlantirilishi
navbatdagi yangi fikrlarning
tug'ilishiga olib keladi

Har bir magistr o'zining shaxsiy
fikrlariga asoslanishi, ularni
o'zgartirishi mumkin;
bildirilgan
fikrlarni umumilashtirish,
turkumilashtirish, o'zgartirish
ilmiy asoslangan fikrlarning
shakllanishiga
zamin hozirlaydi

Mashg'ulotda magistrlar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (fikrlar baholansa, magistrlar diqqatni shaxsiy fikri himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad magistrlarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholashdan voz kechishdir).

50-rasm. "Aqliy hujum" strategiyasini qo'llash shartlari

Uni samarali qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim (51-rasm):

Magistrlarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish,
g'oyalarni yozish borish uchun yozuv taxtasi yoki qog ozlarni tayyorlab qo'yish

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash

Mashg' ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash

Bildirilgan g'ovani muallif tomonidan asoslanishiga erishish uni yozib olish.
qog ozlar g'oya (yoki fikr)lar bilan to lgandan so ng yozuv taxtasiga osib qo'yish

Bildirilgan fikr, yangi g'oyalarning turlicha
va ko'p miqdorda bo'l shiga e'tibor qaratish

Magistrning boshqalar bildirgan fikrlarni voda saqlashi. ularga
tayamb yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarga
kelishiga erishish (bildirilayotgan har qanday g'ova baholannmaydi)

Magistrlar tomonidan mustaqil fikr yuritishi, shaxsiy
fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish


Ilgan surilgan g'oyalarni yanada boyitish
asosida magistrlarni quvvatlash

Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan
kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik

Yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning
yagona to g'ri yechimini e lon qilishga shoshilmuslik


51-rasm. "Aqliy hujum" strategiyasini qo'llash qoidalari

“Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”) metodi. “Keys-stadi” (ing. “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) metodi magistrlarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish, eng maqbul variantni topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U magistrlarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o’rganish, tahlil qilishga o’rgatadi. Metod negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Ular: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to’plash, ularni o’rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, pedagog va magistr o’rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o’quv natijalari. Metodning sxemasi quyidagicha (52-rasm):



52-rasm. “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”) metodining sxemasi

Mashg’ulotlarda metodni qo’llash quyidagi bosqichlarda kechadi (53-rasm):



53-rasm. “Keys-stadi” metodini qo’llash bosqichlari

Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik shartlari quyidagilar (54-rasm):

Jamoa (guruh) a'zolari muammo, uning
echimlari yuzasidan o'zaro fikr almashadi



Masalaning yechimi sifatida taqdim etilgan variantlar
muhokama qilinib, ularning maqbulligi baholanadi



Muammoli vaziyatning yechimini ta'minlaydigan aniq dastur ishlab chiqiladi



Masalaning yechimi to'g'risida ma'lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi
va unda namoyish etiladigan materiallar rasmij lashtiriladi

54-rasm. Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik shartlari

Metodni alohida magistriga nisbatan qo'llash tartibi quyidagicha (55-rasm):

Magistrning texnologiyaning mobiyati uni qo'llash shartlari bilan tanishishi

Magistr tomonidan taqdim etilgan muammoning o'r ganilishi

Muammo bo'yicha asosiy va 2-daraqli masalalarini ajratish, shakllantirish, asoslash

Tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish

Taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o'r ganish

Berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlash

Taqdim etilgan yechimni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish chora-tadbirlarini belgilash

55-rasm. Keys-stadini alohida magistriga nisbatan qo'llash tartibi

Muammoni muhokama qilishda quyidagi shartlarga amal qilinadi (56-rasm):

O'rganlavotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash

Muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o'rghanish

Futboli bo'lgan "to'siq" lar (2-darajah masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k.)ni aniqlash

Auditoriya uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash

Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma'lumotni aniqlash

Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg'ab olish

Muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash

Muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish

Muhokamani tugatish tartibini belgilash

Yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash

56-rasm. Keys-stadi bo'yicha muhokamani tashkil etish shartlari

a'limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o'quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mayjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o'rtasida muaminoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to'g'risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Metod yordamida muammo yechimini topishga qaratilgan muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi (57-rasm):

Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish

Kichik guruhlarda muhokama qilish ("Sindikat" metodi yordamida)

Jamoa o'rtasida turumiy muhokamani tashkil etish

57-rasm. Keys-stadi bo'yicha muhokamani tashkil etish bosqichlari

Demak, ta'lim sifatiya, samaradorligini oshirishga bo`lgan zamonaviy ehtiyoj interfaol ta'limni tobora keng qo'llashni taqozo etmoqda. O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi oddiy, sodda ko'rinsada, uni qo'llashda ma'lum shartlarini asoslanish didaktik qiymatini oshiradi. Zamonaviy pedagogikada bu ta'limni qo'llash pedagog, magistr, magistrler guruhi o'rtaida hamkorlik, qizg'in bahs-munozara, o'zaro fikr almashish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li garchi ular ma'ruza mashq'uloti o'rnini bosa olmasa ham mashq'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish sanaladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Inoyatov U., Muslimov N., Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M. Pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalarini uchun darslik. Toshkent: "TDPU"- 2013.
2. Inoyatov U., Muslimov N., Usmonboyeva M., Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, Inog'omova D. Toshkent: "TDPU"- 2013.
3. Психолого-педагогическое сопровождение реализации инновационных образовательных программ / Под ред. Ю.П.Зинченко, И.А.Володарской. Москва: Изд-во "МГУ"- 2007.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi". Toshkent: "TDPU"- 2013.
5. Ситуационный анализ или анатомия Кейс-метода. Под ред. Ю.П.Сурмина. Киев: "Центр инноваций и развития"- 2002.
6. Современные образовательные технологии. Учеб. пособие. Под ред. Н.В.Бордовской. – 2-е изд., стер. – Москва: "КНОРУС"- 2011.
7. Tolipov O',, Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". Toshkent:"Fan"- 2006.

Nazorat uchun savollar:

- 1 Interfaol ta'lim nima?
- 2 "Interfaol" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Interfaollik deganda nimani tushunasiz?
4. Interfaol ta'lim qanday shartlarga muvofiq tashkil etiladi?
- 5 Interfaol ta'lim qanday tamoyillarga asoslanadi?
- 6 Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillar qaysilar?
- 7 Interfaol ta'lim o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi?
- 8 Interfaol ta'limning qanday shakllari mavjud?

9. Interfaol ta'lim jarayonida magistrlar qanday imkoniyatlarga ega bo'ladi?

10. Qanday metodlar interfaol metodlar sanaladi?

11. Interfaol metodlar ta'lim amaliyotida qachondan qo'llanilib kelinmoqda?

12. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda magistrlarni maqsadli yo'naltirish qanday xususiyat kasb etadi?

13. Interfaol metod o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi?

14. Interfaol metodlar orasida eng muhimlari qaysilar?

15. "Ajurli arra" strategiyasining mohiyati nimadan iborat?

16. "Akvarium" strategiyasi qanday maqsadga xizmat qiladi?

17. "AJIL" ("Amaliy jamoaviy ijodiy loyihibalar") strategiyasining amaliy ahamiyati nimada aks etadi?

18. "Asalari galasi" strategiyasini qo'llashda qanday yo'l tutiladi?

19. "Baliq skeleti" grafik organayzerining mohiyati nimadan iborat?

20. "Aqliy hujum" strategiyasi qanday amaliy ahamiyatga ega?

21. "Keys-stadi" ("O'quv keyslari") metodi qanday maqsadga xizmat qiladi?

Test topshiriqlari:

1. Magistrlarning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bирgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim qanday nomlanadi?

- a) innovatsion ta'lim;
- b) hamkorlik ta'limi;
- c) rivojlantiruvchi ta'lim;
- d) interfaol ta'lim.

2. "Interfaol" tushunchasi qanday ma'nosini anglatadi?

- a) "o'zaro, bирgalikda harakat qilmoq";
- b) "o'zaro, bирgalikda hamkorlik qilmoq";
- c) "o'zaro, bирgalikda bir-biriga yordam bermoq";
- d) "o'zaro, bирgalikda bir-birini qo'llab-quvvatlamоq".

3. Interfaollik nima?

- a) ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida bирgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi;

b) ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida individual, mustaqil harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi;

c) ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida amaliy harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi;

d) to'g'ri javob yo'q.

4. Interfaol ta'lim qanday tamoyillarga asoslanadi?

a) mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiyligi ishi; guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p;

b) magistrlar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng; har bir magistr o'r ganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega;

c) mashg'ulotda magistr shaxsi tanqid qilinmaydi; bildirilgan g'oyalalar magistrlarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

5. Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillar qanday guruhgaga bo'linadi?

a) muhim va nomuhim omillar;

b) zarur va nozarur omillar;

c) o'ta muhim va muhim omillar;

d) asosiy va ikkilamchi omillar.

6. Interfaol ta'lim qanday belgilarni o'zida namoyon qiladi?

a) ko'p fikrlilik; suhbat (dialog); fikrlashga asoslangan faoliyat;

b) g'oyalarning yaratilishi; tanlash imkoniyatining mavjudligi;

c) muvaffaqiyatlari vaziyatlarni yaratish; refleksiya;

d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Interfaol ta'lim shakllari qaysilar?

a) ijodiy topshiriqni bajarish; kichik guruhlarda ishlash; test o'tkazish; qaytar aloqa;

b) masofaviy ta'lim; "chigal yozdi" mashqlarini tashkil etish; muammoli vaziyatlarni hal qilish; treninglar o'tkazish;

c) didaktik o`yinlar; ijtimoiy loyiha; ijtimoiy zahiralardan foydalanish; yangi materialni o`rganish, interfaol ma`ruza, ko`rsatmali qurollar bilan ishslash, video va audiomateriallar yordamida mustahkamlash;

d) barcha javoblar to`g'ri.

8 Interfaol ta`lim jarayonida magistr qanday imkoniyatlarga ega bo`ladi?

a) guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishslash; tengdoshlari orasida o`z g`oyalarni erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to`sinqlarsiz namoyish etish; muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;

b) guruh yoki jamoadooshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish; o`z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to`liq namoyon qila olish; fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhim fikrlarni saralash; o`z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

c) o`z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish; turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqsa olish ko`nikmalarini o`zlashtirish;

d) barcha javoblar to`g'ri.

9 Ta`lim jarayonida magistrlar hamda pedagog o`rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta`lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o`zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar qanday nomlanadi?

- a) og`zaki metodlar;
- b) amaliy metodlar;
- c) interfaol metodlar;
- d) ko`rsatmali metodlar.

10. Interfaol metodlar pedagogika amaliyotida qachondan qo`llanilib kelinmoqda?

- a) XX asrning 20-yillaridan;
- b) XX asrning 40-yillaridan;
- c) XX asrning 60-yillaridan;
- d) XX asrning 80-yillaridan.

11. Interfaol metodlar tavsifida qanday g`oyalalar yetakchi o`rin tutadi?

a) magistrlarning birgalikda, o`zarbo`sh hamkorlikda yuqori darajada ta`lim olishlarini ta`minlashga yo`naltirilganlik, ular o`rtasida hissiy, ruhiy va axloqiy birlikni qaror toptirish g`oyalari;

- b) pedagog va magistr, magistrlar guruhi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish g'oyalari;
- c) kam kuch va vaqt sarflash asosida yuqori natijalarga erishish g'oyalari;
- d) to'g'ri javob yo'q.

12. Interfaol metod o`zida qanday belgilarni namoyon qiladi?

- a) dialogli muloqot; qaytar aloqaning mavjudligi;
- b) tafakkur faolligi; hissiy ko'tarinkilik;
- c) refleksiya; ta'limning yuqori samaradorligi;
- d) barcha javoblar to'g'ni.

13. Interfaol metodlari asosida eng muhimlari qaysilar?

- a) kichik guruhlarda ijodiy topshiriqlarni bajarish; didaktik o'yinlar (rolli o'yin, imitasiya va ishbilarmonlik o'yinlari); ijtimoiy resurslar; ijtimoiy loyihibar;
- b) interfaol ma'ruzalar; ko'rsatmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishslash, muammoli savollar va Suqrot dialogidan foydalanish;
- c) murakkab va bahsli savol hamda muammolarni muhokama qilish; muammoni yechish, muayyan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

14. "Ajurli arra" strategiyasi qanday maqsadga xizmat qiladi?

- a) bir nechta qisirlardan iborat mavzuni yaxlitlash orqali mohiyatini yoritishga;
- b) yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritishga;
- c) yaxlit mavzuni o'quv materiali sifatida magistrlar tomonidan o'zlashtirishga;
- d) to'g'ri javob yo'q.

15. "Akvarium" strategiyasi qanday maqsadni amalga oshirishni ko'zlaydi?

- a) magistrni ma'lum muammo bo'yicha fikrlash, o'z fikrini bayon etish, muammoni sherik (suhbatdosh) bilan birgalikda muhokama qilishga o'rgatish;

- b) magistrni ma'lum muammo yuzasidan loyihibar yaratish bu borada sherik (suhbatdosh) bilan o'zaro fikr almashishga o'rgatish;

- c) magistrni o'quv materialini muammoli asosda o'rGANISH, o'zlashtirgan bilimlarini bayon etish, sherik (suhbatdosh) bilan birlgilikda uhokama qilishga o'rgatish;
- d) to'g'ri javob yo'q.

16. Texnologiya magistrlarda ijodiy faoliyat malakalarini shaklantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. Bu o'rinda qaysi interfaol metod (strategiya) nazarda tutilmoqda?

- a) "Akvarium" strategiyasi;
- b) "AJIL" ("Amaliy jamoaviy ijodiy loyiham") strategiyasi;
- c) "Ajurli arra" strategiyasi;
- d) "Asalari galasi" strategiyasi.

17. "Asalari galasi" strategiyasi qanday maqsadga xizmat qiladi?

a) o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tanlangan muammoning auditoriyadan tashqarida mustaqil tahlil qilinishiga xizmat qiladi;

b) o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga xizmat qiladi;

c) o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tanlangan muammoning ham auditoriyada ham auditoriyadan tashqarida jamoada alohida tahlil etilishiga xizmat qiladi;

- d) to'g'ri javob yo'q.

18. "Baliq skeleti" grafik organayzeri qanday vazifani bajaradi?

a) magistrlarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi;

b) magistrlarda mavzu yuzasidan turkum pedagogik topshirinqlar mohiyatini yechish qibiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi;

c) magistrlarda mavzu yuzasidan loyihalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi;

- d) to'g'ri javob yo'q.

19. Strategiya magistrlarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiyl foydalanishga doir ko'nikma, malakalarini hosil qilishga rag'batlantiradi. So'z qaysi strategiya haqida boryapti?

- a) “Ajurli arra” strategiyasi;
 - b) “Akvarium” strategiyasi;
 - c) “Aqliy hujum” strategiyasi;
 - d) “Asalari galasi” strategiyasi.
20. Qaysi interfaol metod magistrlarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi?
- a) “Aqliy hujum” strategiyasi;
 - b) “Ajurli arra” strategiyasi;
 - c) “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”);
 - d) “Asalari galasi” strategiyasi.
21. Ta’lim jarayonida “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”)ni qo’llash necha bosqichda kechadi?
- a) bir bosqichda;
 - b) ikki bosqichda;
 - c) uch bosqichda;
 - d) to’rt bosqichda.

PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARINING MAGISTRALAR O'QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI*

Reja:

- 1. Faollikning bilimlarni o`zlashtirishdagi ahamiyati.**
- 2. O`quv faolligining mazmuni.**
- 3. Magistrlarda o`quv faolligini shakllantirishga ta'sir ko`rsatuvchi psixologik omillar.**
- 4. Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o`quv faolligini oshirishdagi roli.**

Tayanch tushunchalar: faollik, magistrlar faolligi, o`quv faolligi, magistrlarda o`quv faolligini shakllantirish, magistrlarda o`quv faolligini shakllantirishga ta'sir ko`rsatuvchi omillar, pedagogik texnologiyalarning o`quv faolligini oshirishdagi o`rni.

Faollikning bilimlarni o`zlashtirishdagi ahamiyati. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda doimiy, izchil, uzlusiz rivojlanishga erishish asosiy shart sanaladi. Ana shu uch yo`nalishning bir-biriga muvofiq va o`zaro mutanosib taraqqiy etishi istiqbolni ilmiy nuqtai nazardan to`g`ri bashoratlash imkonini beradi. Biroq, jahon iqtisodiyotida ro`y bergen salbiy hodisalar xalqaro ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli mexanizm mavjud emasligini ko`rsatdi. Shu sababli "... iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizasiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikasiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat" jamiyatning "inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli vosita"⁴³ga bo`lishini kafolatlaydi.

Malakali kadrlar va ularning intellektual salohiyat, kasbiy malakalarga egaliklari har qanday sharoitda ham jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan birta bo`lib qolaveradi. Shu nuqtai nazardan olganda oliy ta'lif tizimida tayyorlanayotgan kadrlar, jumladan, pedagoglarning ta'lif va ishlab chiqarish sohalarida ro`y berayotgan tezkor o`zgarishlarga

* Ushbu mavzu Z Rahimov bilan hamkorlikda tayyorlandi.

⁴³ Karimov I.A. "Jahon molivaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar" Toshkent: "O'zbekiston" - 2009, 31-bet

moslasha olishlari kelib chiqish ehtimoli bo`lgan iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga yordam beradi.

Mavjud ijtimoiy ehtiyoj magistrlarning nafaqat yuksak kasbiy tayyorgarlikka, shu bilan birga o`quv faolligi ko`nikmalariga ham ega bo`lishlari zarurligini taqozo etmoqda. Zero, mazkur talabning qondirilishi magistrlarni bozor munosabatlari sharoitida raqobatga bardoshli qilib tayyorlanishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, bo`lajak kasb ta'limi pedagoglari tomonidan kasbiy faoliyat ijtimoiy hayotiy zaruriyat ekanligini chuqur anglagan holda o`quv va ishlab chiqarish jarayonlarida nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarning puxta o`zlashtirilishi malakali pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat ustuvor ta'limi maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizga ko`ra, yoritilayotgan mavzu mohiyatini to`la anglash uchun bu o`rinda “faollik” va “o`quv faolligi” tushunchalarining mazmuni haqidagi tasavvurlarni oydinlashtirib olish taqozo etiladi.

“Pedagogika fanidan izohli lug’at”⁴⁴da faollik muayyan qobiliyatni ifodalovchi tushuncha bo`lib, uning manbai ehtiyojlar ekanligi aytildi. Ya’ni:

Faollik – insonlarda “o`z kuchi bilan javob qilish” qobiliyatlarini bildiradi. Insonlarni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai hisoblanadi.

Ayni o`rinda faollik muayyan qobiliyat ekanligi to`g’ri e’tirof etilgani holda mazkur tushuncha mohiyati yetaricha yoritilmaganligini aytib o`tish lozim. Zero, ta’rifda keltirilgan “o`z kuchi bilan javob qilish” iborasi mavhum holatni ifodalaydi. “O`z kuchi” iborasi orqali mualliflar nimani qayd etmoqchi bo`lganlari noma’lum bo`lib qolgan.

Ma’lumki, “o`z kuchi” iborasi turli vaziyatlarda so`z yuritilayotgan holat nuqtai nazaridan shaxsga xos bo`lgan aqliy, ruhiy va jismoniy quvvatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababli “faollik” tushunchasini ifodalashda aqliy, ruhiy va jismoniy quvvatni birdek ifodalay oladigan umumiyligi ta’rif zarur.

Psixologik manbalarda “faollik” tushunchasining mohiyatini ochib berishda aynan mana shu talab inobatga olingan. Jumladan, “Katta psixologik ensiklopediya” (“Bol’shaya psixologicheskaya entsiklopediya”)da “faollik” tushunchasi “tirik mavjudot tomonidan

⁴⁴ “Pedagogika fanidan izohli lug’at”/ Tuzuvchilar: J.Hasanboev va b. Toshkent “Fan va texnologiyalar” – 2009. 534-bet

xtiyoriy xatti-harakatlarni sodir etish qobiliyati”⁴⁵ deya sharhlanadi. Bu fikr mantiqiy jihatdan to’g’ri.

Manba⁴⁶da faollik quyidagi shartlarga muvofiq aks etishi aytildi:

1) individning ichki holati xususiyatlariga ko’ra faoliyat chog’ida tashkil etilgan xatti-harakatlarning tezligidan qat’iy nazar sharoitga mosligi;

2) ixtiyoriylik (bu ixtiyoriylik sub’ekt maqsadi bilan shartlanish asosida yuzaga keladi);

3) mavjud vaziyat bilan bog’liqlik (ushbu vaziyat boshlang’ich maqsadlar negizida kelib chiqadi);


4) qabul qilingan maqsadga muvofiq ravishda faoliyatning o’ta izchilligi (mazkur izchillik sub’ekt faoliyatni amalga oshirishda o’zi duch kelishni xohlaydigan predmetga sust o’xshatishidan farq qiladi).

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan “faollik” tushunchasining bevosita shaxs tomonidan tashkil etiladigan xatti-harakat mohiyatini yoritishi anglanadi. Faoliytning asosiy belgilari quyidagilar sanaladi (58-rasm):



58-rasm. Faoliytning asosiy belgilari

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, faoliytning mohiyatini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (59-rasm):




59-rasm. Faoliytning mohiyatini ifodalash usuli

⁴⁵ Большшая психологическая энциклопедия – Москва Эксмо, 2007 – С. 19

⁴⁶ Osha manba – 9-bet.

Faollik faqatgina xatti-harakatlarning tashkil etilishidagina ko'zga tashlanmaydi. "Faollik" tushunchasi muayyan faoliyat yoki jarayonga nisbatan ham qo'llaniladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "faollik" tushunchasi mazmunida jadallik, jonbozlik, ishchanlik va ta'sirchanlikning namoyon bo'lishiga e'tibor qaratilib, uning mehnat va muayyan jarayonda ro'y berishi ta'kidlanadi. Xususan, "Faollik – mehnatda yoki biror harakatda jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik"⁴⁷. Keltirilgan ta'rif faollik negizida aks etuvchi sifatlarni yoritishga xizmat qiladi. Ular: jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlikdir. Shunga ko'ra faollik yuzaga keladigan ob'ektlar nuqtai nazardan uning mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin (60-rasm):



60-rasm. Ob'ektlar nuqtai nazaridan faollik mohiyati

Faollik shaxsning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki, moddiy borliqni bilishga bo'lgan intilishi, shaxsning jismoniy kamolotni, mehnatni yoki ishlab chiqarishni tashkil etishga bo'lgan yondashuvi darajasini belgilash maqsadida "ijtimoiy faollik", "jismoniy faollik", "bilish faolligi" hamda "o'quv faolligi" ("ta'limiy faollik") tarzida ishlataladi. Mazkur o'rinda "o'quv faolligi" va "ishlab chiqarish faolligi" tushunchalari mohiyatini anglab olish talab etiladi.

O'quv faolligining mazmuni. "O'quv faolligi" tushunchasi pedagogik manbalarda keng qo'llanilib, u bevosita shaxsning ta'lim jarayonidagi ishtirokini belgilaydi.


O'quv faolligi – magistrning o'quv jarayonida DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish yo'lida faollik ko'rsatishi.

⁴⁷"O'zbek tilining izohli lug'ati. Tartibot – Shukr / 5 jildli. To'rtinchi jild – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti- 2008. 326-bet

Tanlangan ob'ektga nisbatan olinadigan bo'lsa, o'quv faolligi magistrlarning o'zlarida umumiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha DTSda o'zlashtirilishi ko'nda tutilgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalarni samarali hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar darajasini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Magistrlarning o'quv faolligi o quv muassasalarida izchil, uzlusiz, tizimli tashkil etiladigan pedagogik faoliyat natijasi ham sanaladi. Zero, zamonaviy ta'limning tashkil etilishiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablardan biri – magistrlarning o'quv faolligini yuzaga keltirish orqali ularda mustaqil o'qib-o'rghanish, o'z ustida ishslash borasidagi tajribani hosil qilish.

Magistrlarning o'quv faolligi ta'lim hamda ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasida o'zaro integratsiyani hosil qilish hisobiga ta'minlanadi. Unga ko'ra magistrlar o'zлari o'zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llash orqali amaliy ko'nikma-malakalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Ushbu fikrlar oliy ta'lim muassasalarini magistrlarda o'quv faolligining shakllanish jarayonini sxema asosida quyidagicha tasvirlashga imkon yaratadi (61-rasm):




61-rasm. O'quv faolligining umumiy mohiyati

Magistrda o'quv faolligini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga bo'lgan davrlarda yaratilgan manbalarda shaxs rivojlanishiga ta'sir etadigan omillar sifatida irsiyat (biologik omil); ijtimoiy muhit (ijtimoiy omil) va maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya keltirilib, ularning ahamiyati yuqori baholangan⁴⁸.

⁴⁸ Pedagogika / S R Rajabovning urnumiy tahriri ostuda Toshkent "Pedagog", 1981 – 33-bet.

R.S.Nemov tomonidan oliy pedagogik ta'lif o'quv yurtlari uchun tayyorlangan "Psixologiya" darsligida esa bir guruh olimlar shaxsnинг rivojlanishiga ikki tur⁴⁹даги омиллари та'sir etishiga urg'u berishlari aytildi. Ular (62-rasm):



62-rasm. Shaxsnинг rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Sanoat ishlab chiqarish davrida keltirilgan mazkur omilar darhaqiqat shaxs kamolotini ta'minlashda muhim o'rinn tutgan. Biroq, bizning nazarimizda, global axborotlashuv davrida shaxs kamolotini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash masalasini qayta o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, so'nggi yigirma-o'ttiz yil davomida psixologiya fanining mislsiz rivojlanishi psixologik omillarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi roli va o'mini alohida ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'lishini isbotlay oldi. Jumladan, tarbiya nazariyasiga oid psixologik yondashuvga ko'ra shaxsnинг rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri inkor etilmagani holda unga xos bo'lgan psixologik sifatlar rivojlanishi va ularning maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan tarbiyani tashkil etishdagi imkoniyatlarini alohida o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi, shuningdek, so'nggi yillarda asoslangan psixologik nazariyalar uchun shaxs xarakteri; shaxsnинг qiziqish va ehtiyojlarining qurilishi hamda rivojlanishi; shaxs qiyofasi (shaxs qiyofasining shakllanishi uchun asos bo'lgan (birlamchi) va orttirilgan (ikkilamchi) sifatlar) tadqiqot predneti sifatida qabul qilinganligi aytildi⁵⁰. Muhit va tarbiya esa o'zaro integratsiya (aloqadorlik)da o'rganiladi. Zero, tarbiya ham o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektlar tomonidan shaxsga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'sir ko'rinishlaridan biri sanaladi.


Shunga ko'ra yuqorida bildirilgan fikrlar zamонави sharoitda shaxs kamolotiga samarali ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratish to'g'ri bo'lishini tasdiqlaydi (63-rasm).

Global axborotlashuv sharoitida yuzaga kelayotgan salbiy ijtimoiy-psixologik ta'sirlar (psixologik zo'riqish, doimiy tahlikada yashash, vaqt tanqisligi, dam olish va mehnat o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi,

⁴⁹ Немов Р С. Психология / Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. – М. ГИПД "Владос", 2000 – С. 387

⁵⁰ O'sha manba – 387-bet.

tabiiy ekologik muhitning tobora torayib borayotganligi, shovqinning kuchayishi va hokazolar) shaxsni ijtimoiylashtirishda biologik va ijtimoiy omillar bilan birga psixologik omillarni ham inobatga olish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shaxsning ruhiy jihatdan tetik bo'lishi, o'z kuchi va imkoniyatini yuqori baholay olishi, ertangi kunga ishonch bilan boqishi uni har qanday salbiy ijtimoiy-psixologik ta'sirlardan himoya qila oladi.



63-rasm. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Zamonaviy sharoitda ta'lif sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda ham psixologik omillarga tayanish pedagogik faoliyatning ijobiy natijaga ega bo'lismeni kafolatlaydi. Shunga ko'ra oliy ta'lif muassasalari magistrlarida o'quv va shlab chiqarish faolligini shakllantirishda ham psixologik omillar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, faollilikning o'zi ham qobiliyat⁵¹ sifatida psixologik xususiyatga ega.

Qolaversa, faollik, eng avvalo, ehtiyoj, qiziqish hamda doimiy harakat (faoliyat) negizida yuzaga keladi. Shunday ekan, ta'lif jarayonida magistrlarda o'quv va ishlab chiqarish faolligini shakllantirishda dastlab bunga nisbatan ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish, so'ngra bu yo'lda amaliy harakat, faoliyatni tashkil etishga unday olish muhimdir.

Magistrlarda o'quv faolligini shakllantirish jarayoni ham har qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishidagi kabi quyidagi o'quv-inellektual mexanizmlar⁵² yordamida kechadi:

1) timsol (assotsatsiya)larning shakllanishi (bu mexanizm alohida bilimlar va tajriba qismlari o'rtaqidagi vaqtinchalik aloqaning o'rnatilishi asosiga quriladi);

2) anglash (asosan ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun asos sifatida namoyon bo'ladi);

3) qismlarga ajratish va qismlarni umumlashtirish (tushunchalarning astasekin shakllanishi bilan bog'liq);

⁵¹ "Pedagogika fanidan izohli lug'at". J.Hasanboyev va b. Toshkent: "Fan va texnologiyalar" – 2009. 534-bet.

⁵² Немов Р.С. Психология / Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений – М: ГИПД "Владос", 2000 – С. 291

4) insayt (o'ylash, fikrlash; bunda axborotlarning mohiyati noma'lum ma'lumotlarning ma'lum bilimlar, avvalgi o'zlashtirish tajribalarga tayangan holda o'r ganilishi ro'y beradi);

5) ijodiy yondashuv (yangi bilimlar, predmetlar, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi)

Ta'lim muassasalarida magistrlarda o'quv faolligini samarali shakllantirishga quyidagi psixologik omillar⁵³ ham kuchli ta'sir ko'rsatadi:

1) o'quv faoliyatining tashkil etilishini izohlovchi sabablar (motivatsiya);

2) ma'lumotlarni hissiy qabul qilish jarayonining ixtiyoriyligi;

3) diqqatning barqarorligi;

4) xotiraning mustahkamligi;

5) tafakkur hamda nutqning rivojlanganligi;

6) magistrlarning irodaviy sifatlar va shaxsiy fazilatlar (m: tirishqoqlik, maqsad sari intilish, mas'uliyatlilik, intizomli bo'lish, onglilik, tartiblilik va b.)ga egaliklari

Shaxsning o'quv faolligiga ega bo'lislari pedagogik jihatdan ahamiyatli bo'lgan quyidagi natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi:

- mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lism;

- doimiy ravishda kasbiy malakanasi oshirish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilish;

- o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga ijodiy, mas'uliyatlari munosabatda bo'lism;


- unda kasbiy faoliyatda yangiliklar yaratish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatining rivojlanishi, to'la ro'yobga chiqishi;

- uning ta'lim olish, kasbiy faoliyatni tashkil etishga o'ziga xos, individual yondashishlarini ta'minlash.

Magistrlarda o'quv faolligini shakllantirishda quyidagi asosiy yo'llardan foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi (64-rasm).

Oliy ta'limni tashkil etishda mazkur yo'llardan foydalanish magistrlarda o'quv faolligini shakllantiribgina qolmay, shu bilan birga ularning mustaqil kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga ham yordam beradi.

⁵³ O'sha manba - 291-bet



64-rasm. Faollikning asosiy belgilari

Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o'quv faolligini oshirishdagi roli. Zamonaviy ta'limda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga xizmat qilish bilan birga magistrlarning o'quv-bilish, ijtimoiy va kasbiy faollik ko'nikma, malakalarini puxta o'zlashtirishga ham yordam beradi. Binobarin, ular magistrlarni ruhiy, hissiy holatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kichik guruh yoki jamoa tarkibida yagona maqsad yo'lda faoliyat yuritish, guruh va jamoa sha'nini himoyalash. o'zi mansub bo'lgan mikromuhitda topshiriqning yechimi yuzasidan bildirilgan fikrlarni dalillash, asoslash va yoqlashni o'rGANADI. Eng avvalo, har pedagogik texnologiya magistrda o quv fani, o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialiga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Qiziqish esa o'z-o'zidan faol harakat hosil qiladi, natijada magistrlarda faollikni namoyon bo'ladi.

Juftlik, kichik guruh yoki jamoa tarkibida samarali, faol faoliyat ko'rsatgan magistrning xatti-harakatlari, shaxsiy fikrlariga nisbatan e'tiborsiz bo'imaslik, aksincha, uni o'quv jarayonining samaradorligini oshirishning muhim mexanizmlaridan bir sifatida qabul qilinishi uni rag'batlantiradi, yanada yangi yutuqlarga erishish, muvaffaqiyatlarni qo'liga kiritishga undaydi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda magistr shaxsiga ko'p tomonlama, ya'ni bir tomonidan, o'zi mansub bo'lgan justlik, kichik guruh yoki jamoa ikkinchi tomonidan, pedagogning ijobiy ta'sir ko'rsatishi, uni rag'batlantirish, ruhlantirishga e'tibor qaratishi natijasida ushbu harakat qilishni o'ziga munosib ko'rmaydi, aksincha, tashabbus ko'rsatish, yangidan-yangi g'oyalarni ilgar surish, fikrlash, g'oyalarning ijodiy, o'ziga xos xarakter kash etishini ta'minlashga intiladi. Pedagog yoki juflidagi sherigi, o'zi mansub bo'lgan kichik guruh, jamoa a'zolari

bilan magistr o`rtasidagi qaytar aloqaning mavjudligi esa uning uchun shaxs sifatida eng zarur bo`lgan ijtimoiy (muloqot, nutq, munosabat, faoliyat) ko`nikma, malakalarini o`zlashtirish, takomillashtirib borishi uchun imkoniyat yaratadi.

Pedagogik texnologiyalarning muhim elementlaridan biri bo`lgan – interfaol metodlar magistrni fikrlashga, shaxsiy fikrni erkin ifodalashga, o`zgalarining fikrini tinglashga, bildirilgan fikrlarning umumlashtirish va tahlil qilishga, ijodiy loyihalarni yaratish, muayyan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va yechimini topishga o`rgatadiki, bu uning mustaqil hayotga tayyorlanishi, kasbiy ko`nikma, malakalarni samarali o`zlashtirishi uchun poydevor bo`lib xizmat qiladi.

Magistrning interfaol ta`lim jarayoniga faol jalb etilishi u tomonidan muhim hayotiy ko`nikmalarning ham yetarli darajada o`zlashtirishiga yordam beradi. Interfaol ta`lim jarayonida magistr jamoaning kuchi, imkoniyatlarini anglaydi va uni munosib baholashga o`rganadi; guruh, jamoa manfaati uchun guruhdoshlar, jamoadoshlar bilan birgalikda kurashishi kerakligini tushunadi, eng qiyin, murakkab vaziyatlarda bir-biriga yordam ko`rsatish, bir-birini qo`llab-quvvatlash, tushunish, hamdard bo`lishga o`rgatadi. U hech qachon jamoa, guruh (ijtimoiy muhit) ta`sirisiz muvaffaqiyatga erisha olmasligini his qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o`quv faolligini oshirishdagagi roli muayyan omillarga bog`liq. Ular:

- magistrning faol ishtiroti;
- interfaol metodlarning magistr hissiyotiga ta`siri;
- o`quv materialining magistr yoshi, bilim darajasi, hayotiy tajribasi va imkoniyatlariga mosligi;
- magistr shaxsiga ko`p tomonlama ijobiy ta`sir ko`rsatilishi;
- magistr bilan magistrlar guruhi, pedagog o`rtasida qaytar aloqaning ta`minlanganligi;
- interfaol metodlarning magistrda shaxsiy fikr, munosabatni tarbiyalashga xizmat qilishi;
- interfaol ta`limning magistrda hayotiy ko`nikmalarni shakllantira olishi;
- interfaol metodlarning magistr xulq-atvorini o`zgartira olishi

Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo`llanilishi, kichik guruhlarda ishslash, trening, rolli va ishbilarmonlik o`yinlarida faol qatnashish, turli ta`limiy muammolarni tadqiq etish va hal qilish, filmlarni tomosha qilish va jamoa, guruh ishtirotida muhokama qilish natijasida magistrlar quyidagi amaliy ko`nikma, malakalarga ega bo`лади:

- ijodiy ishlchanma (sxema, tasvir, jadval, maket, modul, insho, maqola, biznes reja va b.)larni yaratish;
 - jamoaning imkoniyatlarini ko'ra olish;
 - mini-ma'ruzalarni tayyorlash;
 - loyihalarni yaratish;
 - pedagogik muammolar yuzasidan fikr bildirish;
 - pedagogik muammolarni hal qilish yo'llarini topish.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari magistrlarining o`quv va ishlab chiqarish faolligi garchi ikkita alohida jarayon holatini ifodalagandek tuyulsa-da, biroq ular o`rtasidagi o`zaro integratsiyaga asoslanuvchi yaxlit, bir butun jarayonda yuza beradigan xatti-harakat ko`rsatkichi hisoblanadi. Magistrlarda o`quv va ishlab chiqarish faolligining yuzaga kelishi, bir tomondan, ta'lim samaradorligini, ikkinchidan esa, uni hosil qilishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat natijasi, mahsulini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasalarida magistrlarning o`quv va ishlab chiqarish faolligini shakllantirish bozor munosabatlari sharoitida malakali mutaxassisning tayyorlanganligidan ham dalolat beradi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi yo`nalishi bo`yicha magistrlarda o`quv va ishlab chiqarish faolligini shakllantirish murakkab psixologik hodisa bo`lib, u o`ziga xos jihatlarni namoyon etadi. Kasb ta'limi pedagoglarining ushbu jarayonga xos psixologik jihatlardan xabardor bo`lishlari magistrlarning samarali ravishda o`quv va ishlab chiqarish faolligini o`zlashtirishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Pedagogik texnologiyalar magistr(magistr)ning o`quv faolligini oshirishga yordam beradi. Shu bois ta'lim jarayonini tashkil etishda masalaning bu jihatiga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar". Toshkent: "O'zbekiston"- 2009.
 2. Немов Р.С. "Психология". Москва: ГИЦ "Владос"-2000.
 3. Pedagogika. Bakalavriat yo'nalishi uchun darslik. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni" - 2010.
 - 4 Pedagogika. Abdullayeva Sh., Axatova D., Sobirov B., Sayitov S. Toshkent: "Fan"- 2004.
 - 5 Sayidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: "Moliya"- 2003.

6. Tursunov I., Nishonaliyev U. "Pedagogika kursi". Toshkent: "Pedagog"-1997.

Nazorat uchun savollar:

1. Faollik nima?
2. Shaxs (talabalar) faoliyatida faollik qanday shartlarga muvofiq aks etiladi?
3. Faollikning asosiy belgilari qaysilar?
4. Faollik negizida qanday sifatlar aks etadi?
5. O'quv faolligi nima?
6. Magistrarning o'quv faolligi nima hisobiga ta'minlanadi?
7. Shaxsning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?
8. R.S.Nemov shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni necha turga ajratadi?
9. Zamonaliviy sharoitda shaxs kamolotiga samarali ta'sir etuvchi omillarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
10. Shaxs o'quv faolligini shakllantirish qanday o'quv-intellektual mexanizmlar yordamida kechadi?
11. Shaxs o'quv faolligini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni qaysilar?
12. Shaxs o'quv faolligini shakllantirishning qanday yo'llari mavjud?
13. Pedagogik texnologiyalar magistrlar o'quv faolligini oshirishda qanday rol o'ynaydi?
14. Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o'quv faolligini oshirishdagi roli nimalarga bog'liq?
15. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash shaxsda qanday amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi?

Test topshiriqlari:

1. Faollik nima?
 - a) tirik mavjudot tomonidan ixtiyorsiz xatti-harakatlarni sodir etish qobiliyati;
 - b) tirik mavjudot tomonidan ixtiyoriy xatti-harakatlarni sodir etish qobiliyati;
 - c) tirik mavjudot tomonidan ixtiyoriy va majburiy xatti-harakatlarni sodir etish qobiliyati;
 - d) to'g'ri javob yo'q.
2. Faollik qanday shartlarga muvofiq aks etadi?

- a) individning ichki holati xususiyatlariga ko'ra faoliyat chog'ida tashkil etilgan xatti-harakatlarning tezligidan qat'iy nazar sharoitga mosligi; ixtiyorilik;
- b) mavjud vaziyat bilan bog'liqlik; qabul qilingan maqsadga muvofiq ravishda faoliyatning o'ta izchilligi;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

3. Faollikning asosiy belgilari qaysilar?

- a) xatti-harakat; ixtiyoriy yondashuv; mavjud vaziyatning inobatga olinishi;
- b) faoliyatning izchilligi; faoliyat izchilligini ta'minlay oladigan layoqat (qobiliyatga egalik);
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. Faollik negizida qanday sifatlar aks etadi?

- a) jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik;
- b) jadallik, jonbozlik ko'rsatish, mustaqillik, erkinlik;
- c) ishchanlik, ta'sirchanlik, o'ziga bo'lgan ishonch, ruhiy ko'tarinkilik;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

5. O'quv faolligi nima?

- a) magistrning o'quv jarayonida DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish yo'lida faollik ko'rsatishi;
- b) magistrning ta'lim jarayonida maxsus o'quv dasturlarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish yo'lida faollik ko'rsatishi;
- c) magistrning o'quv jarayonida mualliflik dasturlarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish yo'lida faollik ko'rsatishi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

6. Magistrlarning o'quv faolligi nima hisobiga ta'minlanadi?

- a) ta'lim va pedagogik amaliyotni o'rtaSIDA o'zaro integratsiyani hosil qilish hisobiga;
- b) ta'lim hamda o'quv, ilmiy tadqiqot ishlari o'rtaSIDA o'zaro integratsiyani hosil qilish hisobiga;

c) ta'lim hamda ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasida o'zaro integratsiyani hosil qilish hisobiga;
d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Shaxsning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?

- a) irsiyat (biologik omil); ijtimoiy omil;
- b) (biologik omil); ijtimoiy muhit (ijtimoiy omil) va tarbiya;
- c) irsiyat (biologik omi), tarbiya;
- d) to'g'ri javob yo'q.

8. R.S.Nemov shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni necha turga ajratadi?

- a) besh turga;
- b) to'rt turga;
- c) uch turga;
- d) ikki turga.

9. R.S.Nemov tomonidan qayd etilgan shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

- a) biologik omil, psixologik omil, ijtimoiy omil, tarbiya;
- b) biologik omil, psixologik omil, ijtimoiy omil;
- c) biologik omil, psixologik omil;
- d) biologik irsiyat (biogenlar), ijtimoiy irsiyat (sotsiogenlar).

10. Zamnaviy sharoitda shaxs kamolotiga samarali ta'sir etuvchi omillarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?

- a) biologik omil, ijtimoiy omil (muhit va tarbiya);
- b) biologik omil, psixologik omil;
- c) biologik omil, psixologik omil, ijtimoiy omil (muhit va tarbiya);
- d) to'g'ri javob yo'q.

11. Shaxs o'quv faolligini shakllantirish qanday o'quv-intellektual mexanizmlar yordamida kechadi?

- a) timsol (assosiya)larning shakllanishi; anglash;
- b) qismlarga ajratish va qismlarni umumlashtirish; insayt; ijodiy yondashuv;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

12. Shaxs o'quv faolligini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar qaysilar?

- a) o'quv faoliyatining tashkil etilishini izohlovchi sabablar (motivatsiya); ma'lumotlarni hissiy qabul qilish jarayonining ixtiyoriyligi;
- b) diqqatning barqarorligi; xotiraning mustahkamligi;
- c) tafakkur hamda nutqning rivojlanganligi; magistrlarning irodaviy sifatlar va shaxsiy fazilatlarga egaliklari;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

13. Shaxs o'quv faolligini shakllantirishning qanday yo'llari mavjud?

- a) integrasion ta'limni tashkil etish; magistrlarni ishlab chiqarish amaliyotiga faol jalg qilish;
- b) magistrlarining ishlab chiqarish ustaxonalarida qo'shimcha ravishda mustaqil shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish; darsdan bo'sh vaqtlarida ixtisoslik sohalari bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida band bo'lishlarini ta'minlash;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

14. Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o'quv faolligini oshirishdagi roli nimalarga bog'liq?

- a) pedagogik shart-sharoitlarga;
- b) didaktik vositalarga;
- c) muayyan omillarga;
- d) pedagog mahoratiga.

15. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash shaxsda qanday amaliy ko'nigma, malakalarni shakllantiradi?

- a) ijodiy ishlanma (sxema, tasvir, jadval, maket, modul, insho, maqola, biznes reja va b.)larni yaratish; jamoaning imkoniyatlarini ko'ralish;
- b) mini-ma'ruzalarni tayyorlash; loyihalarni yaratish;
- c) pedagogik muammolar yuzasidan fikr bildirish; pedagogik muammolarni hal qilish yo'llarini topish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

TA'LIM FAOLIYATIDA TEATR PEDAGOGIKASI G'YOYALARIDAN FOYDALANISH

Reja:

- 1. Pedagogik faoliyat va teatr pedagogikasining o'zaro aloqadorligi, farqli jihatlari.**
- 2. Pedagogik dramaturgiya va pedagogik rejissura elementlari.**
- 3. Pedagogik mizanssena va uning mohiyati.**
- 4. Pedagogik artistizm va uning o'ziga xos jihatlari.**
- 5. Pedagog holatining magistrlarni boshqarishdagi o'rni.**

Tayanch tushunchalar: teatr pedagogikasi, pedagogik dramaturgiya, pedagogik rejissura, pedagogik mizanssena, pedagogik mizanssenaning tarkibiy qismlari, pedagogik artistizm.

Pedagogik faoliyat va teatr pedagogikasining o'zaro aloqadorligi, farqli jihatlari. Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishda pedagogning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, nafaqat pedagogik, balki boshqa har qanday texnologiya ijodiy fikrlash mahsuli. Shu sababli zamonaviy sharoitda pedagog o'z ustida doimiy izlanishi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi, ta'lif yoki tarbiya jarayoniga oid ijodiy mahsulotlarni yarata olish malakalarini shakllantira bilishi zarur.

Zamonaviy pedagog o'zida quyidagi ijodiy-amanliy malakalar⁵⁴ni namoyon qila olishi zarur:

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagи materialni shakllantirish;
- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va b. bilan boyitish;
- o'ziga xos, orginal o'quv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalananish uchun multimedya materiallarini yaratish;

⁵⁴ "Pedagogika 1000 ta savolga 1000 ta javob" Mef qo'lli U.Ilnoyatov, N.A.Muslimov, M.Usimontoyeva, D.Inog'omova. Toshkent: "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti" - 2012. 72-b

- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun o'quvchilarning faol ishtirotida video roliklar yaratish;
- dars konspektini tayyorlash;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.


Ma'lumki, har qanday ijodiy mahsulot (asar) negizida g'oya yotadi. Pedagogning ijodkorligi ijodiy xarakterga ega shaxsiy g'oya, fikr va qarashlarini o'z faoliyati asosida yoritishida ko'zga tashlanadi. Bu holat teatr sahnasida rol ijo etuvchi aktyor yoki teatr asarini sahnalashtiruvchi rejissyor faoliyatiga juda yaqindir. Qolaversa, teatr sohasida alohida o'rinn tutadigan dramaturgiya va rejissura mohiyatiga ko'ra pedagogik (xususan, tarbiya) texnologiyasiga juda yaqindir. Shu sababli uzoq yillardan buyon pedagogik amaliyotda teatr pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalaniшha alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ta'lif va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida pedagogning magistrlar bilan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli u har gal kasbiy faoliyat mazmunini shakllantirib, dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir loyihasini ishlab chiqar ekan, shu vaqtning o'zidayoq magistrlar bilan bevosita muloqotga kirishadi. Pedagog dars (ma'naviy-ma'rifiy tadbir) jarayonini ko'z o'ngiga keltiradi, xayolan magistrlar tomonidan tashkil etiladigan va o'zi javob sifatida uyushiradigan harakatlar obrazini yaratadi. Ana shu asosida muloqot partiturasini (ko'p ovozli musiqiy asarda barcha elementlarning majmui, ssenariysi, loyiha)da yaxlit, bir butun jarayonni aks ettiradi.

Muloqot jarayoni loyihasi (partirurasi; pedagogikada) – sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mantig'ining sun'iy yaratilishi, o'rganiyatotgan ob'ekt, o'quvchilarga axoqiy ta'sir ko'rsatish nisbatan ijtimoiy-qadriyatli munosabatni hosil qilish malakasi, dars epizodlarining g'oyasi va hissiy ta'siri bo'yicha asosiy guruhanishi, o'zaro muvofiqligini nazarda tutadigan o'ziga xos o'quv jarayonining ssenariysidir.

Pedagogik nuqtai nazardan muloqot jarayoni loyihasi (partirurasi)ni ishlab chiqish dars (yoki tarbiyaviy tadbir)ning tarkibiy tuzilmasining yaratilishini anglatadi. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga intilar ekan, pedagog darsning tarkibiy tuzilmasini yaratishga urinadi. Pedagog uchun dars (tarbiyaviy tadbir)ning tarkibiy tuzilmasi (kompozitsiyasi)ni bilish o'z ijodkorligining asosi, o'quv materialini mazmunini aks ettiruvchi vositadir.

Teatr pedagogikasi g'oyalariga ko'ra dars tuzilmasi (kompozitsiyasi)ni yaratish quyidagi bosqichlardan iborat (65-rasm):



65-rasm. Teatr pedagogikasi g'oyalariga ko'ra dars tuzilmasi (kompozitsiyasi)ni yaratish bosqichlari

Nafaqat teatr, balki harbiy hamda siyosiy sohalarda bo'lgani kabi ta'lif (ma'naviy-ma'rifiy tadbir) jarayonida ham strategik (umumiyl reja) va taktik (maqsadga erishish usullari yoki tayyorgarlik ko'rish) yondashuvni aniqlab olish muhim sanaladi. Pedagog tomonidan hal qilinadigan pedagogik masalalarning o'ylanishi, yetakchi g'oyani belgilash, pedagogik faoliyat tuzilishi, uning hissiy tuyg'ular bilan boyitilishi, magistrler faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari, hamkorlik usullarini tanlash ta'lif (dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir) strategiyasi sanaladi. Pedagog tomonidan avvaldan o'ylangan pedagogik masalalarni hal qilish imkonini beruvchi aniq vositalarni, magistrlarni axborotlar bilan qurollantirish, ularning faoliyatini nazorat qilish, rag'batlantirish, zarur o'rirlarda pedagogik yordam ko'rsatish maqsadida qo'llaniladigan samarali usullarni belgilash esa ta'lif (dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ning taktik jihatli sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogning o'z faoliyati yoki mashg'ulotni rejalahshtirishda jarayonning samarali kechishiga yordam beradigan usullarni to'g'ri, oqilona tanlay bilishi kerak. O'quv mashg'ulotining tuzilmasi ham badiiy asar yoki teatr tomoshasining kompozitsion qurilishiga o'xshaydi. Ya'ni o'quv mashg'uloti ham xuddi badiiy asar yoki teatr tomoshasi kabi quyidagi element (tarkibiy qismlar)ga ega (66-rasm).

To'g'ri, teatr tomoshasi va pedagogik jarayon aynan bir narsa emas, bir-birlarini bevosita takrorlamaydi, biroq, ularning o'rtasida umumiyl o'xshashliklar mavjud.



66-rasm. Teatr pedagogikasi g'ovalariga ko'ra dars tuzilmasi (kompozitsiyasi)ning asosiy elementlari

Sahna yoki ekran ko'rinishi sifatida teatr va film xuddi pedagogik jarayonda bo'lgani kabi tarbiyalanuvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, unda hissiy kechinmalarni hosil qiladi, ro'y berayotgan voqeahodisalarga nisbatan munosabatni qaror toptiradi. Dramaturgiya va rejissurada tomoshabinlarga hissiy ta'sir ko'rsatish loyihasi, rejasini ishlab chiqiladi. Ijodkorlar – dramatur, rejissyor, pedagog aniq maqsad, yetakchi g'oya asosida tarbiyaviy qarashlar, yo'l-yo'riqlarni o'zlarining ijodiy mahsulotlarini bevosita amaliyotga tatbiq etadi. Teatr pedagogikasida bu boradagi faoliyat aktyorlar, bastakor, rassom, libos ustalari, bezakchilarning birgalikdagi harakatlari yordamida amalga oshirilsa, ta'lim-tarbiya jarayonida esa pedagogning magistrler bilan hamkorligi negizida tashkil etiladi.

Pedagogika va teatr tomoshasi (kinofilm) bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Ular:

- har ikki jarayon soha mutaxassislarining ijod mahsullaridir;
- pedagogik jarayon va teatr tomoshasi (film) muayyan voqelik, hodisa va tizimli harakatlarning loyihasi sifatida namoyon bo'ladi;
- pedagogik texnologiya va teatr dramaturgiyası, rejissurasi dastlab yozma holda yaratiladi va nazariji jihatdan tahlil qilinadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni hamda teatr dramaturgiyası, rejissurasi suujetlar va personajlarning xatti-harakatlarini o'zaro birlikka asoslangan yaxlit ko'rinishda ifodalaydi;
- teatr tomoshasi (kinofilm) va pedagogik jarayon ijodkorlik, jo'shqinlikka asoslaniib, tomoshabin va o'quvchini ruhlantiradi, unga estetik zavq bag'ishlaydi;

- teatr (kino) dramaturgiyasi, rejissurasi va pedagogik texnologiya shaxslararo munosabatlarni yoritib, sub'ektlar tabiatini, ruhiy kechinmalari, o'zaro fikr almashishini yoritishga xizmat qiladi;

- pedagogik texnologiya va teatr tomoshasi (film)ning didaktik, badiiy, ijodiy xarakteri jamoaviylikka asoslanadi.

Teatr tomoshasi va pedagogik jarayon ijodiy mohiyati, tarkibiy tuzilishi, tarbiyaviy maqsad, mazmun, vazifa, metod, usul va vositalar nuqtai nazaridan bir-biriga juda yaqin sanaladi. Pedagogikada ijodkor shaxs sifatida pedagog, teatr sohasida esa rejissyor hal qiluvchi rolni bajaradi. Zero, ular tomonidan ishlab chiqilgan dars loyihasi, rejissura yaxlit jarayonni yagona nuqtaga yo'naltirish asosida oldinga qo'yilayotgan maqsadning natijalanishini kafolatlaydi. Har ikki jarayonning kechishida pedagog va aktyorlarning ruhiy tabiatini, fiziologik o'ziga xosligi, gavda tuzilishi, qiyofasi, o'zlarini tutishlari, pedagogik hamda aktyorlik mahorat (ovoz, nutq, jest)lari tomoshabin va magistrlarga ta'sii ko'rsatuvchi kuchli tarbiya quroli bo'lib xizmat qiladi.

Yosh pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirishda teatr etyudlaridan foydalanish samarali bo'lib, magistrlar o'rtasida o'zini tutishga, ovozni, gavdani, qo'l va oyoq harakatlarini boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida xuddi san'atshunoslik yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi o'quv yurtlarida bo'lgani kabi magistrlarda ovoz, yuz ifodasi, qo'l-oyoqlarni boshqarish, gavdani tutish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqliqdir.

Pedagogik dramaturgiya va pedagogik rejissura elementlari. Pedagogik jarayonda pedagog ham dramaturg, ham rejissyor sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik amaliyotda teatr dramaturgiyasi va rejissurasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan so'z yuritishda "dramaturgiya", "rejissura", "teatr pedagogikasi" tushunchalarining ma'nosib bilan yaqindan tanishish maqsadga muvofiqliqdir.

Boshqacha qilib aytganda, dramaturgiya – ssenariy asosida ma lum syujetlar, shuningdek, obrazlarning xatti-harakatlari orqali badiiy talqin etiladigan teatr tomoshasi (asari) yoki film hisoblanadi. Qanday san'at janriga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar dramaturgiya asosida dramatik xarakter (og'ir baxtsizlik, kulfat, fojea, hayotiy mojararo) haqidagi g'oya yotadi.

Dramatik asar quyidagi belgilarga ega (67-rasm):



67-rasm. Dramatik asarning muhim belgili

“Ijtimoiy (konkret tarixiy va umuminsoniy) muammolarni aks ettirovchi dramatik ziddiyatlar qaxramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo, dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko`rish (imo-ishora, harakat) va eshitishga mo`ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi (mizanssenalar qurilishi) imkoniyatlariga ham muvofiq keladi”⁵⁵. Dramatik asarlar rejissyor tomonidan sahnalashtirilib, aktyorlar tomonidan ijro etiladi.

Pedagogik dramaturgiya – pedagog va magistrlar o`rtasidagi hamkorlik tamoyillari (teng huuqlilik, o`zaro ishonch, manfaatlar birligi, yagona maqsadga yo`naltirilganlik, burch va majburiyatlarga sodiqlik va h.k.)ga asoslanuvchi ta`lim yoki tarbiya jarayonining syujetli-obrazli mazmuni.

Odatda, pedagog aniq mavzu asosida ta`limiy yoki tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishning dastlabki bosqichidayoq pedagogik dramaturgiya namoyon bo`ladi. Obrazli qilib aytganda, ta`lim va tarbiya jarayoni pedagogik p`esa sanaladi. Binobarin, unda ham shaxslararo munosabatlar dramaturgiysi yaratiladi. Ammo teatr p`esasidan pedagogik p`esa (dars yoki tarbiyaviy tadbir)ning farqi shundaki, u faqatgina bir marta “ijro etiladi”. Ana shu jihatiga ko`ra pedagogik va teatr p`esalari bir-biridan farqlanadi.

Rejissura (fr. “rego” – boshqaraman) – muayyan badiiy birlik ko`rinishidagi garmonik yaxlitlikni hosil qiluvchi san’at.

⁵⁵ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Gidrofiliya-Zebra / 3-tom. Toshkent: “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti-2002, 371-bet.


Teatr, kino, telefilm, sirk, estrada, ommaviy bayram hamda tomoshalarda namoyish qilinadigan asarlar ma'lum rejissyorlik ishi sifatida namoyon bo'ladi. Rejissyorlik ishiga umumiy rahbarlik, tabiiyki, rejissyor tomonidan amalga oshiriladi. U o'z faoliyatini p'esa tanlash, uning g'oyasi, janri va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijobiliy uslubini o'rghanish kabi bosqichlarda tashkil qiladi. Rejissyor rejissura (rejissyorlik talqini) uchun sahna vositalarini izlaydi, har bir personaj xarakteri va umuman, spektakl talabidan kelib chiqqan holda obrazlar mohiyatini ochib beruvchi mos aktyorlar tanlaydi, sahna ritmi, sur'atni belgilaydi, mizansahnalarni yaratadi, rassom, bastakor bilan o'zaro hamkorlik asosida asarni badiiy jihatdan bezaydi. "Realistik spektakldagi yaxlit va chuqur xaqqoniylig bir-biri bilan uzviy bog'langan "uch haqiqat" (hayotiy, ijtimoiy va sahnnaviy) asosida yaratiladi"⁵⁶.

Eng'aviy jihatdan "rejissyor" (fr. "regisseur" < lot. "rego" – boshqaraman)⁵⁷ tushunchasi "boshqaruvchi" ma'nosini anglatadi. Demak, rejissyorning vazifasi teatr yoki kino asarlarining sahnalashtirilish jarayonini boshqarishdan iborat. Demak, aytish mumkinki, pedagogik rejissura quyidagi ikki ma'noni anglatadi:

Pedagogik rejissura –

- 1) pedagogik jarayonni sezilmash holda boshqarish,
- 2) pedagogik jarayonni garmonik jihatdan bir butun, yakunlangan, muayyan badiiy birlik asosida tashkil etuvchi fan va san'at.

Teatr va kino rejissurasi mohiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhlarga ajratiladi (68-rasm):



68-rasm. Teatr va kino rejissurasining asosiy guruhlari

Darsni rejorashtirish vaqtida pedagog dramaturg sifatida ta'lim (yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir) mohiyatini ochib beradigan vositalarning

⁵⁶ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Parchin – Soliqlar / 7-tom – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-2004, 292-bet

⁵⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati". Toshkent "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" - 2007. 370-bet.

shunday katta majmuini tanlasa, rejissyor sifatida esa taqdim etilayotgan ta'lim (tarbiyaviy tadbir) mazmuniga doir ma'lumotlarni magistrlar tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi.


Pedagogik mizanssena va uning mohiyati. S.A.Smirmovning qayd etishiga ko'ra, pedagogning darsdagi partiturasni nafaqat o quv materialining rejasini ko'rinishida, balki "mizanssena" (spektaklning avrim o'rinalarda dekorasiya va aktyorlarning joylashuvi) shaklidagi o'zaro hamkorlik tarzida ko'zga tashlanishi zarur. Muallifning fikrini to'la anglab olish uchun "mezanssena" tushunchasi qanday ma'noni bildirishidan xabardor bo'lish talab etiladi.

Mizanssena (fr. "mise en scene" – sahnadagi joylashuv) – rejissyorning rejasiga ko'ra mo'ljallangan kartinani hosil qilib, qahramonlarning ma'lum munosabatlarini aks ettiradigan aktyorlarning spektakl vaqtida sahnadagi joylashuvi.

"Mezanssena" tushuncha birinchi marta taniqli teatrshunos, mahoratlari aktyor va rejissyor K.S.Stanislavskiy tomonidan qo'llanilgan. Keyinchalik mazkur tushuncha pedagogik jarayonga ham tatbiq etilgan va u "pedagogik mezanssena" deb nom olgan. N.E.Shurkovaning fikriga ko'ra "pedagogik mezanssena" tushunchasi quyidagi mazmunni anglatadi:

Pedagogik mezanssena – pedagogik jarayon ishtirokchilarining ular tomonidan birlgilikda tashkil etayotgan faoliyat vaqtidagi joylashuvi bo'lib, bu joylashuv manzarasi ayni vaziyatda va guruhning barcha a'zolari uchun birdek muhim munosabatni ifodalaydi.

Odatda pedagogik mizanssena quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (69-rasm):



69-rasm. Pedagogik mizanssena ko'rinishi

Pedagogik mizanssenaning barcha elementlari pedagog va magistrlar o'rtaсидаги о'заро муносабатларни муайян тизимга солиб, mustahkamlab qolmay, shu bilan birga erkinlik darajasini, tanlov variantlarini, magistrlarni anglash muhitiga jalb qilish metodlari hamda magistrlarni anglash muhitiga jalb qilish chegaralarini belgilab beradi. Ana shu jihatdan

olganda predmetli muhit chegaralarini kengaytirish orqali mактабга, sinf xonasiga turli voqealiklar, hodisalar mohiyatini ifodalovchi ob'ektlarni olib kirishga e'tibor qaratish lozim. Bu esa xonadagi dekoratsiya (manzara hosil qiluvchi anjom va bezaklar)ni o'zgartirishni talab qiladi.

Teatr va kino tomoshalarda bo'lgani kabi pedagogik mizanssena ham quyidagi tarkibiy qismlarga ega (70-rasm).


Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, odatda o'quv xonalarining to'g'ri jihatuzlanishi magistrlar o'rtasidagi ruhiy uzoqlashuvni qisqartiradi va "ishonch qal'asi"ni hosil qiladi.

O'rganishlar natijasining ko'rsatishicha, pedagogik mizanssena quyidagi ta'sir kuchiga ega:

- 1) ruhiy ta'sir;
- 2) ko'rsatmali-tasviriy ta'sir;
- 3) axloqiy-yo'naltiruvchi ta'sir

O'zining ta'sir darajasiga ko'ra pedagogik jarayonlar mohiyatini yorituvchi mizanssenalar quyidagi tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

- har bir magistr uchun o'zini qulay his qilishiga imkon beradigan to'kis sharoitni yaratish (ruhiy ta'sir);
- magistrlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ha'mda ular tomonidan tashkil etiladigan birgalikdagi faoliyatni qadriyatli ob'ektga yo'naltirish (ko'rsatmali-tasviriy ta'sir);
- magistr diqqatini boshqa yoki boshqalarga yo'naltirish (axloqiy-yo'naltiruvchi ta'sir).



70-rasm. Pedagogik mizanssena tarkibiy qismlari

Pedagogning rejissyorlik qobiliyati quyidagicha namoyon bo'ldi:

- dramaturg rejasini "badiiy til" dan harakatga ko'chirish;
- darsning asosiy epizodlarini g'oyaviy va hissiy kuchi ta'sirlariga ko'ra ajratish, asosiy o'zgarishlarni aniqlash;
- mizanssenalarni vaqt, ko'lam bo'yicha tez-tez aylanishlarini tashkil etish, har bir sahnada ish sur'atini aniqlash.

Pedagogik artistizm va uning o'ziga xos jihatlari. Darsni rejalashtirish vaqtida pedagog artist sifatida ta'lim (yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ning qiziqarli, jo'shqin bo'lishiga erishish maqsadida magistrlar bilan birga o'zaro hamkorlikda "o'z roli"ni o'ynaydi.

I.E.Vidtning uqtirishicha, artistizm - shaxsning hissiy, ifodaviy nutqqa egaligini anglatuvchi sifati. K.Yaspers esa o'z tadqiqotlarida pedagog shaxsida aks etuvchi artistizmni quyidagicha sharhlaydi: pedagogik artistizm - ta'limiy jarayonning hissiy-obrazli timsoli sanaladi. Bu o'rinda darhaqiqat muallif haq. Biroq, pedagogning artistizmi faqatgina ta'lim jarayonidagina namoyon bo'lmasligi, balki ma'naviy-ma'rifiy tadbir, darsdan, maktabdan tashqari sharoitlarda magistrlar, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan o'zaro munosabati vaqtida ham yaqqol aks eta olishi zarur. Shunga ko'ra "pedagogik artistizm" tushunchasini shunday ta riflash mumkin:

Pedagogik artistizm – dars (ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ning barcha keraksiz, ortiqcha narsalardan holi, zarur ob'ektiv va sub'ektiv elementlarni joy-joyiga qo'ya bilgan holda samarali, muvaffaqiyatli, yuqori ko'tarinkilikda tashkil etish

Kasbiy faoliyatni tashkil etish vaqtida pedagoglar aktyor emas. balki aynan artist bo'lislari kerak. Zero, aktyor (lot. "actor" – bajaruvchi, ijro etuvchi)dan ko'ra artist (lot. "ars" – san'at, mahorat) tushunchasi har qanday faoliyatni yuksak mahorat bilan tashkil eta olishni anglatadi.

Pedagogik artistizmda quyidagi sifatlar aks etadi:

1. Pedagogning shaxsiga xos fazilatlar: obrazlar asosida nostandard qarorlarni qabul qilishga intilish, cheksiz quvvat, ishonchi, dilbarligi va iqtidori bilan o'ziga jalb qilish; xatti-harakatlarining tabiiyligi, maqsadga muvofiqligi, uygunligi, jonliligi, ta'sirchanligi, jest (qo'l, oyoq, gavda harakatlari) va nutq ohangiga boyligi, notiqlik mahorati, shuningdek, o'ziga maftun qilish ko'nikmasiga egalik. K.Leongard shaxsda artistlik qiyofani yaratishga turki beradigan quyidagi uch holatni ko'rsatib o'tadi: hissiy qo'zg'aluvchanlik, xarakterning namoyishkorona jihatlari, pedagogik jarayon sharoitlaridan kelib chiqqan holda tayyorgarliksiz hosil qilingan muhit va tabiiy mavjudlikni ta'minlash.

2. O'quv hamda texnik usullarning mohiyati: ahamiyati, g'oyasi jihatdagina emas, balki estetik jihatdan yanada yorqin, aniq ma'lumotlarni tanlash mahorati; barchani "o'yin orqali hayot sari" faol jalb etadigan, o'quv ma'lumotlarini yodda saqlashga imkon beradigan savol berish texnikasini o'zlashtirish; mavzuga oid tabiiy xulosalardan magistrlarni xabardor qilish usullarini izlash; muayyan pedagogik vazifalarga mos keladigan pedagogga xos xatti-harakatlarni boshqacha ifodalash, yangicha tartibda qurish.

3. Pedagogik ijodkorlik uslubi: magistrlarni tushuna olish va sevish, atrof-muhit, borliqqa ijodiy yondashishga o'rgatish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogni ijod bo'yicha hamkor pozitsiyasiga qo'ya bilish.

Pedagogik artistizmning tarkibiy tuzilmasida bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi ikki holatni ko'rish mumkin:

1. Ruhan artistizmga erishish. Bunda pedagogning hissiy qabul qilish, ruhiy yetuklik, so'zlash madaniyati va hissiy holat, ijodkorlikning ichki "ildizi", o'ziga bo'lgan ishonch, jozibadorlik, boy tasavvur, improvizatsiya, fantaziya, muammoni obrazli-hissiy qo'ya olish va yechish, mantiqiy bog'liqlikni ko'ra olish, pedagogik chora-tadbirlarni his qilish va b.ga tayanuvchi umumiy va hissiy madaniyati aks etadi.

2. Artistlik qobiliyatni jismonan namoyon qilish. Mazkur o'rinda pedagog o'z xatti-harakatlari bilan magistrlarga o'quv materialini uzatish, ular bilan hissiy munosabatlarni uyushtirish hamda o'z-o'zini namoyon qilish malakasiga egaligini ko'rsatadi

Pedagog holating magistrlarni boshqarishdagi o'rni. Yuqorida aylib o'tilganidek, ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning joylashish o'rni, gavdasini tutu olishi, harakatlanishi ham magistrlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, har bir holat ma'lum ma'noga ega va u shartli belgilar tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar ta'sirida magistrlarda faollilik kuchayishi, o'rganilayotgan mavzu yoki tashkil etilayotgan tadbiriga nisbatan qiziqish yuzaga kelishi va, aksincha, ularga "ruhiy bosim" o'tkazilishiga sabab bo'lib, qiziqishni susaytirishi mumkin. Shu sabablari har bir pedagog auditoriya, o'quv xonasiga kirib kelganda o'z holati, gavdasini boshqarish to'g'risida ham o'yashi zarur.

O'quv xonasi (auditoriya)da pedagogning tutgan o'mi, gavda tutishi ma'lum alomatlarni namoyon qiladi. Shunday ekan, bo'lajak pedagoglar muayyan holatlarning ma'nosidan xabardor bo'lishlari zarur. Quyida pedagogning ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida samaradorlikka erishishini kafolatlovchi ayrim holatlarning mohiyati yoritiladi.

1. Fiziologik holatga ko`ra ko`zning fazoni qamrab olishdagi harakati uni chapdan o`ngga tomon yo`naltirish orqali amalga oshiriladi. Zero, ko`zning shartli-reflektor mexanizmi o`zida chap tomondag'i fazoning o`ng tomon kompozitsiyasi (fazoviy bo`shliq)ni siqib qo`yishga asoslanib, yaxlitlikni ta'minlash xususiyatini namoyon qiladi. Natijada o`ng tomondag'i fazoning ahamiyati ortib, yiriklik kasb etadi.

2. Odatda fazoda, oldingi qator (plan)da tashkil etilayotgan harakat nisbatan orqada saf (plan)dagi ob'ekt va harakatlarga qaraganda ko`zda yirikroq ko`rinadi. Mashg`ulotlar chog`ida ana shu holatni ham inobatga olish zarur. Magistrlarning yonginasida sodir etiladigan harakat, uning haddan ziyod tez-tez yiriklashishi ularni toliqtiradi. Pedagog o`zini xuddi sahnada turgandek his qilishi, yaqin va uzoqdagi vogelik, harakatlarni navbatma-navbat kichik va yirik hajmda namoyish eta olishi zarur. Bunda eng to`g`ri yo`l – muhim, zarur ma'lumotlarni yirikroq, ikkinchi darajali ma'lumotlarni esa kichikroq planda uzatilishini ta'minlash. Pedagog, shuningdek, o`z faoliyatida nafaqat birinchi, ikkinchi, balki uchinchi va to`rtinchi planlardan ham samarali foydalana olishi zarur. Eng muhim, pedagog “sahna muvozanati”ni, uning magistrlar uchun adekvant (muvosiq)ligini, ular tomonidan irok etilish darajasini inobatga ola bilsagina muvaffaqiyatga erishadi.

3 Mashg`ulotlar vaqtida pedagogning gavda tutishigina emas, balki uning yuzni ma'lum holatda ushlab turishi, turli tomonlarga burishi ham o`ziga xos semantik xususiyatni anglatadi. M: psixologik-fiziologik tadqiqotlarning ko`rsatishicha, inson yuzining ikki holati suhbatdoshga tez ta'sir ko`rsatish imkonini beradi. Ular:

A.Yuzning ob'ektga to`g`ri qaratilishi. U suhbatdoshni, demakki, ta'lif jarayonida magistrni sergaklantiradi. Bu holat (pedagogning o`z yuzini magistrlarga to`g`ri chiziq yo`nalishi bo`ylab qaratib turishi) uning qiyofasiga jiddiylik bag'ishlaydi va u qat'iyatli, jiddiy, sergak qiyofa kasb etadi.

B.Yuz umumiyligi ko`rinishining yarmi (yarmi fas ko`rinish) suhbatdoshga gavdaning 3/4 (to`rtdan uch) qismi miqdorida namoyon bo`lishini ta minlaydi

V.Gavda holati – oyoqlarning erkin qo`yilishi, gavda og'irligining oyoqlardan biriga tushishi, bosh yordamida murakkab ma`nolarning ifodalaniishi diagonal (qiya) burchak ostida o`quv xonasi, auditoriyada eng uzun masofani ko`z fokusi yordamida qamrab olinishini ta minlaydi.

G.Pedagog yon tomonidan o`quv xonasi, auditoriyani to`la qamrab olish imkoniyatining cheklanganligini yodda tutishi lozim. Ammo

suhbatdosh, magistriga nisbatan yonlab (perpendikulyar) turish pedagogning muvozanatini ta'minlaydi va burlishda qulayliklar yaratadi.

D.Magistrlarning yig'inchonligi, uyushqoqligi, sheriklarini his qila olishi unga o'quv yoki ijodiy jarayonda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Shu sababli o'quv xonasi, auditoriyaga kirish va chiqishda, dars jarayonida ham yuz holatlaridan o'rinni, maqsadga muvofiq foydalana olishi lozim.

4. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida pedagog o'z xotirasi, diqqati va xayolini mashq qildirishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Mazkur talab psixologik texnikaning muhim qismi bo'lib, ta'limgarayonini oqilona, sifatli, hech bir uzilishlarsiz tashkil etilishini ta'minlaydi.

Xuddi aktyor kabi pedagoglar ham e'tiborni xotirani mustahkamlashga qaratishi lozim. Uning doimiy, izchil ravishda xotirani mashq qildirishga odatlanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

K.S.Stanislavskiy tomonidan asoslangan tizim bevosita aktyorlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tizimning asosi harakat, diqqat, organika, mushaklar erkinligi, xayol, muomala, to'g'ri harakat qilish bo'lib, ularning bo'lajak pedagoglar tomonidan samarali o'zlashtirilishi ta'limgarayonini muvaffaqiyatlari, ta'sirli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Teatr sohasining yetuk bilimdoni K.S.Stanislavskiyning yondashuviga ko'ra, sahnada aktyorning hech qanday majburlovlarsiz, erkin harakat qilishi, zarur o'rinnarda tashabbus ko'rsatishi (improvizatsiya qila olishi) uning mutaxassis sifatida mahoratli ekanligidan dalolat beribgina qolmay, jamoaviy hamkorlikda yaratilgan teatr tomoshasining muvaffaqiyatlari namoyish etilishini ta'minlovchi omillardan biridir. Teatrdagi bo'lgani kabi pedagogik jarayonda ham pedagog har qanday topshiriqlarni bajarish chog'ida magistrlarni majburiylikdan tashabbus ko'rsatishiga rag'batlantira olishi kerak. Binobarin, majburiylikning tashabbusga aylantirilishi magistrlarni ruhiy zo'riqish, jahldorlik va salbiy hissiyotlardan ozod qiladi. Ayni o'rinda quyidagi holatni ham e'tiborda tutish lozim: jazava, qo'pol hazil, keragidan ortiq hissiyotga berilish – ijodiy ruhlanish degani emas. Pedagogning o'z faoliyatini loyihasini ishlab chiqishda teatr sohasining

yetuk mutaxassislarining quyidagi ko'rsatinalari⁵⁸ga rivoja etishi ko'zlagan maqsadga yetishishiga yordam beradi:

1. Magistrlarda qiziqishni yuzaga keltirish uchun darsni eng qizg'in sahnalardan boshlashi kerak (E.Vaxtangov).

2. Xuddi rejissyorlar kabi pedagog ham vaqtini his qila olishi lozim (Gordon Kreg). Binobarin, pedagogning bunday sifatga ega bo'lishi dars jarayonida, tarbiyaviy tadbirda magistrlarning vaqtini tejash, ularda ham aniq vaqt oraliq'ida zarur faoliyatni bajarish ko'nikma. malakalarini shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi.

3. Pedagogning har bir xatti-harakati tarbiyaviy ta'sirga ega. Ayniqsa, uning o'quv xonasi (sinf, auditoriya)ga kirib kelishi va darsdan so'ng chiqib ketishi yanda kuchli ta'sirga ega. Shu sababli pedagoglarning bu jihatga alohida e'tibor qaratishlari, yosh pedagoglarning esa "sinfga o'ziga xos joziba bilan kirib, xonani ko'tarinki kayfiyat, o zgacha joziba bilan tark etishlari" maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyani ishlab chiqishda pedagogning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi muhim. Pedagogik ijodkorlik ijodiy g'oya, fikr va qarashlarni kasbiy faoliyatda aks ettirishni ifodalaydi. Shu jihatga ko'ra rol ijob etuvchi aktyor yoki teatr asarini sahnalashtiruvchi rejissyor faoliyatiga yaqin. Pedagog dars (tarbiyaviy tadbir) rejasini tuzish, loyihasini yaratish chog'ida xayolan mazkur jarayonlarda sodir etiladigan harakatlar obrazini yaratadi. Pedagog o'zining kasbiy faoliyati yoki mashg'ulotni rejalashtirishda pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlovchi usullarni to'g'ri, oqilona tanlay olishi lozim. Pedagogik jarayonning tuzilmasi badiiy asar yoki teatr tomoshasining kompozitsion qurilishiga o'xshaydi. To'g'ri, teatr tomoshasi va pedagogik jarayon aynan bir narsa bo'lib, bir-birlarini bevosita takrorlamaydi. Biroq, ularning o'rtaida umumiy o'xshashliklar, bir-biriga yaqin xususiyatlari mavjud. Shu sababli pedagogik amaliyotda teatr pedagogikasi g'oyalaridan foydalanish ta'lif va tarbiya jarayonining ta'sirchan, obrazlarga boy bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanimish uchun adabiyotlar:

1.Inoyatov U., Muslimov N., Usmonboyeva M., Inog'omova D. "Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob". Toshkent: "TDPU" -2012.

* Художественные роли педагога. Педагог как драматург, режиссер, артист // <http://nsportal.ru/shkola/sotsialnaya-pedagogika/library/khudozhestvennye-rolи-pedagoga-pedagog-kak-dramaturg-rezhisser>

2. Inomxo'jayev S. "Notiqlik san'ati asoslari". Toshkent: "Pedagog"- 1982.
3. Ismoilov M. "Rejissura va aktyorlik mahorati bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashqlar". Toshkent: "RFAAK"- 2007.
4. Mamatqosimov J. "Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati". Toshkent: "A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti"- 2009.
5. Rasulova A. "Sahna nutqi". Toshkent: "A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti"- 2009.
6. Чечетин А.И. "Основы драматургии и театрализованных представлений". Москва: "Просвещение"- 1981.

Nazorat uchun savollar:

1. Muloqot jarayoni loyihasi (partirurasi) deganda nimani tushunasiz?
2. Teatr pedagogikasi g'oyalalariga ko'ra dars tuzilmasi (kompozitsiyasi)ni yaratish necha bosqichdan iborat?
3. O'quv mashg'uloti badiiy asar yoki teatr tomoshasi kabi qanday tarkibiy qismlarga ega?
4. Pedagogika va teatr tomoshasi (kinofilm) qanday umumiy xususiyatlarga ega?
5. Teatr tomoshasining syujetli-obrazli mazmuni qanday nomlanadi?
6. Dramaturgiya asosida qanday g'oya yotadi?
7. Dramatik asar qanday belgilarga ega?
8. Pedagogik dramaturgiya nima?
9. Rejissura nima?
10. Pedagogik rejissura nima?
11. Teatr rejissursasi mohiyatiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?
12. Mizanssena nima?
13. "Mezanssena" tushunchasi kim tomonidan iste'molga kiritilgan?
14. Pedagogik mizanssena nima?
15. Pedagogik mizanssena ko'rinishini nimalar tashkil etadi?
16. Pedagogik mizanssena qanday tarkibiy qismlarga ega?
17. Pedagogik mizanssena qanday ta'sir kuchiga ega?
18. Pedagogik mizanssenalar qanday tarbiyaviy vazifalarni bajaradi?
19. Pedagogik rejissyorlik qobiliyati nimada namoyon bo'ladi?
20. I.E.Vidtning fikricha, artistizm nima?
21. K.Yaspers pedagogik artistizmni qanday ta'riflaydi?
23. Pedagogik artistizm nima va unda qanday sifatlar aks etadi?

25. Pedagogik artistizmning tarkibiy tuzilmasida qanday ikki holatni ko'rish mumkin?

Test topshiriqlari:

1. Sub'ektlar o'rtaсидаги о'заро hamkorlik mantig'ining sun'iy yaratilishi, o'рганилагатган ob'ekt, magistrlarga axloqiy ta'sir ko'rsatishga nisbatan ijtimoiy-qadriyatli munosabatni hosil qilish malakasi, dars epizodlarining g'oyasi va hissiy ta'siri bo'yicha asosiy guruhlanishi, o'zaro muvofiqligini nazarda tutuvchi o'quv jarayoni ssenariysi qanday nomlanadi?

- a) muloqot jarayoni rejasi;
- b) muloqot jarayoni andozasi;
- c) muloqot jarayoni loyihasi (partirurasi);
- d) muloqot jarayoni sxemasi.

2. Teatr pedagogikasi g'oyalalariga ko'ra dars tuzilmasi (kompozitsiyasi)ni yaratish necha bosqichdan iborat?

- a) bir bosqichdan,
- c) uch bosqichdan;
- b) ikki bosqichdan;
- d) to'rt bosqichdan.

3. O'quv mashg'uloti badiiy asar yoki teatr tomoshasi kabi qanday tarkibiy qismlarga ega?

- a) ekspozitsiya; tugun;
- b) asosiy qism; yechim;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. Pedagogika va teatr tomoshasi (kinofilm) qanday umumiy xususiyatlarga ega?

a) har ikki jarayon ijod mahsuli; muayyan voqelik, hodisa va tizimli harakatlarning loyihasi; ijodkorlik jo'shqinlikka asoslanib, tomoshabin va magistrni ruhlantiradi. unga estetik zavq bag'ishlaydi;

b) pedagogik texnologiya va teatr dramaturgiyası, rejissurasi dastlab yozma holda yaratiladi, nazariy jihatdan tahlil qilinadi, syujet va personajlarning xatti-harakatlarini o'zaro birlikka asoslangan yaxlit ko'rinishda ifodalaydi;

c) mantiqiy izchillik, davomiylilik, dinamika va natija ta'minlanadi; shaxslararo munosabatlarni yoritib, sub'ektlar tabiatini, ruhiy kechinmalari, o'zaro fikr almashishini yoritishga xizmat qiladi; didaktik, badiiy, ijodiy xarakteri jamoaviylikka asoslanadi;

d) barcha javoblar to`g`ri.

5. Teatr tomoshasi (spektakl, film)ning syujetli-obrazli mazmuni qanday nomlanadi?

- a) dramaturgiya;
- b) rejissura;
- c) drama;
- d) to`g`ri javob yo`q.

6. Dramaturgiya asosida qanday g`oya yotadi?

- a) qahramonlarni shaxsini yorituvchi g`oya;
- b) ekspozitsiya mohiyatini yorituvchi g`oya;
- c) dramatik xarakter (og`ir baxtsizlik, kulfat, fojea, hayotiy mojar) haqidagi g`oya;
- d) tugun va yechim mohiyatini yorituvchi g`oya.

7. Dramatik asar qanday belgilarga ega?

- a) syujetga egalik; voqealar nvojini aks ettirish; harakatlarning ziddiyatga asoslanishi;
- b) personajlar munosabatlarining o`zaro suhbatga asoslanishi; personajlar fikrlarining uzliksiz ifodalanishi;
- c) harakatlarning sahna, epizodlarga bo`linishi; voqelik bayonining mavjud emasligi (yoki voqelik bayoniga bo`ysunish);
- d) barcha javoblar to`g`ri.

8. Pedagog va magistrlar o`rtasidagi hamkorlik tamoyillari (teng huquqlilik, o`zaro ishonch, manfaatlar birligi, yagona maqsadga yo`naltirilganlik, burch va majburiyatlarga sodiqlik va h.k.)ga asoslanuvchi ta`lim yoki tarbiya jarayonining syujetli-obrazli mazmuni qanday nomlanadi?

- a) pedagogik rejissura;
- b) pedagogik dramaturgiya;
- c) pedagogik mizanssena;
- d) pedagogik ssenariy.

9. Rejissura nima?

- a) teatr tomoshasi (spektakl, film)ning syujetli-obrazli mazmuni;
- b) muayyan badiiy birlik ko`rinishidagi garmonik yaxlitlikni hosil qiluvchi san`at;

- c) rejissyorning teatr tomoshasi (spektakl)ni sahnalashtirish, kinofilmni suratga olishga bo`lgan shaxsiy yondashuvi;
- d) rejissyorning teatr tomoshasi (spektakl)ni sahnalashtirishga bo`lgan shaxsiy yondashuvi;

10. Pedagogik rejissura nima?

- a) pedagogik jarayonni sezilmas holda boshqarish;
- b) pedagogik jarayonni garmonik jihatdan bir butun, yakunlangan, muayyan badiiy birlik asosida tashkil etuvchi fan va san'at;
- c) a va b javoblar to`g'ri;
- d) to`g'ri javob yo`q.

11. Teatr va kino rejissurasi mohiyatiga ko`ra qanday guruhlarga ajratiladi?

- a) birlamchi rejissura, ikkilamchi rejissura;
- b) tashqi rejissura, ichki rejissura;
- c) asosiy g`oyani ifodalovchi rejissura, yordamchi g`oyani ifodalovchi rejissura;
- d) to`g'ri javob yo`q.

12. Rejissyorning rejasiga ko`ra mo`ljallangan kartinani hosil qilib, qahramonlarning ma'lum munosabatlarini aks ettiradigan aktyorlarning spektakl vaqtida sahnadagi joylashuvi nima deb ataladi?

- a) dramaturgiya; c) dramatik yondashuv (ssenariy);
b) rejissura; d) mizanssena.

13. "Mezanssena" tushunchasi kim tomonidan iste molga kiritilgan?

- a) M.Uyg`ur tomonidan;
b) K.S.Stanislavskiy tomonidan;
c) Ye.Vaxtangov tomonidan;
d) Ye.Bobojonov tomonidan.

14. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining ular tomonidan birgalikda tashkil etayotgan faoliyat vaqtidagi joylashuvi nima deb ataladi?

- a) pedagogik dramaturgiya;
b) pedagogik rejissura;
c) pedagogik-dramatik yondashuv (ssenariy);
d) pedagogik mizanssena.

15. Pedagog uchun mo'ljallangan stol, magistrlar o'tiradigan partalar, ma'lum predmetlar bo'yicha xona devorlariga osib qo'yilgan rasmlar, didaktik vositalar, maxsus shkaf, yozuv taxtasi. Bular nimani ifodalaydi?

- a) pedagogik dramaturgiya mazmunini;
- b) pedagogik rejissura g'oyasini;
- c) pedagogik-dramatik yondashuv (ssenariy) mohiyatini;
- d) pedagogik mizanssena ko'rinishini.

16. Pedagogik mizanssena qanday tarkibiy qismlarga ega?

- a) mizanssena muhiti; mizanssena markazi; mizanssena ishtirokchilari soni;
- b) mizanssena ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalar; mizanssenada predmet mazmunining ifodalanishi;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

17. Pedagogik mizanssena qanday ta'sir kuchiga ega?

- a) ruhiy ta'sir kuchiga;
- b) ko'rsatmali-tasviriy ta'sir kuchiga;
- c) axloqiy-yo'naltiruvchi ta'sir kuchiga;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

18. Pedagogik mizanssenalar qanday tarbiyaviy vazifalarni bajaradi?

- a) har bir magistr uchun o'zini qulay his qilishiga imkon beradigan to'kis sharoitni yaratish (ruhiy ta'sir);
- b) magistrlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini hamda ular tomonidan tashkil etiladigan birgalikdagi faoliyatni qadriyatli ob'ektga yo'naltirish (ko'rsatmali-tasviriy ta'sir);
- c) magistr diqqatini boshqa yoki boshqalarga yo'naltirish (axloqiy-yo'naltiruvchi ta'sir);
- d) barcha javoblar to'g'ri.

19. Pedagogning rejissyorlik qobiliyati nimada namoyon bo'ladi?

- a) dramaturg rejasini "badiiy til"dan harakatga ko'chirishda;
- b) darsning asosiy epizodlarini g'oyaviy va hissiy kuchi ta'sirlariga ko'ra ajratish, asosiy o'zgarishlarni aniqlashda;
- c) mizanssenalarni vaqt, ko'lam bo'yicha tez-tez aylanishlarini tashkil etish, har bir sahnada ish sur'atini aniqlashda;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

20. I.E.Vidtning fikricha, artistizm nima?

- a) shaxsning hissiy, ifodaviy nutqqa egaligini anglatuvchi sifati;
- b) shaxsning yuksak mahorat, qobiliyatga egaligini anglatuvchi sifati;
- c) shaxsning amaliy ko'nikma, malakaga egaligini anglatuvchi sifati;
- d) shaxsning san'at asoslariga oid bilinga egaligini anglatuvchi sifati.

21. K.Yaspers pedagogik artistizmni qanday ta'riflaydi?

- a) pedagog va magistr o'ttasidagi muloqotning hissiy-obrazli timsoli;
- b) ta'lim va tarbiya birligini ifodalovchi hissiy-obrazli timsol;
- c) ta'limiy jarayonning hissiy-obrazli timsoli;
- d) ta'limiy jarayonning demokratik va insonparvarlik g'oyalariga egaligini ifodalovchi hissiy-obrazli timsol.

23. Dars (tarbiyaviy tadbir)ning barcha keraksiz, ortiqcha narsalardan holi, zarur ob'ektiv va sub'ektiv elementlarni joy-joyiga qo'ya bilgan holda samarali, yuqori ko'tarinkilikda tashkil etish qanday nomlanadi?

- a) pedagogik qobiliyat;
- b) pedagogik artistizm;
- c) pedagogik bilimdonlik;
- d) pedagogik kreativlik.

24. Pedagogik artistizmida qanday sifatlar aks etadi?

- a) pedagogning shaxsiga xos fazilatlar; o'quv hamda texnik usullarning mohiyati; pedagogik ijodkorlik uslubi;
- b) o'quv hamda texnik usullarning mohiyati; pedagogik ijodkorlik uslubi;
- c) pedagogning shaxsiga xos fazilatlar; pedagogik ijodkorlik uslubi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

25. Pedagogik artistizmning tarkibiy tuzilmasida qanday ikki holatni ko'rish mumkin?

- a) nutq qobiliyatiga egalik; sahna madaniyatiga egalik;
- b) ijrochilik mahoratini namoyon qilish; gavdani to g'ri haraktlantirish;
- c) ruhan artistizmga erishish; artistlik qobiliyatni jismonan namoyon qilish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

PEDAGOGIK MAHORAT – PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING MUHIM ELEMENTI

Reja:

- 1. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.**
- 2. Pedagogik texnika va uning tarkibiy elementlari.**
- 3. Pedagogik texnika metodlari.**
- 4. Nutq texnikasi.**
- 5. Pedagogik muloqot madaniyatining mohiyati.**
- 6. Pedagogik muloqot turlari va uslublari.**

Tayanch tushunchalar: pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik texnika, pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari, pedagogik texnika metodlari, nutq texnikasi, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. “Pedagogik mahorat” tushunchasi “Pedagogika” va “Pedagogik texnologiya” kabi fanlarga xos muhim kategoriya bo’lib, u kategoriya sifatida o’tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslandi. Biroz vaqt o’tgach, Sharqiy Yevropa, Qozog’iston, Kavkaz bo’yi va Markaziy Osiyo respublikalari hududlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini yuksak kasbiy mahorat bilan tashkil etish ehtiyojining mavjudligini inobatga olgan holda “Pedagogik mahorat” bir qator oliy o’quv yurtlarida o’quv fan sifatida shakllandi. Mazkur fan deyarli 20 yil davomida pedagogik va madaniy faoliyat yo’nalishlarda ta’lim ishlarini yo’lga qo’yan oliy ta’lim muassasalarida o’qitila boshlandi. XX asrning dastlabki o’n yilligidan so ng ta’lim tizimida “Pedagogik texnologiya” fanining o’qitilishi yo’lga qo’yligach, “Pedagogik mahorat” fani asoslari uning ushbu o’quv fani negiziga singdirib yuborildi. Ya’ni, endilikda bo’lajak mutaxassislar pedagogik mahorat asoslari “Pedagogik texnologiya” o’quv fani negizida tanishtirilmoqda.

Pedagogik mahoratning umumiylasoslarini yoritishda eng muhim tayanch tushuncha “mahorat” atamasi sanaladi.

Mahorat (a. “mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o’ta mohirlik bilan bajarish; biror ish, kasbiy faoliyatni samarali, yuksak darajada bajarish uchun ko’nikma, malakalarning zaruriy yoki muayyan ko’rsatchilarda orttirilishi, ustalik, mohirlikdir.

Pedagogik mahorat – 1) pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; 2) ta'limgarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Ijtimoiy fanlar qatorida o'r ganiluvchi "Pedagogik texnologiya" negizida pedagogik mahorat asoslarining o'r ganilishi bo'lajak mutaxassislarda pedagogik jarayonni samarali, metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirishga oid bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. U magistrlar tomonidan pedagogik jarayonni mustaqil, tashkiliy ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish va kasbiy-pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishga doir nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Pedagogik mahorat asoslarini yorituvchi eng muhim tayanch tushunchalar quyidagilar sanaladi: pedagogik mahorat, pedagogik texnika, nutq texnikasi va madaniyati, pedagogik muloqot madaniyati.

Pedagogik mahorat ma'lum tarkibiy qismlardan iborat. Ular (71-rasm):



71-rasm. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari

Pedagogik bilimdonlik (pedagogik kompententlik) ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Ya'ni: 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag'onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi.

Pedagog **pedagogik bilimdon** sifatida o`zida quyidagi sifatlarni aks ettiradi: ijtimoiy sub'ektlar bilan o`zaro aloqada bo`lish; magistr bilan sub'ektiv munosabat o`rnatish; pedagogik jarayonlar mohiyatini izchil idrok qilish; jahon pedagogik madaniyati asoslari. milliy pedagogik tajribani o`rganish, integratsiyalashtirish asosida faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklardan doimiy xabardor bo`lish; mutaxassislik yo`nalishi bo`yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta`lim mazmuniga tayangan holda qayta ishslash, kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalanish; magistrlarga yetkazib berish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish orqali ta`lim oluvchilarga uzatish; kasbiy fidoiylik, pedagogik texnologiyalarni egallash bilim, ko`nikina va malakalarni o`zlashtirish.

“Pedagogik kreativlik” tushunchasining mohiyatini anglash uchun dastlab “kreativlik” atamasining ma’nosini bilib olish zarur.

Kreativlik (ing. “create” – yaratish; “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi, iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

P.Torreensning fikriga ko’ra, kreativlik o`zida muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o`zgaritirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, ularning yechimlarini topish bo`yicha inuayyan bilim, harakatlarning qarama-qarshiligidagi nisbatan yuqori darajadagi ta’sirchanlikni ifodalaydi⁵⁹.

Pedagogik kreativlik – 1) pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini, pedagogik muammolarni oqilona, ustamonlik bilan hal qilinishini tavsiflovchi qobiliyati (keng ma’noda); 2) aniq belgilangan maqsadga erishish uchun mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyati (tor ma’noda).

“Refleksiya” tushunchasining mazmuni “pedagogik refleksiya” haqida to’la tasavvurga ega bo`lishni ta`minlaydi. **Refleksiya** (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): 1) kishining o’z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati⁶⁰; 2) shaxsiy kechinmalar, his-

⁵⁹ Креативность // <http://psi.webzone.ru/st/050200.htm>

⁶⁰ O’zbek tilning izohli lug’ati N – Tartibli / 5 judli Uchinchi jild – Toshkent: “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti-2007. 380-bet.

tuyg'ular, o'y-xayollar mohiyatini fikrlash orqali anglash⁶¹. Bildirilgan fikrlarga tayangan holda "Pedagogik refleksiya" tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiqidi:

Pedagogik refleksiya – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatları, qiziqishları, rag'batlantruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qlish, hissiy ta'sirlanish, xatti-harakatlari va b.ning mohiyatini anglab yetishi.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallahushi, xalq xo'jaligining turli jahbalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar bermoqda⁶². Pedagog faoliyatida ruhan yoki jismonan toliqqa magistrlarda ruhiy, jismoniy charchoqlarni bartaraf etishga ham e'tibor qaratish talab qilinadi. Mazkur talab salbiy ruhiy omillar ta'siri kuchaygan, katta hajmdagi axborotlar bilan to'qnashish ro'y berayotgan mavjud sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim oluvchilarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat "**relaksopediya**" (lot "relaxation" – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holda toyish; holdan toyishni bartaraf etish pedagogikasi) deb nomланади. So`nggi yillar jahon ta'limi amaliyotida ushbu pedagogika imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Pedagogik relaksatsiya (lot. "relaxation" – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holda toyish; holdan toyishni bartaraf etish) – magistrlarnng hissiy faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini hamda ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash.

Murakkab vaziyatlarda, m: imkoniyati cheklangan bolalar, fanlarni o'zlashtira olmaydigan yoki tarbiyasi og'ir magistrlar bilan ishlashda relaksopediyaning pedagogik-psixologik imkoniyatlaridan o'rini, maqsadli va samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Relaksatsiya sharoitida bugungi kunda keng ommalashgan trening va avtotreninglar ijobjiy muhitning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Ulardan foydalanish vaqtida magistrlar tashqi va ichki ta'sirlardan himoyalangan bo'lib, ularga faqatgina pedagogning ishontiruvchi ovozgina eshitiladi. Bu esa pedagogning ta'siri va uning samarasini yanada oshiradi. Relaksatsiya jarayonida magistrlar pedagogning qo'llab-quvvatlashlarini his etishlari, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lishlari, hamdarligini his

⁶¹ "Большая психологическая энциклопедия" Москва "Эксмо" - 2007 – С 394

⁶² "Oile psix ogyysi" / Mualliflar G. B Shoumarov va b Prof G. B Shoumarov tahrin ostida Toshkent "Sharq NMAK- 2008. 60-bet

qilishlari lozim. Shundagina magistrlardagi ruhiy zo`riqish, jismoniy toliqishlarni bartaraf etish uchun psixologik muhit yuzaga keladi.

Mushaklar relaksatsiyasi (ya`ni mushaklarni bo`shashtirish) davrida o`z-o`zini ishontirish va axborotga ta`sirchanlik yuqori bo`ladi. Shuning uchun ham o`z-o`zini ishontirishga yo`naltirilgan trening va avto-treninglarni uqlash va uyqudan turishdan oldin qo`llash samarali hisoblanadi. Mushaklar relaksatsiyasi (mushaklarni bo`shashtirish)ning samarali kechishi uchun pedagog mushaklarni bo`shashtirishga yordam beradigan metod va vositalardan xabardor bo`lishi darkor. Pedagoglar magistrlarning ruhiy zo`riqish va jismoniy toliqishlarini bartaraf etish maqsadida relaksatsiya asoslarini nazariy jihatdan o`zlashtrib qolmay, ulardan amaliy jihatdan foydalanishlari zarur.

“Pedagogik madaniyat” tushunchasining mohiyatidan xabardor bo`lish uchun dastlab “madaniyat” atamasining ma’nosini o`rganish maqsadga muvofiqdir.

Madaniyat – insoniyat tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalar, ishlab chiqarishda qo`lga kiritilgan yutuqlar majmui.

Pedagogik madaniyat – pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o`zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi.

Pedagogik madaniyat negiziida quyidagi sifatlar⁶³ aks etadi (72-73-rasmlar).

Quyida pedagogik madaniyat tarkibiy elementlarining mohiyati to`g’risida so`z yuritiladi.

Pedagogik loyihalash madaniyati. U pedagog tomonidan o`zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istiklarni o`zaro uyg`unlashtira olgan holda maqsad hamda vazifalarni to`g’ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo`yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi egalikni tavsiflaydi. Loyihalash madaniyati, shuningdek, faoliyatga ijodiy yondashishni, yangiliklarni yaratishni, qat’iy belgilangan me’yor va talablar doirasidagina emas, balki erkin ijod qilish qobiliyatiga ham egalikni bildiradi.

Kasbiy bilimlarni puxta o`zlashtirish madaniyati. Bugungi kunda insoniyat ulkan hajmga ega pedagogik bilimlarga ega. Mazkur madaniyat zamonaviy pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o`zlashtirish yo`lida amaliy harakatlarning tashkil etilishini anglatadi.

⁶³ 1 педагогическая культура // http://ruslovarei.com/content_eco/pedagogicheskaja-kultura-32491.html.

Muhim sifatlar (1)

Pedagogning umumiy madaniyatni, u tomonidan e zozlanadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ijodiy pedagogik faoliyati

Pedagog shaxsining tavsiti; pedagogik qadriyatlar, pedagogning faoliyati, kasbiy hulq-atvorini o'z ichiga oluvchi dinamik tizim; pedagogik pozitsiya va shaxsniy sifatlar; kasbiy bilumlar va pedagogik tafakkur madaniyatni, kasbiy malaka va pedagogik faoliyatning ijodiy xususiyati; shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va pedagogning kasbiy xatti-harakatlari madaniyatni

72-rasm. Pedagogning pedagogik madaniyatida aks etuvchi sifatlar

Muhim sifatlar (2)

Magistrning qiziqishlari va ehtiyojlarini tushuna olish, ularga hamdardlik bildirish qobiliyati

Ta'lim va tarbiya jarayonini shaxsan boyita olish ko'nikmasi

Magistr shaxsida ijobiy "men"lik (o'zlik)ni rivojlanturish uchun ijobiy rag'bat bildurish, yo'naltura olish

O'z-o'zini va magistrlarni boshqara bilish

Magistrlar bilan rasmiy va norasmiy muloqotni tashkil etishning turli usulublarini o'zlashtira olganlik

Hissiy barqarorlik, o'z-o'zini tuta bilish, o'z-o'ziga ishonch, hayotsevarlik

Turli diniy g'ovalar va an'analarga e'tiqod qiluvchi magistrlarga hurmal bilan munosabatda bo'lish


Pedagogik refleksiya qobiliyatiga egalik

Hech qanday majburlovlarsiz pedagogik ziddiyatlarni boshqarish

Yaratuvchilik (ijod korlik)

73-rasm. Pedagogning pedagogik madaniyatida aks etuvchi sifatlar

Pedagogik madaniyat muayyan tarkibiy elementlarga ega. Ular (74-rasm):



74-rasm. Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari

Pedagogik dunyoqarash. Dunyoqarashga egalik barcha soha mutaxassislarida bo'lgani kabi pedagog hayoti, faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sifat pedagogning o'zi va ta'lif oluvchilar o'rtasida tashkil etiladigan o'zaro munosabatlар mazmuni, natijalarini belgilovchi dialektik qarash va e'tiqodlar tizimiga egaligini ifodalaydi.

Fikrlash madaniyati. Pedagogning mavjud pedagogik vaziyatlarni inobatga ola bilishi, ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini ifodalaydi. Pedagogik jarayonda pedagogning fikrlash madaniyatiga egaligi uni to'g'ri, oqilona tashkil etishda odatiy hamda maxsus vositalarda unumli foydalana olishida ko'zga tashlanadi.

His etish madaniyati. Mazkur madaniyat pedagogning ta'lif jarayoni ishtirokchilarining ichki kechinma, his-tuyg'u, o'y-fikrini tushunishi asosida bilan samarali muloqotni tashkil etishini anglatadi.

Baholash madaniyati. Pedagog u yoki bu pedagogik voqelik, hodisa, jarayonlar bo'yicha ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri xulosa chiqarish, oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga egalikni namoyon eta olishi zarur. U tomonidan chiqarilayotgan xulosa va qabul qilinayotgan qarorlar mohiyatan axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mahoratli pedagog, ayniqsa, magistrlar faoliyatini baholashda xushyor, ehtiyyotkor bo'lishi lozim. Zero, noto g'ri qo'yilgan baho magistr shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Shu sababli magistrlar faoliyatini baholashda V.A.Suxomlinskiyning pedagogik tajribasiga tayanib ish ko'rish to'g'ridir: 1. Magistriga amaliy yondashish ("Talaba bo'lgandan


keyin o'qib kelish kerak-da" tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo'lish ("Magistrlarim, eng avvalo, shaxs, so'ngra esa magistr. Men unga qo'yadigan baho uning bilimlari o'chovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir" tarzida yondashish). 2. Har bir baho magistrni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; u magistrning mehnatini rag'batlantirishi, biroq, dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo'lmasligi zarur.

Muloqot madaniyati. Ta'lim va tarbiya jarayoni uning ishtirokchilari o'rtaсидаги faol muloqotga asoslangandir. muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalikni ifodalaydi. Muloqot jarayonining to'g'ri, samarali tashkil etilishi ko'zlangan pedagogik maqsadga erishish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tashkilotchilik qobiliyati. Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, u pedagog tomonidan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini bildiradi.

Pedagog faoliyatida pedagogik qobiliyatga egalik ham muhim ahamiyatga ega. Xo'sh, pedagogik qobiliyatning o'zi nima? Bu o'rinda avval "qobiliyat" tushunchasining mazmuni bilan tanishib olish maqsadga muvofiq.

Qobiliyat – shaxsnинг osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat⁶⁴. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa, hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir⁶⁵.



75-rasm. Qobiliyat turlari

⁶⁴ "Psixologiya" Qisqacha izohli lug'at /Tuzuvchilar: M G Davletshin va b. Mas ul muharrir: M G Davletshin T : "Nizom.v nomidagi TDPU"-1998 18-bet

⁶⁵ Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M N Aminov Mas ul muharrir A Majidov Toshkent: "O zbekiston milliy ensiklopediyasi" – 2010, 513-bet

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar.

Pedagogning pedagogik qobiliyatida quyidagilar ustuvor xususiyat sanaladi:

- pedagogik takt (pedagogning magistrlar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, xulq-atvor qoidalarga rivoja qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi);
- pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning magistrlarga xos bo'lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);
- bolalarga bo'lgan muhabbat (magistrlarga mehr qo'ya olish, ularga mehribonlik ko'rsatish, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, hayotiy intilishlari bilan o'rtoqlashish, ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda g'amxo'rlik qilish);
- bilimlarni uzatishga bo'lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o'zidagi mavjud bilimlarni magistrlarga berishga intilish).

Zamonaviy sharoitda har bir pedagog o'zida quyidagi pedagogik qobiliyatlarni tarbiyalay olishi kerak:

- pedagogik kuzatuvchanlik;
- pedagogik xayol (fantaziya);
- xarakter sifatlarining tarbiyalanishiga bo'lgan talabchanlik;
- pedagogik takt;
- tashkilotchilik qobiliyatları;
- nutq madaniyatiga egalik;
- muloqotga kirishuvchanlik;
- hissiy sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard, ichki sezgiga ega bo'lish);
 - harakatchanlik, ta'lif jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta'sir ko'rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik;
 - hissiy barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, boshqarish va nazorat qilish);
 - kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;
 - kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

Pedagogik qobiliyat turları turlicha belgilanadi. M: (76-77-rasmlar):



76-rasm. Pedagogik qobiliyat turlari (V.A.Kruteskiy)

Asosiy turlari

Magistrni
tushuna
olish
qobiliyati

Yosh, psixologik jihatdan
barcha magistrlar
o'zlashtira oladigan
materiallarni taqdim etish
qobiliyati

Magistrlarning qiziqishlarini
rivojlantirish qobiliyati

Tashkilotchilik
qobiliyati

Pedagogik
takt

O'z ishining natijalarini
ko'ra olish va b

77-rasm. Pedagogik qobiliyat asosiy turlari (F.N.Gonobolin)

Pedagoglar quyidagi sharoitlarda pedagogik qobiliyatni namoyon qiladi:

- darsga tayyorgarlik ko'rish jarayoni;
- dars loyihasini ishlab chiqish jarayoni;
- ta'lim jarayoni;
- magistrlarning faoliyatlarini nazorat qilish jarayoni;
- magistrlar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarini baholash jarayoni;
- darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari jarayonda;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'tkazish jarayoni;
- axborot soatlarini tashkil etish jarayoni;
- har bir magistriga va guruhi jamoasiga yondashuv jarayoni;
- ota-onalar bilan muloqotda bo'lish jarayoni;
- hamkasblar bilan muloqotda bo'lish jarayoni;
- ta'lim muassasasining rahbariyati bilan muloqotda bo'lish jarayoni;
- shaxsiy faoliyatni tahlil qilish jarayoni;
- o'z ustida ishslash jarayoni va b.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning empatiya va perseptiv qobiliyatlarga egaligi ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik hamdardlik (empatiya) – pedagog tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilari: magistrlar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me'yorda tashkil etilishini ta'minlash. Bunda pedagog magistr shaxsi, uning istaklarini tushunish va shu orqali magistrlarga samarali ta'sir etish zarurligini anglaydi.


Perseptiv-pedagogik qobiliyat – shaxsning ichki dunyo siiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, magistrning psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati. Uni shakllantirishda pedagogning his-tuyg'uga hissiyotga boyligi, ta'sirchanligi, tolerantligi asosiy o'rinn tutadi.

Perseptiv-pedagogik qobiliyatning turlari 78-rasmda ko'rsatilgan.

Perseptiv-pedagogik qobiliyat o'zida quyidagi **uch turdag'i sezgirlikni** qamrab oladi (79-rasm).

Perseptiv-pedagogik qobiliyatlarining mavjud darajasi pedagogik intuitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Intuitsiya – mantiqiy bog'lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar yetarli bo'limganda qidiruv yo'nalishlari asosida masalaning yechimini topish yo'lida evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayon(i)dir.



78-rasm. Perseptiv-pedagogik qobiliyatning asosiy turlari



79-rasm. Perseptiv-pedagogik qobiliyatga xos sezgirlik turlari

Intuitsiya uchun xos bo'lgan belgililar quyidagilardir:

- tezkorlik, ba'zan lahzada shaklladigan faraz va masalaning yechimi;
- faraz va masala yechimining yetarli darajada mantiqiy asoslanmasligi;
- "ijobiy" intuitsiya qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi;
- "salbiy" intuitsiya esa qaror qabul qilingandan keyin namoyon bo'ladi.

Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglish qobiliyatlariga ega bo'lish pedagog tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Didaktik qobiliyat – pedagogga xos ta'lim jarayonini hech bir qiyinchiliksiz, osonlik bilan tashkil etilishini ta'minlovchi individual psixologik xususiyat.

Pedagogning didaktik qobiliyatga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv materialini maqsadga muvofiq tanlay bilish;

- ta'lim maqsadini aniq belgilay olish;
- ta'limiy vazifalarni oqilona belgilash;
- o`quv materiallarini aniq, oson tushuntirish;
- magistrlarda fanlarga qiziqishni uyg'ota olish;
- magistrlarda o`quv faolligini kuchaytira bilish;
- magistrlarda mustaqil fikrlesh ko`nikmalarini shakllantira olish.

Tashkilotchilik qobiliyati – pedagoglarga xos ta`lim va tarbiya jarayonini pedagogik talablarga muvofiq tashkil eta olish, magistrlar jamoasini samarali boshqarishni ta'minlovchi individual psixologik xususiyat.

Pedagogning tashkilotchilik qobiliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- pedagog faoliyatini to`g'ri tashkillashtirish;
- magistrlar jamoasini samarali boshqarish;
- jamoani mustahkam jipslashtira olish;
- magistrlarning o`quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish;
- magistrlarda ilmiy bilimlarni o`zlashtirish ko`nikma, malakalarini shakllantira bilish;
- darsda vaqtini to`g'ri, oqilona taqsimlash, rejani samarali bajarish;
- magistrlar bilan individual ishlarni izchil tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni izchil olib borish;
- magistrlarni ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioxha etishga odatlantirish;
- magistrlarga ularning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda o`quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- magistrlarning diqqatini muvaffaqiyatli boshqarish;
- magistrlar o`rtasida qizg'in bahs-munozarani tashkillashtirish va uni samarali boshqarish;
- darslarda o`yin texnologiyalaridan foydalanish va unda barcha magistrlarning birdek faol ishtiroy etishlariga erishish;
- magistrlarning o`quv faolliklarini samarali oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;
- magistrlar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro`yxatini ishlab chiqish.

Konstruktiv qobiliyat – pedagogga xos o`quv mashg'ulotlari yoki tarbiyaviy tadbirlarni metodik jihatdan to`g'ri tashkillashtirish, yakuniy natijalarni qo`lga kiritishga imkon beruvchi samarali yo'l va vositalarni topishga imkon beradigan individual psixologik xususiyat.

Pedagogning konstruktiv qobiliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdag'i materialni shakllantirish;
- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
- o'ziga xos, orginal o'quv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- o'quv mashg'uloti (dars), tarbiyaviy tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun magistrlarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;
- dars konspektini tayyorlash;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

Kommunikativ qobiliyat – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, suhbatdosh tomonidan samimiy qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatiga egalikni ifodalovchi psixologik xususiyat.

Pedagogning konstruktiv qobiliyatini quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- magistrlar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl metoddalaridan foydalanish;
- pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;
- magistrlarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yo'll, vositalarini topish;
- topshiriqlar yuzasidan magistrning javobi, shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- pedagogik jaravonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- jamoa va turli bosqichdagi magistrlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;
- jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;
- magistrlarning faoliyatlarini rag'batlantirish;

- magistr javobidagi xato, hulqidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;

- magistrlar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish.

Bilish qobiliyati – pedagogga xos ta'lim ishtirokchilari – magistrlar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

Pedagogning bilish qobiliyatiga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- magistrlarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

- zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;

- ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarini asosli ravishda tanlay olish;

- o'quv dasturlari talablariga muvofiq magistrlar tomonidan materiallarni o'zlashtirish natijalarini, magistrlarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

- magistrlarning bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;

- darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- magistrlar, ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

- magistrlarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish;

- didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

- ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;

- o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Anglash qobiliyati – pedagogga xos ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatları, magistrlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mazmuni,

pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda kutiladigan natijalarni anglashga imkon beradigan individual psixologik xususiyat.

Pedagogning anglash qobiliyati quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- ta`lim va tarbiya jarayonining mohiyatini tushunish;
- ularning o`ziga xos jihatlaridan xabardor bo`lish;
- faoliyatda ta`lim-tarbiya jarayonlari qonuniyatlariga tayanib ish ko`rish;
- har bir magistrni shaxs sifatida tushuna olish;
- magistrlarning yosh, psixologik, shaxsiy xususiyatlarini ko`ra bilish va oqilonqa baholay olish;
- magistrlar bilan munosabat va muloqotni tashkil etish shartlaridan xabardor bo`lish;
- ta`lim ishtirokchilari o`rtasidagi nizolarni mohiyatiga ko`ra baholash;
- ijobjiy nizolarni rivojlantira bilish;
- salbiy nizolarni o`z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish yo`llaridan xabardor bo`lish;
- rag`batlantirish, jazolashning magistrlarga ta'sirini munosib baholash;
- magistr faoliyatini xolis baholashning ijobjiy ta'sirini bashoratlay olish;
- pedagogik faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini to g`ri baholash;
- o`z faoliyatidan qoniqish uchun asoslarni topa bilish.

Pedagogik amaliyot pedagoglarning ayrim noyob qobiliyatlarga ham ega bo`lishlarini ko`rsatadi.

Noyob qobiliyatlar – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo`lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko`p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi.

Mahoratlari pedagoglarda quyidagi noyob qibiliyatlar ko`zga tashlanadi:

- bir vaqting o`zida bir necha faoliyatni bajara olish (m: eshitish, ko`rish, o`qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqeiyatni birdek qabul qilish (m: bir magistrning ma'rurasini eshitgani holda, sinfdagi boshqa magistrlarning faoliyatlarini kuzata olish);
- o`ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqeahodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo`lsa-da)

mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);

- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraft etiladi;

- uyquchan emaslik;

- nutq va fantaziyaning boyligi (qobiliyatli pedagoglarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, shuningdek, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

- kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan, dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligicha yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilalar alohida o'rinn tutadi⁶⁶.

Pedagoglar kasbiy faoliyat jarayonida o'zlarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirib borishga e'tibor qaratishlari lozim.

Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish – mutaxassis sifatida faqat pedagog (pedagog) largagina xos bo'lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish. Bunda quyidagi yo'l, shakl va metodlardan foydalanish samarali sanaladi (80-82-rasmlar). Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta'lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi.

Pedagogik odob – pedagog tomonidan o'z oldiga, kasbiga, jamiyatga, talabalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtiroychilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimidir.

Pedagogik odobga nisbatan muayyan talablar qo'yiladi. Mazkur talablar pedagog tomonidan tashkil etiladigan pedagogik mehnat, faoliyat jarayonini boshqaruvchi muhim omil hisoblanadi. Pedagogik odob talablarining tizimi pedagog tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va magistr oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik axloq va pedagogik jarayonda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarning mohiyatini yoritishda ham pedagogik odob yetakchi o'rinn tutadi. Pedagog faoliyatida ham barcha umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlar yetakchi o'rinn tutadi.


⁶⁶ Xudoybergenova O. "Iqtidorli bolalarni o'qitishga intisoslashgan maktablar faoliyati samaradorligini oshirishning pedagogik asosları" Ped fanl.nomz. diss – Toshkent 2006, 20-21-bellar.

Asosiy yo'llar




80-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo'llari

Rivojlantirish shakllari




81-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish shakllari

Rivojlantirish metodlari



82-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish metodlari

Pedagogik odobnning asosiy shakllari quyidagilar sanaladi (83-rasm):



83-rasm. Pedagogik odobnning asosiy shakllari

Ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, rahmdillik va shafqatsizlik, ko'ngli oqlik va ko'ngli qoralik, vatanparvarlik va vatanfurushlik, tinchlik va urush kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar insonlar hayoti, turmush tarzi va xatti-harakatlarida o'ziga xos o'lchov bo'lib xizmat qiladi. Pedagog ham o'z faoliyatida ana shu ijobjiy axloqiy mezonlarga tayanishi, salbiy axloqiy mezonlarning ta'llim-tarbiya jarayonida aks etmasligini ta'minlashi kerak.

Kasbiy-pedagogik burch – mutaxassis sifatida pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo'lgan vazifa.

Pedagog ham o'z faoliyatida ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, rahmdillik va shafqatsizlik, ko'ngli oqlik va ko'ngli qoralik, vatanparvarlik va vatanfurushlik, tinchlik va urush kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ulug'lay olishi, ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi lozim. Shuningdek, har bir pedagog kasbiy-pedagogik burchini to'la anglay olishi, uni ado etish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishi zarur. Pedagog tomonidan jamiyat, uning a'zolari, pedagogik va magistrlar jamoasi oldida qanday vazifalarni bajarishi zarurligini, kasbiy-pedagogik burchni bajarishda qanday tamoyillarga tayanishni aniq belgilab olinishi ham shaxs, ham mutaxassis va fuqaro sifatida o'z mavqeini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratadi. Agarda u o'z kasbiy faoliyatini mavjud axloqiy tamoyillarga muvofiq tashkil eta olsa, u holda o'z-o'ziga bo'lgan hurmati ortadi, o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa pedagogi yangidan yangi yutuqlarni qo'lga kiritishga rag'batlantiradi. Agarda bordi-yu, pedagog kasbiy-pedagogik burchini anglasa-da, biroq, uni mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil eta olmasa, u holda eng avvalo, o'ziga bo'lgan hurmatni yo'qotadi, o zini shaxs sifatida yuqori baholay olmaydi.

Pedagogik faoliyatda pedagogning adolat⁶⁷ asosida ish ko'rsishi muhimdir.

Adolat – muayyan voqeа-hodisa, jarayon, shaxs xatti-harakatlарини улarning tub mohiyatiga ko'ra haqqониy baholash. U tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning axloqiy jihatи insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsiга tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga rioya qilishlikni bildiradi.

Qolaversa, adolat insoniy qadr-qimmat bilan uning jamiyat tomonidan tan olingenligi, mavjud axloqiy qoida va majburiyatlar o'rtaсидаги о'заро mutanosiblikni tavsiflashga xizmat qiladi.

Pedagogik majburiyat – jamiyat tomonidan pedagog shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalar majmuasi.

Pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur:

- muayyan mehnat, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish,
- magistrlar, ota-onalar, hamkasblar bilan munosabatni to'g'ri tashkil etish;
- tanlagan kasbiga, magistrlar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash.

Pedagogik majburiyatlar sirasida, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, magistrlar va ularning ota-onalari bilan o'zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o'rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobjiy hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabilarni ham ko'rsatish zurur. Pedagogning pedagogik obro'ga ega bo'lishi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyat samaradorligini kafolatlaydi.

Pedagogik obro' – pedagogning magistrlar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi.

Pedagog o'zi tomonidan qozongan obro'ga tayanib, magistr (magistr, tarbiyalanuvchi)larning hulq-atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi. Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. Pedagog ega bo'lgan obro' darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o'z ishiga bo'lgan

⁶⁷ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi A – Beshaliq / 1-tom – Toshkent "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti -2000.134-bet.

munosabati va b. belgilaydi. Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o`ziga xos o`rin tutadi va pedagog faoliyatiga g`oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo`ladi. SHunga ko`ra pedagogik takt o`z mohiyatiga ko`ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir.

Pedagogning pedagogik odobi negizida pedagogik takt (nazokat) alohida o`rin egallaydi. Pedagogik taxt mohiyatini anglash uchun, eng avvalo, "takt" tushunchasining ma`nosidan xabardor bo`lish to`g`ridir.

Takt (dahldorlik) – o`zida barcha ob`ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub`ektiv qabul qilinishini avvaldan ko`ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo`llarini izlashning namoyon bo`lishini ifodalovchi axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat.

Pedagogik takt (nazokat) – pedagogning magistrlar bilan turli faoliyat shakllari bo`yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to`g`ri yondashish malakalariga egaligi.

Pedagogga xos bo`lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari⁶⁸ sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- 1) talabaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lish;
- 2) yuksak talabchanlik;
- 3) talabani, suhbатdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan sayg`urish malakasi;
- 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og`ir vazminlik;
- 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so`zlay olish;
- 6) qat`iyatlilik (ammo, aslo qaysarlik emas);
- 7) talabalarga nisbatan e`tiborli va xushyor bo`lish.

Magistrlarga pedagogik mahorat asoslariga doir bilimlarni berishda ularda pedagogik taktning quyidagi elementlarini tarbiyalashga jiddiy e`tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- magistr shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
- barcha faoliyat turlari bo`yicha magistrlarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariiga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
- magistrlarning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo`lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo`yish;
- magistrlarga ishonish va ularning ishlarini tizimli nazorat qilib borish;
- magistrlar bilan muloqotni tashkil etishda o`zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo`shib olib borish.

⁶⁸ Педагогический тант // http://inip.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html

Pedagogik taktga xos bo`lgan muhim xususiyat pedagogning nafaqat xushmuomala bo`lishi, magistrni seva olishi, hurmat qilishigina emas, uning ko`ngliga to`g`ri yo`l topa olishi hamdir. Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishida, vazminligida, o`zini tuta bilihida namoyon bo`ladi. SHuningdek, u magistriga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi Magistriga ishonchszilik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo`pollik, kesatiq va koyishlar, magistrlarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchszilik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning magistr javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordiyu, magistr xatoga yo`l qo`yadigan bo`lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to`g`rilashda, magistr faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo`yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo`ladi. Bu jarayonda javob berayotgan magistriga jilmayish, turli imo-ishoralar, qo`l harakatlari bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari orqali uning javoblarini ma`qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.


Pedagogik texnika va uning tarkibiy elementlari. Pedagogik mahoratning muhim belgilaridan biri bo`lgan pedagogik texnika o`z navbatida pedagogning yuqori texnik malakalarga egaligini ham anglatadi.

Pedagogik texnika – pedagogik faoliyatda orttirilgan tajriba, pedagog tomonidan o`zlashtirilgan alohida magistr, talabalar jamoalariga pedagogik ta'sir ko`rsatish metodlarini amalda samarali qo`llay olish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar majmui.

Unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo`yicha maxsus bilimlarga ega bo`lishni talab qiladi. Pedagog pedagogik texnikani o`zlashtirishda magistr hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko`ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiiga ega bo`lishi muhim.

“Pedagogik texnika” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi: 1) pedagog tomonidan o`zining va magistrlar diqqatini maqsadli boshqarish; 2) pedagogik faoliyatda jarayonni, magistrlar harakatining sur`atini his qilish.

Pedagogik texnika bir qator tarkibiy elementlarga ega (84-rasm):



84-rasm. Pedagogik texnikaning asosiy turlari

Pedagogning pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o'zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to'g'ri tuta bilishi, yig'inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, magistrlarga nisbatan e'tiborida yaqqol aks etadi.

Pedagogik jarayonda pedagog yuzini o'rinsiz, qo'pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo'l qo'ymasligi, imo-ishoralarning sun'iy bo'lishidan saqlanishi, ma'nosiz bo'lishiga yo'l qo'ymasligi zarur. Zero, bularning barchasi pedagogning magistr oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh pedagoglar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, magistr, magistrlarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog'oz solingan yig majildlarni qaerga, qanday qo'yishi, xona bo'ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, magistr, magistrlar bilan muloqotda o'zini qanday tutishi va b. katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur.

Vazmin, xushmuomala, o'ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq magistrlar mehrini qozona oladi. Buning uchun pedagog, eng avvalo, o'z hissiy holatlarini, tuyg'ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning magistrlar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u magistrlar, ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta'lim muassasasi va yuqori boshqaruvin organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa aksariyat holatlarda jismoniy toliqishni, ruhiy zo'riqishni, o'z-o'ziga nisbatan ishonchszilikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada pedagogning nutqi qat'iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko'zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo'llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarining kelib chiqmasligi uchun pedagog o'zini dars boshlanishidan avval ta'lim

jarayoniga ruhan tayyorlashi, mazkur jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan turli salbiy holatlarga o'zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi. imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

Pedagog ta'lif va tarbiya jarayonlariga ruhan tayyorlanishi zarur. Bunda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonish;
- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;
- o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to`g'rilash, nutqning ravon, niq bo'lishiga e'tibor qaratish va to`g'ri nafas olishni o'zlashtirish);
- aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat qilib yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o'qish, yaqinlar, do'stlar bilan hazil-mutoybaga qilish);
- pedagogik jarayonning samarali kechishiga o'zini o'zi ishontirish;
- kasbiy faoliyatni ishtiyoyq, ko'tarinki kayfiyatda tashkil etishga intilish;
- turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, talabalar va ta'lif jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaslik;
- salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening va avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o'zlashtirish.

Kasbiy faoliyatda pedagogning ruhiy barqarorlikka erishishi ham muhimdir. Pedagogikada pedagogning ruhiy barqarorlikka erishishi masalasi ham o'r ganilgan. Jumladan, V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishish shartlarini quyidagicha belgilaydi: qosh-qovoqni uyub yurmaslik; boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik; hazil-mutoybaga moyil bo'lish; xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

Pantomimika – pedagogning u tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatish, ma'lum qiyofa orqali namoyon ettirilishini ta'minlovchi gavda, qo'l va oyoqlar harakati

Pedagogning to'g'ri tutilgan, chirolyi qaddi-qomati uning shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, bu holat uning o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi yuqoriligi, shaxs sifatida o'zini qadrlay olishi, o'ziga o'zi yuqori baho berishini ham ifodalaydi. Boshning quyi egilganligi, qo'llarning osilib turishi pedagogning ichki zaifligi, o'ziga bo'lgan ishonchsizligidan dalolat beradi. Shu sababli uzluksiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarida magistrlarga gavdani to g'ri

tutishni, erkin harakatlanishni, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilihni, yig'inchoqlikni o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Oliy o quv yurtlarining magistrlarida ushbu sifatlarni hosil qilish esa ularni kasbiy faoliyatga ruhiy tayvorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Magistrlarga, eng avvalo, gavdani to g'ri tutib turish o'rgatiladi. Bunda oyoqlar yelka kengligida (ikki oyoq oralig'i 12-15 smni tashkil etishi lozim), o'ng oyoqning bir oz oldinda turishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shundagina tana og'irligi har ikki oyoqqa birdek tushishi bilan birga uzoq vaqt (deyarli 30-35, oliv ta'lim muassasalarida esa 60-70 daqiqa) toliqmay turishni ta'minlaydi. Pedagogning harakatlari imkon qadar oddiy va erkin bo'lishi lozim. O'zini o zi majburlab, ayrim kamchiliklarni yo'qotish maqsadida sun'iy, zo rma-zo'raki harakatlarni sodir etishning hojati yo'q. Harakatlar qanchalik samimiyligi va imkon qadar oddiy bo'lsa, magistrlarda pedagogga bo'lgan ishonch, hurmatni shunchalik oshiradi. Gavdani oldinga-orqaga tebratimaslik, hadeb tana og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazmaslik, stul suyanchig'iga yoki kafedra (oliv ta'lim muassasalarida ma'ruza o'qish uchun ajratilgan jihoz)ga butunlay suyanib olmaslik, boshni yoki quloqni qashlamaslik, burunni artmaslik, ko'zni ishqalamaslik, qo'lda biror buyumni aylantirmaslik magistriga qanchalik zavq bersa, unda pedagogga nisbatan xayrixohlikni uygotsa, ularning aksini sodir etish magistrning g'ashini keltiradi. Dars jarayonida pedagog, shuningdek, gavdasi harakatining bosiq, ortiqcha harakatlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratishi, ortiqcha silkinish, keskin harakatlarni sodir etishdan o'zini tuta olishi zarur.

Mimika – yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his tuyg'ulari, kayfiyatini mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash

Jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda, qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi

Insoniyat qadim-qadiindan o'zaro munosabat va imuloqtlarni tashkil etishda turli jestlardan o'rinci foydalamiib kelgan. Zero, jestlar insonning hissiyotlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega. M: o'ng qo'l chap ko krak ustiga kaft ochiq holda qo'yilsa, bu holat "Sizga hurmatim cheksiz", o'ng qo'lning kaftlari ochiq holda ko'rsatilsa, "Jim bo'ling!", "Bas qiling!", qo'l musht qilib tugilsa, "Qoyil qildim!" yoki "Qoyil qilaman!" kabi ma'nolarni anglatadi.

Juda qadimdan inson yuz ifodasi va qarashi atrofda qilgilariga so'zdan ko'ra kuchli ta'sir qilishi aniqlangan. Shu sababli qadimgi Rim va

Yunonistonda notiqlarning nafaqat so'zdan, shu bilan birga mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olishlariga e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda ham rivojlangan mamlakatlarda siyosatchilarning yuqorida qayd etilgan harakatlar bo'yicha malakalarni o'zlashtira olishlariga erishish zarur.


Pedagog tomonidan mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olish malakalarini samarali o'zlashtira olishi uning mehnatini qisman yengillashtirish bilan birga, magistrarga ta'sir ko'rsatishida muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lg'a kiritishiga imkoniyat yaratadi. Mimika, pantomimika va jestlar uzatilayotgan axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtarloq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'zlar ham yuz ifodasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'zlar yordamida turli ma'nolarni ifodalash malakalarini o'zlashtira olish ham mahoratlri pedagog bo'lish uchun nihoyatda zarur. Odatta, magistrlar pedagogning kayfiyati, ruhiy holati va atrofdagilarga munosabatining qanday yo'nalishiga ega bo'lishini uning yuzidan, xatti-harakatlari, jestlari, o'zini tuta bilishidan bilib oladilar. Shu bois agarda pedagogning kayfiyati yomon bo'lsa, uni qandaydir muammolar bezovta qilsa, oldida turgan pedagogik muammolar o'ylantirsa, u bu holatlarni yashirish, oshkor qilmaslikni uddasidan chiqishi darkor. Bu kabi salbiy holatlarni ochiq havoda piyoda sayr qilish, tabiat qo'ynida, ayniqla, suv havzalarining bo'yalarida dam olish, qiziqarli kitoblarni o'qish orqali mavjud ruhiy zo'riqishlarni bartaraf qilish mumkin. Yuz ifodasi va harakatlar faqatgina ta'lim maqsadiga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilishi kerak. Pedagog yuz muskullarini va ko'zlarini tez-tez harakatlantirishdan, ularning birday qotib qolishidan ehtiyyot bo'lishi kerak. Pedagog nigohi magistrarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish aloqasini vujudga keltirira olishi zarur. Devor, deraza va shiftga qarab turishdan saqlanishi, aksincha, barcha magistrlarni diqqat markazida ushlab turish muhim.

Pedagog tomonidan pedagogik texnikani o'zlashtirishda muayyan metod⁶⁹ va vositalardan foydalilanadi.

Pedagogik texnika metodlari – pedagog tomonidan magistrlarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga o'zining subektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularni ma noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar

Pedagogik texnika metodlari ikki asosiy guruhga bo'linadi. Ular (85-rasm)

⁶⁹ Педагогическая техника // <http://psylist.net/lper/ped037.htm>



85-rasm. Pedagogik texnika metodlarining guruhlari

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda pedagog mehnatini ma'lum texnik vositalar osonlashtiradi.

Pedagogik texnika vositalari – pedagog tomonidan magistrlarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularning ma'noli ifodalananishini ta'minlovchi vositalar.

Pedagogik texnika vositalari nutq va og'zaki bo'limgan muloqot sanaladi.

Pedagogik amaliyotda yosh pedagoglarning pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

- 1) magistr yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
- 2) g'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rniда ishlata olmaslik;
- 3) o'zida ishonchsizlikni yenga olmasligi;
- 4) nutqni ravon bayon eta olmaslik;
- 5) ortiqcha qattiqqo'llik;
- 6) xushmuomala bo'lishdan qo'rqish;
- 7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda);
- 8) ortiqcha harakat, bir joyda turib qolish, qo'llarini qaerga qo'yishni bilmaslik;
- 9) gavdani tutishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yish (bukchayib, yerga qarab, qo'lida turli jismlarni aylantirib yurish, o'rinsiz kulish, ortiqcha harakat);
- 10) monoton – bir ohangda so'zlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi;


11) ifodali o'qish, so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz qila olmaslik (noto'g'ri diktsiya), sinf xonasi, auditoriya uchun zarur tovush balandligini belgilay olmaslik.

Bu kabi kamchiliklar pedagog tomonidan magistrlarga samarali ta'sir ko'rsatilishiga imkon bermaydi. Shu sababli oliy o'quv yurtlari magistrlarida pedagogik texnika ko'nikma, malakalarini shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Nutq texnikasi. Pedagogning magistrlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Pedagog nutqi – pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi. Pedagog faoliyatida ham nutqning aynan mana shakllaridan foydalanish holatlari kuzatiladi (86-rasm):



86-rasm. Pedagog nutqining asosiy shakllari

Pedagog sinfda og'zaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi. Quyi sinflarda ko'proq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda ta'lim suhbat usuli asoslanadi. Monologik nutqdan pedagog hikoya, tasvir, ta'rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi. Monologik nutq yuqori sinflarda ijtimoiy, gumanitar fanlar – falsafa, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", tarix, huquq va adabiyot fanlarini o'qitishda qo'llanilsa, dialog shaklidagi nutq ona tili, chet tili, matematika, fizika, biologiya, geografiya, informatika va axborot asoslari fanlari bo'yicha tashkil etiladigan darslarida qo'l keladi. O'r ganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda pedagog har bir darsda og'zaki nutqning barcha shakllaridan o'rini foydalanishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida "pedagog mutaxassislikka oid ishining yirik bo'lagini nutqi orqali amalga oshiradi Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Nutqda subutsizlik pedagog uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu

bilan birga, pedagogning nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ohib borishni maqsad qilib qo'yadi. Pedagogning nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir”⁷⁰.

Pedagogning nutqi imkonи boricha “sintaktik (yunoncha syntaxis – tuzish, birkirish, birikma; biror tildagi so'zlarning so'z birikmalariga va gaplarga birikish usullari; so'z birikmalari va gaplarning turlari va ma'nolari) jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim”⁷¹.

Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi pedagogning hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan tavsiflanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy-pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmnинг turli sohalariga xos qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi, har bir narsa o'z o'rniда, me'yorida bo'ladi. “Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, pedagog hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, magistriga yaqin misollar bilan tushuntriladi”⁷².

Pedagog mavzular bo'yicha materiallarni magistrlarga yetkazib berishda ularning xulqlariga samarali ta'sir etish maqsadida ko'z, qosh, qo'l, yuz, bosh, kaftlari yordamida muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Uning bunday harakatlari tasdiq yoki inkorni ifodalashi mumkin. Pedagog tomonidan sodir etilayotgan harakatlar o'rinni bo'lsa ular so'zsiz pedagogik ta'sir jarayonini kuchaytiradi. Biroq, bu kabi harakatlarni o'rinsiz, tez-tez sodir etish magistrlarning diqqatlarini susaytiradi, ularni zeriktirib qo'yadi.

Pedagogik jarayonda pedagogning ta'sirini kuchaytiradigan omillardan biri – uning ovozi, unga xos bo'lgan xususiyatlar sanaladi. Pedagog ovozining yoqimli va jarangdor bo'lishi magistrlar e'tiborini o'ziga to'la qarata olishini ta'minlaydi. O'z ovozining ta'sirchanligini aniqlash uchun pedagog ovozining qanchalik darajada kuchli, shirador va yoqimli ekanligini bilishi, shuningdek, zarur vaziyatlarda ovozning bu kabi xususiyatlaridan ununli foydalana olishi zarur. O'z ovozida ma'lum kamchiliklar borligini sezgan pedagog ularni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida izchil, doimiy mashq qilib borishi talab etiladi. Binobarin,

⁷⁰ Qudratov T. "Nutq madaniyatasi asoslari" / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'll. Toshkent: "Pedagog" - 1993, 23-bet.

⁷¹ O'sha manba. – 23-bet.

⁷² O'sha manba – 23-bet.

bir yoki ikki marta qilingan mashq bilan ovoz xususiyatlarini yaxshilab bo'lmaydi.

Pedagogning ovozi quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur:

- 1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- 2) keng diapazonlik (ovozung eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- 3) havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi);
- 4) ixchamlik, harakatchanlik;
- 5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- 6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi);
- 7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi);
- 8) suggetsivlik (ovozung hayajon ifodalashi va u orqali mazmunidan qat'iy nazar tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Pedagogik faoliyatda pedagog tomonidan nutqni tashkil etishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish talab qilinadi. Ya'ni:

- 1) adabiy (sheva so'zlarining qo'llanilmasligi) me'yorlariga (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va h.k. tarzida) amal qilish;
- 2) talaffuz (o, a, u, o', f, v, p, d, t, x, h, s, ts, j, sh) me'yorlariga (onor – anor, uxhash – o'xhash, palakat – falokat, Hurnit – Hamid, xam – ham, sentner – tsentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish;
- 3) kelishik me'yorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, talabani daftari – talabaning daftari, poezdga keldim – poezdda keldim va b. ko'rinishida) amal qilish.

Pedagog nutqining takomillashgan bo'lishi o'quv materialining magistrlar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash kafolati bo'la oladi. Odatta, magistrlar pedagogning nutqiga jiddiy e'tibor beradilar.

Biror harf yoki tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi ularning kulgilariga sabab bo'ladi. Monoton (bir ohangli) nutq, haddan tashqari baland ovoz tinglovchini tez charchatsa, past ovozda so'zlash esa magistrlar faoliyatining sustlashuviga olib keladi. Individual suhbat paytidagi baland ovozdan magistr o zini aldanayotgandek his etganligi sababli unga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraydi. Bir guruh mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat deya e'tirof etishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini

tasdiqlaydi. Shu bois har bir pedagog nutq texnikasini puxta o`zlashtira olishi kerak.

Pedagog nutqi ham nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlarining ishtirotida tashkil etiladi. Nutq ko`plab organlar ishtiroti, ularning imkoniyati bilan hosil qilinadi.

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirot etuvchi organlar.

Nutqni hosil qilishda ishtirot etuvchi organlar umumiy holda **nutq apparati** deb yuritiladi. Nutq apparati (yoki nutq hosil qiluvchi organlar) quyidagilar hisoblanadi (87-rasm):

O'pka	Ikkita bronx	Traxeya
Kekirdak	Bo'g'iz	Hiqildaq
Halqum	Tishlar	Burun bo shlig'i
	Lablar	

87-rasm. Nutq hosil qiluvchi organlar

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir qancha majmuaviy mashqlar asoslangan. Ular so'zlashish paytida to'g'ri nafas olish, tovush hosil qilish va nutqni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtirishga yordam beradi.


Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki magistriga etkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui.

Pedagogni nutqining hosil bo'lishida nafas olish, nutqli nafas olish juda muhim. Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajarish bilan birga nutqning energiya bazasi ham hisoblanadi.

Nutqli (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yun. "phono" – tovush) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi.

Insonning kundalik hayotidagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. SHuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Kasbiy faoliyatda, ayniqsa, dars jarayonida pedagog uzoq so'zlaydi. Bu esa yangi mavzuni tushuntirish, ma'ruza o'qish bilan bog'liq. Agar pedagog nafas olish texnikasini yanshi egallamagan bolsa, unda pedagogik faoliyat jarayonida uzoq so'zlash oqibatida tomir urishining tezlashuvi, yuzning qizarib ketishi, nafas qisilishi ro'y beradi.

Nafas olish texnikasi bir necha tur⁷¹ ga ajratiladi. Ular (89-rasm):




89-rasm. Nafas olish texnikasining asosiy turlari

Nutqning hosil bo'lishida tovushlar ham muhim o'rinn tutadi

Tovush – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o'tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas.

Tovush bir qator xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilar (90-rasm)



90-rasm. Tovush xususiyatlari

Qudratov Г. "Nutq madaniyati asoslari" / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'll Toshkent. "Pedagog" - 1993. 23-bet

Pedagog nutqini tashkil etishda **diksiya** ham alohida o'r'in tutadi.

Diksiya so'zlarning aniq talaffuz qilinishidir.

Talaffuzning aniqligi pedagog nutqining tushunarli bo'lishiga yordam beradi, shuningdek, magistrlar tomonidan tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuz qanchalik aniq bo'lsa, aytيلayotgan so'z, ifodalanayotgan bo'g'in va tovushlar shunchalik tiniq, yorqin ifodalanadi. Tovush nutq apparatining barcha a'zolari (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalarini)ning birgalikda unumli ishlashiga bog'liq. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shu sababli ularni doimiy mashq qildirish turish muhim ahamiyatga ega.


Artikulyatsiya (lot. articulation < articulare – aniq talaffuz qilmoq) nutq organi (a'zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati

Tovushning aniq talaffuz qilinishini takomillashtirish artikulyatsiya gimnastikasi asosida amalga oshiriladi (91-rasm).

Pedagog nutqining tashkil etilishida ritmika ham muhim o'r'in egallaydi.

Ritmika – ayrim so'z va bo'g'lnarning aytish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan ifodalanishi.

Ritm (nutqning vazni) – nutqning hissiy holatini ifodalovchi muhim xususiyati.



91-rasm. Artikulyatsiya gimnastikasi mashqlarining turlari

Nutq ohangi, to'xtamlar ham tinglovchilarga bevosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. Nutqning ritmi (vazni)ga ko'ra magistriga uzatilayotgan bilimlar, o'quv materialining murakkab o'rnlari pedagog tomonidan astasekin bayon qilinadi. Oson o'zlashtiriladigan qismlarini esa nutqni bir qadar tezlashtirib bayon etish mumkin. Pedagog o'z faoliyatida aniq, ravon, ma'noli, ifodali nutqni o'zlashtira olishi, bir so'z bilan aytganda nutq madaniyatini egallashi zarur.

Nutq madaniyati – o`z fikrini nutq yordamida mantiqli, to`g`ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o`zlashtirilganlik darajasi.

Pedagogik texnikaning samarali bo`lishida pedagogning tashqi qiyofasi ham o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Magistrlarga samarali ta`sir ko`rsata olish uchun pedagog, pedagogning tashqi qiyofasi quyidagi talablarga javob bera olishi zarur: pedagog tashqi ko`rinishining magistrlarga estetik ta`sir ko`rsatishi, ularni estetik jihatdan zavqlantira olishi; pedagog sochining taralgan, chirolyi turmaklangan bo`lishi; pardoz buyumlaridan o`rinli foydalanish, yuzning ortiqcha bo`yoqlardan holi bo`lishi; pedagog liboslarining toza, ozoda, qomatiga yarashgan bo`lishi, osilib turmasligi, haddan ortiq hashamatli bo`lmasligi lozim; zargarlik buyumlaridan imkon qadar holi bo`lish, ayniqsa, tovlanuvchi metallar – oltin va kumush taqinchoqlardan foydalanmaslik, libosning rangi va pedagogning yosh xususiyatlariiga muvofiq oddiy, hashamatli bo`lmagan toshli va metall taqinchoqlardan foydalanish.

Pedagogik muloqot madaniyatining mohiyati. Pedagogning pedagogik muloqot madaniyatini o`zlashtira olishi nihoyatda muhim. Pedagogik muloqot madaniyati xususida so`z yuritishdan avval “muloqot”⁷⁴ tushunchasining mazmuni bilan tanishtiriladi.

Muloqot – 1) kishilarning o`zaro aloqasi, bir-birlariga ta`sir ko`rsatishlari, kishilar o`rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni;


2) kishilarning bir-birlariga ta`sir ko`rsatishi asosida ular o`rtasida ro`y beradigan axborot almashinushi.

Pedagogga xos bo`lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning magistrlar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan munosabati jarayonida namoyon bo`ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning magistrlar jamoasi bilan o`zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbati.

Pedagog faoliyatida pedagogik muloqotning ma'lum yo`nalishlari aks etadi. Ya`ni (92-rasm):


⁷⁴ Большая психологическая энциклопедия Самое полное современное издание – Москва: “Эксмо” – 2007 – С. 287



92-rasm. Pedagogik muloqot yo'nalishlari


Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli pedagogik muloqotni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobjiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot magistrda qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchszilikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yorining buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridaagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada magistrlarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi.

Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sanaladi. Ya'ni (93-rasm):



93-rasm. Pedagogik muloqot jarayonda bajariladigan vazifalar

Pedagogik muloqot jarayonida magistr tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Magistr shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'yfikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik magistr shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi. Pedagogik muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi. Pedagogik va magistrler o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog ta'lim oluvchilarning eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi. Pedagogik muloqot chog'ida magistrler tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldilariga hayotiy maqsadlarni qo'yan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Magistr va pedagog o'rtasidagi muloqotda axborot almashish vazifasi muayyan vositalar yordamida amalga oshiriladi (94-rasm):



94-rasm. Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari

Paralingvistik tizim (yun. para – “yaqin”, nem. “linguistik” – “til”) – muloqot tarkibida so'zli, nazariy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan birgalikda uzatilishini anglatuvchi tizim.

Ekstralinguistik tizim (ing. “exterior” – “tashqarida”, nem. “linguistik” – “til”) – gapirayotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan

bevosita bog'liq holda nutqning tashkil etilishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.ni ifodalovchi tizim.

Pedagogik muloqot turlari va uslublari. Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'rqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtida muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasi namoyon bo'ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o'ringa chiqdi. Zamonaviy sharoitda magistrlarning o'zлari ta'lim va tarbiya jarayonlarini mustaqil tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biroq, bu degani, ta'limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o'mni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo'ladi va magistrlarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyshtirishga yo'naltiradi. Pedagogik muloqotni tashkil etishda, ayniqsa, pedagog yordamiga muhtoj magistrlarga alohida e'tibor berishi, har bir magistrda turli o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim. Pedagogik amaliyat pedagog, pedagoglar tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko'rsatadi. Pedagoglar o'z faoliyatlarida muloqotning muayyan turlariga tayanib ish ko'radilar. Xususan (95-rasm):




95-rasm. Pedagogik muloqot turlari

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o'zi, balki uning ijobiyligi ta'siri asosida magistrlar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim. Pedagoglarga xos pedagogik muloqot

madaniyati to'g'risida so'z yuritishdan avval "muloqot madaniyati" tushunchasining ma'nosidan xabardor bo'lish muhimdir.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalikdir

Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishidan dalolat beradi: ehtiyotsizlik; shaxsiyatparastlik; suhbatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik; o'zini juda yuqori yoki past qo'yish; haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish. Pedagog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyuştirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqliр. Ma'lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida magistrler, tarbiyalanuvchilar faoliyatlarini boshqaradi. Xuddi shu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday uslub (muloqot uslubi)ning tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot uslublari uch turga ajratiladi. Ular quyidagilardir (96-rasm).



96-rasmi. Pedagogik muloqot uslublari

Avtoritar uslub – pedagogik muloqotda pedagogning mutloq ustunligini ifodalovchi uslub bo'lib, unga ko'ra magistrlarning barcha turdag'i faoliyatlarining tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Magistrlarning har qanday tashabbuslari rag'battantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko'rish orqali magistrlarga ta'sir etiladi. Hatto magistrlarning faoliyatları ijobjiy baholangan vaqtida ham ularga bo'lgan ta'sir turli kesatiqlar bilan bayon etiladi. Ya'ni: "Sendan ijobjiy xatti-harakatni kutmagan edim?!?", "Buni qara-ya, nahotki o'zgargan bo'lsang!?", "Qara-ya, birgina a'lo baho olish bilan o'zingni yaxshi inson bo'lib qolgan deb hisoblaysanmi?!" va h.k. mazmundai rag'batlar, ular asli ijobjiy holatni e'tirof etishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, magistrni yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi.

Aksincha, unda ta'lim olishga, ta'lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.

Demokratik uslub – pedagogik muloqotda pedagog va magistrlarning o'zaro hamkorligini ifodalovchi uslub. Unga ko'ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko'radi. O'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir magistrning fikrini inobatga olishga ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog'ida barcha magistrlarning ishtiroklari ta'minlanadi. Magistrlar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Demokratik uslubdan foydalanayotgan pedagog, pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina magistrlarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e'tiborni magistrlarning yutuqlarini e'tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o'zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko'rishga qaratadi. Har bir magistrning yutug'i alohida e'tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko'radigan pedagog har bir magistrning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiladi. faol magistrlarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilaydi. Bu kabi pedagog, pedagog magistrlar bilan muloqotni o'rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko'radi.

Liberal uslub – pedagogik muloqotdagagi e'tiborsizlikni ifodalovchi uslub. U pedagog va magistr munosabatlарining kelishuvchanlikka asoslanishini ta'minlaydigan uslub sifatida ham e'tirof etiladi. Unga ko'ra ish yuritadigan pedagog pedagogik jarayonlarda magistrlar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga e'tibor bermaslikka intiladi. Magistrlarni tartibga chaqirish, shuningdek, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to'g'ri baholab, jazolash zarur bo'lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa magistrlarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma'qul ko'radigan pedagog, pedagog magistrlar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Natijada bu tahlitda ish ko'radigan pedagog hech qanday obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

Shunday qilib, kishilik jamiyat taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo'yilgan ilk davrlardanoq bolalarning ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qo'yila boshlagan. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat asoslari bo'lajak mutaxassislarni ta'lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega bo'lishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini ta'minlash bilan birga hech bir qiyinchilik siz ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Педагогическое творчество. Москва: "Педагогика"- 1990.
2. Muhiddinov A.G. "O'quv jarayonida nutq faoliyati". Toshkent: "Pedagog"- 1995.
3. "Основы педагогического мастерства". Под ред. А.Зюзина. Москва: "Просвещение"- 1989.
4. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. Tuz.: A.X.Qosimov, F.A.Holikova. Toshkent:"TATU"- 2004.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". Toshkent: "Oliy pedagogika instituti"- 2003.
6. Sultonova G.A. "Pedagogik mahorat". Toshkent:"TDPU"-2005.
7. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". L.I.Ruvinskiy tahriri ostida.Toshkent: "Pedagog"- 1991.
8. Qosimova Z. "Pedagogik mahorat asoslari". Toshkent:"Fan"- 2009.
9. Qudratov T. "Nutq madaniyati asoslari". Toshkent: "Pedagog"- 1993.
10. Holiqov A. "Pedagogik mahorat". Toshkent: "Iqtisod-moliya"- 2010.
11. Husanov B., G'ulomov V. "Muomala madaniyati".Toshkent: "Iqtisod-moliya"-2009.
12. <http://psi.webzone.ru/st/050200.htm>.
13. <http://psylist.net/hpor/ped037.htm>.
14. http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.

Nazorat uchun savollar:

1. "Mahorat" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Pedagogik mahorat nima?
3. Pedagogik mahoratga egalik qanday sifatlarni namoyon qiladi?
4. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari qaysilar?
5. Pedagogik bilimdonlik deganda nima tushuniladi?
6. Kreativlik nima?
7. "Pedagogik refleksiya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
8. "Relaksopediya" nima?
9. "Pedagogik relaksatsiya" deganda nimani tushunasiz?
10. Madaniyat nima?
11. "Pedagogik madaniyat" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
12. Pedagogik madaniyat qanday tarkibiy elementlarga ega?
13. "Pedagogik loyihalash madaniyati" deganda nimani tushunasiz?
14. Pedagogik dunyoqarash nima?
15. "His etish madaniyati" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
16. Pedagogik tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo`lishi nimaga xizmat qiladi?
17. Qobiliyat qanday asosiy turlari mavjud?
18. Pedagogik qobiliyat nima?
19. V.A.Kruteskiy tomonidan pedagogik qobiliyat qanday turlarga ajratiladi?
20. Perseptiv-pedagogik qobiliyat nima?
21. Perseptiv-pedagogik qobiliyatning asosiy turlari qaysilar?
22. Perseptiv-pedagogik qobiliyat negizida aks etuvchi sezgirlik turlari qaysilar?
23. Intuitsiya nima?
24. Pedagogga xos qobiliyatning qanday turlari bor?
30. "Noyob qobiliyat" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
31. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish metodlari qaysilar?
32. "Pedagogik odob" deganda nimani tushunasiz?
33. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysilar?
34. Kasbiy-pedagogik burch nima?
35. "Pedagogik majburiyat" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
36. Pedagogik obro` nima?
37. "Pedagogik takt" ("pedagogik nazokat") deganda nimani tushunasiz?
38. Pedagogik texnika nima?
39. Pedagogik texnikaning tarkibiy elementlari qaysilar?

40. Pedagogik muloqotning qanday uslublari mavjud?
41. Pantomimika nima?
42. Mimika nima?
43. Jest deganda nima tushuniladi?
44. Qanday metodlar pedagogik texnika metodlari deb ataladi?
45. Pedagogik texnika vositalari nima va u nimalardan tashkil topadi?
46. Pedagog nutqi nima?
47. Pedagog nutqining asosiy shakllari qaysilar?
48. Pedagog ovoziga qanday xususiyatlar xos?
49. Nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar qanday nomlanadi?
50. Nutq apparati nimalardan tarkib topadi?
51. Nutqni tinglovchi yoki magistriga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui qanday nomlanadi?
52. Nutqli (yoki tovushli) nafas olish nima?
53. Nafas olish texnikasi turlarini ko'rsating.
54. Tovush nima? Unga xos xususiyatlarni sanab o'ting.
55. Diksiya nima?
56. "Artikulyatsiya" deganda nimani tushunasiz?
57. Ritmika va ritm nima?
58. Nutq madaniyati nima va uning tarkibiy elementlari qaysilar?
59. Pedagogik muloqot madaniyati nima?
60. Pedagogik muloqot jarayonida qanday vazifalar bajariladi?
61. Axborot almashishda qanday vositalardan foydalанилди?
62. "Muloqot madaniyati" deganda ni'mani tushunasiz?

Test topshiriqlari:

1. "Bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish". Qaysi tushuncha ushbu jarayon mohiyatini anglatishga xizmat qiladi?
 - a) malaka;
 - b) mahorat;
 - c) tajriba;
 - d) ko'nikma.
2. "Pedagogik mahorat" tushunchasining mohiyati qaysi javobda berilgan?
 - a) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui;

- b) ta'lim-tarbiya jarayoniga ongли, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur;
- c) pedagogning pedagogik jaravonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

3. Nutq texnikasi, nutq madaniyati, pedagogik texnika, pedagogik muloqot madaniyati. Ushbu tayanch tushunchalar yordamida qaysi soha vakiliga xos sifatlar ifodalanadi?

- a) notiqqa;
- b) tilshunosga;
- c) pedagogga;
- d) advokatga.

4. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?

- a) pedagogik odob; pedagogik bilimdonlik; pedagogik qobiliyatlari; pedagogik muloqot madaniyati;
- b) pedagogik relaksatsiya; kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati; pedagogik takt (nazokat); pedagogik texnika;
- c) nutq texnikasi; pedagogik ijodkorlik; pedagogik tajriba; pedagogik madaniyat;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

5. Ijtimoiy sub'ektlar bilan o'zaro aloqada bo'lish; magistr bilan sub'ektiv munosabat o'matish; pedagogik jarayonlar mohiyatini izchil idrok qilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini, milliy pedagogik tajribani o'rGANISH, integratsiyalashtirish asosida faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklardan doimiy xabardor bo'lish; mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta'lim mazmuniga tayangan holda qayta ishslash, kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilish; magistrlarga yetkazib berish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, ta'lim oluvchilarga uzatish; kasbiy fidoyilik, pedagogik texnologiyalarni egallash, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish. Mazkur holatlarni yorituvchi pedagogik madaniyatning tarkibiy qisimi qaysi?

- a) pedagogik takt (nazokat);
- b) pedagogik relaksatsiya;

- c) pedagogik bilimdonlik;
- d) pedagogik tajriba.

6. Kreativlik nima?

a) kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati;

b) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi, mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatini;

c) shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat;

d) magistrlnnng hissiy faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini hamda ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash.

7. Pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlar, qiziqishlari, rag'batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta'sirlanish, xatti-harakatlari va b.ning mohiyatini anglab yetishi – bu ...

- a) pedagogik refleksiya;
- b) fiziologik refleksiya;
- c) ijtimoiy refleksiya;
- d) biologik refleksiya.

8. "Relaksopediya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

a) ta'lim oluvchilarning irodaviy va axloqiy sifatlarga egaliklari darajasini aniqlashga qaratilgan faoliyat;

b) ta'lim oluvchilarda bilish faoliyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga qaratilgan faoliyat;

c) ta'lim oluvchilarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat;

d) to'g'ri javob yo'q.

9. Magistrlnnng hissiy faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini hamda ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash jarayoni qanday nomlanadi?

- a) pedagogik refleksiya;
- b) pedagogik relaksatsiya;
- c) pedagogik faoliyat;
- d) pedagogik tashxis.

10. “Insoniyat tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma rifiy sohalar, ishlab chiqarishda qo’lga kiritilgan yutuqlar majmui”. Mazkur ta’rif mohiyatini ifodalovchi tushuncha qaysi?

- a) moddiy va ma’naviy boylik;
- b) ma’naviy meros;
- c) madaniyat;
- d) milliy qadriyat

11. “Pedagogik madaniyat” tushunchasi qanday ma’noni yoritadi?

a) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo’lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi;

b) pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o’zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi;

c) pedagogning ruhiy-hissiy holat (ta’sirlanish)larning davomiyligi va barqarorlik darajasi

- d) barcha javoblar to’g’ri.

12. Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari qaysi javobda ko’rsatilgan?

a) pedagogik loyihalash madaniyati; kasbiy bilimlarni puxta o’zlashtirish madaniyati;

b) pedagogik dunyoqarash; fikrlash madaniyati; his etish madaniyati;

c) baholash madaniyati; muloqot madaniyati; tashkilotchilik qobiliyati;

- d) barcha javoblar to’g’ri.

13. Pedagog tomonidan o’zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istiklarni o’zaro uyg’unlashtirish asosida maqsad hamda vazifalarni to’g’ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo’yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi egalikni tavsiflovchi sifat. Ushbu ta’rif mohiyatni yoritilgan tushuncha qaysi?

- a) pedagogik loyihalash madaniyati;
- b) fikrlash madaniyati;
- c) his etish madaniyati
- d) kasbiy bilimlarni puxta o’zlashtirish madaniyati.

14. Pedagogik dunyoqarash nima?

a) pedagog tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilar: magistrlar, magistrlar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar, hamkasblarining xattiharakatlari. hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullah asosida jamoadagi munosabatlarni me'yorda tashkil etilishini ta'minlovchi sifat;

b) pedagogning mavjud pedagogik vaziyatlarni inobatga ola bilishi, ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishi va ularni amaliyatga samarali tatbiq eta olishini ifodalovchi sifat;

c) pedagogning o'zi, ta'lim oluvchilar o'rtasida tashkil etiladigan o'zaro munosabatlar mazmuni, natijalarini belgilovchi dialektik qarash, e'tiqodlar tizimiga egaligini ifodalovchi sifat;

d) to'g'ri javob yo'q.

15. Pedagogning magistrlarining ichki kechinma, his-tuyg'u, o'y-fikrini tushunishi asosida samarali muloqotni tashkil etishini anglatuvchi sifat qanday tushuncha bilan ifodalanadi?

a) his etish madaniyati;

b) pedagogik muloqot madaniyati;

c) pedagogik loyihalash madaniyati;

d) barcha javoblar to'g'ri.

16. Pedagog tomonidan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlovchi individual psixologik xususiyat – bu ...

a) tashkilotchilik qobiliyati;

b) loyihalash qobiliyati;

c) ijodiy fikrlash qobiliyati;

d) anglash qobiliyati.

17. Qobiliyatning asosiy turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) ijodkorlik qobiliyati, akademik qobiliyat;

b) umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat;

c) qobiliyat, iste'dod;

d) to'g'ri javob yo'q.

18. Pedagogik qobiliyat nima?

a) mutaxassis sifatida faqat pedagoglarga gina xos bo`lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shartsharoitni yaratishga qaratilgan harakat;

b) pedagogik jarayonda pedagog tomonidan amalga oshirilishi zarur bo`lgan maqsadli ish;

c) pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish, olib borishga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo`lgan xususiyatlar;

d) to`g`ri javob yo`q.

19. V.A.Kruteskiyning yondashuviga ko`ra pedagogik qobiliyat qanday turlarga ajratiladi?

a) didaktik qobiliyat; akademik qobiliyat; perseptiv-pedagogik qobiliyat; nutq qobiliyati; tashkilotchilik qobiliyati;

b) avtoritar qobiliyat; kommunikativ qobiliyat; pedagogik xayolot; diqqatni taqsimlay olish qobiliyati;

c) a va b javoblar to`g`ri;

d) to`g`ri javob yo`q.

20. Shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, magistrning psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati qanday nomlanadi?

a) pedagogik qobiliyat;

b) his qilish qobiliyati;

c) anglash qobiliyati;

d) perseptiv-pedagogik qobiliyat.

21. Perseptiv-pedagogik qobiliyatning asosiy turlari qaysilar?

a) pedagogik bilimdonlik; pedagogik qobiliyat; pedagogik sezgirlik;

b) pedagogik relaksatsiya; pedagogik intuitsiya; pedagogik madaniyat;

c) pedagogik ziyraklik; pedagogik empatiya; pedagogik intuitsiya;

d) pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, pedagogik ijodkorlik.

22. Perseptiv-pedagogik qobiliyat negizida aks etuvchi sezgirlik turlari qaysi?

a) ob`ektni his etish; me`yor va yondashuvni his qilish; dahldorlikni his qilish,

b) magistrning fikrlarini his qilish; pedagogik vaziyatni his qilish; pedagogik faoliyat natijalarini his qilish;

- c) to'g'ri javob yo'q;
- d) a va b javoblar to'g'ri.

23. Mantiqiy bog'lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar yetarli bo'limganda qidiruv yo`nalishlari asosida masalani yechishning tarkibini bo`lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni qanday nomlanadi?

- a) qobiliyat;
- b) tafakkur;
- c) sezgirlik;
- d) intuitsiya.

24. O'quv materialini maqsadga muvofiq tanlay bilish; ta'lim maqsadini aniq belgilay olish; ta'limiy vazifalarni oqilona belgilash; o'quv materiallarini aniq, oson tushuntirish; magistrlarda fanlarga qiziqishni uyg'ota olish; magistrlarda o'quv faolligini kuchaytira bilish; magistrlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantira olish kabi holatlar pedagogga xos qanday qobiliyatni ifodalaydi?

- a) tashkilotchilik qobiliyatni;
- b) kommunikativ qobiyatni;
- c) konstruktiv qobiliyatni;
- d) didaktik qobiliyatni.

25. Pedagog faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish hamda magistrlar jamoasini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi qobiliyat qanday nomlanadi?

- a) tashkilotchilik qobiliyat;
- b) kommunikativ qobiyat;
- c) konstruktiv qobiliyat;
- d) didaktik qobiliyat.

26. Pedagogning qanday qobiliyatga egaligi ta'lim jarayonining ijodiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi?

- a) tashkilotchilik qobiliyat;
- b) kommunikativ qobiyat;
- c) konstruktiv qobiliyat;
- d) didaktik qobiliyat.

27. Pedagogning qanday qobiliyatga egaligi ta'lim jarayonining ishtirokchilari (magistrlar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasining rahbarlari) samarali muloqot qilishini ta'minlaydi?

- a) tashkilotchilik qobiliyat;
- b) kommunikativ qobiliyat;
- c) konstruktiv qobiliyat;
- d) bilish qobiliyat.

28. Shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to`g'ri ifodalashga suhbatdoshi tomonidan samimiy qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatiga egalikni ifodalovchi psixologik xususiyat qanday nomlanadi?

- a) tashkilotchilik qobiliyat;
- b) kommunikativ qobiliyat;
- c) konstruktiv qobiliyat;
- d) didaktik qobiliyat.

29. "Ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatları, magistrlarning yosh psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta'lim ishtirokchilari o'tasidagi munosabat mazmuni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda kutiladigan natijalarni anglashga imkon beradigan individual psixologik xususiyat" mohiyati qanday tushuncha yordamida ifodalanadi?

- a) anglash qobiliyat;
- b) his qilish qobiliyat;
- c) sezgirlik qobiliyat;
- d) bilish qobiliyat.

30. Qanday qobiliyat bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish; atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish, o'ta qiziquvchanlik; miya faoliyatining biokimyoiy va elektrik faolligi; uyquchan emaslik, nutq va fantaziyaning boyligi; kuchli xotiraga egalikni ifodalaydi?

- a) o'ta kuchli qobiliyat;
- b) iqtidor;
- c) noyob qobiliyat;
- d) sezgirlik.

31. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish metodlari qaysilar?

- a) o'zini-o'zi anglash; o'zini-o'zi to'g'ri baholash; maxsus mashqlar;
- b) trening; ishchanlik o'yinlari; faoliyatga kirishish;
- c) a va b javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

32. Pedagog oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi qanday nomlanadi?

- a) axloqiy me'yorlar;
- b) huquqiy me'yorlar;
- c) ijtimoiy talablar;
- d) pedagogik odob.

33. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysi javobda ko'rsatilgan?

- a) kasbiy-pedagogik burch; pedagogik adolat;
- b) pedagogik majburiyat; pedagogik obro';
- c) to'g'ri javob yo'q;
- d) a va b javoblar to'g'ri.

34. Kasbiy-pedagogik burch nima?

- a) pedagog tomonidan sidqidildan bajariladigan vazifa;
- b) pedagogning zimmasidagi vazifalarni bajarishga bo'lgan munosabati;
- c) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi ixtiyoriy bo'lgan vazifa;
- d) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo'lgan vazifa.

35. Jamiyat tomonidan pedagog shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalar majmuasi mohiyati qanday tushuncha yordamida yoritiladi?

- a) kasbiy odob;
- b) kasbiy-pedagogik burch;
- c) pedagogik majburiyat;
- d) pedagogik obro'.

36. Pedagogik obro' nima?

- a) magistrlar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, jamiyat tomonidan pedagogga hurmat ko`rsatilishi;
- b) pedagogning magistrlar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi;
- c) magistrlar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, jamiyat tomonidan pedagogning yaxshi mutaxassis sifatida e'tirof etilishi;
- d) to`g'ri javob yo`q.

37. Pedagogning magistrlar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to`g'ri yondashish malakalariga egaligi qanday tushuncha yordamida ifodalanadi?

- a) pedagogik takt (pedagogik nazokat);
- b) pedagog odob;
- c) pedagogik obro';
- d) to`g'ri javob yo`q.

38. Pedagogik faoliyatda orttirilgan tajriba, pedagog tomonidan o`zlashtirilgan alohida magistr, ta'lim oluvchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko`rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar majmui – bu ...

- a) pedagogik vazifa;
- b) pedagogik mahorat;
- c) pedagogik layoqat;
- d) pedagogik texnika.

39. Pedagogik texnikaning tarkibiy elementlari qaysilar?

- a) o`zini o`zi hissiy boshqarish; pantomimika;
- b) mimika; jest (gavda, qo'l, oyoq harakat)dan o`rinli foydalanish;
- c) nutq texnikasi; alohida so'z yoki ifodalarni ifodalash sur'ati (ritmika);
- d) barcha javoblar to`g'ri.

40. Qosh-qovoqni uyub yurmaslik; boshqalarining kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko`rsatmaslik; hazil-mutoyibaga moyil bo`lish; xushmuomala bo`lish va kelajakka ishonch bilan qarashning ruhiy barqarorlikka erishish shartlari deb belgilagan pedagog kim?

- a) A.Avloniy;

- b) Ya.A.Komenskiy;
- c) V.A.Suxomlinskiy;
- d) D.K.Ushinskiy.

41. Pantomimika nima?

a) pedagogning u tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko`rsatish, ma'lum qiyofa orqali namoyon ettilishini ta'minlovchi gavda, qo'l va oyoqlar harakati;

b) pedagogning pedagogik jarayon, magistrlargacha nisbatan hissiy yondashuv;

c) pedagog tomonidan ma'lum pedagogik voqelik, hodisa, jarayon va ob'ektlarning baholanishi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

42. Yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash qanday nomlanadi?

- a) pantomimika;
- b) jest;
- c) mimika;
- d) hissiy ifoda.

43. Jest deganda nima tushuniladi?

a) muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda harakatlari bilan ifodalanishi;

b) muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda, qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi;

c) muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning yuz qiyofasi yordamida hissiy ifodalanishi;

d) to'g'ri javob yo'q.

44. Pedagog tomonidan magistrlarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo`ladigan ma'nnaviy-axloqiy sifatlariga o'zining sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularni ma'noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar qanday nomlanadi?

- a) ilmiy-pedagogik metodlar;
- b) pedagogik metodlar;
- c) pedagogik texnika metodlari;
- d) pedagogik loyihalash metodlari.

45. Pedagog tomonidan magistrlarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo`ladigan ma`naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub`ektiv munosabat alohida his-tuyg'ularning ma'noli ifodalanishini ta'minlovchi vositalar qanday nomlanadi?

- a) didaktik vositalar;
- b) tarbiya vositalari;
- c) pedagogik texnika vositalari;
- d) texnologik vositalar.

46. Pedagog nutqi nima?

- a) pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi;
- b) pedagog tomonidan fikming badiiy ifodalanishi;
- c) pedagog so`zining ifodaviyligi, boyligi va ta'sirchanligi;
- d) to`g'ri javob yo`q.

47. Pedagog nutqining asosiy shakkllari qaysilar?

- a) omma orasida nutq so`zlash, magistrlar o`rtasida nutq so`zlash, monolog;
- b) monolog; dialog, polilog;
- c) dialog, davra suhbat, kirish nutqi;
- d) yakuniy nutq, polilog, ma'ruza.

48. Jarangdorlik; keng diapazonlik; havodorlik; ixchamlik, harakatchanlik; chidamlilik; moslashuvchanlik; qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik; suggesivlik. Ular nimani ifodalaydi?

- a) pedagog nutqining mantig'ini;
- b) pedagog fikrining mazmunini;
- c) pedagog ovozining xususiyatlarini;
- d) pedagogning monologik nutqini.

49. Nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar qanday nomlanadi?

- a) nutq apparati;
- b) nutqni hosil qiluvchi vosita;
- c) nutqni ifoda etuvchi moslama;
- d) nutqni hosil qiluvchi mexanizm.

50. Nutq apparati nimalardan tarkib topadi?

- a) o`pka; ikkita bronx; traxeya;

- b) kekirdak; bo`g`iz; hiqildoq; halqum;
- c) tishlar; burun bo`shtlig`i; lablar;
- d) barcha javoblar to`g`ri.

51. Nutqni tinglovchi yoki magistriga yetkazishda qo`llaniladigan vositalar majmui qanday nomlanadi?

- a) nutq organlari;
- b) nutq apparati;
- c) nutq texnikasi;
- d) to`g`ri javob yo`q.

52. Nutqli (yoki tovushli) nafas olish nima?

- a) nafasning nutqdan avval olinishi;
- b) nafasning nutq jarayonidagi olinishi;
- c) to`liq nafas olish;
- d) qisqa-qisqa nafas olish.

53. Nafas olish texnikasi turlarini ko`rsating.

- a) kiftda nafas olish; ko`krak-qorin orqali nafas olish; aralash nafas olish;
- b) qisqa-qisqa nafas olish, to`liq nafas olish, yarim to`liq nafas olish;
- c) tez-tez nafas olish, sekin nafas olish, bir me'yorda nafas olish;
- d) barcha javoblar to`g`ri.

54. Chiqarilgan havoni xiqaldoqdan o`tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas nima deb ataladi?

- a) tovush;
- b) ovoz;
- c) nutq;
- d) so`z.

55. Tovush kuchi, tovush pardozi, tovushning ixchamligi va harakatchanligi, diapazon, membr. Ular nimani anglatadi?

- a) tovush xususiyatlarini;
- b) tovush tezligini;
- c) tovush mavjudligini;
- d) tovush aniqligini.

56. Diksiya nima?

- a) so'zlarning ixtiyoriy talaffuz qilinishi;
- b) so'zlarning noaniq talaffuz qilinishi;
- c) so'zlarning erkin talaffuz qilinishi;
- d) so'zlarning aniq talaffuz qilinishi.

57. Nutq organ (a'zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati qanday nomlanadi?

- a) diksiya;
- b) diapazon;
- c) artikulyatsiya;
- d) tembr.

58. Ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan ifodalanishi – bu ...

- a) ritm;
- b) ritmika;
- c) diksiya;
- d) artikulyatsiya.

59. Nutqning hissiy holatini ifodalovchi muhim xususiyati qanday tushuncha yordamida ifodalanadi?

- a) ritm;
- b) ritmika;
- c) diksiya;
- d) artikulyatsiya.

60. O'z fikrini nutq yordamida mantiqli, to'g'ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi qanday ataladi?

- a) muloqot madaniyati;
- b) nutq texnikasi;
- c) nutq madaniyati;
- d) muloqot texnikasi.

61. Pedagogik muloqot madaniyati nima?

a) pedagogning magistrilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan ijtimoiy axloq talablariga muvofiq holda uyuştiradigan suhbati;

b) pedagogning magistrlar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbat;

c) pedagogning magistrlar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq holda uyshtiradigan suhbat;

d) to'g'ri javob yo'q.

62. Pedagogik muloqot jarayonida qanday vazifalar bajariladi?

a) shaxsni o'rganish (bilish); axborot almashish;

b) faoliyatni tashkil etish; hamdard bo`lish;

c) to'g'ri javob yo'q;

d) a va b javoblar to'g'ri.

63. Axborot almashishda qanday vositalardan foydalilanadi?

a) og'zaki va yozma nutq, muloqotning tashkiliy ko'lami va vaqt;

b) paralingvistik tizim, ekstralinguistik tizim;

c) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa; belgilarning optik-kinetik tizimi

d) barcha javoblar to'g'ri.

64. Muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik qanday nomlanadi?

a) nutq madaniyati;

b) muloqot madaniyati;

c) nutq texnikasi;

d) suhbatlashish madaniyati.

65. Pedagogik muloqot uslubi qaysilar?

a) avtoritar uslub;

b) demokratik uslub;

c) liberal uslub;

d) barcha javoblar to'g'ri.

XOTIMA

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respubhka Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallahsga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiylar tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merojni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil Respublikamizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallahshini ta'miulash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" fanini o'rganishda magistrlar dastlab "Pedagogik texnologiya" nazariyasining yaratilishi, tarixiy taraqqiyoti, muhim bosqichlari, ustuvor tamoyillari, pedagogik texnologiya g'oyalarining ta'lif va tarbiya jarayonida qo'llash shartlari, pedagog va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabat, muloqot mazmuni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif turlari, ularning o'qitish sifati va samaradorligini yaxshilash borasidagi imkoniyatlari, pedagog va magist, magistrler guruhi o'rtasida qaror toptiriladigan hamkorlik shartlari bilan yaqindan tanishadi. Tarbiya texnologiyalarining texnik, texnologik va didaktik imkoniyatlarni puxta o'zlashtirish esa magistrlarga kasbiy faoliyatda shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, tashkil etiladigan har bir tarbiyaviy tadbirning ahamiyatini oshirish, ta'sirchanligini kuchaytirish yo'lida amaliy harakatlarni olib borish imkoniyatini yaratadi.

Interfaol metodlar nafaqat ta'lif va tarbiya sohasida, balki har qanday yo'nalishdagi kasbiy faoliyat asoslarini puxta o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida trening, o'quv kurslarini tashkil etish, mutaxassislar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'matishga yordam beradi.

"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" fani doirasida magistrlar "Pedagogik texnologiya" nazariyasining muhim asoslari bilan

tanishadi, kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarni sanarali, maqsadli qo'llashni o'rghanadi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, texnologiyalashtirish ko'nikma-malakalarini puxta o'zlashtiradi. Shuningdek, magistrlar pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan pedagogik mahorat va teatr pedagogikasining muhim g'oyalari, ustuvor tamoyillari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladiki, bu holat ularning kasbiy kamolotga erishishlari uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". -Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: "Ma'naviyat" - 2008.
3. Bespal'ko V.P. Slagаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989.
4. Большая психологическая энциклопедия". – Москва: Эксмо, 2007.
5. Grevtseva I.B. Применение интерактивных методов обучения в образовательном процессе ВУЗа // http://fostu.ucoz.ru/publ/innovacionnye_podkhody_i_tekhnologii/primenenie_innovacionnykh_metodov_obuchenija_dlia_realizacii_kompetentnogo_podkhoda/primenenie_interaktivnykh_metodo_v_obuchenija_v_obrazovatelnom_processe_vuza/29-1-0-284
6. Дистанционное обучение // <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
7. Дистанционное обучение // http://www.moeobrazovanie.ru/distantsionnoe_obuchenie.html.
8. Дифференцированное обучение // http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/obshche_pedagogicheskie-tehnologii/osnovnye-ponyatiya-tehnologii.
9. Закономерности педагогического процесса // <http://ru. fpptraining. wikia.com/wiki>.
10. Игровые технологии // <http://www.vashpsixolog.ru/lectures-on-the-psychology/168-metodicheskaya-rabota/1465.html>.
11. Индивидуальное обучение // <http://www.libsid.ru/individualnoe-obuchenie-i-organizatsiya-dosuga-detey/individualnoe-obuchenie/technologiya-individualizatsii-obucheniya>.
12. Инновационное обучение // http://msk.treko.ru/show_dict_1234.
13. Inomox'jayev S. "Notiqlik san'ati asoslari". Toshkent: "Pedagog" - 1982
14. Исламгулова С.К. Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт. – Алматы Творческая педагогика, 2003.
15. Ismoilov M "Rejissura va aktyorlik mahorati bo'yicha o'tkazila-digan amaliy mashqlar". Toshkent: "RFAAK bosmaxonasi" - 2007
16. Личностно-ориентированное обучение // http://pedsovet.org/component_option.com_mtress/task_viewlink/link_id.4744/Itemid.118.
17. Креативность // <http://psi.webzone.ru/st/050200.htm>.
18. Mamatqosimov J. "Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati". Toshkent: "A Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti" - 2009.
19. Немов Р С. Психология / Учеб. для студ. выс. пед. учб заведений. – Москва: ГИЦ "Владос", 2000.
20. Обучение в сотрудничестве // <http://ininfo.mggu-sh.ru/data/resources/collaborative-learning/book/int3.htm>.
21. Обучение в сотрудничестве // <http://wiki.pskovedu.ru/index.php>
22. Обучение в сотрудничестве. Что это такое? // http://www.gmcit.murmansk.ru/text/information_science/workshop/seminars/training_personal

- ity/training_cooperation.htm.
23. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Qarshi: "Nasaf"- 2000.
24. "Pedagogik mahorat: sxema va rasmlarda". Met. qo'll. N.Erkaboyeva, M.Uzmanboyeva, M.Irgashova, N.Xo'janazarova. Toshkent:"Nizomiy nomidagi TDPU"- 2012.
25. Педагогика / Учеб.для ВУЗов. Под ред. П.И.Подкасистого. – Москва: педагогическое общество России, 2002.
26. Педагогическая диагностика // http://pedagogical_dictionary.academic.ru/2379.
27. Педагогическая культура // http://mirslovarei.com/content_eco/pedagogicheskaja-kultura-32491.html.
28. Педагогический процесс // <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
29. Педагогический такт // http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html
30. Подласый И.П. Педагогика / В 2-х томах. – М.: Владос, 2004
31. Преимущества интерактивных методов в обучении иностранным языкам // <http://www.science forum.ru/2013/218/5678>.
32. Проблемное обучение // <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
33. Психолого-педагогическое сопровождение реализации инновационных образовательных программ / Под ред. Ю.П Зинченко, И.А.Володарской – Москва: Изд-во МГУ, 2007.
34. "Psixiologiya". Qisqacha izohli lug'at. Tuzuvchilar: M.G.Davletshin va b. Mas'ul muharrir: M.G.Davletshin. T."Nizomiy nomidagi TDPU"-1998
35. Rasulov I. "Ta'l'm oluvchilarda loyihalash madaniyatiga oid nazariy tushunchalarini shakllantirish". "Uzluksiz ta'l'm" j. №3, 2014-yil.
36. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: 1998. – С. 15-16.
37. Ситуационный анализ или анатомия Кейс-метода / Под ред. Ю П.Сурмина. – Киев: Центр инноваций и развития, 2002.
38. Сластенин В.А. Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – Москва: Магистр, 1997. – С. 97.
39. Современные образовательные технологии / Учебное пособие. Под ред. Н.В.Бордовской. – 2-е изд., стер. – Москва: КНОРУС, 2011.
40. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. – Москва: Изд-во МГУ, 1984.
41. "Tarbiya". Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muharrir A.Majidov. Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" - 2010.
42. Технологическая карта // <http://wiki.pippkro.ru/index.php>
43. Технологическая карта // http://www.e-osnova.ru/PDF/osnova_14_7_656.pdf.
44. Технология воспитания // http://kipi.kbsu.ru/pd/did_lec_6.html.
45. Технология воспитания // <http://cito-web.yspu.org/link1/metod/met40/node12.html>.
46. Технология воспитания // http://www.pedlib.ru/Books/4/0160/4_0160-

- 47 Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”. Toshkent: “Fan”- 2006.
- 48 Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. Toshkent “Fan”- 2005.
- 49 Tursunov I., Nishonaliyev U. “Pedagogika kursi”. Toshkent: “Pedagog” - 1997.
- 50 Farberman B. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” Toshkent: “Fan”- 2000.
- 51 Художественные роли педагога. Педагог как драматург, режиссёр, артист // <http://nsportal.ru/shkola/sotsialnaya-pedagogika/library/khudozhestvennye-roli-pedagoga-pedagog-kak-dramaturg-rezhisser>
- 52 Xudoybergenova O“ Iqtidorli bolalarni o‘qitishga ixtisoslashgan mакtablar faoliyati samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari”: Ped.fanl.nomz... diss. – Toshkent: 2006.
- 53 Чечетин А.И. Основы драматургии и театрализованных представлений. – Москва: Просвещение, 1981.
- 54 O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. A – Beshbaliq / 1-tom Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” - 2000.
- 55 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Gidrofiliya-Zebra / 3-tom. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti- 2002.
- 56 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Parchin – Soliqlar / 7-tom. Toshkent: “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” - 2004.
- 57 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. N – Tartibli / 5 jildli. Uchinchchi jild. A.Madvaliyev tah.ostida. Tahrir hay‘ati: E.Begmatov va b. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” - 2007.
- 58 O‘zbek tilining izohli lug‘ati Tartibot – Shukr / 5 jildli. To‘rtinchi jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” - 2008.
59. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Shukrona – H / 5-jildli Beshinchi jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” - 2008.
- 60 Qudratov T. “Nutq madaniyati asoslari”. Toshkent: “Pedagog”-1993.
- 61 Alex Moore. Teaching and learning: Pedagogi Curriculum and culture. USA, 2012. Routledge.
- 62 Neil Selwyn. Education and Technology: Key issues and Debates. Australia, 2011. Continuum.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
"Pedagogik texnologiya" larning ilmiy asoslari,.....	5
Pedagogik texnologiya nazariyasining mohiyati va ustuvor tamoyillari	33
Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi.	50
Ta'lim texnologiyasining mohiyati va o'ziga xos jihatlari	78
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari	104
Tarbiya texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	134
Interfaol metodlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash	149
Pedagogik texnologiyalarning magistrlar o'quv faoliyatini faollashtirishdagi ahamiyati	177
Ta'lim faoliyatida teatr pedagogikasi g'oyalaridan foydalanish	192
Pedagogik mahorat – pedagogik texnologiyaning muhim elementi	213
Xotima	270
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.....	272

**Tolipov O'tkir Qarshiyevich
Ro'ziyeva Dilnoz Isomjonovna**

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA
PEDAGOGIK MAHORAT**

O'quv qo'llanma

Тошкент - “INNOVATSIYA-ZIYO” - 2019

Муҳаррир Ф.Холсаидов

Нашриёт лицензияси АI № 235, 27.10.2018.

Босишга 16 02.2019 да рухсат этилди Бичими 60x90

“Times New Roman” гарнитураси

Офсет босма усулида босилди.

Шартли босма табоги 18 Нашр босма табоги 17,25.

Адади 1000 нусха.